**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**Muallif: Sh. Qodirova**

# NUTQ O‘STIRISH NAZARIYASI VA METODIKASI

**Fanidan ma’ruza matn**

**Termiz – 2018**

## NUTQ O'STIRISH NAZARIYASI VA METODIKASI FANINING PREDMETI VA UNING NAZARIY ASOSLARI

Nutqni rivojlantirish metodikasi – maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat qonuniyatlarini o'rganuvchi fandir

Nutqni rivojlantirish metodikasiga oid oliy o'quv yurti kursining vazifalari

Nutqni rivojlantirish metodikasining nazariy asoslari

Nutqni rivojlantirish metodikasi – maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat qonuniyatlarini o'rganuvchi fandir.

Ilk yoshlardagi va maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyachisining bolalarga ularning o'z ona tilini o'rgata olish kobiliyati uning kasbiy tayyorgarligining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Bolaga tabiat ato kilgan barcha akliy kobiliyatlar ona tilini o'zlashtirish, ayniksa uni maktabgacha yoshda o'rganib olish tufayli yuzaga chikadi hamda rivojlanadi.

Bolalarning ona tilida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan xalq ma'naviy boyliklarini qanchalik meros qilib olishlari, tarbiyalanuvchilarning kelgusida o'z davrining ilmiy yutuklarini o'zlashtira olishlari, ularning insoniyatning ilҳor sheriy va estetik ideallariga sodikligi, ya'ni mustaqil O'zbekistonda demokratik jamiyatning to'lakonli kuruvchilari bo'la olishlari tarbiyachiga bog'liqdir.

Bolalarga ona tilini o'rgatish uchun bo'lajak tarbiyachi nutqni rivojlantirish metodikasi nazariyasini chukur o'rganishi va ushbu sohaning fanga ma'lum bo'lgan metodlarini o'zlashtirishi, bolaning ona tilini o'zlashtirish qonuniyatlarini tushunib yetishi lozim.

Ona tilini o'kitish metodikasi pedagogik fanning bir tarmog'i hisoblanadi. Unda bolalar bog'chasida nutqni rivojlantirish metodikasi hamda boshlang'ich va o'rta maktabda o'zbek (rus) tilini o'kitish metodikasi ajratilgan. Ularning har biri o'z maksadi vazifalari va mazmuniga ega.

Nutqni rivojlantirish metodikasi – maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat qonuniyatlarini o'rganuvchi fandir.

Metodikaning asosiy vazifasi – ilmiy-psixologik asosda nutqni rivojlantirishning eng samarali vositalari, metodlari va usullarini ishlab chikish hamda bolalarda zarur nutqiy ko'nikmalarni muvaffakiyatli ravishda rivojlantirishlari uchun ular bilan bolalar bog'chalari tarbiyachilarini kurollantirishdan iboratdir.

Nutqni rivojlantirish metodikasining asosiy mazmuni - bolalarda og'zaki nutqni, uning atrofdagilar bilan nutqiy muloqoti ko'nikmalarini shakllantirishdir. Nutqni rivojlantirish metodikasi quyidagi asosiy savollarga javob topish imkonini beradi: nimani o'kitish (bolalarda kanday nutqiy ko'nikmalarni tarbiyalash), kanday o'kitish (bolalar nutqini shakllantirishda kanday sharoitlarda qaysii metod va usullardan foydalanish lozim), nega endi aynan shunday o'kitish zarur (nutqni rivojlantirishning taklif etilayotgan usullari nazariya va amaliyotning qaysii ma'lumotlariga asoslanmokda).

Nutqni rivojlantirish metodikasi nazariyasida bolalarga ona tilini o'rgatishning ob'ektiv xususiyatlari aks ettirilgan, nutqni rivojlantirish metodikasi sohasida O'zbekiston Respublikasida va xorijda yaratilgan va hozirda mavjud bo'lgan barcha ijobiy natijalar umumlashtirilgan.

Nutqni rivojlantirish metodikasi nazariyasi metodik amaliyot bilan birgalikda rivojlanmokda. Ayrim metodik koidalarning yashovchanligi amaliyotda tekshirib ko'rilmokda, amaliyotning o'zi fan oldiga hali o'z yechimini topmagan muhim masalalarni ko'ymokda.

Metodik nazariyani bilmaydigan tarbiyachi fakat o'z farazlaridan kelib chikib yoki boshkalarning tajribalaridan nusxa ko'chirgan holda bolalarni ko'r-ko'rona tarbiyalaydi. U ko'p narsani nazardan kochiradi, chunki rang-barang metodlar va usullarni bilmaydi.

Nutqni rivojlantirish metodikasi maktabgacha ta'limdagi boshka xususiy metodikalar bilan uzviy bog'liq bo'ladi, chunki nutq – bola shaxsini to'la-to'kis rivojlantirishning eng muhim vositalaridan biridir. Atrofdagilar nutqini tushunish va bolaning o'z faol nutqi har kanday pedagogik jarayonda zarurdir Nutq bolaning butun faoliyatida unga yo'ldosh bo'ladi.

E.I.Tixeevaning ko’rsatishicha «ona tili, uni hech kanday to’siksiz va har tomonlama rivojlantirish tarbiyaning asosini tashkil etmoђi lozim». Nutqni o’z vaktida va to’lakonli egallash bolada to’lakonli psixika paydo bo’lishi hamda uni keyinchalik to’g’ri rivojlantirishning eng muhim va birinchi shartidir. O’z vaktida degani – demakki, bola tuђilganidan keyingi dastlabki kunlarda boshlanadigan, to’lakonli degani – til materiali bo’yicha yetarli bo’lgan va bolaning har bir yosh bosqichida o’z imkoniyatlarini to’lik ishga solgan holda nutqni egallashga undovchi Mashg’ulotlar demakdir.

Dastlabki yosh bosqichlarida bola nutqini rivojllantirishga e’tibor berish shuning uchun ham muhimki, ushbu davrda bola miyasi jadal sur’atda o’sib boradi va uning vazifalari shakllanadi. Fiziologlarga ma’lumki, markaziy asab tizimi vazifalarini aynan ularning tabiiy shakllanish davrida osongina mashk kildirish mumkin. Mashklarsiz ushbu vazifalarning rivojlanishi sekinlashadi va hatto umuman to’xtab ham kolishi mumkin.

«Nutq uchun rivojlanishning bunday «hal kiluvchi» davri bola hayotining dastlabki uch yili hisoblanadi: bu muddatga kelib miya nutqiy sohalarining anatomik pishib yetilishi asosan nihoyasiga yetadi, bola ona tilining asosiy grammatik shakllarini o’zlashtirib oladi, katta so’z zahirasini shakllantiradi. Agarda dastlabki uch yilda kichkintoy nutqiga yetarlicha e’tibor berilmagan bo’lsa, bu holda kelgusida uning o’rnini to’ldirish uchun juda ko’p mehnat qilishga to’g’ri keladi»[1].

Nutqni rivojlantirish metodikasi boshka har kanday pedagogika fani sifatida ijtimoiy fanlar sirasiga kiradi. Til va fikrlash haqidagi ta’limotlar uning metodologik asosi hisoblanadi.

Xuddi til kabi insonning birgalikdagi mehnat faoliyati mobaynida paydo bo’ladigan va rivojlanadigan fikrlash uni o’rab turgan borlik aksi hisoblanadi. Tilning fikrlash bilan mustahkam uzviy bog’liqligi kishilarning ishlab chikarish faoliyati, fikr almashish va birgalikda harakat qilish zarurati tufayli yuz beradi. Garchi til va fikrlash bir-birisiz mavjud bo’lolmasa-da, ular aynan bir hodisaga taallukli emas.

Fikrlash – ob’ektiv borlik aksi, til esa – fikrni ifodalash, mustahkamlash va uni boshka kishilarga yetkazish usuli hisoblanadi. So’z va tushuncha dialektik jihatdan o’zaro bir-biriga bog’liqdir.

Til bilan fikrlashning o’zaro uzviy bog’liqligi haqidagi koida bolalarga ona tilini o’kitish tizimini ishlab chikish, ta’lim va tarbiya ishlarining o’zaro bog’liq bo’lishi haqidagi talabni asoslash uchun hal kiluvchi ahamiyatga egadir.

Intellekt, ya’ni tashki dunyoni xotira, tasavvur, xayolot, fikrlash, shuningdek nutq yordamida anglash kobiliyati – bu insonni hayvondan ajratib turuvchi muhim xususiyatlardir. Va intellekt ham, nutq ham insonda ilk bolalik yoshida paydo bo’ladi hamda u o’smirda va yosh yigitda fakatgina uning organizmi rivojlanayotgani uchun emas, balki ushbu odam nutqni ham o’zlashtirib olgan takdirdagina jadal takomillashib boradi.

Agarda bola atrofidagi kattalar uni beshikdan boshlab to’g’ri so’zlashga o’rgatsalar, bu holda bunday bola intellektual jihatdan normal rivojlanadi: unda tasavvur qilish, so’ngra fikrlash va xayol surish kobiliyati paydo bo’ladi; har bir yosh bosqichda bu kobiliyat takomillashib boradi. Bola intellektining rivojlanishi bilan bir vaqtida uning emotsional-iroda sohasi ham takomillashib boradi.

Nutqni rivojlantirish metodikasi har kanday rivojlanishning umumiy shakllari, tomonlari va o’zaro bog’liqligini aks ettiradigan dialektika konunlari va toifalariga tayanadi.

Til – tarixiy va o’zgaruvchan hodisadir. Har bir xalq, millat, elat va odamlar kabilasi o’z tiliga egadir. Har bir xalqning tilida mazkur jamiyatning tarixiy rivojlanish jarayoni, uning turmush sharoiti, ijtimoiy hayotidagi o’zgarishlar va yangilanishlar, ijtimoiy-mehnat faoliyatidagi yangi kashfiyotlar va erishilgan natijalari aks etgan.

Har bir til o’zining asosiy kismlariga ega – bu lug’at boyligi (leksika), tovush tizimi (fonetika) va grammatik tuzilishi (grammatika)dir.

[1] Кольцова М.М. Ребёнок учиться говорить. М., 1973, 5-бет.

Lug’at boyligi (leksika) go’yo o’zida bizning atrof-olam haqida, bir odamning psixik hayoti haqidagi turli xil bilimlarimizni saklaydi. So’zdagi asosiy narsa - uning mazmuni va semantik tarkibidir. Leksika tilning kurilish materiali, uning mazmun tomoni hisoblanadi. Til qanchalik rivojlangan bo’lsa, uning lug’at tarkibi ham shunchalik boy bo’ladi. Har bir tildagi ko’p sonli so’zlar ichidan tilning asosiy lug’at jamђarmasini tashkil kiladigan asosiy o’zak so’zlarning muayyan guruhini ajratish mumkin. Tilning lug’at jamђarmasi – bu leksikaning juda barkaror, asrlardan buyon yashab kelayotgan kismi bo’lib, u barcha yoki deyarli barcha yangi so’zlar va so’z birikmalarining vujudga kelishi uchun asos bo’lib xizmat kiladi.

Tovush tizimi leksika va grammatika bilan uzviy bog’liqdir. Jaranglayotgan nutq yordamida inson boshka kishilar bilan muloqotda bo’ladi hamda o’z fikrlari va his-tuyђularini ifoda kiladi. Bir til fonetikasi odatda, boshka til fonetikasiga o’xshash emas, ya’ni jaranglayotgan nutq go’yo bir tilni boshkasidan uzoklashtiradi. Bir til doirasida talaffuz me’yorlari yagona bo’ladi (shevalar adabiy tildan katta bo’lib, ular undan fark kiladilar).

Tilning grammatik kurilishi gapda so’zlar va so’z birikmalarini o’zgartirishga oid konunlar hamda koidalarning umumiyligi hisoblanadi. Grammatika yordamida gapdagi so’zlar joylashtiriladi va bir-birlari bilan ko’shiladilar. So’zlar fakat gaplar orkaligina muloqot vositasiga aylanadilar. Gapdan tashkarida har kanday so’z, xoh u ona tilidagi, xoh chet tilidagi so’z bo’lsin, muayan ma’noga ega bo’lmaydi. SHuning uchun tilni o’rganishda uning grammatik tuzilishini o’zlashtirish ulkan ahamiyat kasb etadi. Bolalarga ta’lim berishda orfoepiya, grammatika va leksikaning zamonaviy me’yorlarini hisobga olish zarur.

Nutqni rivojlantirish metodikasi psixolingvistikaning asosiy koidalari asosida kuriladi. Uning «til inson faoliyatining barcha sohalarida muloqot vositasi bo’lib xizmat kiladi» degan asosiy koidasi nutqni rivojlantirish metodikasida dasturilamal bo’lib hisoblanadi. SHu bois nutqni rivojlantirish metodikasi tarbiyachini muloqot vositasi sifatida bolalar nutqini rivojlantirishga oid bilimlar va kobiliyatlar bilan kurollantirishga karatilgandir.

Tilning asosini ona tilining leksikasi, tovush tizimi va grammatik tuzilishi tashkil kiladi. Bolalar bog’chasining nutqni rivojlantirishga doir Dasturi lingvistikada erishilgan yutuklar asosida ishlab chikiladi va u bolalar lug’atini boyitish, ona tilining fonetik jihatlarini, grammatik qurilishini rivojlantirishni ko’zda tutadi. Bolalarning turli nutqiy kobiliyatlarini shakllantirishda ularga o’zlarining ona tili bo’lmish o’zbek tili o’kitiladi, ya’ni ular o’zbek leksikasi, o’zbek tilining o’ziga xos fonetikasi va o’zbek tili grammatikasining o’ziga xos xususiyatlarini o’rganadilar.

Bolalarga ona tilini o’kitishda professional mahoratga ega bo’lish uchun pedagog nutqni rivojlantirish metodikasi nazariyasini chukur o’rganishi, ushbu rivojlanishning ilmiy usullarini o’zlashtirishi hamda bolaning nutqni o’zlashtirish qonuniyatlarini bilishi shart.

**XULOSALAR:**

- **Nutqni rivojlantirish metodikasi** – bolalar bog’chasidagi maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni shakllantirishga karatilgan pedagogik faoliyat qonuniyatlarini o’rganuvchi pedagogik fandir.
- Metodikaning asosiy **vazifasi** – ilmiy-pedagogik asosda nutqni rivojlantirishning eng samarali vositalari, metodlari va usullarini ishlab chikish, ular bilan bolalar bog’chalari tarbiyachilarini kurollantirishdan iboratdir.
- Metodikaning asosiy **mazmuni** – bolalarda og’zaki nutqni, atrofdagilar bilan nutqiy muloqot ko’nikmalarini shakllantirishdan iborat.
- Nutqni rivojlantirish metodikasi quyidagi savollarga javob beradi: nimani o’rgatish lozim (bolalarda kanday nutqiy kobiliyatlarni tarbiyalash lozim), kanday o’kitish zarur (bolalar nutqini shakllantirishda qaysii metodlar va usullarni ko’llash lozim, ularni kanday sharoitlarda ko’llash zarur), nega endi aynan shunday o’kitish kerak (taklif etilayotgan usullar nazariya va amaliyotning qaysii ma’lumotlari bilan asoslanmokda).

**NAZORAT SAVOLLARI:**

- «Nutqni rivojlantirish metodikasi» pedagogik fani nimani o'rganadi? Mazkur metodikaning asosiy vazifasini aytib bering.
- Nutqni rivojlantirish metodikasi qaysii alohida metodikalar bilan alokada bladi? O'z javobingizni anik misollarda asoslab bering.
- Nutqni rivojlantirish metodikasining uslubiy asosini ayting. O'z javobingizni anik misollarda asoslab bering.
- Bolada qaysii ruhiy sifatlarni rivojlantirish nutqka yordam beradi? Ularning o'zaro bog'liqligi, bir-biriga o'zaro ta'sirini aytib bering.
- O'rganilayotgan tilning asosiy bo'limlarini ayting. Ularning mazmuni, vazifasi nimalardan iborat?
- Nutqni rivojlantirish metodikasining asosiy vazifasini ilmiy asoslab bering.

## Oliy o'quv yurtida nutqni rivojlantirish metodikasi kursi vazifalari

Nutqni rivojlantirish – bolaning yakka tartibdagi ruhiy rivojlanishida markaziy o'rin tutuvchi ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirishidagi o'ta murakkab ko'p omilli jarayondir. Bu ijodiy jarayon, ammo u pedagogik rahbarlikni talab etuvchi tasodifiy jarayon emas. Bolalar nutqini rivojlantirishga doir ishlarni o'zida bolalarga nisbatan kadriyatli munosabatlarni shakllantirgan, yaxshi nazariy hamda amaliy tajribaga ega bo'lgan mutaxassis tashkil qilishi va amalga oshirishi lozim.

«Nutqni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi» kursining **maksadi** – bitiruvchilarni maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki nutqni shakllantirishga doir faoliyatga tayyorlash hamda kasbiy ta'limni ikkinchi bosqich – magistraturada davom ettirish uchun zamin yaratishdan iborat.

Ushbu maksadni amalga oshirish quyidagi vazifalarni hal etishni ko'zda tutadi:

- Turli yosh bosqichlarida bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish xususiyatlarini ko'ra olish va tushunish qobiliyatini shakllantirish;
- Nafakat bola yoshini, balki uning o'ziga xos xususiyatlarini ham hisobga olgan holda uning nutqiga ta'sir ko'rsatish va u bilan hamkorlik qilishning eng samarali yo'lini to'g'ri tanlashni o'rgatish hamda olingan natijalarni tahlil qilish;
- Bolalar nutqining turli kirralarini rivojlantirishning anik metodlari va usullariga doir bilimlar hamda ularning didaktik nutqiy muloqot vaziyatlarida ko'llash o'zlashtirilishini ta'minlash;
- Metodik ko'llanmalarni tankidiy tahlil qilishga tayangan holda maktabgacha yoshdagi bolalar nutqiga ta'sir ko'rsatish borasida o'zining orginal usullari va yo'llarini yaratishga intilishni rağbatlantirish.

Kursni o'rganish jarayonida talabalar bolalar nutqini rivojlantirish metodikasining nazariy asoslari, bolalarga ona tilini o'kitishning psixolingvistik, lingvodidaktik asoslari kabi **tushunchalarni** o'zlashtirishlari darkor;

- Zamonaviy o'zbek tilini (o'zbek, rus tili va boshk.), ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish xususiyatlari, ona tilini o'kitishning psixolingvistik, lingvodidaktik asoslarini **bilish** asosida ularni amaliyotda ko'llash metodikasi asoslarni **o'zlashtirish;**
- O'kishda va nutqda mantikiy hamda emotsional-obrazli ifodalilikni o'rganish **kobiliyati va ko'nikmalarini** egallash; badiiy asarni tahlil kila olish va uni ijro etishni bilish; bolalarda lug'at boyligini rivojlantirish, talaffuz ko'nikmalarini, grammatik jihatdan to'g'ri nutqni shakllantirish maksadida ularning nutqiy faoliyatini

yo’lga ko’yish hamda bolalarning bir-birlari bilan hamda boshka shaxslar bilan muloqotlarini tashkil etish ko’nikmalarini o’zlashtirish.

Nutqni rivojlantirish metodikasini o’kitish zamonaviy ona tili (o’zbek, rus tillari va boshk.) kurslariga, adabiyotshunoslik asoslarini o’zida jamlagan bolalar adabiyotiga, umumiy, bolalar va pedagogik psixologiyaga, umumiy va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasiga tayanadi.

Kursni o’kish so’nggi yillardagi ilmiy tadqiqotr yakunlari, turli o’quv muassasalarida dars berish tajribalarini umumlashtirish va mualliflarning sinov ishlari natijalari asosida tashkil etiladi.

Kursning mazmuni va uni amalga oshirishning yetakchi ђoyalari sifatida quyidagilar chikadilar:

- Bolaning kadr-kimmatini va uning o’ziga xosligini tushunish, bola nutqini «yakin rivojlanishi hududi»ga karab rivojlantirishni ko’zda tutgan holda rivojlantirish xususiyatlarini hisobga olish;
- Pedagogik muloqotning bola bilan emotsional aloka o’rnatishga, u bilan dialogik hamkorlik qilishga yo’naltirilganligi;
- Maktabgacha yoshdagi bolalarga nutqni maxsus o’rgatishning asosini kommunikativ yondashuv tashkil etishi lozim bo’lgan nutqiy faoliyat tuzilmasi doirasida amalga oshirilayotgan ijodiy jarayon sifatidagi ahamiyatini tan olish.

Kursni o’zlashtirish uchta komponent: motivatsiya, nazariya va amaliy tayyorlik umumiyligi sifatida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishga doir ishlarga kasbiy tayyorgarlik shakllanishini ta’minlaydi.

Nutqni rivojlantirishga oid ishlarga kasbiy tayyorlik shakllanganligi mezoni sifatida quyidagilar chikadilar:

- Nutqni rivojlantirish kursini o’rganish va bolalar bilan ishlashga mas’uliyat bilan yondashish;
- Bolalar nutqini rivojlantirish mexanizmi va xususiyatlari, nutqiy faoliyatning nazariy asoslari, yakka tartibda nutqiy rivojlanishni dignostika qilish tamoyillari va metodikasi, nutqning turli kirralarini rivojlantirish metodlari va vositalarining o’ziga xos xususiyatlari haqidagi bilimlarning to’likligi va izchilligi;
- Bolalarning nutqiy muloqoti natijalarini mos ravishda tahlil qilish hamda baholash, bola nutqiga pedagogik ta’sir ko’rsatishning makbul tizimini tanlash va ko’llashga kodirlik.

Maksad va vazifalar kursni kuyida tarzda tuzgan holda amalga oshiriladi: birinchi to’rt jildda metodikaning nazariy asoslari ko’rib chikilgan, uning ilmiy fan sifatidagi o’ziga xosligi ko’rsatilgan, oliy o’quv yurti kursi vazifalari, maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishga oid ishlarga kasbiy tayyorlik tushunchasi mohiyati, nutq, nutqiy faoliyat ontogenezi haqidagi zamonaviy tasavvurlar, shuningdek hozirgi bosqichda metodikaning fan va uning dolzarb muammolari sifatidagi kiskacha tarixi, maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalar nutqini rivojlantirishga doir ishlarning maksadi, vazifalari, mazmuni va shakli xususiyatlari ochib berilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan muloqot o’rnatishning o’ziga xos jihatlarini ochib berish hamda bolalar nutqini rivojlantirish uchun ular bilan muloqotni to’g’ri tashkil etish ahamiyatini asoslashga alohida o’rin berilgan.

So’ngra metodik mavzularga o’tiladi. Ularda bolalar nutqining til elementlarini turli yosh bosqichlarida o’zlashtirish sifatidagi o’ziga xosliklarini tavsiflashga jiddiy e’tibor berilgan. Metodik mavzularning mavzusi va izchilligi ruhiy jarayon sifatida muloqotni yuzaga keltiruvchi nutqning (ravon nutq shaklida) bolada yaxlit bir holat sifatida (lug’at, grammatik kurilish, tovush tizimi) rivojlanishi bilan bog’liqdir. Ilk yoshlarda keyingi bosqichlarda nutqni rivojlantirish

poydevori yaratiladi, shuning uchun ilk yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish boshka metodik mavzulardan oldin ko’rib chikiladi.

Nutqni shakllantirishning muhim vositasi bo’lgan badiiy adabiyot bola nutqini rivojlantirishda alohida o’rin tutadi. Bolalarning ushbu san’at turini kabul qilishidagi o’ziga xosliklar, bolalar bog’chasida kitob yordamida amalga oshiriladigan ishlar mazmuni va metodikasi tegishli mavzuda ochib beriladi.

Bolalar bog’chasida bolalar nutqini rivojlantirishga oid ishlar tizimi doirasida savodxonlikka o’rgatish masalalari maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan nutqni tushunishning ruhiy jihatlari bilan uzviy bog’liq bo’lgan ishlarning o’ziga xos mazmun va metodikaga egaligi bois dasturning alohida bo’limidan joy olgan.

Kurni o’rganishda «Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o’rganish metodikasi»ga sezilarli o’rin berilgan. Talabalar bolalar nutqining rivojlanlanligini diagnostika qilish asoslari bilan tanishadilar va laboratoriya-tadkikot amaliyotini bajarish jarayonida bunday ish ko’nikmasiga ega bo’ladilar.

So’nggi ikki mavzu maktabgacha tarbiya muassasalarida va oilada bolalar nutqini rivojlantirishga oid ishlarni tashkil qilish hamda unga metodik rahbarlik qilish masalalariga bañishlangan.

Nutqni rivojlantirish metodikasi kursini o’kitish uni nazariy, amaliy, laboratoriya Mashg’ulotlari, o’quv va ilmiy-nazariy konferentsiyalar bilan birgalikda ko’shib olib borishni ko’zda tutadi.

**XULOSALAR:**

- Nutqni rivojlantirish – bolaning yakka tartibdagi psixologik jarayonida markaziy o’rinni egallovchi ijtimoiy-tarixiy tajribani o’zlashtirishiga doir murakkab ko’p omilli jarayondir.
- Bolalar nutqini rivojlantirishga doir ishlarni o’zida bolalarga nisbatan kadriyatli munosabatlarni shakllantirgan, yaxshi nazariy hamda amaliy tajribaga ega bo’lgan mutaxassis tashkil qilishi va amalga oshirishi lozim.
- «Nutqni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi» maktab fanini o’rganish jarayonida talabalar bolalar nutqini rivojlantirish metodikasining nazariy asoslari, bolalarga ona tilini o’kitishning psixolingvistik, lingvodidaktik asoslari kabi tushunchalarni o’zlashtirishlari darkor;
- Kursni o’zlashtirish uchta komponent: motivatsiya, nazariya va amaliy tayyorlik umumiyligi sifatida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishga doir ishlarga kasbiy tayyorgarlik shakllanishini ta’minlaydi.
- Nutqni rivojlantirish metodikasi kursini o’kitish uni nazariy, amaliy, laboratoriya Mashg’ulotlari, o’quv va ilmiy-nazariy konferentsiyalar bilan birgalikda ko’shib olib borishni ko’zda tutadi.

**NAZORAT SAVOLLARI:**

- «Nutqni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi» kursining maksadini ta’riflab bering.
- Kurs nomini ayting.
- Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish metodikasi bo’yicha bo’lajak bakalavr kanday tushunchalar, bilimlar, kobiliyat va ko’nikmalarni egallashi zarur?
- Bakalavrning bolalarga ona tilini o’kitish ishlariga kasbiy jihatdan tayyorligini belgilovchi komponentlar va mezonlarni aytib bering

## Nutqni rivojlantirish metodikasining nazariy asoslari

Til hayotimizning ajralmas kismi bo’lib, biz unga o’z-o’zidan bo’lishi shart bo’lgan narsa sifatida karaymiz. Tilning o’zi nima, biz unda kanday so’zlayapmiz, biz kanday qilib so’zlashni

o’rganishimiz haqida esa unchalik ko’p o’ylab ham o’tirmaymiz. Hammaga yaxshi ma’lumki, tilni o’rganuvchi maxsus fan bo’lib, uning nomi – lingvistikadir. Ushbu fan jadal rivojlanayotgani va shak-shubhasiz bu borada sezilarli yutuklarga erishganiga karamasdan hozirgi paytda shu ravshanki, biz insoniy xususiyatlarning eng «insoniysi» bo’lgan va usiz insonning jamiyat a’zosi sifatida mavjud bo’lishi mumkin bo’lmagan til haqida juda kam bilar ekanmiz.

Savol tuђiladi: hozirda insoniyat oldida zudlik bilan hal etilishi lozim bo’lgan ko’plab vazifalar turgan bir paytda tilni tadkik qilish shunchalik zarurmi? Til sir-asrorlarini o’rganish uchun kuch-ђayrat va mablaђ sarflash o’rinlimi? Ko’pincha lingvistika – ikkinchi darajali fandir va hozir insoniyat uchun boshka fanlarni, ya’ni fizika, kimyo, astronomiya, tibbiyot kabi fanlarni rivojlantirish muhimrokdir, degan fikrlarni eshitish mumkin.

Garchi biz boshka fanlarni rivojlantirishning muhimligi haqida so’z boshlagan ekanmiz, til tabiiy fanlar rivojiga biron-bir ta’sir ko’rsata oladimi, degan savolga javob beraylik. Hozirda til va nazariya zamonaviy fanlarga oid metodologik muammolarning markazidan joy olgan, chunki «umumlashtirilgan bilimlar tizimidan iborat bo’lgan va bilimni uyushtiruvchi boshlang’ich bosqich sifatida chikadigan nazariya tilda shakllanadi, bu esa bilish jarayonida tilga alohida o’rin beradi va shu bilan til haqidagi fan oldida yangi ilmiy ufklarni ochadi, uni o’zining gumanitar mohiyati haqida orzu-xayollarga berilgan holda doimo tinch-osuda va jimgina o’tiradigan burchagidan chikishga majbur kiladi»[2].

Ilmiy bayon qilish tili mazkur fan darajalarining mezonlaridan biriga aylanadi. Tanikli fizik V.Geyzenberg shunday kayd etgan edi: «Fizik uchun oddiy tilda bayon qilish imkoniyati tegishli sohada qanchalik tushuna olish bosqichiga erishilganligi mezonlaridan biri hisoblanadi»[3].

Ilmiy-texnik tarakkiyotning jihatlaridan biri fanni ommalashtirish, keng aholi katlamlarini ilmiy yutuklar bilan tanishtirishdan iboratdir. Ushbu ishning muvaffakiyati ko’p jihatdan ilmiy ma’lumotlarning kanday bayon kilinishi, ularning ushbu til ifodasida kishilarga qanchalik tushunarli bo’lishiga bog’liq bo’ladi. Va biz bu o’rinda til muammolariga duch kelamiz.

Tabiiy fanlarning insoniyat tarakkiyotida, bizning kundalik hayotimizda egallagan ulkan o’rnini hech bir kamsitmagan holda shuni unutmaslik lozimki, baribir tabiatning eng kizik, murakkab va hozircha o’rganilmagan hodisasi – bu insonning o’zidir. SHuning uchun so’nggi paytda insonni o’rganuvchi fanlarga, va eng avvalo psixologiyaga katta ahamiyat berilmokda.

«Lingvistika» so’zi ko’pincha «grammatika» so’zi bilan, tilni o’rganish esa – suffikslar, ko’shimchalar, turlar koidalari va hokazolarni o’rganish bilan bir xil ma’noda kabul kilinadi.

Albatta, bu unday emas. Zamonaviy lingvistika haddan tashkari ko’p kirrali fan bo’lib, uning ayrim bo’limlari psixologiya bilan ko’shilib ketadi. Lingvistlar hozirda tilga nisbatan boshka karashlarni rivojlantirmokdalar: endilikda tilga nafakat kotib kolgan ko’p sonli so’zlar va ularni ko’llash koidalari sifatida, nafakat o’tib borayotgan vakt mobaynida tarixan rivojlanib kelayotgan tizim sifatida, balki insonning alohida bir faoliyati sifatida karalmokda.

Biz «til» so’zini ko’llaganimizda ikki narsani – til va nutqni nazarda tutamiz. Bu farklashlarni lingvistika faniga birinchi bo’lib shveytsariyalik olim Ferdinand de Sossyur kiritdi va u tilni nutqka karshi ko’ydi, bu lingvistika fanining keyingi rivoji uchun juda muhim ahamiyatga ega bo’ldi, chunki «biz til va nutqni ajratish orkali ijtimoiyatni individuallikdan ajratamiz»[4]. Boshkacha qilib aytganda, bu alohida bir odam tomonidan alohida holatda amalga oshirish bilan biron-bir tilda so’zlayotgan barcha odamlar tomonidan birgalikda amalga oshirish o’rtasidagi farklashdir.

Biz uchun bu farklashlar juda muhimdir, chunki biz til haqida ham (bola nutqi tildan tashqaridai tizim bilan belgilangan) va nutq haqida ham (bola nutqiy faoliyatni, ya’ni til tizimining mavjud bo’lish koidalari va usullari) so’z yuritamiz. O’tgan davr mobaynida boshkacha tushunchalar tizimini joriy etishga bir necha bor harakat kilingan. Bulardan biri sovet

---

[2] Звегинцев А.В. Язык и лингвистическая теория. М., 1973, 3-бет.

[3] Гейзенберг В. Физика и философия. М., 1963, 141-бет.

[4] Соссюр Ф. Курс общей лингвистики. М., 1933, 38-бет.

davrining tanikli tilshunosi L.V.Щerbaga tegishlidir. U nutqiy uyushishni (individning psixofiziologik uyushuvi), til tizimini («barchalar asosida» chikariladigan koidalarni umumlashtirish) nazariyada («muayyan davrda u yoki bu ijtimoiy guruh hayotida ro'y bergan so'zlash va tushunish hodisalari»[5]) hamda til materialini (nutqiy faoliyatni) ajratdi. So'nggi holatni L.V.Щerba «so'zlash va tushunish hodisalarining umumiyligi» deb ataydi. L.V.Щerbaning ushbu uch a'zoli tizimi sovet davri lingvisti A.A.Leontev tomonidan takomillashtirilgan.

A.A.Leontev «tilga kobiliyat»ni – til tizimining ushbu tilda so'zlayotgan inson ongida aks etishini, «til jarayoni»ni, ya'ni tilga kobiliyatni amalga oshirish vositasi bo'lgan nutqning o'zini, va «til standarti»ni – tilni individdan tashkarida mavjud bo'ladigan tizim sifatida ajratgan[6].

SHunday qilib, u tomonidan til va nutqni farklashdan tashkari odam ongida mavjud bo'lgan hamda unga tildan foydalanish, so'zlash va aytilgan so'zlarni tushunish (tilga kobiliyat) imkonini beruvchi bir narsani ham ajratib ko'rsatgan. Bu narsa – nutqiy faoliyatni ta'minlash mexanizmidir.

Odatda nutqiy faoliyat to'rtga ajratiladi: o'kish, yozish, so'zlash, tinglash. Ular o'zaro juft holatda boђlanadi va til tizimini amalga oshirishning ikki shakli – og'zaki va yozma shakli orkali belgilanadi.

Tildan foydalanish insonning ruhiy faoliyati bilan mos ravishda uyђunlashadi. Til uning faoliyatiga «ko'shimcha» emas.

Til eng bevosita tarzda fikrlash bilan bog'liqdir. Aslida tilning o'zi fikrlash kurolidir. Fikrlash jarayoni doimo tilda kuzatib boriladi, ammo uning natijasi til shakliga o'tkazilishi va shu tufayli kelgusi avlodlarga yetib borishi mumkin.

Til akliy faoliyatni rejalashtirish imkonini beradi. Rejalashtirish jarayonida tilning yana bir muhim vazifasi – insonning xulk-atvorini boshkarish vazifasi paydo bo'ladi. Til insoniyatning o'tmishi mobaynidagi butun tajribasini to'plash va bir joyga jamlash, insonni ushbu tajriba natijasida ishlab chikilgan me'yorlarga bo'ysundirishga yordam beradi. Biz o'z o'tmishimizda, bugungi kunimizda ko'rgan, va hattoki kelgusida ko'rishimiz mumkin bo'lgan narsalarning barchasi bizga til orkali keladi. Insonning xulk-atvorini boshkaradigan narsalarning barchasiga, jumladan dunyokarash, axlokiy va estetik ideallar, madaniy me'yorlarga til va nutqiy muloqot orkali erishiladi.

Inson butun hayoti mobaynida borlikni anglash jarayonida ishtirok etadi. Bilishga bo'lgan ehtiyoj ko'p jihatdan til orkali kondiriladi

Bola atrofni o'rab turgan borlikni kabul qilish va anglash uchun u tarkok predmetlarlardan foydalana olmaydi, u ahamiyatga molik jihatlarni (kublar, mashinalar va h.k.) ajratib ko'rsatgan holda ob'ektlar, toifalarni birlashtira boshlaydi va oxir-okibatda belgilarni umumlashtirish natijasida so'z bilan ifodalanadigan tushunchalar paydo bo'ladi. Biron-bir tushunchaning, xoh u maishiy bo'lsin, xoh ilmiy bo'lsin, uning so'z kobiђisiz yashashi kiyin. SHu tufayli biz o'z bilimlarimizni tilimizda kayd etishimiz, ularni boshka odamlarga yetkazishimiz va til orkali yangi bilimlarga ega bo'lishimiz mumkin. Amerikalik olim CH.Pirs shunday kayd etadi, «til shunday bir narsaki, biz uni bilish orkali yanada ko'proq narsalarni bilib olamiz». SHunday qilib, tilning boshka yana bir muhim vazifasi ko'zga tashlanmokda, ya'ni: til insonning bilish kurolidir.

Insonning yana bir o'ziga xos xususiyati, o'ziga xos insoniy ehtiyoji mavjud, bu – boshka odamlar bilan muloqotga ehtiyojmandlik, «emotsional muloqotga ehtiyojmandlik»dir (K.Obuxovskiy). Aynan shu ehtiyoj tufayli dastlab til paydo bo'lgan. Muloqotga ehtiyojmandlik doimo tilni egallashga olib keladi. Bolaning so'zlashni o'rganishining sababi shuki, unga kattalar bilan birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishga to'g'ri keladi, buning uchun esa bolaning unga nimalar deyishayotganliklarini tushunishi va o'zi ham so'zlashi lozim. Bu o'rinda «tilning uch sifati» (tajribani jamlash va sintez qilish – fikrga jamlash – muloqotni amalga oshirish) haqida

---

[5] Щерба Л.В. О трояком аспекте языковых явлений и об эксперименте в языкознании. Языковая система и речевая деятельность. Л., 364-бет.

[6] Леонтьев А.А. Слово в речевой деятельности. М., 1965.

so’z yuritish mumkin (V.A.Zvegintsev). Tilni tadkik qilish mustaqil, umumilmiy kizikishdan tashkari ko’plab dolzarb amaliy vazifalarni hal etishda ulkan ahamiyatga egadir. Ushbu vazifalarning ayrimlari bevosita tilning Yuqorida sanab o’tilgan vazifalaridan kelib chikadi – til yordamida insoniy tajribani anikrok kayd etish, til yordamida ifoda etilgan madaniy me’yorlar insonning xulk-atvoriga yanada kuchlirok va mustahkamrok tartibga soluvchi ta’sir ko’rsatishi uchun, kishilarning o’zaro muloqoti (masalan, ijtimoiy munosabatlar sohasida) yanada muvaffakiyatli amalga oshishi uchun tilni tadkik qilish zarur.

Bundan tashkari, hal etilishi til muammolarini tadkik qilish bilan bevosita bog’liq bo’lgan boshka amaliy vazifalar ham mavjud. Psixologiya, boshkaruv nazariyasi, ijtimoiy fanlar sohasida ish olib borayotgan olimlar kator lingvistik vazifalarga duch keldilar. Xususan, ruhiy jarayonlarni tadkik qilish dastlabki nutqiy jarayonlarni ham tadkik qilishni ko’zda tutadi. Tushunchalarni rivojlantirish, akliy va amaliy vazifalarni hal etish kay tarzda davom etmokda, bola tashki muhitga (moddiy va ijtiomiy) muhitga kanday moslashmokda – bu savollarga javoblar nafakat predmetli harakatlarni, balki nutqning o’zini ham o’rganishni ko’zda tutadi.

Muloqot va boshkaruv – lingvistikaning boshka bir ulkan sohasi hisoblanadi. Tarђibot va tashvikot (u bevosita muloqot tarzida yoki ommaviy axborot vositalari orkali amalga oshirilishidan kat’iy nazar) mohiyatan insonning ruhiy olamiga ta’sir ko’rsatish uchun tildan foydalanish shaklidir. Til orkali ta’sir ko’rsatish samarali bo’lishi uchun ushbu ta’sirning mexanizmlarini, o’ziga xos nutqiy mexanizmlarni bilish zarur.

Sof lingvistik vazifalar masalan, samolyot, kosmik kema va hokazolar bilan so’z orkali aloka qilishni amalga oshirayotgan operator faoliyatini okilona tashkil etish paytida yuzaga keladi.

Lingvistikani ko’llashning yana bir sohasi – tibbiyotning miyaning yaralanishi, jarohat olishi yoki unga shikast yetishi natijasida nutqdagi buzilishlarni o’rganuvchi sohasi bo’lmish afaziologiyadir. Bu nuksonlarni aniklash va davolash ko’p jihatdan bemorning nutqida aynan kanday o’zgarishlar yuz berganiga bog’liq bo’ladi. Bu anomal nutq uchun maxsus til xususiyatlarini shakllantirish zarurati paydo bo’ladi, o’z-o’zidan bu o’rinda vrach-afaziolog lingvistning yordamiga muhtoj bo’ladi.

Nutqdagi buzilishlar - inson ahvolini baholashda til parametrlari yordam berishi mumkin bo’lgan yagona holat emas. Ayrim vaziyatlarda (ruhiy zo’rikish, siqilish paytida) yaxshi tayyorgarlikdan o’tgan odamlarda fiziologik parametrlar bo’yicha ayrim nuksonlar sezilmaydi. Ammo ularning nutqi mutaxassis bo’lmagan odam tushunishi kiyin bo’lgan darajada o’zgaradi. Ko’pincha fakat til mezonlarigina bunday holat yuz berishidan dalolat berishi mumkin.

Yuqorida kayd etilganidek, til bevosita bilish jarayonlari bilan bog’liq, va bundan tashkari, tilning rivojlanish darajasi umumiy akliy rivojlanish darajasiga bevosita bog’liq bo’ladi. SHuning uchun bola nutqini maxsus tadkik qilish ruhiy rivojlanishdagi nuksonlarni yoki rivojlanish sekinlashganini aniklashda yordam berishi mumkin, hattoki bu usul boshka tekshiruv turlari bunday nuksonlarni aniklamagan takdirda ham ko’l kelishi mumkin.

Lingvistika kriminalistga ham katta yordam berishi mumkin. Masalan, jinoyatchini uning nutqining bir parchasi (yozma yoki og’zaki) bo’yicha topish, ko’rsatmalarining yolђonligini fosh qilish (ataylab yolђon so’zlaganda inson nutqi mutaxassis bo’lmagan odam sezmaydigan darajada o’zgaradi) mumkin.

Va nihoyat, lingvistikaning an’anaviy amaliy vazifasi – chet tillarga o’kitishdir. Tilni batafsil tavsiflamasdan turib tilni, undagi nutqni o’rganish mumkin emas.

Zamonaviy lingvistika – bu nafakat mavjud tillarni bayon qilish, balki tilga faoliyat sifatida yondashish, so’zlayotgan odamni o’rganish hamdir.

«Tilda insonni va uni o’rab turgan olamni bilish uchun bitmas-tuganmas hamda hali ko’l tegmagan imkoniyatlar mavjud, birok unga tilni tavsiflash orkali emas, balki uni o’rganish vositasida erishish mumkin» (V.A.Zvegintsev).

Tilni faoliyat sifatida tadkik qilish bilan tez rivojlanib borayotgan fan – psixolingvistika shuђullanmokda, u hozirda muhandislik, aviatsiya va kosmik psixologiyaning ajralmas kismiga

aylandi, undan turli nutqiy nuksonlarni aniklash va davolashda foydalaniladi, u bolalar nutqidagi muammolarni o'rganishda, sud psixologiyasi va kriminalistikada katta ahamiyatga egadir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish – bu murakkab ruhiy jarayon bo'lib, u fakat bolaning eshitgan nutqiga taklid qilishidan iborat emas. Bu jarayon bolalarda umuman muloqot faoliyatini rivojlantirish va birinchi navbatda, muloqotga ehtiyoj mavjudligi bilan bog'liqdir.

Bolaning borlikning yangi tomonlariga yo'naltirilganligi: amaliy faoliyatdan olamni, so'ngra odamlarni, ularning munosabatlarini o'rganishga o'tish yangi maksadlarga xizmat kiluvchi yangi muloqot vositalari zaruratini keltirib chikaradi.

Bola leksikasini kengaytirish, uning o'z kechinmalarini yanada keng va xilma-xil ifodalashni o'zlashtirishi uchun imkoniyat yaratadi.

Nutqni zamonaviy va to'lakonli rivojlantirish uchun atrofdagi odamlar bilan o'zaro hamkorlik bolaning muloqotga bo'lgan ehtiyoji tarkibini boyitishi zarur. Bolalarning nutqni egallab olishlarining sababi ularning muloqot faoliyatlarining **asosini ehtiyoj-motivatsiya** tashkil qilishi, uning tarkibi o'zgarganligidadir.

**Verbal bosqichda** bolada sust nutq shakllanadi. Ushbu bosqichga bo'lgan davrning asosiy ahamiyati shundan iboratki, uning ichida navbatdagi bosqich – faol nutq **paydo bo'lishi** bosqichiga o'tish uchun zarur bo'lgan sharoit vujudga keladi.

Bolaning faol nutqni o'zlashtirishining **ikkinchi bosqichida** uchta asosiy jihat ajralib chikadi: emotsional munosabatlar; birgalikda faoliyat (hamkorlik) davomidagi munosabatlar; tovushli munosabatlar.

Bolaning kattalar bilan muloqot qilishining ko'rib chikilayotgan har bir jihati uning oldiga kattalar tomonidan ko'yilayotgan va so'zdan jamiyatda o'zaro bir-birini tushunish uchun shartli ravishda kabul kilingan vosita sifatida foydalanishni talab qilishdan iborat bo'lgan kommunikativ vazifani kabul qilishiga yordam beradi. Bundan tashkari, kommunikativ omilning ko'rib chikilayotgan har bir jihati u yoki bu darajada va o'z holicha bolalarning kommunikativ vazifani hal etishlariga, ya'ni nutqdan foydalanishlariga yordam beradi.

Nutqni rivojlantirishning **uchinchi bosqichida** – uning materiyasi (leksika va grammatika) bolaning muloqot vazifasini o'zgartirgan holda kattalar bilan muloqotga bo'lgan ehtiyojiga va uning tarkibiga uzviy bog'liq bo'ladi. Bu bolaning nutqning yangi, yanada murakkab va keng kamrovli jihatlarini o'zlashtirishiga olib keladi.

Bolaning ruhan shakllanishida nutqning hal kiluvchi o'rinni egallashi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarning ahamiyatini yanada oshiradi. Nutq rivojini harakatlantiruvchi kuchlar haqidagi masala ular shiddat bilan va to'satdan amalga oshirilishi tufayli ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bolalar nutqini rivojlantirishni rağbatlantiruvchi yoki uni sekinlashtiruvchi kuchlarni aniklash ushbu jarayonda anik maksadni ko'zlagan holda pedagogik sa'y-harakatlarni uyushtirish kalitidir.

## XULOSALAR:

- Til hayotimizning ajralmas kismi hisoblanadi.
- Ilmiy bayon qilish tili muayyan fan darajasi mezonlaridan biridir.
- Til fikrlash bilan bog'liq va u uning kuroli hisoblanadi.
- Til akliy faoliyatni rejalashtirish imkoniyatina yaratadi; bu jarayonda tilning muhim vazifasi – insonning xulk-atvorini boshkarish vazifasi paydo bo'ladi.
- Til kishilarning muloqotga muhtojligi tufayli paydo bo'lgan.
- Lingvistik bilimlarni ko'llash sohalari juda keng: psixologiya, psixolingvistika, tibbiyot, muhandislik, aviatsiya, kosmik, sud psixologiyasi va h.k.
- Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish – bu murakkab ruhiy jarayon bo'lib, u fakat bolaning eshitgan nutqiga taklid qilishidan iborat emas, balki bu bolalarda muloqot faoliyatini rivojlantirish va muloqotga ehtiyoj mavjudligi bilan bog'liqdir.

## NAZORAT SAVOLLARI:

- Tilning tabiiy fanlar tarakkiyotiga ta’sirini aniklang.
- «Til» va «nutq» tushunchalari o’rtasidagi farkni aytib bering.
- Til qaysii ruhiy jarayonlarning rivojlanishiga ta’sir ko’rsatadi? O’z javobingizni anik misollar orkali asoslab bering.
- Lingvistikaning boshka fanlar bilan alokasini anik misollarda tavsiflab bering.
- Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqni o’zlashtirish bosqichlarini anik misollar yordamida tavsiflab bering.
- Bola nutqini harakatlantiruvchi kuchlar nimalardan iborat ?

## II-MAVZU

## NUTQ O‘STIRISH NAZARIYASI VA METODIKASINING FAN SIFATIDA SHAKLLANISH TARIXI

**Garb va SHarq mutafakkirlari ta’lim va tarbiya haqida**

**XVIII-XIX asrlarda o’zbek olimlari, pedagoglari, yozuvchilari o’sib kelayotgan yosh avlodga ta’lim va tarbiya berish haqida**

### Garb va SHarq mutafakkirlari ta’lim va tarbiya haqida

Ta’lim va tarbiya muammosi juda kadimdan beri mavjud. U o’rta asrlardagi Garb va SHarq mutafakkirlarining asarlarida ko’rib chikilgan. O’sha davrlarning buyuk mutafakkirlari Abu Nasr al-Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, YUsuf Xos Hojib, Ahmad YUgnakiy, Jaloliddin Dovoniy, Alisher Navoiy va boshkalar feodal zulm va mutaasib ruhoniylarning kattik karshiligiga karamasdan jahon fani, madaniyati, maorifiga bekiyos hissa ko’shdilar.

O’tgan davrlarda mehnatkashlaring o’z munosabatlarini uning yoshlarga tarbiyaviy ta’sirini yanada kuchaytirish maksadida yo’lga ko’yish borasidagi tajribalarini nafakat xalq pedagogikasining kator shakllari, usullarini qayta tiklash uchun, balki shaxsni shakllantirishni boshkaruvchi ob’ektiv umumiy ijtimoiy konunlar, xalq turmush tarzini tushunish uchun ham o’rganish lozim.

O’rta asrlar SHarqining komusiy mutafakkiri Abu Nasr al-Forobiy (873-950) insonni har tomonlama takomillashtirish, ularni umumiy baxt-saodatga yetaklash yo’llari va usullarini o’zining ijtimoiy-siyosiy ta’limoti markaziga ko’yadi, bu esa uning dunyokarashlarning umuminsoniy asosga egaligidan dalolat beradi.

Aynan shunday maksadlar Forobiyning shaxsni tarbiyalash va ta’lim berish, uni takomillashtirish hamda uning ijtimoiy muammolarni hal etishdagi faol roliga nisbatan dunyokarashlarining bosh mazmunini tashkil etadi.

Uning fikriga ko’ra, ta’lim va tarbiya oilada, o’kituvchi yordamida maktabda va yaxshilikka asoslangan jamiyatda uning rahbari yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Forobiy fikriga ko’ra – **t a ‘ l i m** – bu nafakat akliy rivojlanish, balki umuman ma’naviy rivojlanish, shu jumladan axlokan rivojlanish poydevoridir. Ta’lim va tarbiya o’zaro bir-biriga bog’liq bo’lib, ular shaxsni ma’nan kamolotga yetkazuvchi turli yo’llar hisoblanadi.

Forobiy ijtimoiy tarbiyani tartibga solish, uni boshkarish masalalariga alohida e’tibor bergan. U mehnat faoliyati tarbiyaning muhim vositasi hisoblanadi, degan xulosaga keladi.

Abu Rayhon Beruniy (971 – 1050 yilga yakin) komusiy olim sifatida tarixga kirgan. U fanni dindan ajratish zarur deb hisoblagan, aks holda, uning fikriga ko’ra, ilmiy bilimlar hakikiy bo’la olmaydi. Olimning dinga bo’lgan tankidiy munosabati ko’p jihatdan uning tarbiya va ta’limga bo’lgan munosabatlarini ham belgilab berdi.

Beruniy o’z asarlarida ta’limning uzluksiz, ko’rgazmali, anik maksadga yo’naltirilishi lozimligini va uning muayyan tizim asosida o’tkazilishi zarurligini ta’kidlagan.

Beruniy yosh yigitda shaxs tarbiya jarayonida shakllanadi, deb hisoblagan. Bunda u mehnatga alohida o’rin bergan.

Beruniyning karashlari cheklangan tusga ega edi, zero u ham o’sha davrdagi boshka ko’plab olimlar singari fan va bilim jamiyat tarakkiyotida mutlak ahamiyatga ega, deb bilgan. Birok fan, bilim, mehnatning ahamiyati haqidagi fikrlarning o’zi to’g’ri edi. Bilim olishning o’zini Beruniy kuch, vakt va sabr-tokat talab kiladigan mehnat, deb hisoblagan.

Ibn Sin (980 - 1037) pedagogika masalalariga ijodiy yondoshgan. U bola tabiatini nafakat tabib, balki yetuk pedagog sifatida ham chukur bilishini namoyon kilgan. Olimning bolalarga ta’lim va tarbiya berish haqidagi ko’plab fikrlari o’zining chukurligi, insonparvarlik ruhi bilan yo’ђrilganligi va tarbiyadek murakkab muammoni to’g’ri talkin qilishi bilan kishini lol koldiradi.

Ibn Sino taklif kilgan tarbiya va ta’lim mazmuni akliy tarbiya, jismoniy soђlomlashtirish, estetik tarbiya, axlokiy tarbiya va hunar o’rgatishlarni o’z ichiga oladi. Ibn Sino bola tarbiyasining butun mashakkati va murakkabliklarini juda chukur tushungan. «Tib konunlari»ning «Tarbiya haqida» nomli bo’limida ko’yilgan masalalar anik hal etiladi, bola xarakterini tarbiyalash haqida kimmatli fikrlar bildiriladi.

Ibn Sinoning ilmiy-pedagogik ijodiyotida oilaviy tarbiya alohida e’tibor karatiladi va bunda bosh rol oila boshliђi – ya’ni otaga beriladi. Ibn Sino nima uchun bolani onasi emas, balki tarbiyasi tarbiyalashi lozimligini tushuntirib beradi. Uning fikrlariga qaraganda, bolaning onasi o’z farzandi tarbiyasida ko’proq hissiyotlarga beriladi va bola tarbiyasida to’g’ri yo’lni tanlay olmaydi. Ibn Sino tarbiyachi oldiga anik vazifalarni ko’yadi: u o’z shogirdini kachon jazolashi yoki raђbatlantirishi mumkinligini yaxshi bilmoђi lozim.

Ibn Sino bola shaxsini hurmat qilish, bolaning tabiiy yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda uning kizikishlarini o’rganishga chakiradi. U yoshga karab davrlarga bo’lib chikishga harakat kilgan. O’smirlik davrini u beshta davrga bo’lgan: chakaloklik (bola tuђilganidan boshlab yo’lga yurib ketgunicha bo’lgan davr); bolalik davri (yo’lga yurgandan so’ng); organizm chinikkani va kozik tishlari chiqqanidan keyingi davr; o’smirlik va jinsiy yetilish davri; o’smirlik davri (o’sish to’xtatugancha bo’lgan davr).

Ibn Sino bola tarbiyasining barcha murakkabliklari va kiyinchiliklarini tushungan. U jismoniy jazoning me’yoridan ortib ketishiga karshi chiqqan. Uning fikriga ko’ra, risoladagidek tarbiyani muvaffakiyatli amalga oshirish uchun bolalarga insoniy munosabatda bo’lish darkor. Tarbiyachining o’zi bola shaxsini hurmat qilishi, uni sevishi va bola bilan yaxshi munosabatda bo’lishi lozim.

Ibn Sino tarbiya omilining ahamiyatini chukur anglagan va ijobiy omil ahamiyatini juda kadrlagan, uni tarbiyaning asosiy vositalaridan biri deb bilgan.

YUsuf Xos Hojib (1021-9 yillarga yakin) o’rta asrning boshka ko’plab olimlari singari musulmon SHarqi xalqlarining madaniy rivojiga sezilarli hissa ko’shgan. SHarqning «Takvodorlar tuhfalari» devoni (XII asr) insonni axlokan tarbiyalash muammolari ko’rib chikilgan dastlabki didaktik asarlaridan biri hisoblanadi. Uning so’zlashishdagi bosiklik va odob koidalari haqida bildirgan fikrlari bugungi kunda ham o’z ahamiyatini yo’kotmagan: «Ma’rifatli kishining so’zlarini tingla. Tarbiya koidalaridagi asosiy narsa – bu til, unga ehtiyot bo’lmok lozim. YAxshi so’zli kishi hurmatga, tili zahar kishilar esa nafratlanishga loyikdir. Kishining ustidan kulma va uning jahlini chikarma: o’k yetkazgan zahmat bitadi, so’z bilan yetkazilgan zahmat esa hech kachon bitmaydi».

Birok, o’z tasavvurida shoir kishilarda oliy axlok sifatlarini tarbiyalash orkali umumiy farovonlikka erishish mumkin, deya hisoblagani holda o’sha davrda hukmron bo’lgan dunyokarashlardan yukori ko’tarilmaydi.

O’zbekistonda XVI asrdan keyingi asosiy pedagogik fikr yo’nalishlari va ularning xususiyatlarini tushunish uchun komusiy olim bo’lgan, o’z zamondoshlari o’rtasida juda mashhur bo’lgan Jaloliddin Devoniy (1427 - 1502) asarlari bilan tanishish zarur.

Garchi Devoniy eron hududida yashagan va ijod kilgan bo'lsa ham uning *«Etika Jalom»* nomli asari Oktyabr inkilobiga kadar Samarkand va Buxorodagi madrasalarda o'quv ko'llanmasi sifatida foydalanilgan hamda O'rta Osiyodagi ko'plab ilђor mutaffakirlarning (YUsuf Koraboђiy, Abu Tohir Samarkandiy, Abdulla Avloniy) pedagogik va axlokiy karashlarini shakllantirishda katta rol o'ynagan. Ushbu fundamental asarida Devoniy o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash, tarbiya va ta'lim jarayonida ijobiy sifatlarga ega bo'lish lozimligi haqida kimmatli fikrlar bildirgan.

Devoniy asarlarida tarbiyalashda, ta'lim metodikasida maktab va o'kituvchining tutgan o'rni haqida ko'plab ijodiy fikrlar juda ko'p. Uning asarlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, Devoniy o'z davrining ilђor mutafakkiri bo'lgan hamda uning ta'lim va tarbiya haqidagi ko'plab ђoyalari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'kotmagan.

Ayniksa Alisher Navoiy O'zbekiston xalqi kalbidan chukur joy olgan. Uning asarlari besh yuz yildan buyon ko'plab avlodlarni hayajonga solib keladi. Insonparvarlik, muhabbat ђoyalari, insonning oliy maksadlarini kuylash Navoiy merosida asosiy o'rin tutadi.

Navoiyning pedagogik karashlari o'ta insoniyligi bilan ajralib turadi. U bola shaxsini shakllantirish va tarbiyalash masalalariga juda katta ahamiyat bergan, Navoiy farzandni oilaga quvonchh va baxt keltiruvchi shamchirok, deb bilgan.

Navoiy bolaga uning yoshiga karab eng kichik yoshdan to'g'ri tarbiya berish zarur, fanlarni o'rganishni iloji boricha barvakt boshlash lozim, deya ta'kidlagan.

Buyuk slavyan pedagogi YAn Amos Komenskiy (1592-1670) ¶arbning buyuk olimlaridan biri hisoblanadi. Uning pedagogik tizimi o'sib kelayotgan avlodni insoniylik, tinchliksevarlik, tenglik va birodarlik ruhida tarbiyalash ђoyalari bilan yo'ђrilgan.

YA.A.Komenskiyning pedagogik merosi ulkan va ko'p kirralidir. Olimning chop etilgan falsafiy va pedagogik asarlari uning tarixiy ahamiyatini belgilab berdi. «Onalar maktabi»da kayd etilgan bolani dastlab oilada tarbiyalash va rivojlantirish ђoyalari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'kotmagan. Hajmi kichik, birok mazmuni juda chukur bo'lgan mazkur asarni unda ko'yilgan muammolarning dolzarbligi va ahamiyatliligi, ularni amalga oshirish uchun taklif kilinayotgan yo'llar va vositalarning soddaligi hamda ishonchliligi, nihoyat oila, ayollar, bolalar va ularni tarbiyalashga bo'lgan munosabatning insoniy yo'nalishga egaligi bo'yicha uni mumtoz asarlar sirasiga kiritish mumkin. «Inson zotini himoyalash eng avvalo beshikdan boshlanishi lozim». Bundan ortik sodda va dono fikr bo'lmaydi. Uddaburon olimlar qaysii bir ijtimoiy tarbiya tizimini kashf kilmasinlar, baribir bolalar hayot kechiradigan, ular jismonan va ma'nan rivojlanadigan muhit sifatida oila eng samarali tarbiya tizimi hisoblanadi.

Katorlashgan ђoyalar tizimiga ega bo'lgan «Onalar maktabi»ni birlamchi oilaviy tarbiya bo'yicha birinchi asar deb hisoblash mumkin.

«Onalar maktabi»ning bosh ђoyasi - oiladagi birlamchi tarbiyaning bola uchun quvonchhli bo'lishi, uning kelajagini baxtli, ota-onalar uchun yokimli va umidbaxsh, jamiyat uchun foydali qilishdan iboratdir.

Komenskiy tabiiy iktidorni eng ilk yoshdan boshlab har tomonlama rivojlantirish ђoyasidan kelib chiqqan holda onalar maktabi oldiga kiyin vazifalarni, ya'ni: bolalarga ***bilish*** (bilimga ehtiyojmandlikni tarbiyalash, bilimga chankoklik)ni, ***harakat qilish*** (mehnatkash bo'lish, o'zini boshkara olish va yaxshi amallar qilish)ni va ***gapirish*** (nutq va fikrlashni rivojlantirish)ni o'rgatish vazifalarini ko'yadi. SHu munosabat bilan u akliy, jismoniy va ma'naviy tarbiyalash, nutq va fikrlashni rivojlantirish bo'yicha anik maslahatlar beradi.

«Onalar maktabi»dagi alohida bir bob «kanday qilib bolalarga nutqni mashk kildirish» lozimligiga baђishlangan. Komenskiy «akl va nutq»ni rivojlantirish uchun bir xil harakat qilish zarur deb hisoblagan. U «akl» va «nutq»ka organik birikma sifatida karagan. Va bu tasodifiy emas, zero bola nutq tufayli o'z fikrlarini ifodalaydi va atrofdagi odamlar bilan muloqotga kirishadi, nutqni egallash orkali u atrofni o'rab turgan olamni anglaydi. Bolada nutq va fikrlash rivojlanadi.

U sensor rivojlantirish va tarbiyalashga alohida e’tibor bergan, chunki usiz akl va nutqni muvaffakiyatli rivojlantirib bo’lmaydi. Va buyuk pedagogning mazkur koidaga rioya qilishni «didaktikaning oltin koidasi» deb atagani ham bejiz emas.

Nutqka taallukli bo’lgan boshka bir ђoyani Komenskiy ona tilini o’kitish, ona tilida o’rgatishni talab qilish shaklida ifodalagan. Maktabgacha yoshda ona tilini o’rgatish, Komenskiy xulosasiga ko’ra, - bu eng avvalo bola hayotining birinchi yilidan boshlab nutqni rivojlantirish, bo’ђinlar va so’zlarni anik talaffuz qilish, gaplarni sintaktik jihatdan to’g’ri tuzish, narsalarning nomini to’g’ri aytish va mos fikr bildirishdan iborat. Ushbu maksadda Komenskiy ota-onalarga bolalar bilan muloqot qilishda narsalar nomlarini va so’zlarni buzmasdan, to’g’ri aytish, bolalarga talaffuzi kiyin bo’lgan va nisbatan uzun so’zlarni aytishni mashk kildirish va buning uchun o’yin uslubidan foydalanishni maslahat beradi. Komenskiyning xizmati shundan iboratki, u pedagoglar ichidan birinchilardan bo’lib bola nutqini rivojlantirishda, uning ona tilini butun go’zalligi va milliy xususiyatlari bilan birgalikda o’zlashtirib olishida she’riyat, ertaklar, makollar va matallar, tez aytishlarning tutgan o’rniga birinchi bo’lib e’tiborni karatdi. Gapirishni boshlayotgan bolalarning kattalar nutqini tushunishlari uchun ular so’zlovchining yuzini va uning ko’l harakatlarini ko’rishlari, uning savollarini tushunishlari va to’g’ri javob berishlari darkor, deb yozgan edi Komenskiy. Ona tabassumi va bola tomonga cho’zilgan ko’llar, imlash, kallani kimirlatib ko’yish, kayђuli yuz va barmok bilan do’k urish – bularning barchasi so’zlovchining kayfiyatini ifodalaydi, buni bola kabul qilib oladi va u aytilgan fikrni tushunishga yordam beradi. Bu ritorik harakatlar muloqotda juda askotadi, nutqni va fikrlashni rivojlantiradi.

YA.A.Komenskiyning «Onalar maktabi» asari Garbda va Rossiyada oilaviy tarbiyaning keyingi rivojiga sezilarli ta’sir ko’rsatdi. Pestalotstsi va Frebel, K.D.Ushinskiy va ye.N.Vodovozova birlamchi oilaviy tarbiyaga shaxsni shakllantirish tizimidagi o’ta zarur bosqich sifatida karaganlar. Bularsiz o’sib kelayotgan avlodni muvaffakiyatli tarbiyalash borasidagi barcha harakatlarimiz zoe ketadi.

**XULOSLAR:**

- SHarq mutafakkirlarining asarlarida tarbiyaga, shu jumladan oilaviy tarbiyaga katta e’tibor berilgan.
- Ularning barcha asarlarida o’sib kelayotgan avlodni ma’naviy kamol toptirish, ideal jamiyat talablari va vazifalariga javob bera oladigan, yukori afzalliklarga ega bo’lgan shaxsni shakllantirish masalasi asosiy o’rin tutadi.
- Keng kamrovli shaxsni shakllantirish fakat ta’lim va tarbiya orkaligina amalga oshirilishi mumkin.
- Tarbiyaning barcha murakkabligi va kiyinchiliklarini tushungan holda SHarq olimlari tarbiya va ta’lim mazmunini belgilab berishga intilganlar (Ibn Sino).
- Tarbiya - ota-onalarning kanday mavkega egaligidan kat’iy nazar ularning asosiy vazifasidir.
- Olimlarning bola shaxsini hurmat qilish, uning kizikishlarini o’rganish, tabiiy qobiliyatini hisobga olish haqidagi fikrlari (Ibn Sino, D.Dovoni, Alisher Navoiy) juda kimmatlidir.
- YA.A.Komenskiyning «Onalar maktabi» asari birlamchi oilaviy tarbiyaga oid yaxlit tizimli birinchi asar hisoblanadi.
- «Onalar maktabi»ning bosh ђoyasi - oiladagi birlamchi tarbiyaning bola uchun quvonchhli bo’lishi, uning kelajagini baxtli, ota-onalar uchun yokimli va umidbaxsh, jamiyat uchun foydali qilishdan iboratdir.
- Komenskiy fikriga ko’ra, shaxsni shakllantirishni «hakikiy tarbiyaning poydevori» bo’lgan ilk yoshdan boshlash oson.
- Tabiiy iktidorni (miya, yurak, ko’l, til) rivojlantirish onalar maktabi tomonidan bolaning ilk yoshlaridan boshlab o’tkazilishi lozim.

- Sensor va akliy tarbiya masalasini birinchi bo'lib YA.A.Komenskiy o'rtaga tashladi.
- Komenskiy o'tmishdagi pedagoglar ichida birinchilardan bo'lib nutqni rivojlantirish, ona tilining butun go'zalligini va uning milliy xususiyatlarini o'zlashtirib olishda xalq og'zaki ijodiyotining tutgan o'rniga e'tibor karatdi.
- YA.A.Komenskiyning «Onalar maktabi» asari Garbda va Rossiyada oilaviy tarbiyaning keyingi rivojiga ta'sir ko'rsatdi.

**NAZORAT SAVOLLARI:**

- O'rta asrlar SHarqi mutafakkirlarning asosiy ta'lim va tarbiya yo'nalishlarini tavsiflab bering.
- Ibn Sino tarbiyachilar oldiga kanday talablar ko'ygan?
- YUsuf xos Hojibning «Takvodorlar tuhfalari» devonini tavsiflab bering.
- A.Navoiyning pedagogik karashlari ahamiyati nimalardan iborat?
- YA.A.Komenskiyning «Didaktikaning oltin konuni»ni anik misollarda tushuntirib bering.

## XVIII - XIX asrlardagi o'zbek olimlari, pedagoglari o'sib kelayotgan avlodga ta'lim va tarbiya berish haqida

Muhammad Rizo erniyozbek Ogahiy (1809-1874) – shoir, ko'plab tanikli tarixiy va badiiy asarlar muallifi, tarjimon.

Ogahiy ijodiy merosining asosiy mazmunini ma'rifat, ta'lim, ma'naviy rivojlanish va tarbiya ђoyalari tashkil etadi. Ogahiyning alohida xizmatlari shundan iboratki, u savodsizlik va diniy mutaasiblik hukm surgan bir paytda u ilm-fan va ma'rifatni izchil himoya qilib chikdi. SHoir yuksak ma'naviy ko'tarilish, bilim olishga bo'lgan intilishlardan iborat hayotnigina munosib hayot deb hisoblardi.

Ogahiyning pedagogik karashlari uning adabiy-badiiy, adabiyotshunoslik va tarixiy mavzulardagi asarlarida o'z aksini topgan. Ayniksa uning XI-asrning adabiy yodgorligi hisoblanadigan «Kobusnoma» nomli asarining forschadan o'zbek tiliga tarjima kilinishi O'zbekistonda pedagogika fanini rivojlantirishga katta hissa bo'lib ko'shildi.

Berdak (Berdimurot Karђaboev – 1827-1900) –ma'rifatchi shoir, korakalpok adabiyotining asoschisi hisoblanadi. Berdak ijodining asosini tenglik, ma'rifat, insonparvarlik, adolat va vatanparvarlik ђoyalari kabi demokratik karashlar tashkil etadi. Birok shoir o'sha davrning boshka ko'plab ma'rifatchilari singari xalqni ozod qilishda bilimning tutgan ahamiyatini haddan tashkari oshirib yuborgan. Berdak o'z asarlarida tarbiyaga nisbatan o'z munosabatlarini insonni tarbiyalashni boshlashdan oldin uni har tomonlama o'rganib chikish zarur, degan tasavvurdan kelib chiqqan holda bayon kildi. Uning fikricha, tarbiya, jismonan va ruhan rivojlantirishdan iborat bo'lishi lozim. Berdak sayoz mazmunli darsliklarni tankid ostiga olgan, butun xalqni yoppasiga savodli qilish ђoyasini oldinga surgan. U bilim olish, ilm-fanni rivojlantirish jamiyatning ham ma'naviy, ham moddiy rivojlanishiga yordam beradi, deb hisoblagan.

SHuningdek, Berdak yoshlarni tarbiyalashga katta e'tibor bergan. Akliy va axlokiy tarbiyani o'zaro bir-biriga bog'liq, deb hisoblagan shoir fakatgina aklan rivojlangan odamlargina oliy axlok egalari bo'lishi mumkin, degan fikrni oldinga surgan. U kachonki odamlar ma'naviy jihatdan o'zini takomillashtirishga, mehnatga, insoniylikka, do'stlikka, birlikka va Vatanga xizmat qilishga intilsalargina insonlar baxtli jamiyatga yetishadilar, deb kattik ishongan.

Ubaydulla Solih o'ђli Zavkiy (1853-1921) – ma'rifatchi shoir bo'lib, o'z she'rlarida ijtimoiy adolatsizlikni tankid kilgan, hukmron sinflarni koralagan. Birok Zavkiy ham o'sha

davrdagi boshka ko’plab ma’rifatchi demokratlar - Furkat, Mukimiy kabi xalqni koloklikdan chikarishda ma’rifat, savdoxonlik asosiy o’rin tutadi, deb hisoblagan.

Ma’rifat va maktablar keng aholi katlamlariga ham yetib borishi kerak, degan fikr ular karashlarining asosini tashkil etardi. Ma’rifatchi demokratlarning karashlari harakat tusiga ega edi: xususan, ular milliy burjuaziya mafkurachilari bo’lmish jadidlarga karshi faol kurash olib bordilar.

Kapitalizmning kirib kelishi bilan jamiyatda ayrim ilђor o’zgarishlar ro’y berganligini tushunib yetganligi Zavkiy karashlarining muhim jihati edi. U texnik tarakkiyotning ijobiy ahamiyatga egaligini tan olgan va Turkistonning Rossiyaga ko’shib olinishi ko’proq ijobiy okibatlarni keltirib chikaradi, deb hisoblagan.

Saidahmad Siddikiy (1864-1927) yevropa, Osiyo mamlakatlari bo’ylab ko’p sayohat kilgan, Rossiyaga ham tashrif buyurgan. U Samarkandga kaytgach (1903), rus madaniyati, fani va texnikasini zo’r beri tarђib kila boshladi. U Yuqoridagilarni o’z xalqi ichida tarkatish uchun birinchi navbatda rus tilini o’rganishni yo’lga ko’yish zarur, deb hisoblaydi.

Siddikiy ikki tilda: o’zbek va tojik tillarida she’rlar yozgan. U o’zining ko’plab asarlari hamda ma’ruzalarida dinga va diniy ta’limga karshi chiqqan, ayni paytda Uluђbek, Donish, Furkat, Mukimiy kabi mutafakkirlar boshlab bergan dunyoviy ta’lim berish ђoyalarini kizђin ko’llab-kuvvatlagan.

Siddikiy faoliyatini tadkik qilish jarayonida O’zbekistonda pedagogika tarixini o’rganishda muhim ahamiyat kasb etadigan yangi faktlarni aniklashga muvaffak bo’lindi. CHunonchi, ma’lum bo’lishicha, u nafakat Samarkand shahrida, balki viloyatning ko’plab tuman va kishloklarida ham yangi maktablar ochgan hamda ularda mahalliy millat vakillari, ya’ni o’zbek va tojiklar farzandlari bilan bir katorda rus bolalarini ham o’kitgan ekan.

Siddikiy o’z asarlarida rus adabiyoti muammolariga ko’p e’tibor bergan, u L.N.Tolstoy, I.A.Krilov, N.V.Gogol, M.YU.Lermontov, A.S.Pushkinning asarlarini yaxshi bilgan, jumladan Gogolning «SHinel» asarini o’zbek tiliga o’girgan. U doimo rus adabiyotini o’rganishga va shu bilan o’z xalqi madaniyatini boyitishga chakirgan.

Siddikiy 1921 yildan boshlab to umrining oxirigacha pedagogik faoliyat olib borgan. Unga «Xizmat ko’rsatgan o’kituvchi» unvoni berilgan.

Anbar otin (1870-1915) – o’zbek shoirasi va ma’rifatchisidir. U kizlarga she’r yozish konun-koidalarini, odob-axlokni o’rgatgan.

Anbar otin ijodida ma’rifatchilik mavzusi fukarolik, vatanparvarlik va xalqlar do’stligi ђoyalari bilan korishib ketgan. SHoira ma’rifatni shaxsni ozod qilish yo’lidagi bir mash’ala deb hisoblagan.

Xalqka ma’rifat ziyosini tarkatish tashvishida yurgan Anbar otin Furkatga she’riy maktub yozadi, unda shoira uning yangi maktab ochish haqidagi talabini ko’llab-kuvvatlashni so’raydi. Zero, u mavjud boshlang’ich maktablar va madrasalar aholi savodsizligi muammosini hal kila olmasligini yaxshi tushunardi.

Abdukodir SHokiriy (1875-1943) tanikli pedagog bo’lib, u Samarkandda yangi usuldagi ilk maktabga asos solgan va O’zbekistonda ta’lim rivojiga ulkan hissa ko’shgan shaxsdir.

SHokiriy yangi maktab uchun mumtoz adabiyotning eng yaxshi namunalarini o’zida jamlagan darsliklar yozdi. U birinchi bo’lib o’zbek va tojik kizlari uchun bir xil ta’lim berishni talab qilib chikdi, shuningdek u birinchi bo’lib o’z maktabdi o’ђil va kiz bolalarning birgalikda o’kishini tashkil etdi. Bu SHo’ro inkilobigacha bo’lgan Turkiston maktab va ta’lim tarixidagi jasorat edi.

SHokiriyning o’z xalqini ma’rifatli qilish borasidagi sa’y-harakatlari uning ta’limda birinchi bo’lib ilђor usullarni ko’llagani bilan cheklanib kolmaydi. U o’zbek madaniyati va xalq ta’limining kator arboblarini tarbiyalab, voyaga yetkazgan.

Abdulla Avloniy (1878-1934) – jamoat va siyosat arbobi, shoir hamda pedagog bo’lib, u 1908 yilda kambaђallarning farzandlari uchun maktab ochadi. Uning o’zi shu maktabda yangi ta’lim usullarini ko’llagan holda ona tilidan dars beradi.

Avloniyning xalq ta’limi sohasidagi faoliyati uning yozuvchi va shoir, iktidorli yoshlar teatrining tarbiyachisi hamda sahnalashtiruvchi rejissyori sifatidagi faoliyati bilan uzviy bog’liqdir.

1916 yilda Rossiyada va Turkistonda milliy ozodlik harakatlari avj ola boshlaydi. A.Avloniy bunda harakat rahbarlaridan biri sifatida faol ishtirok etadi. 1917 yilning yozidan boshlab Avloniy «Turon» gazetasini chikara boshlaydi. Ushbu gazeta sahifalarida Avloniyning xalq maktabini tashkil etish, o’kituvchi kadrlarni tayyorlash va darsliklar chop etish masalalariga bañishlangan ko’plab makolalari bosiladi. Ayniksa, u o’zbek kizlariga ta’lim-tarbiya berish va ular uchun maxsus maktablar tashkil etish muammosiga alohida e’tibor beradi. Ushbu yillarda Avloniy «Adabiyot» (I-IV-kitoblar), «Turkiy guliston», «Maktab gulistoni» kabi kitoblarini yozadi va chop etadi.

A.Avloniy dunyokarashining shakllanishida ilñor rus adabiyoti va madaniyati muhim rol o’ynaydi. U A.S.Pushkin, L.N.Tolstoy, M.Gorkiyning ijodiy meroslariga katta hurmat bilan munosabatda bo’lgan va K.D.Ushinskiyning pedagogik merosini yukori baholagan.

U muayyan muddat mobaynida Turkiston Kompartiyasi Markaziy Ko’mitasining matbuot bo’limini boshkargan, so’ngra xalq ta’limi bo’limlari ishini boshkarishga o’tib, ko’plab yangi maktablar kurilishiga rahbarlik kiladi, o’kituvchilarni savodsizlikni bartaraf etish ishlariga jalb kiladi.

Avloniy pedagogika bilim yurti, O’zbekiston O’lka ma’rifat instituti, Toshkent harbiy bilim yurti, O’rta Osiyo davlat universitetida ishlagan kezlari ham ma’rifat tarkatish ishiga butun kuch-ñayratini sarfladi.

Hamza (Hamza Hakimzoda Niyoziy – 1889-1992) – shoir, yozuvchi, aktyor, bastakor, jamoat arbobi va pedagog bo’lib, u 1911-1915 yillarda Ko’kon, Marñilon shaharlarida kambañallar va yetimlar uchun maktablar ochgan. 1-sinf uchun «Engil adabiyot», 2-sinf uchun «O’kish kitobi» va «Kiroat kitobi» nomli darsliklar yozgan. Bu darsliklar ko’lyozma holicha kolib ketgan CHunki, bu paytda bosmaxonalarga rahbarlik kilgan jadidlar uni bosishga ruxsat bermaganlar.

Hamzaning ma’rifatparvarlik faoliyati mahalliy boylar va mutaassiblar tomonidan keskin koralandi. 1912 yilda uning maktabi yopib ko’yiladi, Hamzaning o’zi esa Vatanni tark etishga majbur bo’ladi. 1913 yilda u Afñonistonda, Hindistonda, Turkiya va Arabistonda bo’ldi, shuningdek Rossiyaning janubiy tumanlariga bordi.

1914 yilda u Ko’konga kaytib keldi hamda mahalliy to’ralar, boylar va ruhoniylarning karshiliklariga karamasdan yana yetimlar uchun bepul maktab («Doril aytom») ochdi. Hamza mazkur maktab koshida kattalar uchun kechki kurslar ochdi. Oradan ko’p o’tmay ushbu maktabni ham yopib ko’yishadi.

1914 yilning oxirida Hamza yana Ko’kondan Marñilonga kochishga majbur bo’ladi va 1915 yilda u yerda maktab ochib, katta pedagogik va ma’rifatparvarlik faoliyatini davom ettiradi.

Hamza Hakimzoda Niyoziyning pedagogika fani va amaliyotini rivojlantirishdagi ulkan xizmatini kayd etgan holda shuni aytish lozimki, u ko’proq yod olishga asoslangan eski maktabga karshi kurashish bilan bir katorda ta’limning yangi tuzilmasini taklif kildi. Xususan, u maktablarda ona tili, tabiatshunoslik, matematika, jo’ñrofiya, rus tili va musika kabi dunyoviy fanlarni o’kitish ñoyasini olña surdi. Hamza savod o’rgatishning tovushli metodini birinchi tarkatuvchilaridan hisoblanadi.

Hamzaning pedagogik karashlari yoshlarni akliy, axlokiy va estetik tarbiyalashning muhimligi haqidagi ñoyalar bilan suñorilgan. Ayniksa, u tarbiya va ta’lim ishida o’kituvchiga, uning bilim darajasiga hamda axlokiy kiyofasiga alohida e’tibor bergan.

Sadriddin Ayniy (1878-1954) filologiya fanlari doktori, professor, Tojikiston Fanlar akademiyasining birinchi prezidenti, tanikli yozuvchi, jamoat arbobi va O’rta Osiyo tarixi bilimdoni bo’lib, u mintaka xalqlari madaniyatining yirik vakili hisoblanadi.

S.Ayniy dunyokarashlarining shakllanishiga birinchi rus revolyutsiyasi va O’rta Osiyoda milliy ozodlik harakatlari katta ta’sir ko’rsatdi. Ushbu davrda Ayniy mehnatkash xalq oñir

ahvolda kolganligining sababi uning savodsizligida deb hisoblardi. SHuning uchun ham u yangi maktablar ochishga zo'r berib harakat kilgan.

Oktyabr inkilobidan so'ng S.Ayniy xalq ta'limi masalalari bilan faol shuђullana boshlaydi. U darsliklar tuzadi, boshlang'ich va o'rta maktablar uchun o'zbek va tojik tillarida kator darsliklar tayyorlashda ishtirok etadi.

S.Ayniyning ijtimoiy va pedagogik karashlariga M.Gorkiy katta ko'rsatgan.

S.Ayniyning asarlari ichida «Ahmad – ruhlar afsungari», «Eski maktab» kabi asarlari alohida o'rin tutadi, mazkur kitoblarda pedagogika tarixi va nazariyasining muhim masalalari o'z askini topgan.

Ismatullo Rahmatullaev (1883-1961) XX asr boshlaridagi jamoat arboblari va pedagoglari ichida ko'zga ko'ringan ma'rifatparvarlardan biridir. U tarbiyaga oid o'z karashlarida A.SHokiriyning izdoshi hisoblanadi. I.Rahmatullaev 1905 yildan boshlab o'kituvchi bo'lish ishlay boshladi va ayni paytda rus-tuzem maktabiga ham katnadi.

I.Rahmatullaev ilk darsliklar, alifbolarni tuzishda ishtirok etadi. Ayniksa uning 1915 yilda bosilib chiqqan «Rahbari maktabi» nomli darsligi bugungi kungacha arab tilini o'rgatishdagi eng yaxshi ko'llanmalardan biri hisoblanadi.

Rahmatullaev rus pedagoglari K.D.Ushinskiy va L.N.Tolstoylarning ilђor pedagogik ђoyalarining faol tarђibotchisi bo'lgan. Ayniksa uning mohir pedagog, O'zbekiston uchun milliy ziyolilar tayyorlash tashkilotchisi, uslubchisi va faol ishtirokchisi sifatidagi xizmatlari bekiyosdir.

P.I.Ivanov (1891-1968) sovet davridagi tanikli psixolog bo'lib, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutining psixologiya kafedrasiga rahbarlik kilgan. Keng kamrovli bilimlar egasi bo'lgan olim Platon Ivanovich Ivanov O'zbekistonda psixologiya fanini rivojlantirishga katta hissa ko'shdi. U psixologiya tarixi, umumiy, yosh va pedagogik psixologiya, mehnat ta'limining psixologik asoslari haqida 75 dan ortik asar yozgan. Uning ilmiy tadqiqotri fikrlash va mantik psixologiyasi muammolariga baђishlangandir. SHuningdek, u kator darsliklar ham yaratgan.

1925 yilda P.I.Ivanov birinchi rus mutaxassislari katorida O'zbekistonga ishga taklif etilgan. O'sha paytda respublika pedagogik kadrlarga juda muhtoj edi. U o'z faoliyatini mahalliy kadrlarni tayyorlashdan boshladi va bu bilan O'zbekistonda psixologiya fanining poydevoriga asos soldi.

Olim yaratgan darsliklar ichida «Ta'limning psixologik asoslari» nomli kitobni (1960 yilda rus tilida va 1961 yilda o'zbek tilida chop etilgan) alohida kayd etish zarur. Bu pedagogik psixologiya sohasidagi birinchi o'quv ko'llanmasi edi.

P.I.Ivanov O'zbekistonda ilmiy faoliyatdan tashkari katta jamoatchilik ishlari bilan ham shuђullangan. U Toshkent shahar Kengashining deputati, Respublika Tinchlikni himoya qilish jamђarmasi a'zosi bo'lgan.

Toshmuhammad Niyozovich Koriev (1897-1970) olim va jamoat arbobi, O'zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi bo'lib, u hali yoshligidayok Farђonada birinchi o'zbek sovet maktabini tashkil kilgan. 1920 yilda Ko'kondagi ushbu maktab negizida viloyat pedagogika texnikumi ochilgan va o'sha yillari mazkur bilim yurti pedagogik kadrlar tayyorlash o'choђiga aylandi.

T.N.Koriev 1930 yilda O'rta Osiyo Davlat universitetining fizika-matematika fakultetini tugatgach, Toshkent Davlat universitetining rektori vazifasiga tayinlanadi. Ushbu davrdan boshlab uning katta pedagogik va ilmiy faoliyati boshlanadi.

1931 yilda u o'zbeklardan birinchi bo'lib professor unvoniga sazovor bo'ladi, 1939 yilda esa fizika-matematika fanlari doktori bo'ladi.

O'zbekistonda fan va madaniyatning shakllanishi va rivojlanishi Kori-Niyozov nomi bilan uzviy bog'liqdir. U 300 dan ortik asarlarni, shu jumladan keng ilmiy jamoatchilik tomonidan tan olingan «Uluђbekning astronomik maktabi» nomli asarni yozgan.

Kori-Niyozovning ilmiy tadqiqotri xalqaro mikyosda ham tan olingan, jumladan 1954 yilda u Xalqaro Astronomiya jamiyatining a'zosi, 1968 yilda esa Fanlar tarixi bo'yicha XII

Xalqaro Kongressning Bosh Assambleyasi a’zosi etib saylangan. Bundan tashkari, A.K.Borovkov bilan hamkorlikda birinchi o’zbek-rus lug’atini tuzgan. Mazkur lug’at keyingi lug’atlar uchun asos bo’lib xizmat kildi va o’zbek alifbosidan kirill yozuviga o’tishga juda ish berdi.

Xalq ta’limi muammolariga bañishlangan ishlar T.N.Kori-Niyozovning ijodiy merosida alohida o’rin tutadi.

Ъafur Ъulom (1903-1966) sovet davridagi o’zbek adabiyotining asoschilaridan biri, O’zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi va xalq shoiridir. U 1918 yilda o’kituvchilar tayyorlash kursini tugatib, boshlang’ich maktabda ishlay boshladi. SHu davrdan boshlab u birinchi o’zbek maktab-internatlarini ochishda faol ishtirok etdi, so’ngra o’zi ularda mudir va tarbiyachi vazifalarida ishladi.

1943 yildan boshlab to umrining oxirigacha O’zbekiston Fanlar akademiyasining A.S.Pushkin nomidagi Til va adabiyot institutida katta ilmiy xodim bo’lib ishladi.

Ъafur Ъulom xalq ta’limi tizimidagi ishini jurnalistlik faoliyati bilan ko’shib olib bordi. Urushdan oldingi yillarda u 500 dan ortik she’r, poema, hikoyalar, ocherklar va feletonlar yozgan.

Uluђ Vatan urushi Ъ.Ъulom ijodida alohida o’rin tutadi(«Sen yetim emassan», «Soђinch», «Men seni kutaman, o’ђlim»). Ъ.Ъulom kator rus va chet el yozuvchilarining (M.YU.Lermontov, A.S.Pushkin, M.Gorkiy, V.V.Mayakovskiy; I.Bexer, V.SHekspir, P.Bomarshe, A.Gidosh, L.Xyuz, Lopa de Vega va boshk.) asarlarini o’zbek tiliga tarjima kilgan.

Ъ.Ъulomning shoir sifatidagi faoliyati O’zbekistonda xalq ta’limini tashkil etish va uni rivojlantirishga karatilgan keng jamoatchilik faoliyati bilan uzviy bog’liqdir.

SHoirning savodsizlikka karshi kurashdagi hissasi ham sezilarlidir. 1923 yilda uning tashabbusi bilan Degrezli dahasida (Toshkent) kattalar uchun savodxonlik kurslari ochiladi. Ъ.Ъulom pedagog sifatida ko’p kirrali shaxs bo’lgan. Jumladan, maktabda unga adabiyot, jo’ђrofiya, jamiyatshunoslik, musika fanlaridan va raksdan dars berishga to’g’ri kelgan.

Ъ.Ъulomning pedagogik faoliyati ham xuddi uning adabiy ijodi kabi yoshlarga chukur bilim berish, ularni axlokli va didli qilib tarbiyalash, shuningdek pedagogika fani nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishga karatilgan.

SHoir asarlarining pedagogik xususiyatlaridan biri shuki, u bolalarning ichki dunyosini, ularning kayfiyatini, kechinmalarini va shaxsiy intilishlarini his kila olgan. U yaratgan kahramonlar obrazlari hayotdan olingan. SHu nuktai-nazardan olib qaraganda, Ъ.Ъulom asarlari nafakat yukori saviyali badiiy proza namunasi hisoblanadi, balki ular tarbiyaviy ahamiyatga ham egadir.

Ъ.Ъulom bolalarni oilada tarbiyalash masalasiga katta ahamiyat bergan. U bolaning kanday voyaga yetishi, uning jamiyatda qanchalik munosib o’rin egallashi bevosita ota-onalarga bog’liq, deb hisoblardi. Oilaviy tarbiyada u ota-onalarga asrlar sinovidan o’tgan xalq pedagogikasini ko’llashni tavsiya kilgan.

Oybek (Muso Toshmuhammedov – 1905-1968) sovet davridagi o’zbek adabiyotiga asos solgan yozuvchilar katoriga kiradi.

Oybekning badiiy va publitsistik asarlarida uning pedagogik ђoyalari va karashlari yaqqol ifodalangan. Oybek yozuvchi sifatidagi o’z vazifasini xalqka, Vatangan xizmat qilishdan iborat, deb bilgan, so’zni tarbiyaning kudratli va ishonchli vositasi deb hisoblagan.

Bolada ziyo va ma’naviyat uruђini ekmay turib, uni hakikiy kurashchi va fukaro qilib voyaga yetkazish mumkin emas, degan fikr Oybek ijodining muhim jihatlaridan biri edi. SHuning uchun u yoshlarni bilim olishga, xalqning boy tarixiy tajribasini, butun insoniyatning ma’naviy boyliklarini o’zlashtirishga chakirgan. U yosh avlodni tarbiyalashda mehnatning tutgan o’rniga katta ahamiyat bergan, fakatgina mehnat yordamida har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni voyaga yetkazish mumkin, deb hisoblagan. Bu yozuvchining asosiy pedagogik fikri edi.

Hamid Olimjon (1899-1944) – sovet davridagi adabiyotning yirik vakillaridan biridir. 1923 yilda u Jizzaxdagi noto’lik o’rta maktabni tugatgan, so’ngra Samarkanddagi pedagogika

bilim yurtida o'kidi, uni tugatganidan so'ng Samarkand Pedagogika akademiyasining ijtimoiy-iktisodiy fakultetiga o'kishga kirgan.

Akademiyadagi ta'limni nihoyasiga yetkazganidan so'ng H.Olimjon «YOsh leninchi» gazetasida, «Kurilish» jurnallarida, so'ngra madaniy kurilish ilmiy-tekshirish institutida ishladi. Keyinrok «Sovet adabiyoti» jurnalida mas'ul kotib vazifasini bajardi, O'zbekiston Ilmiy ko'mitasi huzuridagi Til va adabiyot institutida bo'lim mudiri, O'zbekiston O'quv-pedagogika nashriyotida bo'lim boshliђi vazifalarida ishladi.

Hamid Olimjon sovet davridagi o'zbek adabiyoti rivojiga va O'zbekistonda pedagogika fanining rivojlanishiga ulkan hissa ko'shdi. U maktablarda, Pionerlar saroylarida, bolalarning texnik stantsiyalarida, respublikadagi oliy o'quv yurtlarida tez-tez bo'lib turar, bolalar bilan suhbatlar o'tkazar va ularga o'z she'rlaridan o'qib berardi.

H.Olimjon o'z asarlarida insoniyatning yukori ideallariga sodik kolgani holda hayotni hakkoniy aks ettirgan. Bu asarlar yosh avlodni badiiy-estetik tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir.

Uning ko'plab asarlari 20-asrning nihoyasidan boshlab to bugungi kungacha O'zbekistondagi maktablar, o'rta-maxsus o'quv muassasalari va pedagogika oliy o'quv yurtlarining o'quv rejalariga kiritib kelinmokda.

**XULOSALAR:**

-XVIII-XIX asrlardagi o'zbek olimlari, pedagoglari, yozuvchilari jamiyat farovonligini oshirish vositasi sifatida ma'rifatparvarlik, bilim olish va fanlarni rivojlantirishga katta ahamiyat berganlar.

-O'zbek ma'rifatchi demokratlari (Zavkiy, Furkat, Mukimiy) xalqning kolokligini bartaraf etishda ma'rifatning o'rni bekiyos deb bilganlar. Kapitalizmning kirib kelishi bilan jamiyatda yuz bergan ayrim progressiv o'zgarishlarni anglash, Turkistonning Rossiyaga ko'shib olinishi tufayli yuz bergan texnikaviy rivojlanishni tan olish ular dunyokarashlarining muhim tarkibiy kismi edi.

-Ushbu davrdagi o'zbek olimlari, yozuvchilari rus mumtoz adabiyoti, madaniyati bilan tanishadilar, rus tilini o'rganadilar va ularning O'rta Osiyodagi faol tarђibotchilariga aylanadilar.

-Ularning tashabbusiga ko'ra (S.Siddikiy, A.SHokiriy, A.Avloniy) yangi usuldagi maktablar ochiladi, ularda dunyoviy fanlar o'kitiladi; ayniksa o'zbek kizlarini o'kitishga alohida e'tibor beriladi.

-Ular tomonidan maktablar uchun yangi darsliklar yaratiladi.

-Ular milliy ilmiy va pedagogik kadrlarni, ziyolilarni tayyorlash ishiga katta hissa ko'shganlar.

-30-yillarda respublikada psixologiya faniga asos solindi, uning asoschisi O'zbekistonga taklif kilingan birinchi rus psixolog mutaxassisi P.I.Ivanov edi.

-1931 yilda Kori-Niyozov o'zbeklar ichida birinchi bo'lib professor unvoniga, 1939 yilda esa – fizika-matematika fanlari doktori ilmiy darajasiga sazovor bo'ldi.

-O'zbek yozuvchilarining butun adabiy ijodi va pedagogik faoliyati o'quvchi yoshlarga chukur bilim berish, ularni axlokli va didli qilib tarbiyalash, pedagogika fani nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishga karatilgan.

**NAZORAT SAVOLLARI:**

-Abu Nasr al Forobiyning tarbiya va ta'limga oid karashlarining bosh mazmunini tavsiflang.

-Abu Rayhon Beruniyning tarbiya va ta'limga oid ilmiy karashlarining ilђorligi va cheklanganligi nimalarda ifodalanadi?

-Ibn Sino ilmiy-pedagogik ijodiyotini, ya'ni uning chukurligi, insoniyligi va tarbiyadek murakkab muammoning to'g'ri talkin kilinganligini asoslab bering.

-YUsuf Xos Hojibning «Odillar tuhfasi» poemasi didaktik asosi nimalarda ifodalanadi?

-D.Devoniyning tarbiya va ta'limga oid ijobiy ђoyalarini tavsiflab bering.

-A.Navoiy pedagogik merosining bosh xususiyati nimalarda ifodalanadi?
-YA.A.Komenskiyning «oltin koida»sini asoslab bering.
-Ogahiyning ma’rifat sohasidagi alohida xizmatlarini tavsiflab bering.
-Berdak ijodidagi demokratik fikrlar nimalarda ifodalanadi?
-Furkat, Mukimiy, Zavkiy dunyokarashlaridagi asosiy narsa nima?
-S.Siddikiyning pedagogik faoliyatini tavsiflab bering.
-Anbar otinning ma’rifatparvarlik faoliyati nimalarda ifodalanadi?
-A.Avloniyning pedagogik faoliyatini tavsiflab bering.
-H.H.Niyoziy pedagogik karashlarining yangiligi nimada?
-Ayniyning pedagogika nazariyasi va tarixi masalalari yoritilgan asarlarini tavsiflab bering.
-I.Rahmatullaevning pedagog sifatidagi xizmatlarini asoslab bering.
-P.I.Ivanov va uning O’zbekiston Respublikasida psixologiya fanini rivojlantirishga ko’shgan hissasi.
-T.N.Kori-Niyozovning ilmiy-pedagogik faoliyatini tavsiflab bering.
-Ђ.Ъulomning savodsizlikka karshi kurashdagi roli.
-Oybekning bosh pedagogik ђoyasi nimalarda ko’rinadi?
-H.Olimjon hamda uning O’zbekistonda o’zbek adabiyoti va pedagogika fani rivojiga ko’shgan hissasi.

## III-MAVZU

## NUTQ O‘STIRISH NAZARIYASI VA METODIKASINING FAN SIFATIDA SHAKLLANISH TARIXI

**K.D.Ushinskiy – bolalarga birinchi navbatda ona tilini o’kitish asoschisi.**
**E.N.Vodovozova, uning bolalar nutqini rivojlantirish metodikasiga ko’shgan hissasi.**
**Sovet davrida nutq metodikasining rivojlanishi.**

### K.D.Ushinskiy – bolalarga birinchi navbatda ona tilini o’kitish asoschisi

Rus pedagogi K.D.Ushinskiy (1824-1870) rus burjua-demokratik pedagogikasi, xususan, maktabgacha pedagogikaning asoschisi hisoblanadi. U bolalarni maktabgacha tarbiyalash nazariyasi va amaliyoti masalalarini boshlang’ich ta’lim muammosi bilan boђlagan.

Ushinskiy pedagogika tizimining asosiy yetakchi ђoyasi **xalqona** tarbiya ђoyasi hisoblanadi, bunda u har bir xalqning u yashaydigan va mehnat kiladigan tarixiy, tabiiy shart-sharoitlari bilan bog’liq bo’lgan o’ziga xosligini tushunadi.

Ushinskiy ona tili - xalqonalikning eng yaxshi ifodasi tan olgan hamda ta’lim va tarbiya ishida ona tili asosiy o’rinni egallashi lozim, deb hisoblagan.

Ona tilining bola ruhiy kuchlarini har tomonlama rivojlantirish, til mohiyati va uning vujudga kelishining bosh manbai ekanligi haqidagi ta’limot K.D.Ushinskiy pedagogik ta’limotida markaziy o’rinlardan birini egallaydi hamda uning metodik tizimini tushunish uchun asos bo’lib xizmat kiladi.

K.D.Ushinskiy ona tilini **birlamchi o’kitishning uchta asosiy maksadlarini** shakllantirgan:

I. – so’z imkoniyatlarini rivojlantirish;

II. – bolaga fikrni ifodalash uchun ona tilining eng yaxshi shakllaridan foydalanishni o’rgatish, bolalarni «ona tilining boyliklarini egallash»ga jalb qilish.

III. – til konunlarini, uning grammatikasini o’rganish.

Ona tilini birlamchi o’kitishning barcha uch maksadiga ketma-ket emas, balki bir vaktning o’zida erishiladi.

1861 yilda Ushinskiyning «Ona tili» nomli asari chop etildi. Mazkur asar Konstantin Dmitrievichning bolalarga birlamchi savod o’rgatish va ularni tarbiyalash bilan bog’liq pedagogik ђoyalari hamda estetik tamoyillarining o’ziga xos yakunlari va amaliy ifodasi bo’ldi. O’kish kitobining butun mazmuni muayyan tizim bo’yicha berilgan. «Ona tili» kitobi nafakat bilimlar komusi, balki badiiy entsikoplediya ham hisoblanadi.

Uning 1-kismidan 19 ta ertak, 30 ta topishmok, 123 ta makol va matal, 13 ta tez aytish, 14 ta ko’shik, 14 ta turli shoirlar she’rlari hamda Ushinskiyning o’zi yozgan 43 ta hikoya joy olgan.

Ushinskiy birinchi bor kitoblarida bolalarni o’z zamondoshlari – Tyutchev, Nekrasov, Ogarev, Turgenev asarlari, shuningdek Karamzin, Lermontov, Krilov asarlari bilan tanishtirdi.

Kitobni tuzish tartibi quyidagicha: u bolaning tabiat, kishilar va jamiyat haqidagi bilimlarini kengaytirgani va chukurlashtirgani holda uni tanish narsadan notanish narsalar tomon boshlab boradi.

Ushinskiy 6 yoshgacha bo’lgan bolalar nutqini tavsiflar ekan, uning ayrim xususiyatlarini, masalan: tovushning tushunarsizligi, lug’at boyligining yetarli emasligi, o’zaro bog’liqlikning yo’kligini alohida ta’kidlagan. U bolalar bilan mashђulot o’tkazishning turli shakllarini taklif kilgan:

- bolalar hayotidan hikoyalar;
- bolaga narsalarning xususiyatlarini ko’rishda, 6 yoshga kelib esa narsalar juftligini bir-biriga takkoslash, ular o’rtasidagi umumiylik va farklarni topishda yordam beruvchi mashklar;
- suratlar asosida hikoya qilish, bu bolalarga savollarga javob berish, so’ngra esa ravon, tushunarli va erkin hikoya qilib berishni o’rgatadi;
- bolalarni o’kish va yozishga tayyorlovchi amaliy mashklar.

K.D.Ushinskiyning til va uning bolaning ruhan shakllanishida tutgan o’rni haqidagi ta’limoti nutqni rivojlantirish metodikasini mustaqil fan sifatida ajratish uchun muhim ahamiyatga egadir.

1. Til haqida, uning vujudga kelishi haqidagi ta’limot – metodikaning nazariy asoslari ishlab chikildi; uning har bir odamning rivojlanishida tutgan o’rni ko’rsatib berildi, bu esa bolalarni rivojlantirish va tarbiyalashda ona tilining yetakchi o’rin tutishini asoslash imkonini berdi.
2. Bolalar nutqini rivojlantirish ishi maktab ta’limiga kadar boshlanadigan ish sifatida alohida bo’limga ajratilgan.
3. Bolalar nutqini rivojlantirishga bolaning uzok davom etadigan ona tili, uning mazmuni va shakllarini o’zlashtirish jarayoni sifatida karalgan. Ushbu murakkab jarayon ustoz tomonidan to’g’ri va faol rahbarlik qilishni talab kiladi.
4. Ona tilini o’kitish jarayoniga rahbarlik qilishning asosiy koidalari: ona tilini birlamchi o’kitishning maksadlari; ularni amalga oshirish mazmuni va shakli; nutqni rivojlantirishda ko’rgazmaviylikning ahamiyati ishlab chikilgan va asoslab berilgan.
5. Bola nutqini uning fikrlashi, ma’naviy va estetik his-tuyђulari bilan birgalikda rivojlantirishni ta’minlovchi ish usullari ko’rsatib berilgan.

**E.N.Vodovozova, uning bolalar nutqini rivojlantirish metodikasiga ko’shgan hissasi**

Elizaveta Nikolaevna Vodovozova (1844-1923) K.D.Ushinskiyning shogirdi va izdoshi bo'lib, u maktabgacha tarbiya masalalarini nazariy ishlab chikishga sezilarli hissa ko'shgan. Ayni paytda ye.N.Vodovozova tanikli bolalar yozuvchisi bo'lib,u o'z davrida Rossiya tabiati hamda Garbiy yevropa davlatlari xalqlari hayotidan hikoya kiluvchi ajoyib ocherklar va hikoyalar yozgan.

1871 yilda uning maktabgacha pedagogikaga oid asosiy asari – «Bolalarda ong paydo bo'lgan paytdan boshlab to 8 yoshgacha ularni aklan rivojlantirish» nomli kitobi chop etildi. Vodovozova tarbiyaning bosh maksadi – «insonni – insoniylik ђoyalarini o'zida jo kilgan bo'lajak ijtimoiy arbob va o'z vatani fukarosini tarbiyalashdan iborat», deb hisoblagan.

Vodovozova maktabgacha yoshdagi bolalarni oilada va jamiyatda tarbiyalash tizimining asosiga xalqonalikni kiritdi. U bolalarni ilk yoshidan boshlab tarbiyalash tizimi xalq nutqi, xalq ko'shiklari, topishmoklari, ertaklari va o'yinlaridan foydalanish asosiga kurilishi lozim, deb hisoblagan. Bu tizim bolalarda xalqiga, vataniga muhabbat tuyђularini tarbiyalashni ta'minlashi lozim.

E.N.Vodovozovaning ulkan xizmatlari shundaki, u bolalarda ona tilini rivojlantirish dasturini va bolalarni tarbiyalashda rus folkloridan foydalanish metodikasini ishlab chikdi. Vodovozova ham xuddi K.D.Ushinskiy kabi ertaklarni, ayniksa xalq ertaklarini himoya qilib chiqqan. Vodovozovaning fikriga ko'ra, ertak bolalarning boy kuzatishlari va bilimlariga tayanadi, u bolalar xayolotini rivojlantiradi, bolalar nutqining boyishiga ko'maklashadi, ularga xalq iboralarini, nutq oborotlarini oddiy va jonli obrazlarda yodda saklab kolishga yordam beradi, ma'naviy jihatdan tarbiyalashda ko'maklashadi.

Vodovozovaning «Akliy rivojlanish» nomli asarida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish uchun imkon doirasidagi va foydali bo'lgan xalq ertaklari turkumi bayon kilingan.

**Sovet davrida nutq metodikasini rivojlantirish**

Nutqni rivojlantirish metodikasi fakat sovet davriga kelib mustaqil fan sifatida shakllandi. Ushbu davrning dastlabki yillaridayok (1918) nafakat Rossiyada, balki bolalar milliy tilda o'kitiladigan barcha milliy hududlarda ham ommaviy ravishda bolalar bog'chalarini tashkil qilish boshlandi. Umumiy maktabgacha ta'lim nazariyasi vujudga keldi. Bolalar nutqini rivojlantirish ishining mazmuni va uning eng samarali yo'llarini aniklash vazifasi paydo bo'ldi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish metodikasini fan sifatida shakllantirishga ye.I.Tixeeva, ye.A.Flerina, O.I.Solovev, A.N.Govzdev va boshkalar katta hissa ko'shganlar.

Elizaveta Ivanovna Tixeeva (1866-1944) talantli pedagog va yirik jamoat arbobi edi. ye.I.Tixeeva «eng yaxshi ma'nodagi insonni» tarbiyalashga yord-7am berishi va eng ilk yoshdan boshlab to keksalikka kadar insonni har tomonlama rivojlantirishni ta'minlaydigan pedagogik nazariyani yaratish ustida ishlagan.

E.I.Tixeeva o'z pedagogik faoliyatining dastlabki yillaridayok bolalarni o'kitishda ona tilining muhim ahamiyatga egaligiga e'tiborini karatgan.

K.D.Ushinskiy ta'limoti asosida hali inkilobgacha bo'lgan davrdayok ishlab chikilgan oilada, bolalar bog'chasida, maktabda bolalarga ona tilini o'kitish jarayonida ularning nutqini rivojlantirish metodikasi ye.I.Tixeevaning pedagogik nazariyasida markaziy o'rin egallaydi.

1913 yilda ye.I.Tixeevaning «Ona tili va uni rivojlantirish yo'llari» nomli asari bosilib chikdi. Tixeeva nutqni rivojlantirish ahamiyati, yo'llari va vositalariga oid muhim masalalarni til madaniyatini umumiy rivojlantirish, bolalarda o'z xalqiga, vataniga muhabbatni tarbiyalash bilan bog'liqlikda hal etgan. ye.I.Tixeeva tilni o'rgatishni ilk bolalik choђidan boshlash zarur, deb hisoblagan, chunki to'g'ri nutq ko'nikmasi boshka boshka ko'nikmalar singari oilada orttiriladi. ye.I.Tixeevaning fikricha, bolalar bog'chasi bolalarning barcha kobiliyatlarini rivojlantirgan holda nutqni egallashning juda ahamiyatli va muhim kobiliyatiga e'tiborni karatishi darkor:

«chunki nutqni muntazam o’rgatish, nutq va tilni metodik rivojlantirish bolalar bog’chasidagi butun tarbiya ishlarining asosini tashkil kilmoђi lozim»[7].

Bolalar bog’chasining ye.I.Tixeeva tomonidan olђa surilgan **asosiy vazifasi** – bolalarning barcha kobiliyatlarini, shu jumladan nutqni egallash qobiliyatini jadal rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Ayni paytda nutqni o’rgatish bolalar bog’chasidagi butun tarbiya ishlarining asosini tashkil kilmoђi zarur.

**Ikkinchi vazifa** – bolalar nutqining shakli, uning kichkintoy atrofdagilardan o’zlashtirib oladigan tuzilmasi ustida ishlashdan iborat.

**Uchinchi vazifasi** – bolalar nutqini rivojlantirish vazifasini tarbiyachilar zimmasiga yuklagan holda pedagog ye.I.Tixeeva fikriga ko’ra, bolalar nutqini rivojlantirishning eng yangi metodlarini o’zlashtirishi, nafakat metodik usullarni bilishi, balki ularni bolalar bilan muloqot choђida ko’llay olishi ham darkor.

E.I.Tixeeva o’z metodikasida bolalar nutqini rivojlantirishga oid ishlar mazmunini hamda nutqning rivojlanishi, og’zaki nutq rivojlanishi ro’y beradigan faoliyat turlarini aniklaydi.

Mashg’ulotlar jarayonida ushbu faoliyat turlarini yo’lga ko’yishda Tixeeva asosiy e’tiborni lug’at boyitish va ravon nutqni rivojlantirishga karatish lozimligini ko’rsatadi. U ko’rgazmaviylik va kuzatishni bola nutqini rivojlantirish asosi deb hisoblaydi. ye.I.Tixeeva tomonidan ekskursiyalarni o’tkazish metodikasi ishlab chikilgan, ekskursiyalarni bunday tashkil qilish uning fikricha, bolalarni bevosita tabiatga oshno kiladi, ularga jonli borlikni ularning tabiiy munosabatlari bilan birgalikda tanishtiradi.

E.I.Tixeeva nutqni rivojlantirish Mashg’ulotlariga nisbatan ko’yadigan asosiy talablari katorida bolalar kizikishlari va tajribalari, ularni jonli o’tkazish, harakatlanish va sinab ko’rish imkoniyatlari bilan alokasini olђa suradi.

O’z davrining ilmiy yutuklari doirasida ye.I.Tixeeva quyidagilarni ishlab chiqqan:

- bolalarni maktabda ta’lim olishga tayyorlovchi uyushtirilgan dasturiy Mashg’ulotlarni o’tkazish metodikasi;
- maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini, fikrlashini rivojlantirish va ularga ona tilini o’kitish metodikasi;
- original didaktik material tizimi va undan bolalar bog’chasida foydalanish metodikasi.

Sinchiklab ishlab chikilgan nutqni rivojlantirish metodikasi maktabgacha tarbiya nazariyasi va amaliyotiga ko’shilgan ulkan hissa bo’lib, u bugungi kunda ham o’z ahamiyatini yo’kotmagan.

1937 yilda ye.I.Tixeevaning «Maktabgacha yoshdagi bola nutqini rivojlantirish» nomli kitobi bosilib chikdi, mazkur asar bolalar bog’chasida bolalarga ona tilini o’kitishga doir ishlarni tashkil qilish jarayonida ulkan ahamiyatga ega bo’ldi.

1939 yilda esa Gertsen nomidagi pedagogika institutining maktabgacha tarbiya bo’limi uchun «Maktabgacha yoshda nutqni rivojlantirish» kursi dasturi chop etildi.

«Maktabgacha yoshdagi bola nutqini rivojlantirish» kitobida (1967, 1981) bayon etilgan amaliy tavsiyalar bolalar bog’chalarida hozirgi kungacha ko’llanib kelinmokda.

Evgeniya Aleksandrovna Flerina (1889-1952) maktabgacha tarbiya sohasidagi birinchi pedagogika fanlari doktori bo’lib, u nutqni rivojlantirish metodikasini ishlab chikishga katta hissa ko’shgan.

E.A.Flerina umumiy estetik tarbiyaning tarkibiy kismi sifatida badiiy o’kish muammolari bilan shuђullangan.

Bolalar bilan ishlash va o’kituvchilik borasidagi o’z tajribalarini ye.A.Flerina «Maktabgacha tarbiya muassasalarida jonli so’z» nomli maktabgacha tarbiya yo’nalishidagi bilim yurtlari va institutlar uchun birinchi o’quv ko’llanmasida aks ettirgan (1933). Ushbu ko’llanmaning asosiy bo’limlari og’zaki nutq, suhbat, badiiy o’kish va bolalarga hikoya qilib

[7] Е.И.Тихеева

berish hamda bolalarning o'zlari hikoya qilib berishlariga bağishlangan. Ayniksa, ye.A.Flerinaning badiiy asarga san'at asari sifatida katta e'tibor bergani, badiiy matnni o'quvchiga yetkazishning turli usullarini, jumladan o'kilgan asar bo'yicha suhbat o'tkazish usulini ishlab chiqqanligi juda kimmatlidir.

1948 yilda maktabgacha tarbiya masalasi bo'yicha Butunrossiya konferentsiyasi o'tkazildi, u so'nggi yillardagi ilmiy-tadkikot ishlariga yakun yasadi va bu borada yangi vazifalarni belgilab berdi. Ilmiy va amaliy xodimlarning anik maksadni ko'zlagan holda asta-sekinlik bilan olib borgan ishlari natijasida bolalar bog'chasida ona tilini o'kitish **tizimi** shakllandi. Tarbiyachilar uchun ona tiliga doir ko'llanmalar, bolalar bog'chalaridagi en yaxshi ish tajribalari haqida makolalar to'plamlari muntazam ravishda chop etila boshlandi. 1956 yili maktabgacha tarbiya yo'nalishidagi pedagogika bilim yurtlari uchun birinchi marta «Bolalar bog'chasida nutqni rivojlantirish va ona tilini o'kitish» nomli o'quv ko'llanmasi dunyo yuzini ko'rdi. Mazkur ko'llanma muallifi O.I.Soloveva edi.

50-60 yillarda nutqni rivojlantirish metodikasida yangi bo'lim – grammatik to'g'ri nutqni shakllantirishga katta e'tibor berila boshlandi.

Ushbu masalini yoritishga professor A.N.Gvozdev ulkan hissa ko'shdi, u o'zining «Bolalar nutqni o'rganish masalalari» nomli kitobida (1961) bolalarning ilk yoshdan boshlab grammatik tuzilishni o'zlashtirib olishlarining qonuniyatlarini ochib bergan.

50-60 yillarning maktabgacha ta'lim didaktikasida ta'limga tarbiyalovchi jarayon sifatida karalgan. Tarbiyachilar e'tibori nutqiy Mashg'ulotlar metodikasi va mazmuniga karatilgan, ammo bolalar faoliyatining boshka turlarida nutqni rivojlantirish ishiga juda kam e'tibor berilgan.

1960 yilda jahonda birinchi marta sobik Sovet Ittifokining Pedagogika fanlari akademiyasi huzurida maktabgacha tarbiya bo'yicha Ilmiy-tadkikot instituti tashkil etildi. Unda nutqni rivojlantirish laboratoriyasi ish boshladi va u ilk bolalik yoshidan boshlagan holda turli yosh bosqichlarida nutqni rivojlantirishdagi vorislik masalalarini o'rganishga kirishdi. Mazkur tadkikot materiallaridan 1962, 1969 yilgi dasturlarda foydalanilgan.

60-70 yillarda bolalar nutqini rivojlantirish masalalari faol o'rganila boshlandi. Maktabgacha tarbiya bo'yicha Ilmiy-tadkikot instituti huzuridagi Nutqni rivojlantirish laboratoriyasi turli bosqichlarda nutqni o'rgatishning ilmiy va metodik asoslarini o'rganadi (F.A.Soxin, O.S.Ushakova, ye.I.Strunina va boshk.). Bundan tashkari, muloqot qilishni o'rgatish (A.V.Zaporojets, A.A.Leontev, M.I.Lisina, A.K.Markova, A.G.Ruzskaya, V.V.Vetrova, M.G.Elagina va boshk.); til va nutqka nisbatan tahliliy munosabatni shakllantirish (L.I.Aydarova, L.E.Jurova, S.N.Karpova, D.B.Elkonin va boshk.); nutqiy faoliyatni uning barcha tarkibiy komponentlari bilan birgalikda rivojlantirish (A.M.Bogush, A.A.Leontev, A.I.Polozov va boshk.) masalalari ishlab chikildi.

Ona tilini o'kitishni tashkil etishning yangicha mazmun va shakllarini izlash 80-yillarning oxirida avj oldi, chunki bu davrga kelib bolalar bog'chalarida pedagogik jarayonni tashkil etishning eng avvalo tarbiyachining bolalar bilan rasmiy, sub'ekt-ob'ekt tusidagi munosabatlarida ko'rinadigan o'quv-intizomiy modeli keskin tankid ostiga olindi.

**XULOSALAR:**

- K.D.Ushinskiyning til va uning ma'naviy shakllanishda tutgan o'rni haqidagi ta'limoti nutqni rivojlantirish metodikasini mustaqil fanga ajratish uchun.
- K.D.Ushinskiyning shogirdi va izdoshi bo'lmish ye.N.Vodovozova bolalarda ona tilini rivojlantirish dasturini va bolalarni tarbiyalashda rus folkloridan foydalanish metodikasini ishlab chikdi. Vodovozova ham xuddi K.D.Ushinskiy kabi ertaklarni, ayniksa xalq ertaklarini himoya qilib chiqqan.
- Nutqni rivojlantirish metodikasi sovet davrida mustaqil fanga aylandi (1918).
- E.I.Tixeeva nutqni rivojlantirishga doir ishlar, bolalarni maktabda ta'lim olishga tayyorlash bo'yicha Mashg'ulotlar o'tkazish metodikasi; maktabgacha yoshdagi

bolalar nutqini rivojlantirish va ularga ona tilini o’kitish metodikasi; didaktik materiallar tizimi va ulardan foydalanish metodikasi mazmunini belgilab berdi.

- E.A.Flerina - maktabgacha tarbiya sohasidagi birinchi pedagogika fanlari doktori bo’lib, u birinchi marta maktabgacha tarbiya yo’nalishidagi bilim yurtlari va institutlar uchun o’quv ko’llanmasini yaratgan («Maktabgacha tarbiya muassasalarida jonli so’z», 1933).
- 50-yillarda ilmiy va amaliy xodimlarning anik maksadni ko’zlagan holda olib borgan faoliyati natijasida bolalar bog’chalarida ona tilini o’kitish tizimi shakllandi: tarbiyachilar uchun muntazam ravishda ona tili bo’yicha ko’llanmalar, ilђor tajribalar haqidagi makolalar to’plamlari chop etila boshlandi.
- 1956 yili maktabgacha tarbiya yo’nalishidagi pedagogika bilim yurtlari uchun birinchi marta O.I.Solovevaning «Bolalar bog’chasida nutqni rivojlantirish va ona tilini o’kitish» nomli o’quv ko’llanmasi chop etildi.
- Grammatik jihatdan to’g’ri nutqni shakllantirish metodikasi rivojiga A.N.Gvozdev ulkan hissa ko’shdi, u bolalarning ilk yoshdan boshlab grammatik tuzilishni o’zlashtirib olishlarining qonuniyatlarini ochib bergan.
- 1960 yilda jahonda birinchi marta sobik Sovet Ittifokining Pedagogika fanlari akademiyasi huzurida maktabgacha tarbiya bo’yicha Ilmiy-tadkikot instituti tashkil etildi. Unda nutqni rivojlantirish laboratoriyasi ish boshladi va u ilk bolalik yoshidan boshlagan holda turli yosh bosqichlarida nutqni rivojlantirishdagi vorislik masalalarini o’rganishga kirishdi.
- 80-yillarning oxirida bolalar bog’chalarida pedagogik jarayonni tashkil etishning o’quv-intizomiy modeli keskin tankid ostiga olindi, buning okibatida ona tilini o’kitishni tashkil etishning yangicha mazmun va shakllarini izlash ishlari avj oldi.

**NAZORAT SAVOLLARI:**

- K.D.Ushinskiyning bolalarga dastlab ona tilini o’kitish ta’limoti asoschisi sifatidagi faoliyatini ta’riflang.
- E.N.Vodovozovaning maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashdagi xalqonalik ђoyalarini asoslab bering.
- E.I.Tixeeva nutqni rivojlantirish metodikasi sohasida kanday ilmiy yutuklarga erishgan?
- E.A.Flerina va uning maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish metodikasini ishlab chikishga ko’shgan hissasi.
- Bolalar bog’chasida pedagogik jarayonni tashkil etishning o’quv-intizomiy modeli tankid kilinishining sabablarini asoslab bering.

## IV-MAVZU

# NUTQ O'STIRISH NAZARIYASI VA METODIKASIINING SHAKLLANISH TARIXI

**Nutqni rivojlantirishda ta'limning o'rni va ahamiyati to'g'risida**

**CHet elda, Rossiyada va O'zbekiston Respublikasida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishga doir tadqiqotrning asosiy yo'nalishlari**

### Nutqni rivojlantirishda ta'limning o'rni va ahamiyati to'g'risida

Nutqni o'rgatish muammosiga yondashuv pedagoglar, psixologlar va metodistlarning (L.S.Vigotskiy, L.A.Venger, P.YA.Galperin, V.V.Davidov, A.V.Zaporojets, N.N.Poddyakov, A.P.Usova, ye.A.Flerina va boshk.) fundamental tadqiqotrida asoslab berilgan bazaviy umumpsixologik pozitsiyalar bilan belgilanadi. Ushbu tadqiqotrda o'kitish va rivojlantirishga bir xil karalmaydi, lekin ayni paytda o'kitishning o'quvchilarga «yakin rivojlanish hududi»ni yaratuvchi borlikda yo'l topa olish vositalari va usullarini ishlab chikishda yordam beruvchi yetakchi ahamiyatga egaligi ta'kidlanadi (L.Vыgotskiy).

Nutqni o'rgatish muammosi doimo maktabgacha didaktikaning yetakchi muammolari katorida turgan va bundan keyin ham shunday bo'lib koladi. Bolaning ona tilini o'zlashtirishida o'kitishning tutgan ahamiyati bir necha bor SHarq (Ibn Sino, Alisher Navoiy va boshk.) va Garb (YA.A.Komenskiy va boshk.) mutafakkirlari, shuningdek K.D.Ushinskiy, ye.I.Tixeeva, A.P.Usova, L.A.Penevskiylar tomonidan kayd etilgan.

Ibn Sino bolalar bilan bakirmasdan xotirjamlik bilan va uning shaxsiga tegmagan holda suhbatlashish, suhbatni hikoyalar va afsonlardan boshlash zarurligini uktirgan.

Alisher Navoiy so'z, nutq va ularning inson hayotidagi ahamiyatini obrazlar orkali yukori badiiy shaklda ifodalagan.

YA.A.Komenskiy tabiiy kobiliyatni har tomonlama rivojlantirish ђoyasidan kelib chiqqan holda ilk yoshdan boshlab bolalarga bilishni, harakat qilishni, so'zlashni o'rgatish kabi vazifalarni ko'ygan. U «akl va nutq»ni rivojlantirish haqida bir xil qayg'urish darkor, deb hisoblagan. CHunki, bola nutq tufayli o'z fikrlarini ifodalaydi va atrofidagi kishilar bilan muloqotga kirishadi, nutqni egallab olish orkali u atrof-olamni anglaydi, boshka bolalar bilan muloqot qilish natijasida esa bolada nutq va fikrlash rivojlanadi.

K.D.Ushinskiy dastlabki ta'limda ona tilini o'kitish «bosh, markaziy predmetni tashkil etishi» haqidagi tezisni olђa surgan. Uning fikriga ko'ra, «bolakay ushbu anchayin ulkan merosni uzok vakt mobaynida, balki hech kachon o'zlashtira olmasligi – uni hakikatdan ham o'zining ma'naviy boyligi qilib ololmasligi mumkin».

E.I.Tixeeva K.D.Ushinskiyning izdoshlari ichida birinchi bo'lib maktabgacha yoshga nisbatan «tilni o'kitish» atamasini ko'llagan. Uning fikriga ko'ra, bolalar bog'chasida tarbiyalash ishlari tizimining asosini birinchi yoshdan boshlab ona tilini muntazam o'kitib borish tashkil kilmoђi lozim, bu o'quvni u bolalar bog'chasining asosiy vazifalaridan biri deb hisoblagan.

Ona tilini o'kitish muammosini hal etishga ye.A.Flerina ham ulkan hissa ko'shgan. U kattalarning bolalarga nisbatan pedagogik ta'sirini tavsiflash uchun «o'kitish» atamasini keng ma'noda ko'llagan. Ta'limni bunday ma'noda tushunishdan kelib chiqqan holda u uning uchta shaklini ajratib ko'rsatgan: bolaning kundalik hayotida, uning xilma-xil faoliyati davomida o'kitish; bolalar xohishiga ko'ra uyushtirilgan guruh Mashg'ulotlari; « u yoki bu o'quv tarbiya vazifalari butun guruh oldiga ko'yiladigan» majburiy Mashg'ulotlar.

E.A.Flerina «maktabgacha yoshdagi bolalarni o'kitish muammosini tor darajada hal etish»ning xavfliligi haqida ogohlantirgan, maktabgacha yoshdagi bolani o'kitishning o'ziga xosligini ta'kidlagan: «Bolalar bevosita hayot bilan muloqotga kirishish yo'li bilan, tengdoshlari va kattalar misolida hamda Mashg'ulotlar va maxsus Mashg'ulotlarda tarbiyachining ko'rsatib o'tishi orkali o'qib-o'rganadilar». U o'zining tarbiya tizimida san'atga va undan har xil faoliyat turlarida, shu jumladan badiiy-nutqiy faoliyatda bola imkoniyatlarini rivojlantirish uchun foydalanishga asosiy o'rinni bergan.

A.P.Usova bolalar bog'chasida o'kitishning umumiy nazariyasini ishlab chiqqani holda unda ona tilini o'kitishga alohida o'rin bergan. Uning fikricha, ta'lim jarayonining o'zi to'g'ri nutqiy rivojlanish kafolati bo'lib xizmat kiladi, chunki «bolalarning nutqiy rivojlanishiga shunday sifatlarni kiritadiki, ular odatda, oddiy sharoitlarda zaif rivojlanadilar». Ta'lim nutq rivojlanishi qonuniyatlari to'g'ri hisobga olingan takdirda u barcha bolalar nutqining makbul darajada rivojlantirilishini ta'minlaydi, hisoblaydi A.P.Usova. U bolalarning mustaqil ravishda egallab olishlari kiyin bo'lgan hikoya qilib berish qobiliyatini shakllantirishga alohida ahamiyat bergan. A.P.Usova ona tili bo'yicha dasturni o'zlashtirish uchun barcha bolalar bilan mashђulot o'tkazish lozim, deb hisoblagan. Ayni paytda u mashђulot o'tkazish metodikasini ishlab chikish uchun ham ko'p ishlarni amalga oshirgan.

Bolalar bog'chasida ona tilini o'kitish ishlarining tuzilmasi L.A.Penevskiy tomonidan ishlab chikilgan. U quyidagilarni o'z ichiga olgan: bolalarning ona tilidagi lug'at va uning grammatik tuzilishini o'zlashtirishlari; og'zaki adabiy nutqni shakllantirish va tilning tovush tizimini o'zlashtirish; hikoya qilishni o'rgatish. Garchi, L.A.Penevskiy fikriga ko'ra, «belgilangan til mazmuni uzil-kesil hal kiluvchi» bo'lmasa-da, «maktabgacha tarbiya natijasida bolalar ona tili bo'lmish o'zbek tilida to'g'ri, sof va ifodali so'zlashni bilishlari, boy lug'at zahirasiga ega bo'lishlari, ravon va izchil hikoyadan kabul qilib olganlarini aytib bera olishlari shart».

Keyingi yillarda maktabgacha yoshdagi bolalarga ona tilidagi nutqni o'rgatish muammosiga doir tadqiqotr ish tarkibini aniklashtirish va ta'lim metodikasini takomillashtirish yo'llarini kidirish nuktai-nazaridan olib borildi. Tadkikotchilarning asosiy e'tibori nutqiy Mashg'ulotlar mazmuni va metodikasiga karatildi, bu asta-sekin ye.A.Flerina ogohlantirgan «nutqni o'rgatish» tushunchasining torayishiga, amaliyotda esa – nutqni rivojlantirishga doir maxsus Mashg'ulotlar ahamiyatining oshishiga olib keldi.

60-70-yillarda bolalar nutqini rivojlantirish masalalarini o'rganish ishlari faollashdi. RSFSR Pedagogika fanlari akademiyasining Maktabgacha tarbiya bo'yicha Ilmiy-tadkikot instituti huzurida Nutqni rivojlantirish laboratoriyasi tashkil etildi. Uning jamoasi turli yosh bosqichlarida nutqni o'rgatishning ilmiy va metodik asoslarini o'rgandi (F.A.Soxin, O.S.Ushakova va boshk.).

Bundan tashkari, muloqotdagi muammolar tufayli muloqot qilishni o'rgatish (A.V.Zaporojets, A.A.Leontev, M.I.Lisina, A.K.Markova, A.G.Russkaya va boshk.); til va nutqka nisbatan tahliliy munosabatni shakllantirish (L.I.Aydarova, L.E.Jurova, S.N.Karpova, D.B.Elkonin va boshk.); nutqiy faoliyatni uning barcha tarkibiy komponentlari bilan birgalikda rivojlantirish (A.M.Bogush, A.A.Leontev, A.I.Polozov, V.I.YAshina va boshk.) masalalari faol ishlab chikildi.

Ushbu ishlar natijasida ona tilini o'kitishga doir ishlar tarkibidan bolalarning til borliђining elementlari haqidagi **bilim va tasavvurlari**, **maktabgacha yoshdagi bolalarni lingvistik rivojlantirishni ta'minlovchi** til umumlashtirmalari ajralib chikdi, bolalar bilan ta'lim ishlarini olib borish dasturlari va metodikalari yaratildi, ularda asosiy e'tibor anik bilimlar, kobiliyat va ko'nikmalarga emas, balki **akliy va badiiy kobiliyatlarni rivojlantirishga** karatiladi («Bolalar bog'chasida ta'lim va tarbiyaning namunaviy dasturi», «Kamalak», «Rivojlanish» va boshk.).

Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, maktabgacha yoshdagi bolalarga nutqni o'rgatishning zarurligi pedagogika fanida allakachon isbotlangan bo'lib, u shubhaga o'rin koldirmaydi. Hozirgi paytda bolalarning yukori darajada akliy va nutqiy rivojlanishini, ularning

til kobiliyatlari shakllanishini ta’minlash imkonini beruvchi bolalar o’quvini tashkil etishning makbul shaklini kidirish ishlari olib bormokda. Nazariy va amaliy tadqiqotrda bunday o’quvning mazmuni va shakllari haqidagi masalalar hal etiladi. Ilmiy maktablar, ilђor amaliy tajribaning mukobil (variantli) dasturlari aynan ushbu jihatlari bo’yicha farklanadilar.

Ona tilini o’kitishni tashkil etishning yangicha mazmun va shakllarini izlash 80-yillarning oxirida avj oldi, chunki bu davrga kelib bolalar bog’chalarida pedagogik jarayonni tashkil etishning eng avvalo tarbiyachining bolalar bilan rasmiy, sub’ekt-ob’ekt tusidagi munosabatlarida ko’rinadigan o’quv-intizomiy modeli keskin tankid ostiga olingan edi. Bu munosabatlar frontal Mashg’ulotlar mazmuni va shaklida juda sezilarlidir. Tankid tartibida aytib o’tilgan o’sha dalillarni tahlil qilish natijasida Mashg’ulotlarning bolalar bog’chasida o’kitishning asosiy shakli sifatida salbiy baholashning asosiy yo’nalishlarini ko’rsatib o’tish mumkin:

-Mashg’ulotlardagi o’kitish jarayonida tarbiyachining dikkat-e’tibori **bolalarning boshka faoliyat turlariga zarar yetkazgan holda** fakat shunga jamlanadi;

-tartibga asoslangan o’rgatuvchi Mashg’ulotlarga zo’r berish **tarbiyachining bolalar bilan munosabati rasmiylashuviga** olib keladi;

-bolalarga kat’iy dasturiy hujjatlar asosida berilgan **katta hajmdagi anik bilimlar** taklif etiladi;

-mutlak ko’pchilik holatlarda Mashg’ulotlar nomigagina o’tkaziladi, bu esa **barcha bolalarning faolligini ta’minlash imkonini bermaydi;**

-Mashg’ulotlarda, odatda, beixtiyoriy xulk-atvorning yetarli darajada shakllanmaganligi tufayli maktabgacha yoshdagi bolalar uchun unchalik imkon darajasida bo’lmagan **tashkil etishning maktab shaklidan** foydalaniladi;

-Yuqoridagi sabablar tufayli, shuningdek aksilaloka va rivojlantiruvchi dolzarb vazifalarning mavjud emasligi bois **Mashg’ulotlar samaradorligining pastligi**.

**Ona tilini o’kitishda** maktabgacha ta’lim tizimining **ushbu kamchiliklari** quyidagilarda namoyon bo’ldi:

- Mashg’ulotlarda ona tilini o’kitish ko’pincha til vositalarni yiђish, til birliklarini o’zlashtirishdan iborat bo’lib, u kommunikativ faoliyat vazifalarini hal etishga yo’naltirilmagan.
- Nutqning agarda, bola nutqini muloqot faoliyati doirasida ko’rib chikiladigan bo’lsa vujudga keladigan motivatsiyasi mavjud emas; nutqni o’kitish shartlari ko’pincha tabiiy muloqot shartlaridan farklanadi: suhbatdosh yo’k (fakat savollar, ko’rsatmalar beradigan, baholovchi xulosalar bildiradigan pedagogning o’zi bor, xolos), Mashg’ulotlarni tashkil etish muloqot shartlariga (stol atrofida bir-biriga juda yakin o’tirish) mos kelmaydi va h.k.
- Foydalanilgan metodlarda reproduktiv nutq (kattalar nutqiga taklid qilish) yetakchi o’rin egallaydi;
- Mashg’ulotlarda bolalarning nutqiy faoliyati tarbiyachi tomonidan kattik tartibga solinadi, bu esa bolalar nutqiy faoliyatini susaytiradi va hatto ularni butkul yo’kka chikaradi.

Nutqni o’rgatish jarayonining ushbu salbiy xususiyatlari pedagoglar va psixologlar tomonidan mavjud amaliyot natijasida aniklangan bo’lib, u adolatli deb tan olingan.

SHu bilan birga, frontal nutqiy Mashg’ulotlar – ancha tejamli o’quv shakli bo’lib, u didaktik va tarbiyaviy vazifalarni hal etishga yo’naltirilgan; u Yuqorida ko’rsatib o’tilgan salbiy jihatlarni bartaraf etishda samarali bo’lishi mumkin: agarda u o’yin, kommunikativ va bilish motivatsiyasi asosiga kurilgan bo’lsa, hukmronlik sharoitida, bolalarni uyushtirish usullari o’zgartirilganida (masalan, stol atrofida doira shaklida o’tirish, gilamda o’tirish, guruh bo’yicha harakatlanish va boshk.), bolalarning bilishga intilgan nutqiy faolligini jadallashtirish metodlaridan foydalanilganida sub’ekt - tarbiyachi bilan bolalar o’rtasidagi o’zaro hamkorlikning sub’ektiv usullaridir.

Amaliyot shuni ko’rsatmokdaki, salbiy holatlar nutqni rivojlantirish metodikasining nazariy asoslarini va pedagogik rahbarlik qilishning anik usullarini biluvchi pedagog mahorati bilan hamda tarbiyachilar bilan hamkorlikda eng kam darajaga tushirilishi mumkin.

Adabiyotlarda Yuqorida ko’rsatilgan ko’pchilik salbiy xususiyatlardan xoli bo’lgan va ijobiy faoliyat olib borayotgan pedagoglar tomonidan muvaffakiyatli ravishda amaliyotda ko’llanilayotgan Mashg’ulotlar variantlari ishlab chikilgan. CHunonchi, maktabgacha tarbiya bo’yicha Ilmiy-tadkikot institutining Bolalar nutqini rivojlantirish laboratoriyasi ilmiy xodimlari tomonidan ishlab chikilgan Mashg’ulotlar asosini nutqiy rivojlantirishning turli vazifalarini hal etishga nisbatan kompleks yondashuv tashkil etadi. Ushbu Mashg’ulotlarda bolalarga taklif etilayotgan topshiriklar mazmuni va ularning ketma-ketligi bola uchun ravon fikr tuzishga o’tishni tabiiy holga aylantirib ko’yadi.

Birok nutqiy Mashg’ulotlar samaradorligini oshiruvchi omillarni eng ko’p darajada hisobga olgan takdirda ham mazkur o’quv shakli tarbiyachilar bilan bolalar o’rtasidagi va bolalar o’rtasidagi o’zaro nutqiy muloqotlarni rivojlantirish vazifalariga har doim ham mos kelavermaydi. Hatto pedagog Mashg’ulotlarda bolalar bilan o’ta demokratik shaklda muloqot kilganida ham kattalarning «salobati bosib» turadi (va bu didaktik vazifalarning yetakchiligi nuktai-nazaridan o’rinlidir). Bolalarning xulk-atvori tartibga solinadi, va bunda kattalar muloqot tashabbuskori sifatida chikadi. SHuning uchun nutqni va nutqiy muloqotni rivojlantirish borasidagi vazifalarni hal etish shakllarini kidirish davom etmokda. Bu o’rinda L.I.Aydarova tomonidan ishlab chikilgan «rivojlantiruvchi dialoglar», A.G.Arushanova tomonidan taklif etilgan «muloqot darslari» kizikarlidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ona tilini o’kitish masalalariga nisbatan turli yondashuvlarni tahlil qilish shuni ko’rsatdiki, nutqni o’rgatishning nazariy va amaliy muammolarini tadkik qilish quyidagi nazariy koidalarni tan olishdan kelib chikadigan **umumiy boshlang’ich pozitsiyaga** ega:

- ta’lim maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda, ayniksa hozirgi kundagi nomakbul nutqiy muhit sharoitida hal kiluvchi ahamiyatga ega;
- nutqni o’rgatish – ijodiy jarayon bo’lib, u nutqni rivojlantirishning yosh qonuniyatlari hamda bolaning o’ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadigan «…dan …gacha» kabi kat’iy cheklovlarni kabul kilmaydi;
- nutqni o’rgatish asosini kommunikativ yondashuv tashkil kilmoђi lozim, xususan: tilni o’zlashtirish nutqiy muloqot faoliyatiga ko’shilishi zarur, ta’lim sharti tabiiy muloqot sharoitlariga yakinlashtirilishi darkor;
- o’kitish choђida kattalarning bola bilan o’zaro munosabati xususiyati ushbu bola uchun yetakchi bo’lgan muloqot shakli bilan belgilanishi lozim;
- til ustidagi ishlarni nutq faoliyatining barcha komponentlarini, ya’ni: undov-motivatsiya, mo’ljal-tadkikot, ijro komponentlarini hisobga olgan holda uning tuzilmasi doirasida amalga oshirish darkor;
- nutqni o’kitish bolalarning tilni o’zlashtirish borasidagi mustaqil faoliyatiga asoslanishi va bola faoliyatining boshka turlari bilan boђlangan bo’lishi lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga nutqni o’rgatish muammosini tadkik qilish ishlari aynan Yuqoridagi metodik koidalardan kelib chiqqan holda davom ettirilmokda.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish va ularga ona tilini o’rgatish sohasidagi psixologo-pedagogik tadqiqotrni tahlil qilish quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

- nutqni rivojlantirish – bu bolaning individual rivojlanishida markaziy o’rinni egallovchi ijtimoiy-tarixiy tajribani o’zlashtirishiga oid o’ta murakkab va ko’p omilli jarayondir.
- Bu stixiyali jarayon emas, balki pedagogik rahbarlikni taklif kiluvchi ijodiy jarayondir.

- Bolaning nutqiy rivojlanish jarayonini boshkaruvchi pedagog ushbu jarayon qonuniyatlari, mexanizmlari va uning turli yosh bosqichlaridagi xususiyatlarini bilishi, nutqiy rivojlanishning individual xususiyatlarini ko'ra bilishi va bolaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda uning nutqiga pedagogik ta'sir ko'rsatishning eng samarali yo'llarini tanlashi shart.

«Bola nutqini rivojlantirish» hodisasining o'zini va uni boshkarish jarayonini tahlil qilish maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish sohasida ishlash uchun pedagoglar maxsus tayyorgarlikdan o'tishlari zarur, degan xulosani keltirib chikaradi.

## NAZORAT SAVOLLARI:

- Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda ta'limning tutgan o'rni va ahamiyatini tavsiflang.
- O'rta asrlardagi tanikli SHarq mutafakkirlari o'sib kelayotgan yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish masalasiga kanday ahamiyat bergan?
- Tabiiy iktidorni har tomonlama rivojlantirish borasida YA.A.Komenskiy tomonidan ko'yilgan vazifalarni aytib bering.
- E.A.Flerina, A.P.Usova, L.N.Penevskaya tomonidan nutqni rivojlantirish metodikasi masalalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotrning metodik asosini tavsiflang.
- Maktabgacha tarbiya bo'yicha Ilmiy-tadkikot instituti huzuridagi Nutqni rivojlantirish laboratoriyasi hamda uning maktabgacha yoshdagi bolalarga ona tilini o'kitish va ular nutqini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda tutgan o'rnini aytib bering.
- Nutqni o'rgatish va rivojlantirish sohasidagi psixologik tadqiqotrni tahlil kiling.
- Bolalarga ona tilini o'kitishga doir Mashg'ulotlarning salbiy baholari asosiy yo'nalishlarini tavsiflang.
- Maktabgacha yoshdagi bolalarga ona tilini o'kitish masalalari bo'yicha umumiy nazariy va amaliy pozitsiyalarni tavsiflang.

## CHet elda, Rossiyada va O'zbekiston Respublikasida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishga doir tadqiqotrning asosiy yo'nalishlari

Nutqka oid zamonaviy tadqiqotr tizimli yondashuvga ega, bu «u yaxlit bir tizim sifatida mavjud bo'lgan ko'plab tashki va ichki munosabatlar» (B.F.Lomov) hodisasini o'rganishda namoyon bo'ladi. Nutq-til tizimi ko'plab alokalarga kirishadi, jumladan, ma'noni so'zga aylantiradigan hamda inson ongi va his-hayajonlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan **semantik axborot apparati**, **psixofizik hodisa** (ya'ni, miya vazifasi, jismoniy tovushlar chikaruvchi hamda ularni kabul kiluvchi va tabakalashtiruvchi kurilma), **muloqot va ijtimoiy aloka** vositasilari ularning asosiylari hisoblanadilar.

Dastavval «nutq» tushunchasiga murojaat kilamiz. Nutqka nisbatan ilmiy tadkikot ob'ekti sifatidagi umumiy yondashuvlarni tahlil qilish psixik rivojlanishning barcha jihatlarini tushunish uchun o'rganilishi favkulodda muhim bo'lgan ushbu hodisaning o'ta murakkabligi va ko'p kirraliligi haqida xulosa chikarish imkonini beradi. «Nutq o'ziga xos faoliyat sifatida boshka faoliyat turlari bilan bir katorda turmaydi, u psixologik rivojlanish jarayonida markaziy o'rinni egallaydi…» (A.N.Leontev).

Nutq tarixan shakllangan va til orkali ifodalanadigan **muloqot shakli**, yaxlit faoliyat ko'rinishida va nonutqiy faoliyatga ko'shilgan nutqiy harakat sifatida chikishi mumkin bo'lgan nutqiy faoliyat (L.S.Vыgotskiy, A.N.Leontev, A.A.Leontev, I.A.Zimnyaya) sifatida ko'rib chikiladi, nutq – tildan foydalanish jarayoni, til vositasida muloqot qilish jarayoni, psixik aks ettirish jarayoni (S.L.Rubinshteyn), muloqot jarayonida til vositasida fikrlar, hissiyotlar,

irodalarni ifodalash jarayonidir (L.S.Rubinshteyn, V.A.Artemov); nutq – **tildan yakka tartibda foydalanish hodisasi**dir (F.De Sossyur).

Tilni turli nuktai-nazardan tavsiflovchi mazkur yondashuvlarni takkoslash orkali nutqning ilmiy o'rganish ob'ekti sifatidagi umumiy xususiyatlarini ajratish mumkin.

- N u t k – bu tilni ishga solish jarayonidir (I.A.Zimnyaya, V.M.Solntsev). Sub'ektning nutqiy faoliyati ichki vosita va uni amalga oshirish usullari sifatida til va nutqni o'z ichiga oladi.
- N u t k - bu psixik hodisa, kishilarning shaxslararo o'zaro muayyan hamkorligi sharoitida rivojlanadigan, individual xususiyatlarga ega bo'lgan shaxs mulkidir. U tildan farkli ravishda ijtimoiy-tarixiy sharoitlarda rivojlanadigan xalq ijtimoiy mulki hodisasidir.

Metodik adabiyotlarda «nutq», «nutqiy faoliyat» atamalari ko'pincha sinonim sifatida, shuningdek «nutqiy muloqot» tushunchasiga teng bo'lgan atama sifatida ko'llaniladi.

«Til», «nutqiy faoliyat», «nutqiy muloqot» tushunchalarini bir-biriga takkoslash til va nutq o'kitilishi tufayli alohida ahamiyat kasb etadi. CHet tili (I.A.Zimnyaya, A.A.Leontev) va ona tili (A.M.Bogush, M.R.Lvov, A.K.Markova, F.A.Soxin) bo'yicha mutaxassislar fikriga ko'ra, o'kish ob'ekti sifatida nutqiy faoliyat chikishi lozim. I.A.Zimnyaya ta'rifiga ko'ra, o'kish ob'ekti sifatidagi «nutqiy faoliyat» til vositasida ifodalangan, insonning muloqot jarayonida kommunikativ-bilishga bo'lgan ehtiyojini kondirishga yo'naltirilgan fikrlarini (his-tuyђularini) uzatish va kabul qilishning faol, anik maksadga yo'naltirilgan va predmetli (mazmunli) jarayonidir.

Olimlarning tilni (chet tilini) o'rgatishda birinchi o'rinda til vositalarini to'plash, til birliklarini o'zlashtirish emas, balki tilni kommunikativ faoliyatda ko'llash turishi zarurligi haqidagi fikrlari bir joydan chikadi. Aks holda nutqning tabiiy kommunikativligi pasayadi, u «zo'rma-zo'raki» bo'lib koladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy faollikni nutqiy faoliyat nazariyasi asosida shakllantirish masalalari maktabgacha tarbiya amaliyotining nazariyasi uchun va ayni paytda amaliyoti uchun ham o'ta dolzarb va ahamiyatlidir.

Adabiyotlar tahlili nutqiy faoliyatning motivatsion komponenti ehtiyojlarini shakllantirish masalalari ko'proq darajada yoritilganigi ko'rsatmokda. Nazariy va metodik ishlarda nutqiy faoliyatni boyitish bolalar nutqini rivojlantirishga doir ishlar samaradorligini oshirishi ishonchli tarzda isbotlangan (V.V.Gerbova, e.P.Korotkova, M.R.Lvov, A.K.Markova, F.A.Soxin va boshk.).

L.S.Vыgotskiy, A.N.Leontevning ishlari metodologik ahamiyatga ega, zero ularda nutq psixik rivojlanish jarayonida markaziy o'rinni egallashi, uning fikrlash bilan ichki bog'liqligi, so'z inson nutqining birligi sifatida umumlashtirish manba ekanligi, uning yordamida va til vositasida insonning tushunish tizimining shakllanishi va mavjud bo'lishi (real borlikni umumlashtirgan holda aks ettirish) haqidagi koida shakllantirilgan.

Lingvistika, psixofiziologiyaga doir ishlar zamonaviy tadqiqotrda nutq semantikasi masalasi birinchi o'ringa ko'yilishi (T.N.Ushakova, A.M.SHaxnorovich), ushbu muammolar bo'yicha sinov ishlanmalariga kizikish ortib borayotganligi haqida so'z yuritish imkonini beradi.

Nutqiy faoliyat mexanizmlarini o'rganuvchi psixofiziologik tadqiqotr fanning kizikarli va istikbolli yo'nalishi hisoblanadi. Birinchi bo'lib ushbu muammoni N.I.Jitkin ko'tarib chiqqan. Uning kayd etishicha, «nutq mexanizmi – bu jonli, moslashuvchan va doimo takomillashib boradigan mexanizmdir».

Nutqiy faoliyat mexanizmlarini tahlil qilishda olimlar bir tomondan, N.I.Jitkin kontseptsiyasiga, ikkinchi tomondan, mexanizmlarni nutqiy faoliyat bosqichlari bilan takkoslagan holda insoning nutqiy xulk-atvoriga nisbatan faoliyat nuktai-nazaridan yondashishga oid asosiy koidalarga asoslanadilar.

Motivatsiyani harakatga keltirish, ya’ni faoliyatning birinchi bosqichini amalga oshirish so’zlashning boshlang’ich mexanizmi hisoblanadi. I.A.Zimnyayaning fikricha, ushbu mexanizmga quyidagilar kiradi:

- ehtiyojni ko’shish,
- ehtiyojning so’zlash predmeti- so’zlovchining fikri bilan uchrashishi,
- ushbu ehtiyojning emotsional kechinmalari, ya’ni kizikish,
- iroda bilan boshkarish,
- kizikishni ko’llab-kuvvatlash.

So’nggi o’n yillikda lingvistlar, psixologlar tomonidan «til kobiliyati» muammosi kizђin muhokama kilinmokda, bunda til kobiliyati deganda «til tizimini o’zlashtirishda ko’nikma va mahoratlarni tezlik bilan shakllantirishga yordam beradigan individual xususiyatlar» tushuniladi (F.De Sossyur, L.V.SHerba, J.Grin, M.K.Kabardov, V.I.Markova va boshk.).

Nutqni psixologik tadkik qilishning istikbolli vazifasi sifatida inson nutqiy qobiliyatining kontseptual modelini kurish psixologik hodisa sifatida ko’rib chikiladi (T.N.Ushakova). Modelda quyidagi hodisalar o’z izohini topishi lozim: nutq yordamida mulohaza kilingan fikrni uzatish (ya’ni, nutqiy semantika muammosi), bunda grammatik koidalardan foydalanish (ya’ni, tilni ishga tushirish), akustik kanalni ishga tushirish, muloqot va ijtimoiy aloka sifatida nutqni ko’llash, ushbu barcha operatsiyalarni miya harakatlari bilan muvofiklashtirgan holda bayon qilish imkoniyatining mavjudligi.

Nutqni tushunish borasida Yuqorida bayon kilingan fikrlar va tavsiflardan kelib chiqqan holda «nutqni rivojlantirish» tushunchasiga murojaat kilamiz. «Nutqni rivojlantirish – bu oddiydan murakkabga, kuyidan yukoriga o’tishdan iborat bo’lgan o’zgarish; mikdoriy o’zgarishlarning asta-sekin yiђilishi sifat o’zgarishlarining yuz berishiga olib keladigan jarayondir».

Nutq ontogenezi haqidagi tasavvurlar tahlili o’ta muhimdir. Nutq ontogenezi XIX asrlardan boshlabok olimlarni kiziktira boshlagan (V.A.Aleksandrov, I.I.Sreznevskiy, I.A.Sikorskiy, K.d.Ushinskiy).

K.D.Ushinskiy, bolalarni ona tilida o’kitish zaruratini asoslagani va bolalarga ona tilini birlamchi o’kitish metodikasini ishlab chiqqani holda, bolalar tomonidan til o’zlashtirilishining til va fikrlash munosabatlarini chukur falsafiy tahlil qilish, o’z-o’zini rivojlantirish va ta’limga asoslangan xususiyatlari hamda qonuniyatlari borasida fikr bildirgan.

Ota-onalarning kundalik yozuvlari uzok vakt mobaynida nutqiy ontogenez haqidagi ma’lumotlar manbai bo’lib xizmat kildi. Bu asarlarda juda ko’p kizikarli faktlar bo’lib, ulardan olimlar keyinchalik bolaning nutqiy rivojlanishini tahlil qilishda foydalanganlar (rus tilshunoslari V.A.Bogoroditskiy, A.A.Potebnya, L.V.Щerba va boshk.).

Ayniksa A.N.Gvozdevaning «Bolalar nutqini o’rganish masalalari» nomli asari juda muhim ahamiyatga egadir, unda muallif ko’p sonli faktlarni tahlil kilgan hamda bolaning rus tilining fonetik tizimi va grammatik qurilishini o’zlashtirish qonuniyatlarini ko’rsatib bergan.

CHet el fanida nutq ontogenezi borasidagi tadqiqotrni bir nechta nazariy yo’nalishlarga ajratish mumkin.

20- yillarning oxiri – 30-yillarning boshlarida J.Piajening o’ziga ko’plab izdoshlar topgan intellektning nasliy nazariyasi tilni o’zlashtirish uchun zarur bo’lgan mantikiy operatsiyalar tuђma bo’lmay, rivojlanish jarayonida asta-sekin shakllanadi, degan xulosaga keldi.

XX asrning 50-yillarida bixeviorizm va neobixeviorizm doirasida imitatsion yondashuv ajralib chikdi. P.Skinner kontseptsiyasiga ko’ra, nutqiy ko’nikmalarni shakllantirish reflekslarning operant («operatsiya» so’zidan) shartlari vujudga kelishi qonuniyatlariga muvofik holda ro’y beradi. Ushbu yondashuvda tilni o’zlashtirish tovushlar, tayyor iboralar turkumini takrorlash, bolaning kattalar talaffuziga taklid qilishidan iborat bo’ladi, bola tilidagi har bir yangilik esa - ushbu tayyor so’zlar, iboralarga o’xshab harakatga undaydi. Imitatsion davr bolaning tushunishi va uning yangi, ilgari o’ziga tanish bo’lmagan nutqiy tuzilmalarni tuzishi hodisasini tushuntirish imkonini bermaydi (V.A.Zvegintsev).

60-yillarning boshlarida grammatikani vujudga keltiruvchi transformatsion nazariyaga asoslangan bolalarning taklif yaratishi nazariyasi keng tarkaldi. Mazkur nazariyaning asoschilari lingvist N.Xomskiy va psixolog J.Miller edi. Ular, umumiy grammatik tamoyillar haqidagi tasavvurlarning ayrim tizimlari sifatida ko'rib chikiladigan til qobiliyatini tuђma, deb hisoblaganlar. Tilni egallash uchun lingvistikagacha bo'lgan bilimlar ham, kattalar bilan muloqot ham kerak emas: yagona cheklov bu – xotira hajmi va dikkat-e'tibor darajasiga doir cheklovlardir. Boshkacha qilib aytganda, ushbu nazariyaga binoan, bolaning tilni o'zlashtirishi uning atrofidagilar tomonidan emas, balki bolaning ichki mexanizmi bilan yo'naltiriladi. Tilni egallash borasida N.Xomskiy tomonidan taklif etilgan kontseptual sxema tabiiy tilning eng muhim xususiyatlarini aks ettirmaydigan abstrakt modelligicha koladi. Nutq ontogenezini tadkik qilish rus olimlari tomonidan asosan L.S.Vыgotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasi va A.N.Leontevning faoliyat nazariyasiga tayangan holda o'tkazilgan. Natijada shunday karashlar tizimi shakllandiki, unga ko'ra nutqning paydo bo'lishi va rivojlanishi atrofdagi odamlar bilan muloqot jarayonida ro'y beradi. Bunda bola kattalarning nutq namunalarini sust ravishda kabul qilib olmasdan, nutqni umuminsoniy tajribaning bir kismi sifatida faol o'zlashtiradi.

L.S.Vыgotskiy va A.N.Leontevlarning koidalariga tayangan holda 70-yillarda A.A.Leontev nutqiy faoliyatning shakllanish kontseptsiyasini ishlab chikdi.

A.A.Leontev fikriga ko'ra, bola nutqini rivojlantirish – bu eng avvalo muloqot usullarini rivojlantirishdir, chunki usiz til kobiliyatlarini shakllantirib bo'lmaydi. O'z navbatida til kobiliyatlarini shakllantirish bir tomondan, asab-ruhiy mexanizmlarining pishib yetilishi bilan, ikkinchi tomondan esa – ijtimoiy ehtiyojlar bilan bog'liqdir.

Mazkur kontseptsiya doirasida rus psixolingvistikasida nutq ontogenezining turli kirralarini tadkik qilish ishlari olib borilmokda (E.I.Isenina, N.I.Lepskaya, S.N.TSeytlin, A.M.SHaxnorovich, N.M.YUrev va boshk).

M.I.Lisinaning kommunikativ faoliyat sifatida muloqot genezisi haqidagi kontseptsiyasi nutqiy rivojlanish muammosi tufayli ahamiyatga molikdir. Ushbu kontseptsiya doirasida bajarilgan tadqiqotr (V.V.Vetrova, M.G.Elagina, A.G.Ruzskaya, ye.A.Smirnova va boshk.) shuni ko'rsatdiki, muloqot – hal kiluvchi shart bo'lib, u so'zning paydo bo'lishi, bolalarda nutq paydo bo'lish muddati va uning rivojlanish sur'atlarini belgilab beradi. SHuning uchun muloqotning nutqiy vositalari genezisida bolalarning atrofdagilar bilan muloqot qilish borasida orttirgan tajribasi hal kiluvchi ahamiyatga egadir. Ontogenezda nutq dastlab muloqot vositasi sifatida, keyinrok esa – fikrlash, o'z xulk-atvorini boshkarish vositasida sifatida rivojlanadi.

Nutqiy rivojlanish muammosi yuzasidan o'tkazilgan tadqiqotrni tahlil qilish nutq ontogenezi haqidagi zamonaviy tasavvurlarni tavsiflovchi asosiy koidalarni shakllantirish imkonini beradi.

Nutqiy rivojlanishga til kobiliyatlarini – til elementlari va ular bilan operatsiyalar o'tkazish koidalarini o'z ichiga oluvchi harakatchan, funktsional tizimlarni shakllantirish sifatida karaladi. Bu til umumlashtirmalari negizida yaratiladigan individual til tizimidir. Turli yosh bosqichlarida turli til vositalarini, ya'ni: nutq tovushlari, leksik-grammatik materiallar va boshkalarni o'zlashtirishda bolalar nutqida individual farklar kuzatiladi. SHuningdek, bolalar nutqi shakllanishining asosiy bosqichlarida ham individual farklar kuzatiladi.

Bolalar tili nafakat kattalar tilining dastlabki bosqichi, balki o'z xususiy konunlariga bo'ysunadigan to'la mustaqil tuzilmalar hamdir.

Bola nutqi – bolaga oid bo'lgan o'ziga xos submadaniyatning kimmatli ovozidir. Nutqni rivojlantirish nafakat bolani atrof-olam bilan tanishtirish tomoni, balki umumiy psixik rivojlanish ustuni hisoblanadi. Bola nutqining rivojlanishi umuman shaxsni va shu bilan birga barcha psixik jarayonlarni shakllantirish bilan bog'liqdir. «…Tilni egallash jarayoni – bu fakat va shunchaki bilimlar, mahorat hamda ko'nikmalarni berish jarayoni emas. Bu eng avvalo tarbiyadir. Kalbni tarbiyalash, aklni tarbiyalash, fikrlar tuzishni shakllantirish, inson ruhiy kiyofasining eng nozik kirralariga chidam bilan ishlov berishdir» (K.D.Ushinskiy).

Bola nutqiy rivojlanishining, bir tomondan, tashki ta'sirlar bilan belgilanishi, ikkinchi tomondan esa uning to'satdan yuz berishi, «o'z-o'zidan harakatga kelishi» bilan tavsiflanishini

tushunish nutq ontogenezi haqidagi zamonaviy tasavvurlarga xos holatdir. Nutqni rivojlantirishning ana shu qonuniyatlari va mexanizmlarini tushunib yetish ularni batafsil ko'rib chikishni talab kiladi.

Muloqot va batafsillik jarayonida tilni egallash bola ixtiyorida bo'lgan til vositalari bilan ularga nisbatan nutqiy muloqot sharti faoliyati tomonidan ko'yiladigan talablar o'rtasidagi hamda bola ehtiyoji, atrof-olamni o'zlashtirish bilan uni anglash borasida erishilgan natijalar o'rtasidagi ziddiyatlarni hal etish orkali ro'y beradi (E.I.Tixeeva, ye.A.Flerina, M.M.Ukonina, F.A.Soxin va boshk.).

Ayrim kator tadqiqotr va ayrim metodik ko'llanmalarda (A.P.Eremeeva, L.P.Fedorenko, G.A.Fomicheva) nutqni rivojlantirishga nisbatan butunlay taklidga asoslangan, bolaning tilni ichki sezgi yordamida beixtiyor o'zlashtirib olish jarayoni sifatida karash kabi ilgari keng tarkalgan nuktai-nazar saklanib kolgan. Vaholanki, bu karashlar o'tgan asrning 30-yillaridayok Vilgelm fon Gumboldt tomonidan rad etilgan: «Bolalarning tilni o'zlashtirishlari – bu ularni so'zlar bilan tanishtirish, xotiraga muhrlash va ularni taklidan takrorlash emas, balki yillar o'tishi bilan mashklar natijasida til qobiliyatining o'sishidir».

Gumboldt, I.A.Boduen de Kurten, L.V.Щerbaning nutqni mustaqil ravishda rivojlantirish haqidagi ђoyalari F.A.Soxin tomonidan bolalarga ona tilini o'kitish metodikasini asoslash uchun foydalanilgan va boyitilgan. F.A.Soxin hamda uning shogirdlari tufayli nutqni mustaqil ravishda rivojlantirish muammosi maktabgacha pedagogika va bolalar psixologiyasida chukur nazariy asosga ega bo'ldi.

«Tilni egallash fakatgina kattalar nutqi namunalarini taklid qilish asosida aytish va til me'yorlarini ichki sezgi asosida (beixtiyor) o'zlashtirishdan iborat emas, u eng avvalo til umumlashtirmalarini rivojlantirish va til hodisalarini oddiy anglash bilan tavsiflanadi. Bu rivojlanish maxsus ta'limdan tashkarida ham ro'y beradi» (F.A.Soxin).

Kayd etish lozimki, olimlar fikriga ko'ra, o'z-o'zini rivojlantirish jarayonlari nafakat nutqda, balki mutlako bolalar faoliyati bo'lmish o'yinlar va bolalar kizikuvchanligi jarayonida ham yorkin namoyon bo'ladi (N.N.Podyakov) hamda u kattalar rolini inkor etmaydi: kattalar bolalarning faolligiga javob beradi, bolaga e'tiborini karatgani holda uni faoliyatga, muloqotga chorlaydi.

F.A.Soxinning asl kashfiyotchiligi va uning xizmatlari shundaki, u til muloqoti tabiatini nutqni rivojlantirishning ijodiy xususiyati bilan boђlashga muvaffak bo'ldi. Sodda qilib aytganda, bolaning umumlashtirmalar sifatida til birliklarini o'zlashtirishi uning nutqini ijodiy nutqka aylantiradi (K.I.CHukovskiy).

So'nggi yillarda nutq rivojlanishidagi ayrim bosqichlarni o'rganishga katta e'tibor karatilmokda. Ma'lumki, har bir inson butun umri mobaynida til boyliklarini egallagani holda o'z nutqini takomillashtirib boradi. Har bir yosh bosqichi uning nutqiy rivojlanishiga biron-bir yangilik olib kiradi. Nutqni egallashdagi eng muhim bosqich maktabgacha yoshga to'g'ri keladi.

Zamonaviy olimlar nutqkacha bo'lgan bosqichning muhim ahamiyat kasb etishini yaxshi anglaydilar va uni sinchiklab tahlil kilmokdalar (M.G.Elagina, I.M.Kononova, G.M.Lyamina, L.G.Ruzskaya va boshk.).

Verbal bosqichgacha bo'lgan davrni (yoki tayyorgarlik bosqichini) psixologik tahlil qilish tadkikotchilarni nutqning muhim omillari aynan ushbu davrda shakllanadi, degan xulosaga olib kelmokda. Zero, mazkur davrda muloqotga ehtiyoj shakllanadi, atrofdagi kattalar bilan emotsional aloka o'rnatiladi, ovoz munosabatlari, nutq-harakat apparati, fonematik tinglash kobiliyati, kattalar nutqini faol kabul qilish va tushunish rivojlanadi. Ushbu omillarning shakllanishi – rivojlanishning nutq bosqichiga o'z vaktida o'tishning muhim shartidir.

So'nggi yillarda olingan faktlar bolaning o'z vaktida va to'g'ri tashkil etilgan kattalar bilan bevosita-emotsional muloqotining bolaning kattalar nutqini kanday tushuna boshlashini, uning kachon faol so'zlay boshlashini va kelgusida uning nutqi kanday sur'atda rivojlanishini aniklashda hal kiluvchi ahamiyatga egaligidan dalolat bermokda.

Ilk bolalik davri chegaralari bilan tutash bo'lgan nutqning shakllanish bosqichi turli soha olimlarini, jumladan: psixologlar, pedagoglar, lingvistlarni eng avvalo bu nutq rivojidagi o'ziga

xos alohida davrligi bilan kiziktirib keladi. Buning o'ziga xosligi shundaki, u nutqni rivojlantirish uchun sentiziv hisoblanadi; mazkur davrda nutq muloqot vositasi sifatida paydo bo'ladi va takomillashadi; uning rivojlanishi shunday tez sur'atlarda amalga oshadiki, keyin u kelgusidagi barcha ontogenez mobaynida boshka kuzatilmaydi. K.D.Ushinskiy shunday kayd etgan edi: «bola… ikki-uch yoshida shunchalik yengil va tez o'zlashtirib oladiki, keyin yigirma yil kunt bilan o'kiganida ham uning yarmini ham o'zlashtira olmaydi».

Ilk yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish masalalari ko'p yillar mobaynida ishlab chikilgan. Ushbu davr tadkikotchilarni nutq rivojlanishining nafakat muayyan davrda, balki bolaning kelgusi rivojida ham katta rol o'ynaydigan tomonlari bilan o'ziga jalb kiladi. Nisbatan katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishdagi nuksonlar va kechikishlarni keltirib chikaruvchi sabablarning ko'pchiligi ko'pincha ilk bosqichlarda bola nutqi shakllanishining o'ziga xos jihatlariga bog'liq bo'ladi. Ushbu jihatga ye.I.Tixeeva ham e'tiborni karatgan. Ilk yoshlardagi bolalar nutqini o'rganish ishiga ye.I.Tixeeva, N.M.SHelovanov, V.I.Fradkina, N.M.Aksarina, G.M.Lyamina, V.A.Petrova kabi tanikli olimlar, amaliyotchi pedagoglar va metodistlar sezilarli hissa ko'shdilar.

Bolaning faol nutqka o'tishi paytida uning nutqini rivojlantirishga oid ko'p sonli tadqiqotr natijalarini umumlashtirib, ushbu asosiy koidalarni bayon kilamiz.

Ilk yoshda nutqni rivojlantirish ikki yo'nalish bo'yicha olib boriladi:
bola nutqini takomillashtirish va uning o'z faol nutqini shakllantirish.

Ilk yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish choђida nutqning talaffuz jihatlarini shakllantirish muddati va sur'atlaridagi individual farklar juda sezilarli bo'ladi, odatda faol nutq 2-2,5 yoshlarga kelib paydo bo'ladi. Bolaning o'z yakinlari bo'lgan kattalar bilan muloqotga ehtiyoji nutqni o'z vaktida va to'g'ri rivojlantirishning hal kiluvchi sharti hisoblanadi.

Kommunikativ funktsiya nutqning birlamchi vazifasidir.

Ushbu davrda nutq bolani ijtimoiy tajriba bilan tanishtirish, uning faoliyatini kattalar tomonidan boshkarishning eng muhim vositasiga aylanadi, nutq ta'siri ostida barcha psixik jarayonlar qayta kuriladi. Bolaning kattalar bilan amaliy hamkorligiga oid vaziyatlarda faol nutqdan foydalanishi nutq shakllanishining uchinchi bosqichiga – uni muloqot vositasi sifatida takomillashtirish davriga o'tishning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Nutq ontogeneziga oid ko'p sonli tadqiqotr aynan shu bosqichga baђishlangan.

Maktabgacha davrdagi bolalik lingvistlarni shunisi bilan jalb kiladiki, bunda o'rganilayotgan predmet (bola nutqi) lingvistik jihatdan ko'p kirrali va kizikarlidir. Lingvist olimlar fikriga ko'ra, bola nutqiga oid har bir fakt kamida ikki yo'nalish bo'yicha ko'rib chiqilishi mumkin va shart: 1) «Kattalar tili» tomon borishdagi vaktincha nutq sifatida (agarda so'z innovatsiya haqida borayotgan bo'lsa); 2) Bolaning avtonom til tizimi elementi sifatida, uning ichida bola muayyan funktsional vazifaga ega bo'ladi.

Bolalar nutqini rivojlantirishning metodik masalalarini ishonchli tarzda psixologo-lingvistik asoslash zamonaviy pedagogik tadqiqotrga xos jihatlar hisoblanadi. Rus pedagogika fanining eng yaxshi an'analari ruhida bajarilgan ushbu tadqiqotr katta faktik materiallarga ega bo'ladi, bola nutqining ob'ektiv qonuniyatlarini aniklaydi. F.A.Soxin va O.S.Ushakovlarning tasnifidan foydalangan holda bolalar nutqini psixologik-pedagogik tadkik qilishni uchta yo'nalishga ajratish mumkin: tuzilmaviy (til tizimining turli tuzilmaviy darajalarini: fonetik, leksik, grammatik darajalarini shakllantirish), funktsional (kommunikativ faoliyatda tilni egallash ko'nikmalarini shakllantirish); kognitiv (til va nutq hodisalarini oddiy anglashni shakllantirish).

O'zbekiston Respublikasida nutqni tadkik qilish 50-yillardan boshlab amalga oshirila boshlandi. A.V.Nikolskaya milliy bolalar bog'chalarida mahalliy millat farzandlariga rus tilini o'kitish zarurligi haqidagi masalani birinchi bo'lib ko'tarib chikdi.

Toshkent shahridagi maktabgacha tarbiya muassalarida (№67, 70) o'tkazilgan sinov tadqiqotri (1958-1960) asosida u tomonidan maktabgacha yoshdagi katta o'zbek bolalariga ruscha so'zlashish nutqini o'rgatish metodikasi mazmuni va uning asosiy masalalari ishlab chikildi. 1961 yilda A.V.Nikolskiyning «O'zbek bolalar bog'chalarida ruscha nutqni o'kitish» nomli metodik ko'llanmasi, 1967 yilda esa maktabgacha tarbiya bilim yurtlari uchun «O'zbekiston milliy bolalar bog'chalarida ruscha so'zlashuv nutqini o'kitish metodikasi» nomli o'quv ko'llanmasi chop etildi.

Yuqorida ko'rsatilgan o'quv-metodik ko'llanmalarining chop etilishi O'zbekiston Respublikasining milliy maktabgacha tarbiya muassasalari uchun kadrlar tayyorlashda hamda maktabgacha yoshdagi katta bolalarga ruscha so'zlashuv nutqini o'kitishni tashkil etish va uni amalga oshirishda katta amaliy yordam ko'rsatdi.

Ushbu ko'llanmalarda nutqni rivojlantirishga nisbatan butunlay taklidga, bolaning tilni ichki sezgi asosida o'zlashtirib olishiga asoslangan jarayon sifatida karash kabi ilgari keng tarkalgan nuktai-nazar saklanib kolgan.

70-yillarda A.V.Nikolskiyning ilmiy rahbarligi ostida e.M.Razbaeva tomonidan «O'kilgan asarlar bo'yicha o'tkazilgan suhbatlar asosida maktabgacha yoshdagi katta bolalarda kattalar mehnatini hurmat qilish hissini tarbiyalash», S.A.Ъozieva tomonidan (E.M.Razbaevaning ilmiy rahbarligi ostida) «O'zbek xalq og'zaki ijodiyoti (xalq ertaklari va o'yinlari)dan foydalanish asosida maktabgacha yoshdagi katta bolalarda atrofdagilarga nisbatan adolatli munosabatni shakllantirish» nomli tadqiqotr o'tkazildi.

Mazkur tadqiqotrda nutqka maktabgacha yoshdagi katta bolalarda kattalar mehnatini hurmat qilish va atrofdagilarga nisbatan adolatli munosabatda bo'lish hissini tarbiyalash vositasi sifatida karalgan.

90-yillarda A.V.Nikolskiyning shogirdlari – F.R.Kodirova, R.M.Kodirova tomonidan maktabgacha yoshdagi bolalarga rus tilini o'kitishda o'yinlardan foydalanish hamda maktabgacha yoshdagi katta bolalar va olti yoshli bolalarga rus tilini o'kitish jarayonida ularda baynalminalchilik va vatanparvarlik tuyђularini shakllantirish masalalari bo'yicha tadqiqotr o'tkazildi.

G.Jumashevaning tadkikoti (1996) esa ikki tillilik sharoitida sahnalashtirilgan o'yinlar yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarda korakalpok tilida muloqot qilish madaniyatining asoslarini shakllantirishga yo'naltirilgan.

90-yillarning oxiridan boshlab A.S.Vыgotskiy, A.A.Leontev, F.A.Soxin, A.M.SHaxnorovich, ye.I.Negnevitskaya va boshka olimlar tomonidan yaratilgan koidalarga tayangan holda R.M.Kodirovaning ilmiy rahbarligi ostida ona tilida va shu bilan birga chet tillardagi nutq ontogenezi kirralarini tadkik qilish ishlari olib borilmokda.

Xususan, D.Boboeva tomonidan maktabgacha yoshdagi katta bolalarni atrof-olam bilan tanishtirish jarayonida ularda nutqni (ona tili - o'zbek tilida) rivojlantirish, N.Nurmuhammedova tomonidan ikki tillilik sharoitida bilingv bolalarda ravon nutqni (rus tilida) rivojlantirish, SH.SHaripova tomonidan maktabgacha yoshdagi katta bolalarda vaziyatli o'yinlar asosida nutqiy muloqot (rus tilida) madaniyati ko'nikmalarini tarbiyalash masalalari bo'yicha tadqiqotr o'tkazilgan.

Yuqorida kayd etilgan tadqiqotr bola nutqini rivojlantirishga umumiy ruhiy rivojlanish ustunining til qobiliyatini shakllantirish o'zlashtirib olishni talab kiladigan muloqot vositalarini rivojlantirish jarayoni sifatida karaladigan kontseptsiya doirasida o'tkazildi.

## X U L O S A L A R

CHet ellarda va O'zbekiston Respublikasida turli ilmiy maktablar hamda yo'nalishlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotrni tahlil qilish maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining turli jihatlarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini va ularning ilmiy adabiyotlarda o'rganilganlik darajasini aniklash imkonini berdi.

- V.I.Loginova, YU.S.Lyaxovskaya, V.V.Gerbova, ye.M.Strunina va boshkalarning tadqiqotri bolalarning ona tili leksikasini o'zlashtirib olishlarining o'ziga xos jihatlarini o'rganish masalasiga baђishlangan.

Bolalarning lug'at o'zlashtirib olishlarining ikki jihati aniklangan: lug'at atrof-olamni bilish bilan birgalikda rivojlantirish va til birligi sifatida so'zlarni o'zlashtirish; predmetli alokalar mantiђi bo'yicha ham va ayni paytda til mantiђi bo'yicha ham so'z ustida ishlash zarurligi isbotlangan.

- Bolalar nutqining grammatik tuzilishi sohasidagi tadqiqotr bolalarda nutqning morfologik va sintaktik jihatlarini shakllantirish (F.A.Soxin, A.V.Zaxarova, O.I.Soloveva, V.I.YAщenko va boshk.), shuningdek ona tilining so'z yasash tizimini o'zlashtirishning o'ziga xos jihatlarini (A.G.Tambovtseva, D.A.Kostandyan) aniklab berdi.

Hozirgi kunga kelib bolalar nutqining grammatik tuzilishini takomillashtirishga doir pedagogik amaliyotda nafakat odatdagi grammatik xatoliklarni o'rganish va ularni tuzatishga, balki birinchi navbatda, grammatik umumlashtirmalarni shakllantirishga e'tibor karatilishi zarur.

- Bolalarning tilning tovush tizimini o'zlashtirishlari tadkikotchi pedagoglar va amaliyotchilarning o'rganish ob'ektiga aylandi (G.M.Lyamina, ye.I.Radina, A.M.Maksakov, M.G.Gening, N.A.German va boshk.).

Nutqning xususiyatlarini, uning fonetik, shuningdek ritmik-musikiy jihatlarini rivojlantirish (Maksadov va boshk.), maktabgacha yoshdagi bolalarga tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatishga doir ishlar tizimini asoslash psixologlar, pedagoglar va logopedlarning (V.I.Rojdestvenskaya, M.F.Fomicheva, G.A.CHirkina va boshk.) birgalikdagi sa'y-harakatlari natijasida amalga oshirildi. Logopediyaning bolalarda nutqka oid nuksonlarning oldini olish bilan bog'liq masalalar turkumini o'rganayotgan profilaktik yo'nalishi keng tarkalgan. O'zbekistonda ushbu yo'nalishda L.R.Mo'minova, M.Ayupova va boshkalar ish olib bormokdalar. Tovushni va so'zni to'g'ri talaffuz qilish bilan bolalarning o'z nutqi hamda boshkalar nutqining fonetik xususiyatlarini anglab yetishlari o'rtasidagi bog'liqlik, shuningdek nutqning talaffuz jihatiga, balki umumiy nutqiy rivojlanishning fonematik tinglash kobiliyatiga bog'liqligi aniklangan.

Bolalar nutqini rivojlantirish borasida ko'rsatib o'tilgan yondashuvlar maktabgacha yoshdagi bolalarning tilni bir tizim sifatida o'zlashtirishlariga (tovush jihati, lug'at tarkibi va grammatik tuzilishning birgaligi) taalluklidir.

Bolaning til tizimini egallash borasidagi barcha yutuklarini ravon nutq o'z ichiga oladi, ravon nutqka mazmunli, keng va muloqotni ta'minlovchi fikr bildirish sifatida karaladi. U mazmunliligi, mantikiyligi va izchilligi bilan ajralib turadi (A.M.Leushina, S.L.Rubinshteyn, F.A.Soxin, D.B.Elkonin va boshk.).

Nutqni rivojlantirish nazariyasi va metodikasida ravon nutqni rivojlantirish maktabgacha yoshdagi bolalarni nutqiy tarbiyalash borasidagi markaziy vazifa ekanligi tan olingan.

Ravon nutq bolaning til boyligini qanchalik egallab olganligining ko'rsatkichi hisoblanadi, bolaning aklan, estetik, emotsional rivojlanish darajasini ko'rsatadi (G.A.Ladыjenskaya, N.N.Poddyakov, F.A.Soxin, O.S.Ushakova va boshk.)

E.I.Tixeeva, ye.A.Flerina, A.M.Leushina, ye.I.Penevskaya, ye.I.Radina va boshkalar maktabgacha yoshdagi bolalar ravon nutqining dastlabki tadkikotchilari sirasiga kiradilar. Ushbu olimlarning asarlari bolalarning so'zlashuv nutqi va hikoya qilishni egallashlarining o'ziga xos xususiyatlarini, dialogik va monologik nutqlarning o'zaro bog'liqligini chukur tushunish asosiga kurilgan ravon nutqni o'rgatish tizimining poydevorini yaratdi. Mazkur olimlar tomonidan bolalar hikoyalari tasniflab chikilgan. Ushbu tasniflash asosini fikr bildirish manbasi, ya'ni: narsalar tavsiflash, adabiy matnlarni aytib berish, shaxsiy va jamoaviy tajriba haqida hikoya qilish, ijodiy hikoya qilish va boshkalar tashkil etadi.

Monologik nutqni rivojlantirish nazariyasi va metodikasini yanada rivojlantirish bolalarning ravon nutqni hamda monologik fikr bildirishning turli toifalarini o'zlashtirib olishlarining o'ziga xos jihatlarini chukur tadkik qilish bilan tavsiflanadi (N.F.Vinogradova,

V.V.Gerbova, O.S.Ushakova va boshk.). Izohlovchi nutqning o'ziga xosliklari (N.N.Poddyakov, N.I.Kuzina), mulohaza toifasidagi fikr bildirish (A.V.Zaporojets, R.I.Nikeolskaya, V.I.YAshina) xususiyati o'rganiladi va ular asosida bolalarga turli toifadagi monologlarni o'rgatish metodikasi yaratiladi.

F.A.Soxin, O.S.Ushakov va ularning shogirdlari tomonidan ravon nutqni shakllantirishning turli sohalari bo'yicha bajarilgan tadqiqotr ravon nutqning shunchaki mantikiyligi, izchilligidan tashkari yanada anikrok baholash mezonlarini kidirib topishni asosiy vazifalardan biri qilib ko'yadi. Ravonlikning asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida so'zlar, gaplar va fikrlar kismlari o'rtasidagi o'zaro aloka vositalaridan foydalangan holda matnni tarkiban to'g'ri tuzish mahoratini shakllantirish kabul kilingan.

T.I.Grizikning tadqiqotri ravon nutqning nutqiy ko'nikmalarini shakllantirishga bañishlangan. Ushbu masalalarni nemis pedagogi Gertrud-Mari Brumme ham o'rganadi.

O'zbekiston Respublikasida hamda Korakalpoñistonda o'tkazilayotgan tadqiqotr (R.M.Kodirova, F.R.Kodirova, G.Jumasheva, D.Boboeva, N.Nurmuhammedova, L.I.SHaripova va boshk.) maktabgacha yoshdagi katta bolalarga ona (o'zbek) tilini va ayni paytda ikkinchi til (rus tili)ni o'kitishning eng samarali vositalari va metodlarini topishning asosiy vazifalardan biri sifatida ko'yganlar.

- Nutqiy rivojlanish masalalari bo'yicha fanning turli sohalarida bajarilgan tadqiqotr tahlili quyidagi tendentsiyani aniklash imkonini berdi: barcha tadkikotchilar bola nutqini va uning rivojlanish jarayonini alohida ajratib ko'yilgan holatda emas, balki kattalarning bolaga pedagogik ta'siri bilan o'zaro bog'liq holda ko'rib chikadilar. Mazkur yondashuv juda o'rinlidir, zero rus, chet el va mamlakatimiz fanidagi zamonaviy tadqiqotr «nutqni o'zlashtirish va ijtimoiy hamkorlik qilish - o'zaro bir-biriga bog'liq jarayonlar, nutqni rivojlantirish – to'satdan boshlanadigan jarayon emas, balki u ijodiy jarayondir», degan tezislarga asoslanadi.

**NAZORAT SAVOLLARI:**

- Zamonaviy nutq tadqiqotriga nisbatan tizimli yondashuv nimani anglatadi?
- Bolalarga ona tilini o'kitish, ularning nutqini rivojlantirish masalalari bo'yicha psixologlar va pedagoglarning fikrlari nimalarda bir-biriga mos tushadi?
- Ilmiy-metodik adabiyotlarda nutqni rivojlantirishning qaysii masalalari ko'proq yoritilgan?
- Nutqiy faoliyat mexanizmlari va ularning bolalarga ona tilini o'kitishga ta'sirini o'rganuvchi psixofiziologik tadqiqotrni tavsiflang.
- «Nutqni rivojlantirish» tushunchasini ilmiy asoslab bering.
- A.N.Gvozdevaning «Bolalar nutqini o'rganish masalalari» asarining nutq metodikasi uchun ahamiyatini aytib bering.
- 20-60-yillarda chet el fanida ontogenezni o'rganish bo'yicha o'tkazilgan asosiy tadqiqotrni (J.Piaje, P.Skinner, N.Xomskiy, J.Miller) asoslab bering.
- Rossiyadagi nutq ontogeneziga oid tadqiqotrni (L.S.Vыgotskiy, A.N.Leontev, A.A.Leontev va boshk.) tavsiflang.
- F.A.Soxinning maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish sohasidagi yangiliklari va xizmatlari nimalardan iborat?
- O'zbekiston Respublikasida ona tili va ikkinchi tilni o'kitish metodikasi masalalari bo'yicha o'tkazilayotgan tadqiqotrni tavsiflab bering.

## V-MAVZU. BOLALAR BOG’CHASIDA NUTQNI RIVOJLANTIRISHGA DOIR ISHLAR TIZIMI

**Bolalar nutqini rivojlantirish sohasida bolalar bog’chasida amalga oshiriladigan ishlarning maksad va vazifalari**

**Nutqni rivojlantirish dasturining ilmiy asosi**

**Barcha yosh bosqichlarida bolalar nutqini rivojlantirishga doir pedagogik ishlar mazmuni va shart-sharoitlari**

Bolalar nutqini rivojlantirish sohasida bolalar bog’chasida amalga oshiriladigan ishlarning maksad va vazifalari

Bolani har tomonlama rivojlantirish uning insoniyat tajribasi, uning bilimlari, kobiliyatlari va madaniyatining saklovchisi bo’lgan kattalar bilan muloqoti tufayli insoniyatning ko’p asrlik tajribasini o’zlashtirish asosidagina amalga oshiriladi. Bu tajribani fakat insoniy muloqotning eng muhim vositasi - til orkaligina berish mumkin.

Bolalarga ona tilini o’rgatish va ularning nutqini rivojlantirishga doir ishlar maktabgacha tarbiya muassasasidagi ta’lim-tarbiya ishlari ichida alohida o’rin tutadi. Ushbu ishning m a k s a d i quyidagilardan iborat: - bolalarga nutqiy muloqotning muhim shakli – og’zaki nutqni adabiy til me’yorlariga muvofik holda egallashni, to’lik ko’rinishda esa tushunish va faol nutqka kirishishni o’rgatish. Mazkur maksaddan kelib chiqqan holda maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish borasidagi vazifalar quyidagilar hisoblanadi:

- Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash;
- Lug’at boyitish, mustahkamlash va faollashtirish;
- Nutqning grammatik to’g’riligini takomillashtirish;
- Og’zaki (dialogik) nutqni o’rgatish;
- Ravon nutqni rivojlantirish;
- Badiiy so’zga kizikishni tarbiyalash;
- Savod o’rganishga tayyorlash.

Nutq va muloqot masalalarini, maktabgacha davrdagi bolalikning barcha yosh bosqichlarida ushbu yo’nalishdagi pedagogik ishlardan ko’zda tutilgan vazifalarni batafsil ko’rib chikamiz.

**Go’daklik yoshi: 0 – 1**

Bola hayoti kattalar hayoti va faoliyatiga uyђunlashgan bo’ladi. Ayni paytda bolada unga ta’sir o’tkazish uchun biron-bir o’ziga xos insoniy vositaga mavjud bo’lmaydi. Bu mazkur rivojlanishning asosiy genetik vazifasi – kichkintoylarda katta odam bilan muloqotga kirishish kobiliyati va vositalarini shakllantirishdan iboratdir. e**motsional-erkin muloqot** – ushbu yoshdagi yetakchi faoliyat turi hisoblanadi.

Bolaning boshkalardan ajralib kolishi, kattalar bilan emotsional muloqotlarning yetishmasligi bola hayotining dastlabki oylaridan boshlab uning yetarli darajada rivojlanmasligiga olib kelishi mumkin.

Bolaning kattalar bilan muloqotining dastlabki belgilari «jonlanish kompleksi», ya'ni bolaning kattalarga nisbatan emotsional-ijobiy munosabati ko'rinishida paydo bo'ladi. 2-2,5 oydan boshlab kichkintoy muloqotga kirishishni faol talab kila boshlaydi.

Muloqotning **birinchi shakli** – emotsional-erkin (vaziyat-shaxs) shakldir. Bu boshka odamga bo'lgan kizikish, unga nisbatan emotsional munosabat bilan tavsiflanadi. Muloqotning bunday shakli bola hayotining birinchi yarim yilligiga xos holatdir.

Muloqotning yanada rivojlangan **ikkinchi shakli** – ya'ni, emotsional-vositali (vaziyatli-amaliy) shakli bola hayotining ikkinchi yarim yilligida ro'y beradi. Bu muloqot predmetlar orkali vositali muloqotga aylantiriladi. Ushbu yoshda bolaning kizikishlari atrofdagi olamga yo'naltirilgandir. Unda yangi taassurotllarga ehtiyoj yorkin paydo bo'ladi. Bu yoshdagi rivojlantirish **vazifalari** quyidagilardan iborat:

- Bolalar muassasalarida, oilada bolaga ђamxo'rlik ko'rsatayotgan kattalarga nisbatan emotsional bog'liqlik va ishonch hissini tarbiyalash.
- Unga nisbatan ijobiy dikkat-e'tiborga bo'lgan ehtiyojni kondirish.
- Kichkintoyning uni o'rab turgan atrof-olamga va uning o'ziga nisbatan kizikishni rivojlantirishga ko'maklashish.

**Ilk yosh: 1-3**

Ilk yoshdagi ijtimoiy rivojlanish vaziyati va uning genetik vazifasi. Bola hayotining birinchi yili oxiriga kelib erishgan natijalari yangi ijtimoiy rivojlanish vaziyatini kurishni talab kiladi. Bu bolaning katta odam bilan birgalikdagi faoliyatiga oid vaziyatdir. Ushbu birgalikdagi faoliyat mazmuni – predmetlardan foydalanishning jamoatchilik tomonidan ishlab chikilgan usullarini o'zlashtirishdan iborat (bola koshik bilan ovkatlanishni, stakandan ichishni, rasm chizishni, stulchaga o'tirish va hokazolarni o'rganadi).

Muloqot jadal rivojlanishda davom etadi, zero kattalar bilan bevosita muloqotsiz premetli faoliyat mumkin emas. Predmetli faoliyat bilan bog'liq muloqot fakat emotsionalligicha kolmaydi, u nutqiy muloqotga aylanadi. SHunday qilib, ilk yoshdagi bosh vazifa narsalardan foydalanishning insoniy usullarini o'zlashtirish va nutqni rivojlantirishdan iborat bo'ladi.

Bola narsalar bilan harakat kilar ekan, hayotining ikkinchi yiliga kelib, ularning jismoniy (hajmi, shakli, rangi) va dinamik xususiyatlarini, masofaviy munosabatlarini (yakin, uzok), butun narsani kismlarga ajratish va kismlardan butun narsani yiђishni (piramida, matreshka kabi o'yinchoqlarni kismlarga ajratadi va qayta yiђadi) o'zi uchun kashf kiladi. Birok, bola narsalar bilan qanchalik ko'p harakat kilmasin, u baribir ularni amalda ko'llashning jamoatchilik tomonidan ishlab chikilgan usullarini (koshik bilan ovkat yeyiladi, bo'tka aralashtiriladi; sochikka ko'llar, yuz artiladi; kalam bilan rasm chiziladi va h.k.) mustaqil ravishda kashf kila olmaydi. Narsalarning vazifasi va ularni amalda ko'llash usullarini bolaga kattalar o'rgatadilar.

Muloqotga bo'lgan ehtiyoj, predmetli harakatlarni o'zlashtirish bolaning o'z faol nutqini ham talab kiladi. Nutq asosida umumlashtirishlar, fikrlashning ramziy vazifasi, ya'ni real narsalarning o'rnini almashtira olish hamda o'rin bosuvchi narsalar va til belgilari bilan amallar bajarish kobiliyatlari rivojlanadi. Birok nutqkacha predmetli harakatlarni (aynan bir narsa bilan turli harakatlarni yoki turli narsalar bilan aynan bir xil harakatni bajarish), juftlik o'yinlarni («ku-ku», «shar yumalatish» va boshk.) rivojlantirish va umumlashtirishga oid uzok yo'lni bosib o'tishga to'g'ri keladi.

Bola uchun katta yoshli odam – bitmas-tuganmas ijobiy emotsiyalar, kizikarli taassurotlar va borgan sayin so'z muhim ahamiyatga ega bo'lib boradigan o'yinlar manbai hisoblanadi. Kattalar bilan muloqotga kirishish, narsalar va o'yinochklarga egalik qilishga intilarkan, bola ushbu maksadlarga erishish uchun so'zdan foydalanish haqidagi chakirikka javob beradi, ba'zida o'zi tashabbus ko'rsatib, fikr bildiradi. Katta yoshli odam bola bilan dialogga kirishadi, bolaning

bir so’zli fikrlarini grammatik jihatdan to’lik shakllantirilgan iboraga aylanatirish orkali uning «kamchiliklarini tuzatatadi» (Timur dadasining mashinasini ko’rib koldi: «Bi-bi, dada». Ona: «Dadasining mashinasi. Ketdik, dadaga boramiz»).

Bola tilni faol o’zlashtiradi. So’z ortida turgan tasavvur yagona o’xshashlikdan («lyalya» - katta va kichik ko’ђirchok) ko’proq o’xshatishlargacha, keyinrok esa nisbatan anik umumlashtirmalargacha («mol» so’zidan sigir, ko’y, echki va ot-eshaklarni ifodalashda foydalanishdan boshlab keyinchalik «mol» so’zini fakat sigir va buzokchalarga nisbatan ko’llashgacha) rivojlanadi. Ayna bitta so’z yordamida ko’p obrazli munosabatlar ifodalanadi («nanna» so’zi bir vaktning o’zida «bu non», «non bering», «non tushib ketdi» kabi ma’nolarni anglatishi mumkin va h.k.). Bola asta-sekin bu munosabatlarni grammatik jihatdan rasmiylashtirilmagan ikki so’zli, keyinrok esa uch so’zli gaplar orkali ifodalashni o’rganadi. Ikkinchi yilning oxiriga kelib dastlabki grammatik shakllar paydo bo’ladi. Bolaning so’z zahirasi ortadi. 1 yoshda – 1 yoshu 6 oyda so’z zahirasi 30-40 ta so’zni tashkil kiladi. Fikrlar asosan bir tarkibli gaplardan iborat bo’ladi. Bunda nonutqiy muloqot vositalari (ifodali harakat, bevosita namoyish qilish, ko’zlarning to’knashuvi, mimikalar, imo-ishoralar va boshk.) hamon hukmron bo’ladi. Bola maishiy vaziyatlar ma’nosini va ularda ko’llanilayotgan nutq mazmunini tushunib yetadi.

1 yoshu 6 oy – 2 yoshga kelib bolaning so’z zahirasi 200-300 tagacha o’sadi. Uning fikrlari grammatik jihatdan rasmiylashtirilmagan ikki-uch tarkibli iboralardan iborat bo’ladi. Bola bilan katta yoshli odam bevosita muloqotga kirishgan vaziyatda esa nutqiy muloqot yetakchi muloqot turiga aylanadi.

Bola hayotining uchinchi yiliga kelib nutq rivojlanishi ko’proq keng kamrovli vazifalar doirasida, eng avvalo katta yoshli yakin karindoshlari va bolalar bilan munosabatga kirishish hamda ular bilan birgalikda harakat qilish (nutqning kommunikativ vazifasi), atrof-olamni bilish (nutqning intellektual vazifasi) orkali davom etadi. Bola nutqiy muloqotning asosiy shaklini – dialogik nutqni o’zlashtiradi. U tashabbus ko’rsatib fikr bildirishni, savollar berishni, javob kutishni, o’zi ham savollarga javob berishni, atrofdagilarga iltimos va takliflar bilan murojaat qilishni o’rganadi.

Bola o’z istak-xohishlari, hissiyotlari, fikrlarini ifodalash, kutilayotgan natijalarga erishish uchun so’zlardan foydalanadi. Birok bola tomonidan foydalanilayotgan so’zlar fonetik jihatdan ancha nomukammal bo’lib, u keng kamrovli ma’nolarni anglatadi. So’z va predmetli harakatlarni ko’llash va ular bilan mos ravishda harakat qilish orkali katta yoshli odam bola bilan o’zaro bir-birini tushunishni va uning tilini boyitishni yo’lga ko’yadi.

Bola tashabbus ko’rsatish orkali muloqot sub’ekti, teng hukukli hamkor sifatida chikadi. O’zini tushunishlariga intilish, o’z istak-xohishlarining bajarilishiga erishish bolani to’g’ri so’zlashga majbur kiladi. Ushbu yoshda tengdoshlari bilan muloqotga kirirish emotsional aloka o’rnatish va o’z shaxsiga e’tiborni jalb qilishga yordam beradi: bolalar bir-birlari bilan o’ynash jarayonida o’z harakatlarini nutq bilan sharhlab boradilar, ammo hozircha ular bir-biriga to’g’ridan-to’g’ri yuzlanib, murojaat kilmaydilar.

Bola hayotining uchinchi yiliga kelib bolaning til muhitidagi faol yo’naltiruvchi faoliyati boshlanadi. Bu quvonchhli kechinmalar ta’siri ostida vujudga keladigan tovushlar bilan turli o’yinlarda («shovkinli ko’shiklar») va oddiy so’z ijodkorligida («golf-molflar», «o’yin-po’yin» va boshk.) ko’rinadi.

Qulay shart-sharoitlarda muloqotning uchinchi yiliga kelib bola kattalar bilan muloqotda ko’rgazmali-taassurotli vaziyatga tayanmagan holda o’z tassurotlarini nutqda ifodalay boshlaydi. Bolalar o’zlari o’qib chiqqan kitoblari, tinglagan ertaklari va o’zlarining ilgarigi tajribalari haqida («Mustaqillik» maydoniga, hayvonot bog’iga uyushtirilgan sayohat, Qorbobo sovg'alari va boshkalar haqidagi xotiralar) fikr bildira boshlaydilar.

**Bola hayotining ikkinchi yilida nutqiy rivojlantirish v a z i f a l a r i : Nutqni** tushunish. Bolaga eng oddiy, uning o’ziga tanish bo’lgan maishiy vaziyatlar, jarayonlar va o’yin vaziyatlarini ochib beruvchi oson tushuniladigan so’zlar va oddiy iboralar zahirasini

kengaytirish. Odamlar, xonadagi va undan tashqaridai narsalar, hayvonlar, o'simliklar, uy-joylar va ularning vazifasini ifodalovchi so'zlar zahirasini asta-sekin kengaytirib borish.

- Old ko'makchilar va ravishlar yordamida ifoda kilinadigan vaziyatlarni tushunishni (ikkinchi yarim yillikda), buyumlar sifati, ularning hajmi va rangini belgilovchi so'zlarni tushunishni shakllantirish.
- Kattalarning mazmuniga ko'ra boђlangan 2-3 ta harakatdan iborat bo'lgan topshiriklarini dikkat bilan tinglash, tushunish va bajarishni o'rgatish («koptokni ol va menga uzat»).

**Faol nutq.** Barcha rejimli vaziyat jarayonlarida ishonch bildirilgan his-hayajonli muloqotni yo'lga ko'yish.

- Bola imkoni bo'lgan har kanday nutqiy ko'rinishlar va vokallashuvlarning paydo bo'lishiga ko'maklashish.
- Imo-ishoralar va yuz ifodasi bilan bir katorda istak-hohishlarni ifodalash va atrofdagilar bilan o'zaro munosabatlarni yo'lga ko'yish uchun zarur bo'lgan so'zlardan foydalanishga; turli sabablar bilan kattalar va bolalarga murojaat qilish: savol berishga; ko'rganlarini bir nechta so'zlarda hikoya qilib berishni o'rganishga (yil oxirida) undash.
- Bolalarning kishilarni ularning yoshi va jinsiga mos holda belgilovchi so'zlardan, xonadagi va xonadan tashqaridai buyumlardan, ayrim hayvonlardan va o'simliklardan, atrofdagi kishilar va hayvonlar harakatlaridan, notirik va tirik ob'ektlardan, ayrim mehnat harakatlaridan foydalanishlari uchun tegishli holatni vujudga keltirish.

Bola hayotining uchinchi yilida nutqiy rivojlantirish vazifalari

**Nutq funktsiyalari va shakllari.** Bolaning imkon doirasidagi va undan tashqaridai nutq vositalari bilan faol muloqotga kirishish, kattalarning savollariga va takliflariga javob berish, o'z istak-xohishlarini, hissiyotlarini, fikrlarini ifoda kilgan holda tashabbus ko'rsatib fikr bildirishga intilishini ko'llab-kuvvatlash; tengdoshlari ishlariga kizikishini, o'z taassurotlarini ular bilan o'rtoklashishni istashini, o'yin harakatlarini, ro'y berayotgan hodisaga munosabatini nutq bilan ifodalashga kizikishini raђbatlantirish; shaxsiy tajribadan kelib chiqqan holda bolaning o'ziga yakin mavzular bo'yicha, hayvonlar hayoti, transport (shahar) haqida vaziyatdan tashkari muloqot qilishga undash.

**Lug'at.** Bolalarni buyumlar, ularning harakati va sifatini belgilash uchun so'zlardan foydalanishga undash.

- Lug'at so'zlar bilan – kishilar, o'simliklar, ozik-ovkatlar, kiyim-boshlar, mebellar, uy hayvonlari va ularning bolalari, o'yinchoqlarning nomlari bilan, buyumlar kimslarining nomlari (ko'ylak yengi va yokasi; mashina kuzovi va ђildiriklari) bilan boyitib borish. O'yinlarda bolalarga harakatlarning so'zdagi ifodasini o'z ifoda harakatlari va o'yinchoqlar harakatlari bilan takkoslashni o'rgatish.

**Nutqning grammatik kurilishi.** Bildirilgan fikrlarni grammatik rasmiylashtirishni, ya'ni so'zlarni o'zgartirish (soni, kelishigi va vaqtiga qarab, ularni gapda kelishtirish, kichraytiruvchi-erkalovchi nomlarni, tugallangan va tugallanmagan fe'llarni vujudga keltirishni o'zlashtirishga ko'maklashish.

**Nutqning tovush madaniyati.** Bolalarga unlilarni va oddiy undosh tovushlarni to'g'ri talaffuz etishni mashk kildirish.

- Tovushga taklid qilishga oid so'zlardagi tovushlar bilan mustaqil o'yinlarni va o'yin harakatlarini turli xil tovushlar bilan kuzatib borishni ko'llab-kuvvatlash.
- Tovush taklidiga karab personajlarni tanib olishni o'rgatish.

## Maktabgacha davrdagi kichik yosh (3 – 5 yosh)

Ikki yoshdan besh yoshgacha bo'lgan davr nutqiy rivojlanishdagi ahamiyatiga ko'ra o'ziga xosdir: ushbu davrda bola tilga, uning tovush va mazmun jihatlariga yukori darajada beriluvchan bo'ladi. Tilni boyitish muomalada va o'z faoliyatida vujudga keladigan yangi vazifalar bilan rafbatlantiriladi, va o'z navbatida ularning yanada rivojlantirish uchun sharoit yaratadi.

Ushbu yoshda nutqning asosiy irsiy vazifasi – aloka funktsiyasi, ijtimoiy alokalar va atrofdagilarga ta'siridan iborat. O'yin faoliyatini rivojlantirish, predmetli-manipulyativ va individual syujetli-aks ettirish o'yinlaridan birgalikda-rolli, syujetli-rolli o'yinga o'tish munosabati bilan muloqotga yangi ehtiyoj paydo bo'ladi, bu esa nutqiy faoliyatga ko'shilishning yangi usullariga – fikr bildirishga – bola faoliyatiga oid vaziyat tuzilmasiga olib keladi. Fikr bildirishning yangi vazifaviy turlari: o'z o'yin faoliyatini sharhlovchi, sherik xulkini tartibga soluvchi, yakin harakatlarni rejalashtiruvchi va rollarni taksimlovchi turlari paydo bo'ladi.

Bolalar jilmayish, kulgi, ifodali harakatlar, ko'z urishtirishlar kabi kommunikatsiya vositalaridan foydalanadilar. Bunda nutq faoliyati odatda muvofiklashtirilgan bo'ladi. Bolalar bir-birining oldida ovoz chikarib gapiradilar va ko'pincha ko'shnisining gapiga e'tibor bermaydilar. Tengdoshlar bilan dialogni rivojlantirish amaliy harakatlarni kelishib olish, sherik nutqiga mos tarzda javob berish va keyin esa fikrlarni kelishib olishda ifodalanadi.

Maktabgacha davrdagi kichik yoshda vaziyatga asoslangan nutqning (fakat muayyan vaziyatga nisbatan tushunarli bo'lgan) mutlak hukmronligidan nutqning vaziyatli va matndan kelib chikuvchi (ko'rgazmali vaziyatdan alohida tarzda) vositalarini mos tarzda ko'llashga o'tish ro'y beradi.

Ikki yoshga kelib fonematik tinglash kobiliyati yangi ko'rinishda shakllanadi. Maktabgacha davrdagi kichik yoshda o'z tovush talaffuzini eshitish va unga tuzatish kirita olish, so'zdagi umumiy va turlicha tovushlarni ajrata olish (anglay olish) kobiliyati shakllanadi (3-4 ta so'zdan iborat bo'lgan katordagi bir xil tovushlarni eshita olish, berilgan tovushli 2-3 ta so'zni tanlay olish, so'zni berilgan tovushni ta'kidlab ko'rsatgan holda talaffuz qilish, ajratib ko'rsatilgan tovushni tinglash). Besh yoshga kelib esa tovush talaffuzini o'zlashtirish asosan nihoyasiga yetadi. Talaffuzdagi fakat ayrim xatoliklar uchraydi: «sh»li so'zlar har doim ham anik aytilmaydi; «R» L bilan yoki L bilan; «L» esa L bilan almashtiriladi.

Lug'at atrof-muhitda o'z yo'lini to'g'ri topib olishning kengayishi tufayli boyib boradi. Bola yangi maishiy buyumlar, tabiat ob'ektlari, ijtimoiy hayot ko'rinishlari bilan tanishadi va bir vaktning o'zida ularning nomlarini bilib oladi. Lug'at nutqning turli kismlari nomlari (ot, fe'l, sifat), umumlashtiruvchi so'zlar (o'yinchoqlar, hayvonlar, sabzavotlar, mebellar va h.) va antonimlar (karama-karshi ma'noli so'zlar) bilan to'ldiriladi.

Bola ko'rgazmali vaziyatga karamasdan so'zlardan foydalanishni o'rganadi. Buyumlar va hodisalar, ularning munosabati va alokalari to'g'risida ko'p sonli savollar beradi. Fe'llarning faollashuvi katta ahamiyat kasb etadi. Fe'llardan foydalanish nutqka sur'at baxsh etadi, bayoniy tusdagi kiska matnlarning tufilishi uchun sintaktik asos yaratadi.

Nutqning grammatik katorini shakllantirish lug'at rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir. Bola har bir yangi so'zni o'zlashtirar ekan, uni to'g'ri o'zgartirishni, gapdagi boshka so'zlarga moslashtirishni, ular o'rtasida so'z yasovchi ko'shimchalar o'rnatishni o'rganadi (o'rdak-o'rdakcha, kant-kanddon). Oddiy gap tuzilmasi takomillashadi, turli toifadagi murakkab gaplar, bevosita va bilvosita nutqlar gaplar faol ko'llaniladi. Bolalarni tilni tadkik qilishning o'ziga xos bolalar usulidan (tovushlar, kofiyalar, so'z ijodkorligi o'yinlari) foydalangan holda o'rganadilar. So'z bilan o'ziga xos tarzda sinov o'tkazish, tovush bilan o'ynash, so'z shakllarini «ushlab ko'rish» bolalar tomonidan yasalgan, kattalar lug'atida mavjud bo'lmagan so'zlar va shakllar sonining keskin oshishiga olib keladi. Bu qonuniy jarayon butun nutq rivojining borishi uchun o'ta foydalidir.

Nutqiy rivojlanishda individual farklar doirasi keng. Ilk rivojlanish bosqichida bolalar kattalar bilan muloqotda tashabbuskor bo'lib, ko'p savollar beradilar (nima uchun, nega), tanish

ertaklarni jon deb aytib beradilar, o’yinlar to’plami, suratlar bo’yicha kichik hikoyalar to’kiydilar, bilishga ishtiyokmand ekanliklarini namoyish etadilar, kuvnok so’zlar va kofiyalar o’ylab topadilar. Ular tengdoshlari bilan birgalikdagi o’yinlarda nutqni faol ko’llaydilar.

Nisbatan sust bolalar kattalar bilan muloqotda tashabbus ko’rsatmaydilar, birok ular kattalarning suratlarni ko’rish, yangi o’yinchoqlar bilan o’ynash, uydagi ana shunday o’yinchoqlar to’g’risidagi savollarga javob berish haqidagi takliflariga ishtiyok bilan javob beradilar. Tengdoshlari bilan birgalikda o’yinlarni yo’lga ko’yar ekanlar, bunday bolalar ko’pincha muloqotning so’zsiz vositalarini ko’llaydilar. Ular pedagogni undash uchun tovushlar va so’zlar bilan o’ynaydilar(muammoli o’yin vaziyatlarida).

## Maktabgacha yoshdagi kichik bolalar nutqini rivojlantirishga doir vazifalar

**Nutq vazifasi va shakli.** Kattalar bilan ko’rgazmali vaziyatdan chetga chikadigan mavzular bo’yicha muloqot qilishni yo’lga ko’yish. Tengdoshlar bilan jamoaviy o’yinlarda o’yinga kirishib ketish uchun sharoitlar yaratish. O’z nutq faolligi paydo bo’lishini rağbatlantirish: muloqotdagi sheriklarga iltimos va takliflar bilan murojaat qilish; o’yin vaziyatlari, o’rin bosuvchi buyumlar, rollarni belgilashda nutqdan foydalanish.Buyumlar xususiyatlari va ularning kanday maksadda ishlatilishiga, turmushdagi sababli alokalar va munosabatlarga kizikishni, kiziktirayotgan masalaga oid savollarni va kiska matn shaklidagi (3-4 ta gap) mulohaza va fikrlashlarni rağbatlantirish.

**Lug’at.** Bolalarni buyumlarning yangi nomlari, ularning sifati, umumlashtiruvchi nomlari bilan tanishtirish, kiyoslashda karama-karshi ma’noli (antonimlar) so’zlardan foydalanishga, ko’rgazmali vaziyatga tayanmasdan lug’atdan foydalanishga undash.

**Grammatik kurilish.** YAngi so’zlarni grammatik jihatdan o’zgartirishga va gapdagi so’zlar bilan kelishtirishga undash. So’zlar va ularning shakllarini mustaqil ravishda hosil qilish, nomlar o’rtasidagi rasmiy-semantik alokalarni tadkik qilishning o’ziga xos bolalarcha usuli sifatida so’z ijodkorligidan foydalanish. Narsalar va hodisalar o’rtasidagi alokalarga oid o’z tushunchalarini murakkablashtirilgan gap tuzilmasi (yoyilmagan oddiy, boğlangan ko’shma gap va ergashgan ko’shma gap) orkali aks ettirish.

**Nutqning tovush madaniyati.** Fonematik kabul qilishni rivojlantirish (berilgan u yoki bu tovushni talaffuzda ajratish va so’zda eshitish kobiliyati). Artikulyatsiyani, unlilarni va oddiy undosh tovushlarni anik talaffuz qilish, shovkin bilan chikuvchi va sonor tovushlarni to’g’ri talaffuz etishni o’zlashtirish qobiliyatini takomillashtirish. Nutqning ifoda jihatini, nutq sur’atini, ovoz kuchini, nutqiy nafasni erkin tartibga solish qobiliyatini rivojlantirish.

## Maktabgacha davrdagi katta yosh (5-7 yosh)

Maktabgacha yoshdagi katta bolalar nutqini rivojlantirishda erishilgan asosiy natijalar muloqot sohasidagi chukur o’zgarishlar bilan bog’liqdir. Tengdoshlar bilan muloqot qilish birinchi o’ringa o’tadi. Bola o’z tengdoshini kattalardan afzal ko’ra boshlaydi. O’yin jarayonidagi o’rtog’iga karatilgan nutq kattalar bilan bo’lgan muloqotga qaraganda ancha mazmunlirok bo’la boshlaydi. SHerik bilan dialog - muvofiklashtirilgan predmetli va nutqiy faoliyat tusiga ega bo’ladi. Bolalar endi ko’shnilari e’tiborini jalb kila oladilar, o’zlari ham uning ishlari va bildirgan fikrlari bilan kizikadilar.

Maktabgacha yoshdagi katta bolalar nutqining vazifalari turlichadir. Nutqdan atrofdagilar bilan aloka o’rnatishda, o’ziga, o’z ishlariga va kechinmalariga dikkatni jalb qilishda, bir-birini o’zaro tushunishda, sherik xulkiga, uning fikri va hissiyotlariga ta’sir ko’rsatishda, o’z faoliyatini tashkil etishda, o’yindagi o’z o’rtoğining harakatlarini muvofiklashtirishda foydalaniladi. Nutq atrof-muhit haqidagi muhim bilim manbai, tabiat, narsalar va odamlar dunyosi haqidagi tasavvurlarni kayd etish vositasi, bilish faoliyati vositasi bo’lib xizmat kiladi. Maktabgacha

yoshdagi katta bolalarning nutqi shuningdek, ob'ektiv aloqalarning o'ziga xos soxasi sifatida namoyon bo'ladi, u bularni so'z, tovush, kofiyalar va fikrlar bilan o'ynab turib anglaydi.

O'zining amaliy, bilish va shaxsiy ehtiyojlarini kondirish uchun bola mavjud barcha vositalardan, vaziyatdan kelib chikib erkin bildirilgan fikrlardan, nonutqiy vositalardan (imo-ishoralar, yuz ifodasi, harakat) va matnli nutqdan (foydalanilgan vositalar asosida tushunarli bo'lgan) foydalanadi. Nutqning barcha turlari va shakllari til shaxsining takrorlanmas individual kiyofasini yaratgan holda o'zaro hamjihatlikda mavjud bo'ladi.

Dialogni rivojlantirish nafakat shunchaki nutqning muayyan kompozitsion shaklini o'zlashtirish, balki bolaning ijtimoiy va shaxs jihatdan shakllanishining muhim tarkibiy kismi hisoblanadi. Dialogik muloqot nafakat aloka (intellektual mazmun) va o'z manfaatlariga yo'nalishni, balki sherikning nuktai-nazarini, uning kizikishlari, istaklari, kayfiyatini hisobga olishni ham ko'zda tutadi. Bolalar bunday tajribani kooperativ tusdagi faoliyat (birgalikda yasash, chizish, jamoa o'yinlarini o'ynash) natijasida to'playdilar. Tengdoshlari bilan muloqot qilishda bola nutqi mazmundorlikka (muloqot vaziyatidan kat'iy nazar mazmun fakat til vositalaridan foydalanish orkaligina tushunarli) ega bo'lishi isbotlangan.

Maktabgacha yoshdagi katta bolalarning dialogik muloqoti negizida nutqning yangi shakli – monolog tuђiladi va shakllanadi.U bolaning o'z fikrlari, his-tuyђulari, atrof-muhit haqidagi bilimlarini o'rtoklashish istagi okibatida vujudga keladi. Bunda nutq kiska hikoya shakliga ega bo'ladi. Hikoyada albatta bolani lol koldirgan va uni hayajonga solgan biron-bir kizik hodisa (tabiat ko'ynidagi kizikarli uchrashuv, ukasning kulgili harakatlari va h.k.) aks etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar tanish ertaklarni, multfilmlar mazmunini aytib berishni, o'kiganlarini so'zlab berishni xush ko'radilar.

Maktabgacha yoshdagi katta bolalarning eng muhim yutuђi – jaranglayotgan nutqka kizikishning shidda bilan rivojlanishi, til faoliyatini eng oddiy anglashning shakllanishidir. So'zga nisbatan lingvistik munosabat dabdurustdan tovush, kofiya, mazmun bilan o'tkaziladigan o'yinlarda, so'z ahamiyati haqidagi savollarda, ularning jarangdorligi va mazmunida ko'rinadi. Til vokeligini anglash uning barcha tomonlarini – fonetik, leksik, grammatik tomonlarini kamrab oladi. So'zga nisbatan ongli munosabat lug'at takomillashtirishga (antonimlar, sinonimlar, ko'p ma'noli so'zlarni tushunish), nutqning tovush madaniyatini rivojlantirishga (tovush talaffuzi, tinglash kobiliyati, intonatsiya ifodaviyligi), nutqning grammatik to'g'riligini shakllantirishga (morfologiya, so'z yasash, sintaksis), ravon nutqni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadi.

Lug'at rivojlantirishda uning sifat jihatidan takomillashtirilishi oldingi o'ringa chikadi. Bu antonimiya (o'tkir-o'tmas, achchik-chuchuk), sinonimiya (o'tkir, uchkir, charxlangan), ko'p ma'nolilik (o'tkir pichok, achchik kalampir, o'tkir til) kabi hodisalarni tushunish va ulardan nutqda faol foydalanishga taalluklidir. Bolalar tabiat hodisalari, narsalar, insonlarning hatti-harakatlarini takkoslashda turlicha va umumiy xususiyatlarni ajratishni hamda aksil va yakin ma'noli so'zlar, kiyoslashlar, anik fe'llar, o'xshatishlar yordamida ularni nutqka olib kirishni o'rganadilar. So'z yasashda sinonim yoki antonimni tanlab olish usullari bolalarni ko'p ma'noli so'zlar bilan tanishtiradi. Buyumlar funktsiyalarini takkoslash asosida umumlashtiruvchi nomlar shakllanadi (hayvonlar, idish-tovoklar, transport va h.).

Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash shuningdek, til vokeligini eng oddiy tarzda anglashni shakllantirish bilan o'zaro bog'liqdir. Maktabgacha yoshdagi katta bolalar so'zlar, tovushlar, kofiyalar (pomidor-koridor) faol o'ynaydilar. Ular so'z jaranglashidagi umumiy va turlicha tovushlarni belgilay oladilar, artikulyatsiya yoki akustik jihatdan yakin tovushlarni (S-SH, S-Z, S-S) farklashga kodirlar, she'r, makol yoki tez aytishdagi 4-5 ta so'zda uchragan tovushlarni belgilay oladilar. Bolalar aralash tovushlardan iborat bo'lgan tez aytishlarni anik talaffuz qilishni mashk qilishni, ularni turli tezlikda, turli ovoz balandligida va turlicha ohanglarda aytishni yoktiradilar.

Maktabgacha davrdagi katta yoshda nutqning grammatik jihatdan to'g'riligini shakllantirish nutqka nisbatan tankidiy munosabatning paydo bo'lganligi va rivojlanganligi, anik va to'g'ri gapirishga intilish bilan bog'liqdir. To'g'rilikka intilish grammatikaning barcha sohalarida, ya'ni – morfologiyada (shaklning anik shakllanishida, ko'p turdagi shakllarni

o’zlashtirishda), so’z yasashda (non uchun - nondon, tuz uchun - tuzdon), sintaksisda (og’zaki nutq tuzilmasini bartaraf etish: «va» boђlovchisini ko’p marta ko’llash orkali gapni «cho’zish» hamda bir gapda to’g’ridan-to’g’ri va bilvosita nutqni aralashtirib yuborish) paydo bo’la boshlaydi. Nutqning grammatik to’g’riligiga intilish bola hayotining yettinchi yilida ro’y beradi. Besh yoshli bola hali ham ishtiyok bilan grammatik shakllarni o’ynaydi va aynan so’z bilan amalga oshirilayotgan ana shu sinovgina nutqning grammatik to’g’riligini yanada rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratadi.

Lug’at rivojlantirish, nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash, grammatik to’g’rilikni shakllantirish ravon nutq tuzish usullarini o’zlashtirish (boђlovchilar, o’rin-hol, leksik takrorlashlar, sinonimlar yordamida gaplarni boђlash vositalari; tavsiflash, bayon qilish tuzilmasi) bilan uzviy bog’liqdir. Ko’p turdagi vazifalarni bajarish munosabati bilan dialogik nutq negizida rivojlangani holda nutqning barcha jihatlari tilni anglashni shakllantirishga to’g’ridan-to’g’ri bog’liq holda bo’ladi hamda buning uchun bolaning katta bilan muayyan shakldagi muloqot turiga muhtoj bo’ladi. Bu nafakat tashki dunyo va boshka odamni anglashga, balki tilning o’zini, uning tuzilishi va faoliyat yuritishni anglashga ham yo’naltirilgandir.

Nutqiy rivojlanishning o’ziga xos xususiyatlari kirishuvchanlik ko’rinishlarida hamda ayni paytda til va ravon nutqni egallash sur’atida ifodalanadi. Ko’pchilik bolalar o’z harakatlarini sharhlashni, atrofdagilar e’tiborini o’ziga jalb qilishni xush ko’radilar. Bunda ayrim bolalarda nutqiy muloqot amaliy faoliyat bilan zid keladi va buning natijasida bunday ko’p gapiruvchi bolakay ish bajarishda guruhdagi boshka bolalardan ortda kola boshlaydi. Unchalik kirishimli bo’lmagan bolalar kam so’zlaydilar, lekin odatda ular amaliy vazifalarni tez va to’g’ri hal etadilar.

Ravon nutqning paydo bo’lish muddati va mahsuldorligi ham fark qilishi mumkin. Ilk turdagi nutqiy rivojlanishda maxsus tayyorgarliksiz hikoya qilib berish 4-5 yoshdan boshlanadi. Bolalar sehrli ertaklarni, bo’lgan vokealarni bir-birlariga so’zlab beradilar, o’yinchoqlardan foydalangan holda o’ziga xos hikoyalar to’kiydilar. Agarda bola yetti yoshida tanish an’anaviy ertakni («Zumrad va Kimmat») mustaqil hikoya qilib bera olsa, o’yinchoqlar, suratlar asosida kichik og’zaki insho to’kiy olsa - bu hammasi me’yoridaligidan dalolatdir.

Maktabgacha yoshdagi katta bolalarni nutqiy rivojlantirishga doir **vazifalar.** Nutqning **vazifasi** va shakli. Bolaning o’z tengdoshlari shaxsiga va faoliyatiga kizikishini ko’llab-kuvvatlash, birgalikdagi o’yinlar va Mashg’ulotlarda ularning dialogik nutqni yo’lga ko’yishlariga ko’maklashish.

- Turli muloqot vositalari, ya’ni – so’z, yuz ifodasi (mimika), pantomimikadan muayyan vaziyatni hisobga olgan holda tabakalashtirilgan holda foydalanishni o’rgatish.
- Bolalarning o’z tashabbusiga ko’ra yoki kattalarning taklifiga ko’ra hikoya qilib berishga kizikishini ko’llab-kuvvatlash, ertaklar, suratlar va o’z shaxsiy tajribasiga oid taassurotlarning so’zdagi mazmunini kiska hikoya, mulohaza, tavsiflar yordamida ifodalashni o’rgatish.
- Dabdurustdan tuђilgan so’z ijodkorligida, tovushlar va kofiyalar bilan o’tkaziladigan o’yinlarda, so’zlar bilan amalga oshiriladigan sinovlarda, ularning jarangdorligi va ahamiyati, so’zlar mazmunini talkin qilishda ko’zga tashlanadigan so’zlarga kizikishni ko’llab-kuvvatlash. Til vokeligini eng oddiy anglashni rivojlantirish, bolalarni «tovush», «so’z», «gap» atamalari bilan tanishtirish.

**Lug’at.** So’zning mazmun jihatlari haqidagi tasavvurlarni takomillashtirish, bolalar nutqlarini antonimlar, sinonimlar, ko’p ma’noli so’zlar, umumlashtiruvchi nomlar bilan boyitish, obrazli so’zlar, kiyoslashlar, o’xshatishlar, anik fe’llarni faollashtirish.

**Nutqning grammatik kurilishi.** So’z o’zgartirishdagi kiyin holatlarni (ko’plikdagi otning bosh va karatkich kelishigi, o’zgarmaydigan otlar, buyruk mayllari, fe’llar shakllari, tugallangan va tugallanmagan fe’l shakllarini vujudga keltirish) o’zlashtirishga yordam berish.

- Fe’llar, otlar va sifatdan so’z yasash usullarini shakllantirish. Gap tuzilmasini takomillashtirish, turli xil tuzilmadagi - oddiy, ko’shma gaplarning, birovlar nutqining faol ko’llanilishiga yordamlashish. Grammatik vositalarni o’rganish jarayonida nutqka nisbatan tankidiy munosabatni, to’g’ri gapirishga intilishni ko’llab-kuvvatlash.

**Nutqning tovush madaniyati.** Fonematik kabul qilishni, nutqning talaffuz va ifoda jihatlarini rivojlantirish. Artikulyatsiya va akustika jihatidan yakin tovushlarni (kattik va yumshok, jarangli va jarangsiz, shuvullovchi, sonor) eshitishda ajrata olish va uni to’g’ri talaffuz etish.

- So’zlardagi, tez aytishlardagi , kiska she’rlardagi tovushlarni to’g’ri ifodalashni mashk kidirish. Ifoda, intonatsiya sur’ati va balandligini beixtiyor tartibga solishni o’rgatish.

Yuqorida bayon kilinganlar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, maktabgacha bo’lgan bosqichdagi katta yoshga yetib inson hayotining eng muhim davrlaridan biri – uning birinchi «dorilfununi» nihoyasiga yetadi. Ammo hakikiy dorilfunun talabasidan farkli ravishda bola birdaniga barcha fakultetlarda ta’lim oladi. U jonli va jonsiz tabiat sirlarini o’rganadi (albatta, imkon darajasida), matematikadan dastlabki sabok oladi. SHuningdek, eng oddiy notiklik kursini ham o’taydi, o’z fikrlarini mantikan va ifodali bayon qilishni o’rganadi. Filologiya fanlarini o’rganish natijasida nafakat badiiy adabiyot asarlarini emotsional kabul qilishni, uning kahramonlariga qayg’urishni, balki badiiy ifodalilikka oid til vositalarining eng oddiy shakllarini his qilish va tushunish ko’nikmalariga ham ega bo’ladi. Bola kichik tilshunosga aylanadi, chunki u nafakat so’zlarni to’g’ri talaffuz qilish va gap tuzishni, balki so’zlar qaysii tovushdan va gaplar qaysii so’zlardan tashkil topishini anglab olishni o’rganadi. Bularning barchasi maktabda muvaffakiyatli ta’lim olish, bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish uchun zarurdir.

**XULOSALAR**

- Bolalar bog’chasida bolalarni nutqiy rivojlantirish sohasidagi ishlarning maksadi - bolalarga nutqiy muloqotning muhim shakli – og’zaki nutqni adabiy til me’yorlariga muvofik holda egallashni, to’lik ko’rinishda esa tushunish va faol nutqka kirishishni o’rgatishni o’rgatishdan iborat.
- Nutqini rivojlantirish borasidagi vazifalar – bu nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash; lug’at boyitish, mustahkamlash va faollashtirish; nutqning grammatik to’g’riligini takomillashtirish; og’zaki (dialogik) nutqni o’rgatish; ravon nutqni rivojlantirish; badiiy so’zga kizikishni tarbiyalash; savod o’rganishga tayyorlash.
- Go’daklik yoshi (0-1) uchun muloqotning ikki shakli xos: emotsional-erkin (vaziyatli-shaxsli); emotsional-vositali (vaziyatli-amaliy) shakli.
- Ilk yoshda (1-3) bolaning narsalardan foydalanishning insoniy usullarini o’zlashtirishi va nutqni rivojlantirishi asosiy vazifa hisoblanadi.
- Ikki yoshga kelib bolaning lug’at zahirasi 200-300 ta so’zga yetadi.
- Birok bola tomonidan foydalanilayotgan so’zlar fonetik jihatdan nomukammal bo’lib, u keng kamrovli ma’nolarni anglatadi.
- Maktabgacha davrdagi kichik yoshda (3-5) vaziyatga asoslangan nutqning mutlak hukmronligidan nutqning vaziyatli va matndan kelib chikuvchi vositalarini mos tarzda ko’llashga o’tish ro’y beradi. Ushbu yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda individual farklar kamrovi juda keng bo’ladi.
- Maktabgacha yoshdagi (5-7) katta bolalarda nutqiy rivojlanishdagi asosiy natijalar muloqot sohasidagi chukur o’zgarishlar bilan bog’liq bo’ladi. Bunda tengdoshlar bilan muloqot qilish oldingi o’ringa o’tadi.
- Dialogni rivojlantirish bolaning ijtimoiy rivojlanishida va uning shaxs sifatida shakllanishidagi muhim tarkibiy kismlar hisoblanadi.

- Maktabgacha yoshdagi katta bolalarning dialogik nutqi negizida nutqning yangi shakli – monolog yuzaga keladi va shakllanadi.
- Maktabgacha yoshdagi katta bola erishgan eng muhim yutuklar – bu jaranglayotgan nutqka nisbatan kizђin kizikish, til borliђini eng oddiy tarzda anglashni shakllantirishdan iboratdir.
- Lug'at rivojlantirish, nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash, grammatik jihatdan to'g'rilikni shakllantirish ravon nutq tuzilishini o'zlashtirish bilan uzviy bog'liqdir.
- Maktabgacha davrdagi katta yoshda inson hayotining **eng** muhim davrlaridan biri, uning birinchi «dorilfununi» nihoyasiga yetadi.

**NAZORAT SAVOLLARI:**

- Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish borasida bolalar bog'chasida amalga oshiriladigan ishlar maksadini tavsiflab bering.
- Go'dakning dastlabki muloqot shakli xususiyatlari nimalardan iborat?
- Emotsional-vositali muloqot shakli nima va u bola nutqini rivojlantirishda kanday ahamiyatga ega?
- Ilk yoshdagi bola nutqini rivojlantirishning xususiyatlari nimalardan iborat?
- Ilk yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish borasidagi vazifalarni tavsiflab bering.
- Bola nutqini rivojlantirish uchun 2 dan 5 yoshgacha bo'lgan davrning o'ziga xos muhim o'rin tutishi nimalarda ifodalanadi?
- Maktabgacha yoshdagi kichik bolalar (3-5) nutqini rivojlantirish borasidagi vazifalarni tavsiflang va ularning ilk yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishga doir vazifalardan nimasi bilan farklanishini aniklang.
- Maktabgacha yoshdagi katta bolalar nutqini rivojlantirish borasida erishilgan natijalar nimalarga bog'liq? Nega shunday o'ylayotganingizni asoslab bering.
- Maktabgacha yoshdagi katta bolalar nutqini rivojlantirishdagi asosiy vazifalar nimalardan iborat?
- Maktabgacha yoshdagi katta bolalarning til borliђini anglab yetishlari nimalarda ko'rinadi va u bolaning ona tilini o'zlashtirishiga kanday ta'sir ko'rsatadi?
- Bolalarni nutqiy rivojlantirishdagi individual farklar nimalarda ifodalanadi?
- Maktabgacha yoshdagi katta bolalarni nutqiy rivojlantirishga doir vazifalarni tavsiflang.

## Nutqni rivojlantirish dasturining ilmiy asosi

Bolalar bog'chasida bolalar nutqini rivojlantirish ishlari tegishli dastur asosida amalga oshiriladi, mazkur dasturda atrof-olam haqidagi bilimlar doirasi, tegishli lug'at hajmi hamda bolalarning har bir yosh bosqichida o'zlashtirishlari lozim bo'lgan nutqiy mahorat va ko'nikmalari belgilab ko'yilgan bo'lib, u muayyan shaxs sifatlarini tarbiyalashni ko'zda tutadi (masalan, dialogik nutqni rivojlantirishda dastur kirishimlilik, xushmuomalalik, salomlilik, bosiklik kabi sifatlarni tarbiyalash zarurligini ta'kidlaydi).

Nutqni rivojlantirish dasturi ham umuman olganda xuddi «Bolalar bog'chasida tarbiyalash va ta'lim berish dasturi» kabi ilmiy asoslarga kurilgan. U butun mazmuni bilan maktabgacha ta'lim nazariyasini amalga oshirishga, ya'ni bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Dastur asosini psixologiya va turdosh fanlarning bolaning og’zaki nutqni egallab olganligi va uning bilish faoliyatining o’ziga xosligi haqidagi ma’lumotlar tashkil etadi, bu esa turli yosh bosqichlarida bolalarga nisbatan talabning hajmi va izchilligini belgilaydi.

SHuningdek, dastur bolaning rivojlanishida faoliyatning yetakchi ahamiyatga ega ekanligi haqidagi muhim pedagogik koidani hisobga olgan holda tuzilgan, shuning uchun nutqni rivojlantirish dasturi turli faoliyat turlari (o’yinlar, Mashg’ulotlar, mehnat va boshk.) bilan takkoslangan.

Nutqni rivojlantirish dasturi asosiy didaktik tamoyillar – o’quv materialining izchilligi va o’zaro bog’liqligi, uning anikligi va imkonliligini hisobga olgan holda tuzilgan; unda nutqiy mahoratni shakllantirishda jamlana olishlik – har bir bosqichda aynan bir bo’limni uning mazmunini asta-sekin kengaytirib va chukurlashtirib borish orkali o’tish ko’zga tashlanadi.

Dasturda barcha vazifa va talablar kiska bayon kilingan. Fakat bolalarning bilim va kobiliyatlariga ko’yiladigan umumiy talablargina anik bayon kilingan, xolos. Tarbiyachi dasturning har bir umumiy talabini aniklashtirishni o’rganishi lozim.

CHunonchi, dastur o’rta va katta guruhlarda bolalarni oshpaz mehnati bilan tanishtirishni tavsiya kiladi. Ushbu mavzu bo’yicha o’rta va katta guruhlardagi lug’at ishlarini takkoslashda shu narsa ko’rinadiki, katta guruhda bolalarning umumlashtiruvchi tushunchalarni (oshxona idishlari, mashinalar, mahsulotlar), sifatlarni (go’shtli, sabzavotli, temir) ko’llash hajmi ortadi, narsalarni tavsiflash (kastryulning tagi, devorlari, ikki tutkichi bor va h.k.), fazo va vaktni belgilash (ichida, ikki tomonidan, ertalab barvakt, ertangi kunga) aniklashib boradi.

Maktabgacha tarbiya sohasi xodimiga dasturni yakka tartibda va ayni paytda jamoa bo’lib o’rganishga to’g’ri keladi. Bolalar bog’chasi mudirasi yoki katta tarbiyachi har yili sentyabr oyida tarbiyachilarning o’z yosh guruhlari uchun dasturning tegishli talablarini ajratib olishlari, ularni o’zlarining yosh guruhlariga mo’ljallangan dasturiy talablar bilan ko’rgazmali takkoslash, ularni aralash guruhlar dasturi bilan ko’rgazmali takkoslash uchun nutqni rivojlantirish dasturini tarbiyachilar ishtirokida jamoaviy muhokama qilishni o’tkazishlari lozim.

Dasturni o’rganishni nutqni rivojlantirishning asosiy vazifalarini eslatib o’tish bilan boshlash mumkin. So’ngra bitta guruh misolida ushbu asosiy vazifalarning mazmuni kandayligini va u dasturning qaysii bo’limlarida uchrashini ko’rsatish zarur. Yuqorida kayd etilgan jamoaviy muhokama singari tarbiyachiga boshka yosh guruhlari dasturlarining matnlarini o’rganib chikish taklif etiladi.

Navbatdagi mashђulotda dasturiy materialni alohida vazifalar bo’yicha kiyosiy tahlil qilish o’tkaziladi, materialni yosh guruhlarida izchil ravishda murakkablashtirib borish kayd etiladi.

**Dasturlarni tahlil qilish uchun taxminiy savollar:**

1.Turli yosh guruhlarida nutqni rivojlantirish vazifalari, ularni takkoslash, vorislik va murakkablashtirib borish ishlarini yo’lga ko’yish.

2. «Atrof-olam va jamiyat hayoti hodisalari bilan tanishtirish» hamda lug’at ishlari dasturi. Atrof-muhit haqidagi taassurotlar doirasini kengaytirish. Bolalar lug’atiga bo’lgan talablarni murakkablashtirish. Bolalarning sifat, son, umumlashtiruvchi otlarni o’zlashtirib olish dasturi, rang, mikdor, shakl, fazo va vaktni belgilash uchun so’zlar ro’yxati.

3.Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash dasturi. Tovushlarni talaffuz qilish, diktsiya, ovoz sifati, nutq ifodaliligiga ko’yiladigan talablar. Katta guruh va maktabga tayyorlanayotgan guruh uchun yangi vazifa sifatida fonematik tinglash qobiliyatini tarbiyalash.

4.Og’zaki nutqni tarbiyalash dasturi. Nutqiy muloqot ko’nikmalari.

5.Hikoya qilishni o’rgatish dasturi. Bolalar hikoyalari turlarini va ularning sifatini takkoslash.

6.Badiiy adabiyot bilan tanishtirish dasturi. Badiiy asarni o’kish va kitob bilan ishlashni o’rgatishni shakllantiriladigan mahorat, ko’nikma va kobiliyatlar ro’yxati. Badiiy asarlar mazmunini kiyinlashtirish va ular sonini oshirish.

**XULOSALAR**

- Bolalar nutqini rivojlantirish nutqni rivojlantirish dasturi asosida amalga oshirilishi lozim.
- Dastur O'zbekiston Respublikasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ilmiy asosga kurilgan bo'lib, u shaxsni har tomonlama rivojlantirishga yo'naltirilgan.
- Nutqni rivojlantirish dasturining asosini psixologiya, psixolingvistika va pedagogika fanlarining ma'lumotlari tashkil etadi.
- Nutqni rivojlantirish dasturi bosh didaktik tamoyillar – o'quv materialining tizimliligi va o'zaro bog'liqligi, uning anikligi va imkonliligini hisobga olgan holda tuzilgan.

**NAZORAT SAVOLLARI:**

- Bolalar bog'chasidagi nutqni rivojlantirish dasturining ilmiy asosi nimalarda ifodalanadi?
- Nutqni rivojlantirish dasturining asosini psixologiya, psixolingvistika va pedagogika fanlarining qaysii ma'lumotlari tashkil etadi?
- Dasturda bolaning rivojlanishida faoliyatning muhim ahamiyatga egaligi haqidagi pedagogik koida o'z aksini topganmi? U nimalarda ifodalanadi?
- Barcha yosh bosqichlarida: go'daklik yoshi (0-1), ilk yosh (1-3), maktabgacha davrdagi kichik yosh (3-5), maktabgacha davrdagi katta yoshda (5-7) bolani nutqiy rivojlantirish vazifalarini tavsiflab bering.
- Har bir yosh bosqichidagi nutqiy vazifalarga oid dasturiy materiallarni kiyosiy tahlil kiling va uning murakkabliklarini aytib bering.

**Barcha yosh bosqichlarida bolalar nutqini rivojlantirishga doir pedagogik ishlar mazmuni va shart-sharoitlari**

**Go'daklik yoshi (0-1)**

Bola uchun katta yoshli odam - quvonchh manbai bo'lib, u bolada himoyalanganlik tuyђusini paydo kiladi, bolani bilish, "tadkikotchilik" faoliyatiga yo'naltiradi. Katta odam bola bilan ko'p gaplashishi, buyumlar va hodisalarning nomini aytib berishi, ular biln nimalar qilish mumkinligini hikoya qilib berishi, o'z nutqini ifodali so'zlashi, xirgoyi qilishi, so'zlarni kofiyaga keltirib so'zlashi lozim. Katta odam bola uchun yokimsiz bo'lgan ko'pchilik holatlar va vokealarni bartaraf etadi. SHu tufayli bola katta odamning ishonchli ђamxo'rligi bilan kurshab olinganini his etadi.

Bolaga o'z ijobiy ("Timur zo'r bola, yaxshi ovkatlanib oldi") va salbiy ("Oyi oђrib koldi") his-hayajonlarini oshkora bildirish muhimdir. Ayni paytda bolaga uni kattalar sevishi va u to'g'risida tashvish chekishlarini bildirib ko'yish lozim. Turli vaziyatlarda bolaning hissiyotlariga "ovoz berish" va kattalar bu mushkulotni u bilan birga baham ko'rishga tayyorligi haqida aytish muhimdir ("Alisher yiђlayapti, uning korinchasi ogriyapti", "Gulya xursand, u cho'milishni yaxshi ko'radi").

Bolaning kattalar bilan muomala vositalari yetarli darajada har xil bo'lishi mumkin. Bu eng avvalo o'yin orkali muloqotdir. U go'dakni jonlantiradi, kuvnok kayfiyat baxsh etadi. Bu kayfiyat katta odam tomonidan bola uyђok bo'lgan har kanday paytda hosil kilinishi mumkin.

Kattalar bilan hazil-huzul, ijobiy hissiyotlarga to'la bo'lgan muloqotda bola o'yinchoqlar bilan o'ynashga kirishadi. Bu mohiyatan, bolaning o'z tashabbusi bilan vujudga keladigan birinchi o'yin shaklidir. Ko'l harakatlari uning nutqini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. SHuning uchun bola bilan muloqot qilishda ko'proq hikoyalar, iboralar, topishmoklar, aytishuvlardan foydalanish lozim. Bu tovush va nutq muhitini boyitadi, nutqni o'zlashtirishga yordam beradi, talaffuzni, she'riy so'z jarangdorligini his qilishni rivojlantiradi.

Uch oylikdan boshlab talaffuz jihatidan boy bo'lgan asarlardan foydalanish tavsiya etiladi.

3 oylikdan boshlab 6 oylikkacha ovoz xirgoyisiga ega bo'lgan – xalq cholђu asboblariga taklid kilinadigan ("Taka-tum-bak", "Dili-bom, tili-bom" va boshk.) asarlar foydali. Ular bolaning ovoz imkoniyatlarini rivojlantiradi. Bolada chuldirash paydo bo'lishi bilan (5-6 oy) chuldirashga ohangdosh bo'lgan, bir necha marta takrorlanadigan va ovoz bilan ifodalanadigan bo'ђinlardan iborat bo'lgan his-hayajonli kiska iboralar va aytishuvlardan foydalangan ma'kul.

9 oylikdan boshlab bolaga tanish bo'lgan, u "o'rgangan" vaziyatlarga tayangan holda nutqiy taklid va ovoz ifodaliligini rivojlantirish muhimdir.

12 oylikdan boshlab kichkintoyda kichik folklor janri asarlari elementlari (bekinmachok va h.) asosida nutqiy muloqotga kirishishga, jaranglayotgan matnga mos ravishda harakatlar bajarishga undash lozim.

Bolaga karash paytidagi muloqotni shunday uyushtirish kerakki, toki bola uning faollik ko'rsatishini sabr-tokat bilan kutib turgan kattalar u bilan nimalar kilayotganini anglay olsin. Kattalar amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan har bir harakat haqida bolaga aytib borishlari lozim ("hozir yurib ketamiz", "Endi esa sayr kilgani chikamiz", "Endi cho'milamiz").

Birinchi yilning oxiriga kelib bola ko'p tusdagi buyumlar va o'yinchoqlar ichidan o'ziga tanish bo'lgan muhitda o'z yo'lini o'zi topa oladi. Atrofidagi barcha kattalarni yaxshi taniydi. Gapirilayotgan so'zlarni buyumlar bilan, predmetli harakatlarning turli usullari bilan hamda hissiyotga boy ifodali munosabat va dastlabki so'zlar ("ada, opa" ber, buvi, ma, yo'k") yordamida muloqotning ijtimoiy usullari bilan boђlay oladi. Bularning barchasi bolaning to'lakonli jismoniy va ruhiy rivojlanayotganidan dalolat beradi.

**Ilk yosh (1-3)**

**Bola hayotining ikkinchi yili.** Bola bilan nutqiy muloqotni yo'lga ko'yish va uning lug'atini boyitish, o'z harakatlarini so'zlar bilan birgalikda amalga oshirish, kichkintoyni tarbiyachi (kattalar)topshiriђga ko'ra ayrim oddiy topshiriklarni (o'yinchokni, etiklarni, paltoni keltirish; kizil o'yinchoqlarini ko'rsatish) bajarishga undash, buyumlar, kiyim-boshlar, idish-tovoklar, sabzavotlar va mevalarning nomlari va ular bilan amalga oshiriladigan harakatlar haqidagi savollarga javob berish uchun barcha rejim vaziyatlari va maishiy vaziyatlardan foydalanish lozim.

Bolaning mustaqil predmetli va o'yin harakatlaridan bularni so'z bilan kanday ifodalashni, murakkab bo'lmagan syujetni kanday qilib rivojlantirishni aytib bergan holda (Samat otda uchayapti: no-no. Samat charchadi. U uxlayapti) nutqni rivojlantirishda foydalanish.

Bolalarning e'tiborini jalb kiluvchi hamda yorkin his-hayajonli va nutqiy munosabatlarni, beixtiyor nutqiy vaziyatni yuzaga keltiruvchi tirik ob'ektlar va harakatlanayotgan transportlarni kuzatish muhim ahamiyatga **e**ga. Katta odam kichkintoy hozircha fakat bir so'zli fikr bilan ifodalay oladigan (bi-bip. Mashina kelayapti, guvillayapti. Mashina kanday guvillaydi? Bi-bip.) hodisani keng sharhlagani holda bola bilan dialogni davom ettiradi.

Bolalar bilan buyumlarni, o'yinchoqlarni, suratlarni ko'rib chikishga doir o'yin-Mashg'ulotlarni (Sehrli kalpokcha, "Kim bu uyda yashaydi", "Mashinada kim keldi") uyushtirish zarur. Ularda ob'ektlar va harakatlar so'z bilan belgilanadi, bir nomdagi harakatlar turli o'yinchoqlar yordamida bajariladi, turli vaziyatlarda va kichik syujetli sahnalarda birgina o'yinchokning o'zi ko'p turdagi vazifalarni bajaradi, turli vaziyatlarga va kichik syujetlarga ko'shiladi (hayvonlarni sayr kildiramiz. Ayikcha mashinada ketayapti, kuyoncha ham mashinada ketayapti, kuchukcha ham mashinada ketayapti. Ayikcha charchadi. U uxlayapti. Kuchukcha esa uxlamayapti. U vovullayapti: vov! Vov! Kuchukcha kanday vovullayapti?). Personajlar ovoziga taklidni bolalar ham takrorlaydilar. Katta odam bolaning buyum yoki suratni ko'lga kiritishga doir tabiiy xohishidan foydalanadi hamda uni o'z istaklarini so'z shaklida bayon qilishga undaydi, ya'ni bolaga savollar beradi, uning o'yinchokni so'rashini, uning nomini aytishini kutadi.

**Bola hayotining uchinchi yili.** Katta odam nutqi savodli, mazmunli bo'lishi lozim. Tovushlarni anik ifoda etgan holda va anik so'zlarni ko'llagan holda shoshmasdan so'zlash lozim.

O'yin va Mashg'ulotlarni tashkil qilish uchun o'yinchoqlar, real buyumlar, mulyajlar, stol teatri ko'ђirchoklari, flanelegraf, yasaladigan o'yinchoqlar, suratlar, bezash uchun kiyimlar, dekoratsiya elementlari va hokazolar talab etiladi. Bu rekvizit bolalarga mavzuga mos holda kutilmagan sovђa tarikasida takdim etiladi va shu tarika beixtiyor ularning dikkat-e'tibori jalb kilinadi (sehrli kalpokchaning ostida kim bor? Kuloђi uzun, dumi kalta, o'zi esa oppok? Sabzini yaxshi ko'radi? Kim bu?).

Bolalarga keltirilgan buyumlarni mustaqil ko'zdan kechirib chikish imkonini berish, ular bilan o'ynashga harakat qilish zarur. O'yinchoqlar bilan kichik sahnalarni uyushtirish jarayonida tarbiyachi (yoki ota-onalardan biri) bolalarning e'tiborini sahnalashtirishga, so'zlarni aytishga, ovozlarga taklid qilishga, kahramonlar (personajlar) harakatini tasvirlashga jalb kiladi.

Bola nutqi mazmuni va tarkibidagi asosiy o'zgarishlar uning tashabbus ko'rsatib fikr bildirish jarayonida ro'y beradi. Uning nutq xulkini tartibga solishga, intizomga rioya qilishga majburlashga ortikcha intilmaslik lozim. Garchi bu tartibsizlikka o'xshab ko'rinsa-da, yaxshisi bolaning o'zi o'z xohishiga ko'ra fikr bildirgani ma'kul.

**Uch yoshga kelib bola:** tarbiyachi va tengdoshlari bilan ishtiyok bilan (yoki kattalardan birontasi: ona, ota, buvilar bilan) muloqotga kirishadi; kattalarning takliflariga, savollariga so'z va harakat bilan javob beradi; ro'y berayotgan hodisadan taassurotlari haqida va o'z shaxsiy tajribasidan kelib chikib vaziyatdan tashkariga chikadigan mavzu bo'yicha o'zi tashabbus ko'rsatib mustaqil fikr bildiradi, o'yin harakatlarini so'z bilan sharhlaydi; unlilar va oddiy undosh tovushlarni to'g'ri talaffuz etadi; nutq oddiy, grammatik rasmiylashtirilgan iboralar shakliga ega.

Bolalarning tovush talaffuzini o'zlashtirish sur'ati, lug'at hajmi va anikligi, murakkab sintaksisga egalik darajasi va muomalaliligi har bir bolada turlicha bo'ladi.

### Maktabgacha davrdagi kichik yosh (3 yoshdan boshlab 5 yoshgacha)

Maktabgacha davrdagi kichik yoshli bolalarni nutqiy tarbiyalash uchta o'zaro bir-biri bilan bog'liq sohani tashkil etadi. Bular: atrofni o'rab turgan olamdagi hodisalarni (real vokelikni)anglash va so'z bilan belgilash; atrofdagilar bilan alokalarni va nutqiy munosabatlarni yo'lga ko'yish; tilni (uning ovoz tarkibini, lug'at, grammatik qurilishini) oddiy anglash.

Bola ko'p obrazli ob'ektlar va hodisalar bilan, ularning xususiyatlari, harakatlari, holati, kurilishi va ularni belgilovchi so'zlar bilan; sabzavot va mevalar, mebellar, idish-tovoklar, kiyim-boshlar, buyumlar detallari va kismlari nomlari bilan; harakat va holat nomlari bilan (onam oshpaz bo'lib ishlaydi, u tushlik tayyorlaydi, kirlarni yuvadi, kiyimlarni dazmollaydi) va aniklovchilar bilan (onam yaxshi, mehribon, aklli, chiroyli, sevimli va h. ) tanishadi.

Bola sabab-okibatli alokalar, vaktbay, muhit, mikdoriy va boshka alokalarni anglash bilan bir vaktning o'zida ularni grammatik shakllarda va kurilmalarda (birlik va ko'plik son, ot kelishigi, fe'l zamonlari va turlari; orttirma zamonli murakkab gaplar, maksad va h.k.) ifodalash usullarini o'zlashtiradi.

Bola grammatik vositalarning keng turini o'zlashtiradi. Masalan, «Nima yo'k» nomli didaktik o'yinida grammatik shakllardan foydalanadi: mo'ykalam, ruchka, kaychi va h.; «Sayyohatda» o'yinida o'ziga to'rt oyokli do'stlar tanlaydi: sichkoncha, kurbakacha, tulkicha, kirpicha; ko'ђirchok uchun nonushta uyushtirar ekan dasturxonga choynakni, kanddonni va sutdonni ko'yadi va o'ylanib koladi: kand uchun – kanddon, suxari uchun –suxaridonmi?

Bolalar sababli, vaktbay va boshka munosabatlarni turli xil murakkab gaplarda ifodalashni o'rganadilar. CHunonchi, «bo'ladi-bo'lmaydi» o'yinida ular noto'g'riliklarni paykab koladilar va nima uchun «mushukcha vovulladi» yoki «tovuklar miyovladi» deb bo'lmasligini

tushuntirib beradilar, nutqda «chunki» boђlovchisi bilan birgalikda orttirma gaplardan foydalanadilar. «Nima nima uchun» o'yinida esa orttirma gapni «uchun» boђlovchisi bilan birga ko'llagan holda kaychi, mo'ykalam, koshik nima uchun kerakligini tushuntirib beradilar.

Bola tildan foydalangan holda uning xususiyatlarini o'rganadi, so'zlar va grammatik shakllar orkali u bilan sinovlar o'tkazadi. Bolalar aks ma'noli so'zlarning (antonimlar: katta-kichik, kuchli-zaif) o'zaro bog'liqligini, ma'no jihatidan bir-biriga yakin so'zlarni (sinonimlar: kuchuk, kuchukcha, olapar), so'z yasovchi juftlikdagi so'zlarni o'zlashtiradilar. Ko'p ma'noli nomlar bilan tanishadilar (kizchaning ko'li, ko'ђirchokning ko'li, o'quvchining ko'li, dazmolning ushlagichi, kutining ushlagichi, kastryulning kuloђi, bolaning oyoђi, stulning oyoђi, gulning oyoђi, kushning oyoђi).

Maktabgacha davrdagi kichik yoshli bola uchun kattalar bilan muloqot hamon tilni, nutqning shakl va vazifalarini rivojlantirishning asosiy manbasi sifatida chikadi. Bolaning to'lakonli rivojlanishi uchun uning o'z tengdoshlari bilan birgalikda o'ynashi ham muhim ahamiyatga ega. Bir-biriga yakin joyda o'ynar ekan bolalar o'yinda tengdoshining ham ishtirok etayotganidan va uning e'tiborini jalb kilganidan kuvonadilar, o'zlarining o'yinlarini sharhlaydilar. Natijada birgalikdagi ko'ngilochar o'yinlar hosil bo'ladi, unda bolalar rollarni, o'rin bosuvchi narsalarni (bu tayok ot bo'ladi, mana bu uchburchak esa telefon bo'ladi), o'yin harakatlarini so'z bilan ifodalaydilar, birgalikda harakat qilish, syujetni rivojlantirish haqida kelishib oladilar, unchalik murakkab bo'lmagan suhbatni olib boradilar.

Mustaqil o'yinlarda bolalarning kommunikativ ijodkorligi rivojlanadi. Bolalarning kattalar bilan birgalikda uyushtirilgan o'yinlari – xalq o'yinlari, syujetli-didaktik, teatrlashtirilgan, didaktik o'yinlar muhim vazifani bajaradi.

Uyushtirilgan o'yinlar keng umumrivojlantiruvchi mazmunga va tor didaktik mazmunga (fonetik, leksik, grammatik) ega bo'lishi mumkin. Keng umumrivojlantiruvchi o'yinlar bir vaktning o'zida nutqka yalpi ta'sir ko'rsatadi: bolalarni nutqiy hamjihatlikka (dialogga) kirishishga undaydi, suhbatdoshga, uning tashki ko'rinishiga, ovoziga, u tasvirlayotgan personajga e'tiborni jalb kiladi, nutqning tovush jihatiga (tovushga taklid qilishga) va uning leksik tarkibiga (obrazli-ifodali so'zlar) yo'naltiradi, syujetni rivojlantirish, so'zni va ifodali harakatni takkoslashni o'rgatadi. Xalq o'yinlari, syujetli-didaktik o'yinlar, ertaklar va adabiy asarlar bo'yicha turli xil o'yinlar (o'yin-sahnalashtirish).

So'zli didaktik o'yinlar nutqiy rivojlanish vazifalarni yanada tabakalashtirilgan holda hal etishga, ya'ni: fe'llarni, sifatlarni, umumlashtiruvchi nomlarni («Uchadi-uchmaydi», «Mazasini ta'tib ko'r», «Esa bo'ladi-esa bo'lmaydi») faollashtirishga, so'z yasash usullarini shakllantirishga («Tavsifiga karab top», «CHoy ichish»), u yoki bu tovushni to'g'ri talaffuz etishni mashk qilishga («Kimning ovozi», «Sehrli kalpokcha») yo'naltirilgan.

Bolalarning tovushlar, kofiyalar, so'zlar bilan mustaqil o'ynashi, uyushtirilgan o'yin jarayonida birdaniga ro'y beradigan til bilan o'ziga xos tarzda sinov o'tkazishlar alohida ahamiyatga ega. Folklor va mualliflik asarlaridagi til o'yinlari ulkan ahamiyat kasb etadi.

Nutqiy muloqotning asosiy shakli dialog hisoblanadi. Nutqning vaziyatga asoslanganligi unga xos va mosdir. Bolalardan «to'lik javob» olishga intilmaslik darkor, bu muloqot mantiђiga ziddir. Kachonki bola kundalik turmushda o'zini kiziktirgan mavzu yuzasidan o'z tashabbusi bilan fikr bildirsa - tarkiban rasmiylashtirilgan yoyik gaplar o'z-o'zidan yuzaga keladi.

Besh yoshga kelib bola bevosita vaziyatdan chetga chikadigan mavzular bo'yicha kattalar bilan muloqot kila oladi; nutq yordamida o'z tengdoshlari bilan syujet-rolli mustaqil o'yinda hamkorlikni yo'lga ko'yishga kodir; tilni o'rganishda faol va mustaqil, bu tovushlar, kofiyalar, so'z ijodkorligida, buyumlarning nomlari va ularning kanday maksadlarda ishlatilishi haqidagi savollarda ko'rinadi; tovushlarni asosan to'g'ri talaffuz kiladi («R»ni L ga almashtirish holatlari, «Щ» harfli so'zlarni talaffuz qilishda ayrim noanikliklar bo'lishi mumkin).

**Maktabgacha davrdagi katta yosh**
**(5 yoshdan 7 yoshgacha)**

Maktabgacha davrdagi katta yoshda nutqiy tarbiyaning mazmuni ikki o’zaro bog’liq sohani tashkil etadi. Bular: ona tilini (fonetika, leksika, grammatika) hamda bilish faoliyati va muloqotda tilni ko’llash usullarini o’kitish. Tilni egallash atrof-muhitdagi hodisalar va ko’p turdagi muloqotlar haqidagi bilimlarning kengayish jarayonida yuz beradi. Lekin maktabgacha yoshdagi bolani rivojlantirishdagi markaziy bo’ђin - til va nutqni anglash vazifalarini bolaga tushunarli shakllarda shakllantirish hisoblanadi. Tilni ko’llash sohasida uch bo’ђin ajralib chikadi: atrofdagilar bilan his-hayajonli alokalarni yo’lga ko’yish; fikrni shakllantira olish, axborot – matn kura olish kobiliyati; sherik bilan nutqiy hamkorlikni yo’lga ko’ya olish. Maktabgacha davrdagi katta yoshda tengdoshlar bilan muloqot kommunikativ faoliyat sohasi sifatida oldingi o’ringa chikadi. Bu faoliyat sohasida bola o’zining muloqotga bo’lgan ehtiyojlarini kondiradi, tilni bilish va ravon nutqni rivojlantirish borasidagi o’z yutuklari bilan o’rtoklashadi va sheriklar bilan hamkorlik qilishni o’rganadi.

Maktabgacha davrdagi katta yoshda kattalar va tengdoshlar bilan muloqot qilish, uyushtirilgan so’zli o’yinlar va Mashg’ulotlar nutqni rivojlantirishning asosiy omillari hisoblanadilar.

Tengdoshlar bilan dialogik muloqotni yo’lga ko’yish uchun kooperativ tusdagi faoliyat muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday faoliyat asta-sekin shakllanadi. Dastlab bolalar ro’y berayotgan hodisalarni sharhlagan holda, ya’ni chizilgan narsalarni so’z bilan ifodalagani, o’z hayotidagi biron-bir vokea to’g’risida so’zlab bergani holda bir-birlariga yakin joyda harakat kiladilar. Bu vaziyatda nutq tengdoshning ishtiroki bilan hamda u bilan gaplashish, rejalashtirishni bajarish va o’z faoliyatini tashkil etish, shuningdek ijtimoiy aloka o’rnatish imkoniyati bilan ra ђbatlantiriladi.

Bolalar o’rtasidagi muloqot asosan amaliy tusga ega. Dialog ko’pincha shunday shaklda bo’ladiki, unda bola sherigining kiska lukmalariga javob beradi yoki ro’y berayotgan hodisaga nisbatan o’z munosabatini nonutqiy vositalar yordamida ifodalaydi. Ko’pgina shunday xalq o’yinlari borki, ularda bolalar bir-birlariga e’tiborni karatishni, do’stlarni ovozidan, kiyimidan, yurishidan tanib olishni, nutqiy aloka o’rnatishni o’rganib oladilar.

Stol o’yinlari («loto», «domino») dialogik muloqotni yo’lga ko’yishning ajoyib vositalaridir. Aynan juftlikdagi o’yinlarda bolalar dialogik hamkorlik vositalari: navbatga rioya qilish, bir-birlarini ismini aytib yaxshi muomalada bo’lish, o’z nuktai-nazarini dalillagan holda himoya qilish, sherik bilan gaplarini muvofiklashtirish usullarini o’rganib oladilar. Barcha turdagi nutq vazifalari: berilgan tovushli so’zni tanlab olish, artikulyatsiya va akustika jihatidan yakin tovushlarni ajrata bilish, umumlashtiruvchi nomlariga karab tasniflash, rasmlar seriyasi («Tovushni top», «Nima yo’k», «Ushlab ko’rib top», «Eslab kol va chiz»)asosida birgalikda hikoya qilish Yuqoridagi o’yinlarning bilish asosi sifatida chikishlari mumkin.

Didaktik o’yinlarda bolalar izohlovchi nutqni ham o’rganadilar. Buning uchun katta odam dastlab bir bolaga yangi o’yinni o’rgatadi, keyin esa boshka bolalarga shu o’yinni o’ynashni taklif kiladi. O’rgatilgan bola o’ziga notanish bo’lgan bolalar bilan o’yinni yo’lga ko’yish uchun o’yin mazmuni va koidalarini tushuntirib berishga majbur. Tarbiyachi esa unga yo’naltiruvchi savollarni berish orkali yordam beradi.

Jamoaviy suhbatlar, gurunglar dialogni rivojlantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Har bir bola o’z fikrini aytish imkoniyatiga ega bo’lishi va uni eshitishlari uchun Yuqoridagi suhbatlarni bolalarning kichik guruhlarida uyushtirish zarur. SHaxsiy tajribadan kelib chikuvchi biron-bir vokea, turmushdagi kizik vokealar, tasavvur etiladigan turli vaziyatlar (begonalarga eshikni ochish mumkinmiva nega? It hurayotganida nima uchun undan kochish kerak va h.) bunday suhbatlarning mavzui bo’lishi mumkin.

Kooperativ tusdagi asosiy faoliyat turi – syujetli-rolli o’yinlardir. Maktabgacha davrdagi katta yoshda bu o’yinlar xayolparastlik o’yinlariga aylanadi, chunki unda bolalar sarguzashtlar to’kiydilar va ularni tasavvur etish bilan cheklanadilar. Faoliyat birgalikda hikoya qilish tusini oladi. Bu o’yin va nutq rivojining juda yukori darajasidir. Bolalar ko’pincha yo’naltiruvchi savollar beruvchi, syujetning davomini aytib turuvchi, navbat tashkil qilishga yordam beruvchi katta odam ishtirokiga ehtiyoj sezadilar.

An’anaviy ertakdagi kahramonlarni, vokea joyi, sharoit, sehrli buyumlarni almashtirgan holda to’kiladigan sehrli ertak bunday xayolot o’yinlari mavzulari bo’lishi mumkin. O’yin bolalar kadamba-kadam tuzadigan (lavhalarning sxematik tasvirini chizadilar) va «ovoz beradigan» syujet rivoji asosida ikki o’quvchining birgalikda hikoya to’kishiga aylanib ketishi mumkin.

Birgalikdagi xayolot o’yinlari bolalar hikoya qilish jarayonida biladigan usullar orkali muvaffakiyatli davom etishi mumkin. Katta odam bilan bolaning hamjihatlikdagi so’z ijodkorligi ravon nutqni (hikoya qilishni) rivojlantirishning asosiy sharti hisoblanadi. Katta odam yo’naltiruvchi va aniklashtiruvchi savollar berish, o’zining kizikayotganligini bildirish, o’yin vaziyatlarini hosil qilish (o’yinchoqlar, rasmlar to’plami, ko’ђirchok teatrli kahramonlari yordamida) bola tashabbusini ko’llab-kuvvatlashi zarur. Pedagogning hikoya mavzusini, vokealar rivojini, vokelarning ehtimoliy yakunini, so’z shaklini aytib berishi birgalikdagi so’z ijodkorligi uchun katta ahamiyatga egadir. Birgalikda hikoya qilib berish dastlab dialog ko’rinishiga ega bo’ladi, bunda katta odam savol beradi, bola javob beradi, katta odam gapni boshlaydi, bola esa uni nihoyasiga yetkazadi. Bunday dialogdan nutq – monolog tuђiladi. Keyinchalik bola monologi asosida bolalarning birgalikdagi ijodkorligi boshlanadi, u kattaning bolaning bilan dialogi shaklini takrorlaydi. Birgalikda hikoya qilish uchun yaxshi asos rasmlar turkumi bilan ishlashda, rollarga bo’linib hikoya qilib berishda, o’yin-sahnalashtirishlarda yaratiladi.

Maktabgacha davrdagi katta yosh – bolaning nutqni o’rganishga kizђin kirishish, til vokeligini eng oddiy tarzda anglash davridir. Maktabgacha yoshdagi bolaning til sohasidagi boy tajribasi, anik, obrazli so’zda ifodalangan yorkin taassurotlari, kechinmalari uning til va nutq sohasidagi mustaqil faoliyatining muhim shartidir.

Muammoli nutq holatlari fonetik, lekski va grammatik mazmundagi turli so’zli didaktik o’yinlarda modellashtiriladi. SHuning uchun bolalar bog’chasida didaktik o’yinlarni tashkil qilishni bolalarda so’zga nisbatan lingvistik munosabatni rivojlantirishning asosiy sharti sifatida ko’rib chikish mumkin.

Leksik mazmundagi o’yinlar va mashklar nutqning mazmun jihatini rivojlantirishning zarur sharti hisoblanadi. Ularda turli buyumlar va ob’ektlarni kiyoslash, ularning turli umumiy xususiyatlari va vazifalarini ajratish muhim ahamiyatga egadir. Real narsalar, ob’ektlar (o’yinchoqlar, rasmlar, kiyimlar, mebellar va h.) ham va tasavvur kilinadigan vaziyatlar (kuvnok va ma’yus ayikcha, ertagi va kechki ob-havo, kahramonning vokea boshidagi va uning yakunidagi kayfiyati) ham takkoslanishi mumkin. Hikoyani boshlashdan oldingi lug’at mashklari bolalar ravon nutqining anik va obrazli so’zlar hamda iboralar bilan boyitilishiga yordam beradi.

Didaktik o’yinlar, mashklar va grammatik mazmundagi muammoli vaziyatlar – nutqning grammatik to’g’riligini rivojlantirish, bolalarning grammatik shakllar sohasidagi kidiruv faolligining muhim shartidir. To’g’ri shaklni «ushlab ko’rish» orkali bola so’z bilan sinov o’tkazar ekan, u nutqning jarangini tinglashni, so’zlarni beixtiyor almashtirishni, grammatik o’rin bosuvchilarini ko’yishni, shakl va so’z yasash koidalarini chikarishni o’rganadi.

Muammoli nutq vaziyatlarida («yozma nutq» vaziyati, bunda bola hikoyani aytib turadi, katta odam yozib oladi; birgalikda ijod qilish vaziyati, bunda hikoyani katta odam boshlaydi, bola esa davom ettiradi) bolalar turli tarkibdagi gaplarni tuzish, nutqka tuzatish kiritishni o’rganadilar.

Turli toifadagi so’zli o’yinlar, mashklar, muammoli vaziyatlarning o’zaro bog’liqligi, ularning asta-sekin murakkablashuvi, muammoli nutq vazifalarini muntazam ravishda ko’yib borish -to’lakonli nutqiy rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Bolalar tili va ularning ravon nutqini rivojlantirishga doir doimiy ishlarning makbul shakli maxsus nutq Mashg’ulotlari hisoblanadi, unda nutqni rivojlantirishga oid vazifalar yalpi tarzda va o’zaro bog’liqlikda hal etiladi.

To’g’ri tarbiya va organik kamchiliklarga yo’l ko’yilmagan takdirda bola olti yoshga kelib ona tilidagi barcha tovushlarni to’g’ri talaffuz qilishni o’rganib oladi.

Etti yoshga kelib bola og’zaki nutqni egallab oladi hamda yakinlari va bolalar bilan erkin muloqot kiladi, dialogda tashabbus ko’rsatib mulohaza yuritadi, suhbatdoshi e’tiborini o’ziga jalb qilishni biladi, unga so’z, harakat va so’zsiz usullar bilan javob beradi; fikrlarini noto’lik va to’lik oddiy gaplar, kiska matnlar shaklida ifodalaydi; tanish ertaklar, multfilmlar, kitoblar, suratlar mazmunini hikoya qilib berishga, hikoya to’kishga kizikish bildiradi; mulohaza yuritishda nutqning turli kismlaridan, o’xshatishlardan, takkoslashlardan, sinonimlardan foydalanadi; nutqka tankidiy munosabat bildira boshlaydi, grammatik jihatdan to’g’ri so’zlashga intiladi, shu tufayli so’z to’kish barham topadi, grammatizmlar soni kamayadi; ona tilidagi barcha tovushlarni to’g’ri talaffuz etadi.

**XULOSALAR:**

- Go’daklik yoshida (0-1) bolaning kattalar bilan muloqot shakllari turlicha bo’lishi mumkin, ammo bu eng avvalo kichkintoyning jonlanishini, uning kuvnok kayfiyatini ifodalaydigan o’yin muloqotidir.
- 3-oydan boshlab bola bilan muloqotda ovoz «kuylari»ni (xalq cholғu asboblariga taklid qilish) o’z ichiga olgan, axborot jihatidan boy bo’lgan asarlardan foydalanish zarur.
- 9 oydan boshlab bolada nutqiy taklid va ovoz ifodaliligi rivojlanadi, 12 oydan boshlab kichkintoyni kichik folklor janri asarlari elementlari asosida nutqiy muloqotga kirishishga undash darkor.
- Bolani parvarish qilishda kattalar u bilan bajarilishi lozim bo’lgan harakatlar haqida bolaga aytib turishlari zarur.
- Ilk yoshda (1-3) kattalar bola bilan nutqiy muloqotga kirishish va uning lug’atini boyitish uchun barcha maishiy vaziyatlardan foydalanishlari lozim. Ayni paytda ular o’z harakatlarini so’zlash bilan birga amalga oshirishlari va bolani unchalik kiyin bo’lmagan topshiriklarni bajarishga undashlari zarur.
- Kattalar nutqi savodli, mazmunli bo’lishi lozim. Ular tovushlarni anik ifoda etgan holda va anik so’zlarni ko’llagan holda shoshmasdan so’zlashlari lozim.
- Bola nutqi mazmuni va tarkibidagi asosiy o’zgarishlar uning tashabbus ko’rsatib fikr bildirish jarayonida ro’y beradi. SHuning uchun uning nutqiy xulkini tartibga solishga intilmaslik lozim.
- Maktabgacha davrdagi kichik yoshli bolalarni nutqiy tarbiyalash uchta o’zaro bir-biri bilan bog’liq sohani tashkil etadi. Bular: atrofni o’rab turgan olamdagi hodisalarni (real vokelikni)anglash va so’z bilan belgilash; atrofdagilar bilan alokalarni va nutqiy munosabatlarni yo’lga ko’yish; tilni (uning ovoz tarkibini, lug’at, grammatik qurilishini) oddiy anglash.
- Kattalar bilan muloqot – maktabgacha yoshdagi kichik bolalar tilini, ularning nutq shakllari va funktsiyalarini rivojlantirishning asosiy manbasi hisoblanadi.
- Bola nutqini rivojlantirish uchun o’yinlar katta ahamiyatga egadir (syujetli-didaktik o’yinlar, ertaklar va adabiy asarlar asosidagi o’yinlar, o’yin-sahnalashtirish, keng kamrovli umumiy rivojlantirish mazmuniga ega bo’lgan hamda bolalar o’z tengdoshlari va o’yinning boshka ishtirokchilari bilan muloqotga kirishish zaruratiga duchor kilingan sahnalashtirish o’yinlari).
- Maktabgacha bosqichdagi kichik yoshli bolalarning asosiy muloqot shakli – dialog hisoblanadi.
- Maktabgacha davrdagi katta yoshda nutqiy tarbiyaning mazmuni ikki o’zaro bog’liq sohani tashkil etadi. Bular: ona tilini (fonetika, leksika, grammatika) hamda bilish faoliyatida va muloqotda tilni ko’llash usullarini o’kitishdan iboratdir.
- Maktabgacha davrdagi katta yoshda kattalar va tengdoshlar bilan muloqot qilish, so’zli o’yinlar va Mashg’ulotlar nutqni rivojlantirishning asosiy omillari hisoblanadilar.

- Bolalar o’rtasidagi muloqot asosan amaliy tusga ega.
- Didaktik o’yinlarda bolalarda izohlovchi nutq shakllanadi.
- Maktabgacha davrdagi katta yosh – bolaning nutqka nisbatan kizђin bilish munosabati hamda til borliђini oddiy anglash tuyђusining paydo bo’lish davridir.

**NAZORAT SAVOLLARI:**

- Kichkintoy bilan muloqot turlarini tavsiflab bering va nima uchun muloqotning o’yin shakli asosiy hisoblanishini tushuntiring.
- Bola hayotining birinchi yili oxiriga kelib kichkintoyda kanday nutqiy ko’nikmalar shakllanishi lozim?
- Bola hayotining ikkinchi yilida uning nutqini rivojlantirish uchun kanday pedagogik shartlar yaratish zarur?
- Nima uchun bola hayotining uchinchi yilida uning nutqiy xulkini tartibga solish kerak emas?
- Maktabgacha yoshdagi kichik bolalarni nutqiy tarbiyalash mazmunini tashkil kiluvchi uchta o’zaro bog’liq sohani tavsiflab bering, bolalarni nutqiy tarbiyalashning har bir sohasi bo’yicha anik misollar keltiring.
- Kattalar bilan muloqot – maktabgacha yoshdagi kichik bolalar tilini rivojlantirishning asosiy manbasi, degan fikrni kanday tushunasiz?
- Maktabgacha bosqichdagi katta yoshli bolalarni nutqiy tarbiyalash ishlarining mazmunini tavsiflang.
- 5-7 yoshli bolalar nutqini samarali rivojlantirish uchun bolalar bog’chasida va uyda kanday pedagogik sharoitlar yaratish zarur?
- Kattalar nutqi bolaga kanday ta’sir ko’rsatadi? O’z javobingizni anik misollar bilan tushuntiring.
- Maktabgacha bosqichdagi katta yoshli bolaning bilishga intilishi nimalarda ko’rinadi?

## VI-MAVZU

# NUTQNI RIVOJLANTIRISHGA OID ISHLAR VOSITALARI VA METODLARI

**Bolalar bog’chasida nutqni rivojlantirish dasturini amalga oshirish vositalari**

**Bolalar bog’chasida nutqni rivojlantirish metodlari va usullari**

**Tarbiyachi nutqi**

### Bolalar bog’chasida nutqni rivojlantirish dasturini amalga oshirish vositalari

Maktabgacha ta’lim umuman olganda, uzluksiz ta’limning birinchi bosqichi hisoblanib, u maktabda o’kish uchun tayyor bo’lgan soђlom va to’lakonli shaxs sifatida shakllangan bolani tarbiyalashni ko’zda tutadi.

Bolani maktabda muvaffakiyatli ta’lim olishga tayyorlash uchun unga ona tilining barcha boyliklarini egallab olish uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratish zarur.

Bolalar bog’chasining asosiy vazifalaridan biri bolalarning o’z xalqining badiiy tilini o’zlashtirib olishlari natijasida ularning to’g’ri og’zaki nutqini shakllantirishdan iboratdir. Bu umumiy vazifa quyidagi maxsus vazifalardan iborat: nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash, lug’at boyitish, mustahkamlash va faollashtirish, nutqning grammatik to’g’riligini takomillashtirish, og’zaki (dialogik) nutqni shakllantirish, ravon nutqni rivojlantirish, badiiy so’zga kizikishni tarbiyalash, savod o’rgatishga tayyorlash.

Bolalar nutqini rivojlantirishni tegishli dastur asosida amalga oshirish zarur. Ushbu dasturda atrof-olam haqidagi bilimlar doirasi va lug’at hajmi, har bir yosh bosqichida bolalarda shakllanishi lozim bo’lgan nutqiy mahorat va ko’nikmalar belgilangan bo’lib, u shaxsning muayyan sifatlarini (kirishimlilik, xushmuomalalik, salomlilik, bosiklik) tarbiyalashni ko’zda tutishi lozim.

Nutqni rivojlantirish dasturi ilmiy asoslarga kurilgan bo’lib, u butun mazmuni bilan bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga karatilgan.

Nutqni rivojlantirish dasturi bola faoliyatining o’quv, o’yin, mehnat va maishiy kabi shakllarida amalga oshadi.

Jamoat tarbiyasi sharoitida **ta’lim** - bola nutqini shakllantirishning yetakchi vositasi hisoblanadi.

Ona tilini o’kitish – bolalarning bilish qobiliyatini rejali, anik maksadni ko’zlagan holda rivojlantirish, ularning atrof-olam haqidagi eng oddiy bilimlarni va tegishli lug’at o’zlashtirish, nutqiy mahorat va ko’nikmalarni shakllantirish jarayonidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o’kitishning asosiy shakli – **Mashg’ulotlardir.**

Didaktik maksadlar bo’yicha quyidagi Mashg’ulotlar turlarini ajratib ko’rsatish mumkin:

-yangi materialni ma’lum qilish mashђuloti;

-bilimlar, mahorat va ko’nikmalar mustahkamlashga oid Mashg’ulotlar;

-bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirishga oid Mashg’ulotlar;

-yakuniy Mashg’ulotlar yoki hisob-tekshiruv (nazorat) Mashg’ulotlari.

Bolalarga ona tilini o’kitishga doir Mashg’ulotlar har bir guruhda bolalarning yosh imkoniyatlarini va har bir bolaning nutqiy rivojlanganlik darajasini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. CHunki bilimlar mazmuni, ularning tarkibi, metod va usullarni tanlash, haftasiga o’tkaziladigan Mashg’ulotlar soni, har bir mashђulotning davomiyligi shunga bog’liq bo’ladi.

1 yoshdan 3 yoshgacha bo’lgan bolalar nutqini rivojlantirishga doir Mashg’ulotlarni didaktik o’yinlar, ermak o’yinlar, sahna ko’rinishlari shaklida o’tkazish tavsiya kilinadi. Ular nafakat ko’ngilochar tusga, balki albatta ta’lim tusiga ega bo’lishi lozim.

3 yoshdan 5 yoshgacha bo’lgan bolalar nutqini rivojlantirish emotsional tusga ega bo’lishi lozim. Bunda ko’rgazmaviylik, o’yin usullari va didaktik o’yinlarni keng ko’llash zarur.

5 yoshdan 7 yoshgacha bo’lgan bolalar nutqini rivojlantirishga doir Mashg’ulotlar muayyan vazifaga ega – ya’ni, u bolalarni maktabda o’kishga tayyorlashni ko’zda tutadi.

Mashg’ulotlarda pedagog nutqiy vazifalardan tashkari o’quv faoliyatini yo’lga ko’yish qobiliyatini shakllantirish (dikkat-e’tiborli bo’lish, pedagog topshirigђini tinglash, tushunish va uni anik bajarish, bolalar jamoasi oldida fikr oldira olish, tengdoshining javobiga oddiy baho bera olish va h.k.) vazifasini ham bajaradi.

To’g’ri ta’lim berilgan takdirda yetti yoshga kelib bola og’zaki nutqni egallaydi hamda katta yoshli yakinlari va tengdoshlari bilan erkin muloqotga kirisha oladi; dialogda tashabbus ko’rsatib fikr bildiradi, suhbatdoshi e’tiborini o’ziga jalb qilish, unga so’z, harakat va so’zsiz usullar bilan javob bera olishni biladi; fikrlarini to’lik va noto’lik oddiy gaplar, kiska matnlar shaklida ifodalay oladi;

-tanish ertaklarni hikoya qilib berish, multfilmlar, kitoblar mazmunini aytib berish hamda biron-bir vokeani to’qib chikarishga kizika boshlaydilar;

-fikr bildirishlarda nutqning turli kismlarini, tashbehlar, kiyoslashlar va sinonimlarni ko’llaydi;

-nutqka tankidiy munosabat bildira boshlaydi, grammatik jihatdan to’g’ri so’zlashga intiladi, shu tufayli so’z to’kish barham topadi, agrammatizmlar soni kamayadi; ona tilidagi barcha tovushlarni to’g’ri talaffuz etadi.

Bolalardagi ko’plab nutqiy muloqot va ko’nikmalar Mashg’ulotlardan tashkarida shakllanadi. Bolalar bog’chasida bolalarning kattalar (pedagoglar, tibbiyot hamshiralari, tarbiyachi yordamchisi va boshk.) bilan muloqoti har xil faoliyat turlarida ro’y beradi.

Mehnat jarayonida – xo’jalik-maishiy, ko’l va kishlok xo’jaligi mehnatida bolalarning lug’ati boyiydi, aniklashadi va faollashadi.

O’yin faoliyati mobaynida pedagog ularda mustaqil nutqiy faoliyatni shakllantiradi. Bolalarda lug’at, Mashg’ulotlarda olingan bilim mustahkamlanadi va faollashadi. O’yinlarda pedagogning ishtirok etishi lug’atng boyishiga, nutqiy muloqot madaniyatini tarbiyalashga yordam beradi.

Kurilishga oid o’yinlarni tashkil etish jarayonida tarbiyachi bolalar uchun kiyin bo’lgan so’zlarning (sifatni, mikdorni, hajmni va narsalarning fazoda joylashuvini belgilash va boshk.) katta guruhini aniklashtiradi, faollashtiradi.

Matnli, harakatchan musikiy o’yinlar, sahnalashtirish o’yinlari bola nutqining ifodaliligini shakllantirish, to’g’ri sur’at, nafas olish, yaxshi diktsiyani mashk qilishda yordam beradi. Ko’pgina o’yinlar jarayonida bolalar badiiy matnlar bilan tanishadilar, esda saklab koladilar va ularni mustaqil ravishda ko’llay boshlaydilar.

Didaktik o’yinlar yordamida bolalarda atrof-olam haqidagi bilimlar mustahkamlanadi, lug’at mustahkamlanadi, aniklashtiriladi va faollashtiriladi. Didaktik o’yinlar nutqiy mahorat va ko’nikmalarni mashk qilishda (ibora tuzish, so’zni o’zgartirish, hikoya to’kish va h.k.) ko’llaniladi.

Maishiy faoliyat bolaning kattalar bilan muloqoti uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi. Maishiy faoliyat nutqni rivojlantirish vositasi bo’lib xizmat qilishi uchun pedagog uni boshkarishi lozim. To’g’ri tashkil etilgan maishiy faoliyat jarayonida (ovkatlanish, kiyinish, gimnastika, sayohat va h.k.), ya’ni agarda pedagog, ayniksa kichik guruhlar pedagogi maishiy buyumlar nomlarini, ularning kismlari, sifati, xususiyati, ko’llanish maksadini batafsil tushuntirsa, ular bilan tegishli harakatlarni amalga oshirsa va buni sharhlab bersa, bolalarga savol bersa, ularga maishiy lug’atdan foydalanishni o’rgatsa bolalarning lug’ati boyiydi. Agarda pedagog o’z nutqida tashbeh, kiyoslash, sinonimlar, xalq og’zaki ijodi (makollar, matallar, sanok she’rlar)dan keng va mohirona foydalansa, uning nutqi bosik va ifodali bo’ladi.

Bolalar badiiy adabiyoti bolalarni har tomonlama rivojlantirishning kudratli vositasi bo’lib xizmat kiladi, u bolalar nutqini rivojlantirish va boyitishga ulkan ta’sir ko’rsatadi.

Bolalar kitoblari she’riy obrazlarda bolaga jamiyat va tabiat hayotini, insoniy his-tuyђular va munosabatlar dunyosini ochib beradi hamda tushuntiradi. Badiiy so’z bola nutqini boyitadi, uni obrazli, ifodali kiladi, jaranglayotgan ona nutqning go’zalligini tushunishga yordam beradi.

Bolalar bog’chasida nutqni rivojlantirishning muhim vositasi sifatida badiiy so’zdan tashkari tasviriy san’at, bayramlar va tomoshalardan foydalaniladi. Ularning kimmati shundaki, u ijobiy hissiyotlarni hosil kiladi, bu esa o’z navbatida tilni o’zlashtirish darajasiga ta’sir ko’rsatadi. Quvonchh hissi, hayajonlanganlik, ko’tarinkilik holati, ђayrioddiy narsani kutish bolalarning kabul qilish qobiliyatini oshiradi, materialni eslab kolishni kuchaytiradi, bolalar nutqining ifodaliligiga ta’sir ko’rsatadi. Suratlar, amaliy san’at buyumlarini tomosha qilishda bolalar ko’p savol beradilar, olgan taassurotlarini atrofdagilarga aytishga oshikadilar.

Bolalar kun bo’yi – Mashg’ulotlarda, o’yinlarda, xo’jalik-maishiy va mehnat faoliyatida o’z pedagoglari bilan muloqotda bo’ladilar. O’z-o’zidan bolalar bog’chasida nutqiy muhitning rivojlantirish imkoniyatlari butunlay pedagog nutqining sifatiga bog’liq bo’ladi.

Namunali nutqka ega bo’lish – bu tarbiyachining kasbiy tayyorgarligi darajasidir. SHuning uchun o’z nutqini takomillashtirish haqida qayg’urish – bo’lajak pedagogning axlokiy va ijtimoiy burchlaridir. U o’zida barcha nutq ko’nikmalarini mukammal shakllantirishi va uni kelgusida bolalarga berishi lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalar, atrofdagilarga taklid kilganlari holda nafakat to’g’ri talaffuzni, so’zni ko’llash, iboralar tuzish sirlarini, balki kattalarda uchraydigan nutq nomukammalliklarini ham o’zlariga kabul qilib oladilar.

Tarbiyachining bolalar bilan va bolalarning bir-birlari bilan mazmunli muloqoti, bolalar rivojini rağbatlantiruvchi kulay til muhiti, to’g’ri metodlardan foydalanish - bolalar bog’chasida nutqni rivojlantirishga oid ishlar muvaffakiyatining garovidir.

Bolalar bog’chasida ona tilidagi nutqni rivojlantirishning metodik tamoyillari quyidagilardir:

- akliy va nutqiy rivojlanishning o’zaro bog’liqligi tamoyili;
- nutqni yaxlit bir tuzilma sifatida rivojlantirish tamoyili;
- nutqiy rivojlanishning individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyili;
- bolalarning faol nutqiy amaliyotini ta’minlash tamoyili;
- nutqni rivojlantirishga nisbatan muomalali va amaliy yondashuv tamoyili;
- muloqotning ijobiy va emotsional muhitini ta’minlash tamoyili.

## Bolalar bog’chasida nutqni rivojlantirish metodlari va usullari

Bolalarga ona tilini o’kitish metodikasida quyidagi metodlar guruhlarini ajratish mumkin:

**Ko’rgazmali** usullar – kuzatish, uning turlari: binoni ko’zdan kechirish, ekskursiya, tabiiy buyumlarni ko’rib chikish. Pedagog kuzatishdan ob’ektni to’g’ridan-to’g’ri (gullar ochilishi, toshbaka harakati va boshk.) va vositali (agarda ob’ektni bevosita kuzatishning imkoni bo’lmasa (yovvoyi hayvonlar, shaharlik bolalar uchun kishlok aholisining mehnati, kishlok aholisi uchun shahar transporti kabi) kuzatish mumkin bo’lgan holatlarda – suratlar, fotosuratlar, kinofilmlar, diafilmlar va videofilmlar namoyishida foydalanadi.

Ko’rgazmali narsalar, hodislar ko’rgazmalai usullardan foydalanishda suhbat, mulohaza mavzusini belgilaydigan manba bo’lib xizmat kiladi. Bolalarning kabul qilish hissini so’zlash berish orkali yo’naltirayotgan tarbiyachi ko’rib chikilayotgan narsa nomini aytadi va uni tushuntirib beradi.

**So’zli** usullar – kattalar va bolalarning so’zlari har kanday ko’rgazmali va amaliy metod tarkibiga kiradi. Birok, bolalarda so’zli-mantikiy fikrlashning rivojlanishi, atrofdagi narsalar va hodisalar haqidagi tasavvurlarning yiğilishiga karab nutqni rivojlantirishning so’zli usullari mustaqil metod tusini oladi. Unga badiiy asarlarni o’kish, she’r yod olish, bolalarning hikoyalari, suhbatlar va tarbiyachining hikoyalari kiradi.

So’zli usullar sof ko’rinishda bolalar bog’chasida juda kam ko’llaniladi, chunki maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlari ko’proq ko’rgazmalilikka tayanishni talab kiladi. SHuning uchun deyarli barcha so’zli usullarda ko’rgazmali usullardan (narsa, o’yinchokni kiska vaktga ko’rsatish, illyustratsiyalarni ko’zdan kechirish) yoki bolalarni dam oldirish maksadida ko’rgazmali ob’ektni namoyish qilishdan foydalaniladi.

**Amaliy** metodlarga mashklar, o’yin metodlari kiradi va u bolalar nutqini rivojlantirishda keng ko’llaniladi. Ularning maksadi bolalarga olingan bilimlarni amaliy faoliyatda ko’llashni o’rgatish, nutqiy mahorat va ko’nikmalarni o’zlashtirishda ularga yordam berishdan iboratdir. Didaktik o’yinlardan nutqiy rivojlantirishga oid barcha vazifalarni hal etish uchun foydalaniladi. Nutqiy mashklar (mashk qilish va ijodiy mashklar) yordamida esa o’z fikrlarini anik va

tushunarli qilib ifodalash, mulohaza yuritish, isbotlash hamda so'zlarni anik va tushunarli qilib talaffuz qilish shakllanadi.

Har bir metod didaktik vazifalarni hal etish – ya'ni, bolalarga yangi narsalarni tanishtirish, mahorat va ko'nikmalarni mustahkamlash, o'zlashtirilgan narsalarni ijodiy ravishda qayta ishlash uchun xizmat kiladigan usullar majmuasidir.

**Metod** deb bilimlarni biridan ikkinchisiga berish maksadida o'kituvchi va o'quvchi tomonidan amalga oshirilayotgan harakatga aytiladi.

**O'kitish usuli –** bu metodning bir elementidir. Usullarni ko'rgazmaviyligi va emotsionalligiga karab so'zli, ko'rgazmali, o'yinli usullarga ajratish mumkin.

Eng ko'p tarkalgan so'zli usullardan biri – nutqiy namunadir. **Nutqiy namuna** – bu tarbiyachining to'g'ri, ilgaridan mashk kilingan nutqiy faoliyatidir. Nutqiy namunadan izohlash, ko'rsatmalar berish bilan birgalikda foydalaniladi. Namuna bolalarga anik, tushunarli, baland va bosik ovozda namoyish kilinadi.

**Takrorlash** – esda saklab kolish maksadida aynan bitta nutqiy elementdan (tovush, so'z, ibora) bir necha marta foydalanish. Takrorlash tarbiyachining o'zi yoki bola (ikki nafar bola) tomonidan hamda bolalar tomonidan jo'rovoz bo'lib amalga oshiriladi.

**Tushuntirish –** tarbiyachi tomonidan narsa yoki hodisa mohiyati ochib beriladi.

**Ko'rsatma berish** – bolalarga kanday harakat qilish, kanday qilib natijaga erishish mumkinligi tushuntiriladi. Ko'rsatmalar o'rgatuvchi, tashkiliy va tartibga keltiruvchi bo'ladi.

**So'zli mashklar –** nutqiy mahorat va ko'nikmalarga ega bo'lish hamda ularni takomillashtirish uchun bolalarning muayyan nutqiy harakatlarni ko'p marta bajarishlaridir.

**Bolalar nutqini baholash** – o'rgatuvchi usul bo'lib, unda bolaning javobi yoki hikoyasi haqida asoslangan mulohaza bildiriladi. Ko'pincha baholar nutqning ijobiy tomoniga taallukli bo'ladi.

**Savol –** so'zli murojaat bo'lib, u mavjud bilimlaridan foydalanish yoki uni qayta ishlash zarurati karshisida turgan bolaga vazifa ko'yish va uning javobini kutishni talab kiladi. Savollar mazmuniga karab tasniflanadilar: faktlarni tasdiklashni talab kiluvchi *reproduktiv savollar* (Nima? Kim? Kanday? Kaerda? Kaerga? Kancha? Kachon? va boshk.), akl bilan bir xulosaga kelishni talab kiluvchi nisbatan murakkab – *kidiruv savollari* (Nega? Nima uchun? Nimasi bilan o'xshash? va boshk.). Savollar tuzilishiga karab *to'g'ridan-to'g'ri, yo'l ko'rsatuvchi va javobni aytib turuvchi* savollarga bo'linadi.

**Ko'rgazmali** usullar – suratni, o'yinchokni, harakatni, sahna harakatlarini (sahnalashtirishga oid o'yinlarda) ko'rsatish, tovushni yo'lga ko'yish jarayonida artikulyatsiya organlari holatini ko'rsatib berish. Ko'rgazmali usullar so'zli usullar yordamida – ya'ni, narsani ko'rsatish, uning nomini aytish, tushuntirish orkali ko'llaniladi.

**O'yin usullari** – maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda turli o'yinchoqlardan foydalanish mashklar, o'yinlarni yanada jonli va emotsional kiladi, bu esa bolalarning dikkat-e'tibori oshishiga olib keladi, ayni paytda barcha nutq jarayonlari faollashadi. Har bir mashђulotda, ayniksa uning nihoyasida, hazil savollar berish, loflardan, o'yin kahramonlaridan (ayikcha, Buratino va boshk.) foydalanish, o'yin baholarini ko'llash (xalqa yiђish, karsaklar) mumkin. SHuningdek, musobaka elementlari («Kim ko'p so'z aytadi?», «Kim yaxshi aytadi?»), Mashg'ulotlar jihozlarining chiroyliligi, yangiligi ham bolalarning nutqiy materialga nisbatan dikkat-e'tiborini oshiradi.

**O'rgatuvchilik vazifasiga karab** rivojlantirish usullarini bevosita va bilvosita usullarga ajratish mumkin.

***Bevosita*** ta'lim usuli – namuna, izoh, savol, bola javobini baholash, ko'rsatma berish va boshk.

Mashђulot, o'quv vazifasining maksadiga karab bir mashђulotda aynan bitta usulning o'zi yetakchi, boshka bevosita usullar esa – ko'shimcha usullar bo'lishi mumkin. Masalan, hikoya qilib berishga oid mashђulotda namuna yetakchi usul bo'ladi, boshka usullar – reja, savollar esa – ko'shimcha usul bo'ladi.

***Bilvosita*** usullarga eslatish, maslahat berish, aytib turish, tuzatish kiritish, mulohaza bildirish, lukma tashlashlar kiradi.

Bitta mashђulotda butun usullar majmuasidan foydalanish tavsiya etiladi: masalan: narsalarni takkoslashni uning nomini aytish (so'z namunasi), tushuntirish, badiiy so'z va hokazolar bilan birgalikda amalga oshirish tavsiya etiladi. Pedagog Mashg'ulotlarning umumiy borishini oldindan o'ylab olishi, zarur ta'lim usullarini belgilab olishi zarur. Kerakli usullarning asosli va okilona tanlab olinishi ko'p jihatdan har bir mashђulotning muvaffakiyatini belgilaydi.

**Tarbiyachi nutqi**

Kattalar bilan bevosita muloqot qilish bola nutqiga katta ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar atrofdagilarga taklid kilganlari holda nafakat to'g'ri talaffuz, so'zlarni to'g'ri ko'llash, iboralar tuzish sirlarini, balki kattalarda (pedagoglar, ota-onalar, oila a'zolari va boshk.), atrofdagi bolalarda uchrab turadigan nutq nomukammaliklarini ham o'zlashtirib oladi. Bolalarning nutq madaniyati pedagogning (va boshka kattalarning) nutq madaniyatiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Doimo kichkintoylarning dikkat-e'tibori markazida turadigan va ular bilan muloqot kiladigan tarbiyachning nutqi bolalar ona tili, nutq madaniyati namunalarini oladigan asosiy manba hisoblanadi, shuning uchun u nafakat to'g'ri so'zlashi, ona tilining barcha tovushlarini anik va tushunarli qilib talaffuz etishi, balki u muayyan balandlikdagi ovozda bosiklik bilan so'zlashi, uning nutqi intonatsion jihatdan ifodali, grammatik jihatdan to'g'ri rasmiylashtirilgan, ravon, tushunish uchun oson bo'lishi hamda so'z bilan belgilash to'g'ri va anik amalga oshirilishi lozim.

Tarbiyachining ifodalilik vositalaridan foydalangan holda o'kigan hikoyasi bolalarda kizikish uyђotadi, ularda qayg'urish, so'z kuchini his qilish, uning mazmunini anchagacha yodda saklab kolish imkonini beradi; agarda aynan shu hikoya tez va kuruk ohangda his-hayajonlarsiz o'qib berilsa, u fakatgina badiiy asarga nisbatan zerikish va befarklikni shakllantiradi.

Pedagog o'z nutqiga nisbatan tankidiy munosabatda bo'lishi va unda kamchiliklar borligini sezsa, ularni darhol bartaraf etishgi intilmoђi lozim.

Birok, o'z nutqining kamchiligini aniklash har doim ham oson kechmaydi, chunki muloqot jarayonida so'zlovchining dikkat-e'tibori eng avvalo nutqning shakliga emas (kay tarzda aytish), balki uning mazmuniga (nimani aytish) karatilgan bo'ladi. Bundan tashkari, o'z nutqiga nisbatan beparvolik bilan munosabatda bo'lish natijasida ayrim kamchiliklar tilga kattik o'rnashib kolishi va keyinchalik so'zlovchi uni sezmay kolishi mumkin. Masalan, nutqning shoshkalokligi, tushunarsizligi, bir ohangdaligi (monotonligi), ovozning kuchliligi, ayrim tovushlar, so'zlarni noanik talaffuz qilish kabi nuksonlar sezilmasdan koladi.

O'z nutqining nomukammalliklari haqida bilish uchun pedagog o'z o'rtoklarining mulohazalariga kulok tutishi darkor. Ochik darslarni magnitofonga (videokassetaga) yozib olish va uni keyin muhokama qilish maksadga muvofikdir. SHunda tarbiyachi nutqini tovush, leksik vositalaridan foydalanish, grammatik jihatdan rasmiylashtirish nuktai-nazaridan tahlil qilish mumkin bo'ladi.

Ayni paytda shuni hisobga olish lozimki nutqni yozib olish choђida tarbiyachining o'zini-o'zini nazorat qilishi evaziga nutq sifati yaxshilanadi. SHuning uchun nutqda aniklangan kamchiliklarga tarbiyachining o'zi va uning o'rtoklari dikkat-e'tibor bilan yondoshishlari zarur.

Nutqda aniklangan kamchilik(nomukammalliklar)larni (yomon diktsiya, leksik-grammatik rasmiylashtirishdagi xatoliklar va h.k.) tarbiyachi maxsus daftarga kayd etadi, so'ngra reja ishlab chikadi va ularning bartaraf etishga doir ishlarni tashkil kiladi.

O'z tarbiyalanuvchilarida ana shunday kamchiliklar paydo bo'lishining oldini olish uchun pedagog o'z nutqiga nisbatan kanday talablarni ko'yishi zarur?

**I. Nutqning tovush jihatiga ko'yiladigan talablar**

Bolalar anik va tushunarli so’zlaydigan, iboralar, so’zlar va har bir tovushni alohida-alohida anik talaffuz etayotgan, ya’ni yaxshi diktsiyaga ega bo’lgan pedagog yordamida ona tilidagi tovushlarni muvaffakiyatli ravishda o’zlashtiradilar. Ko’pincha pedagoglarning talaffuzi biroz noanik va tushunarsiz bo’ladi, ular tovushlar va so’zlarni oђizni yetarli darajada ochmasdan talaffuz kiladilar, ayrim tovushlar yutib yuboriladi, undoshlar tushunarsiz talaffuz etiladi.

Pedagog talaffuzning adabiy me’yorlariga rioya qilishi, o’z nutqida turli shevalar, mahalliy so’zlashuvlar ta’sirini bartaraf etishi, so’zlarda urђuni to’g’ri ko’yishi lozim.

Nutqda hissiyotlar, fikrlarning eng nozik kirralarini ham ifodalash mumkin. Bunga nafakat tegishli so’zlar yordamida, balki ifodalilikning intonatsion vositalari, ovoz kuchi, sur’ati, mantikiy urђusi, pauza, ritm, tembr, ohangdan to’g’ri foydalanish tufayli erishiladi. Ushbu vositalardan foydalangan holda tarbiyachi tomonidan o’qib berilgan she’rlar, ertaklar, hikoyalar bolalarga ularning mazmunini yaxshi tushunish, ona tilining kudrati va go’zalligini his qilish imkonini beradi.

Bir xil ohangdagi nutq kichik tinglovchilarni toliktirib ko’yadi, matn mazmuniga bo’lgan kizikishni pasaytiradi. Bolalar bunday nutqni tinglash davomida tez tolikib koladilar, boshka tomonlarga karaydilar, chalђiy boshlaydilar, keyinrok esa umuman tinglamay ko’yadilar.

Tarbiyachining nutqi emotsional to’lik, intonatsiyalarga boy, yetarli darajada baland va tezligi bir maromda bo’lishi lozim. Bolalar bilan muloqotda xuddi tovushlarni noto’g’ri talaffuz etib bo’lmaganidek nutqning shoshkalokligiga ham yo’l ko’yilmaydi. Agarda nutq biroz ohista sur’atda davom etsa, u yaxshi kabul kilinadi. Bunday sur’at nutqning anikligini oshiradi va aksincha, tezlashtirilgan nutq kabul qilishni kiyinlashtiradi. Bolalar uchun mo’ljallangan ertaklar, hikoyalar, she’rlarni badiiy so’z ustalari odatda, og’zaki nutqka qaraganda biroz sekin sur’atda o’kiydilar. Bolalarga sekinlashtirilgan nutqni kabul qilish, uning mazmunini kuzatish, matnni eslab kolish oson kechadi.

SHu bilan birga esda tutish lozimki, bu koida hamma narsani ham kamrab olmaydi. Badiy asarlarni o’kishda nutqni jadallashtirish yoki sekinlashtirishni ushbu choђda mazmun tushuntirilayotgani bilan oklash mumkin, ayni paytda bu badiiy ifodalilik vositasiga aylanishi zarur.

Ovoz – bu tarbiyachining kasbiy kurolidir, u mazkur kuroldan to’g’ri foydalanishi va uni zo’rikishdan asrashi lozim. Ovozdan noto’g’ri foydalanishni masalan, uning haddan tashkari balandlatishda (guruhda, maydonda shovkin bo’lganida) ko’rish mumkin.

Agarda muloqot vaziyati nutq balandligini ancha kuchaytirishni talab kilsa - bu ovozni bakirish darajasiga yetkazish kerak, degani emas.

Ovozni biroz kuchaytirishda nutq sur’atini pasaytirish va so’zlarni yanada anikrok talaffuz qilish lozim. Agarda ovoz past va zaif bo’lsa, uni balandlashguncha mashk kildirish va maxsus mashklar bilan mustahkamlash zarur. Ovozning yokimsizligini (xirrilash, chiyillash) ham bartaraf etish mumkin.

## II. Ravon nutq va uni leksik-grammatik rasmiylashtirishga nisbatan ko’yiladigan talablar

Bolalar kattalardan nafakat tovushlar va so’zlarni to’g’ri talaffuz qilishni, balki ertaklar, hikoyalar mazmunini aytib berish, atrof-olam haqidagi o’z kuzatishlarini bayon qilish, o’z fikrlarini izchil bayon qilish va xulosalar chikarishni ham o’rganadilar.

Bolalarga nutqda u yoki bu mazmunni ravon, kizikarli va imkonli shaklda yetkaza olish pedagog nutqining zarur sifatlaridan biri hisoblanadi.

Tarbiyachi o’z fikrlarini izchil bayon kilar ekan, u o’z nutqini tushunarsiz so’zlar, murakkab oborotlar, uzok iboralar bilan kiyinlashtirib yubormasligi lozim.

Bolalar nutqni agarda, u kiska iboralardan iborat bo’lsagina yaxshi kabul kiladilar. CHunki uzun, buning ustiga grammatik jihatdan juda murakkab tuzilgan iboralarni ko’llashda

bolalarga uning kismlari o’rtasida aloka boђlash, uning mazmunini mulohaza qilish va tushunish kiyin kechadi.

Fakat oddiy gaplarni ko’llash bilan cheklanmaslik lozim. Ayniksa, boђlangan ko’shma gap va ergashgan ko’shma gaplarni keng ko’llash juda muhimdir.

Bolalarga hikoya qilib berishda (o’tkazilgan ekskursiya, tabiat haqida va h.k.) fakat asosiy narsani, ya’ni barcha ikkinchi darajali va ahamiyatsiz narsalarni tashba yuborgan holda fakat ushbu mavzuga alokador narsalarni ajratib olish va bolalarga yetkazish zarur. Ko’p so’zlash, ortikcha iboralarni ko’llash tarbiyachining nutqini oђir, tushunish uchun kiyin qilib ko’yadi.

Murakkab oborotlar bilan boyitilgan hikoyani tinglashda maktabgacha yoshdagi bolalarning pedagogning fikrini kuzatib borishlari, hikoya mazmunini esda saklab kolishlari kiyin bo’ladi va bunday hikoya foyda keltirmaydi.

Pedagog nutqining imkonliligi va tushunarliligiga eng avvalo, so’zlardan to’g’ri va anik foydalanish orkali erishiladi. Ona tilining lug’at zahirasi boy, u doimo yangi so’zlar bilan boyib boradi; muomaladan chiqqan so’zlar yo’kolib ketadi.

Bolalar bilan muloqotda tarbiyachi bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ona tilining leksik boyligini keng ko’llashi: tushunish mumkin va o’zlashtirish oson bo’lgan so’zlarni tanlashi va ulardan o’z nutqida foydalanishi lozim.

Bolalar bilan suhbat choђida adabiy tilga oid so’zlarni ko’llash, ko’pol so’zlarga yo’l ko’ymaslik, oddiy so’zlashuv tili va shevalardan, shuningdek muomaladan chiqqan so’zlardan kochish lozim. Tarbiyachining lug’ati qanchalik boy va turli-tuman bo’lsa, uning nutqi qanchalik yorkin bo’lsa, bolalar shunchalik ko’p so’zlarni o’zlashtirib olishlari mumkin.

Tarbiyachining lug’atidagi kamchiliklar sifatida so’zlarni kichraytirilgan-erkalash suffikslari bilan ko’llash (Sevaraxon, ko’lchalaringni yuv; Samatjon, stakanchalarni yiђishtirib ko’y va h.k.), nutqni ortikcha so’zlar bilan to’ldirib yuborish (Xo’sh, aytish mumkinki, demak), nisbatan katta bolalar bilan muloqot qilishda ularga xuddi go’daklarga kabi muomala qilish (Vov-vov kani?) kabi holatlarini keltirish mumkin.

So’zlar va so’zli iboralarni to’g’ri tanlash tarbiyachi nutqining anikligi, tushunarligi va ifodaliligini ta’minlaydi.

YAngi so’zlardan foydalanishda juda ehtiyot bo’lish zarur. Bir tomondan, bolalarning yoshini hisobga olish va ular tushuna oladigan so’zlarni tanlash, ikkinchi tomondan – doimiy ravishda yangi so’zlarni muomalaga kiritish, mavjud so’zlardan foydalanishni kengaytirish va ularning ma’nosini tushuntirib berish lozim.

Pedagogning hikoyasi to’lik, chiroyli, so’zlari anik tanlab olingan, grammatik jihatdan to’g’ri rasmiylashtirilgan va ifodali bo’lishi, uning alohida kismlari o’rtasida mantikiy aloka o’rnatilgan bo’lishi lozim. Hikoya qilishda nutqni ifodali, turli-tuman, mazmunga boy kiladigan sinonimlar, metaforalar, tashbehlardan, xalq og’zaki ijodiyotidan (makollar, matallar), frazeologik iboralardan kengrok va mohirona foydalanish lozim.

Bundan tashkari, tarbiyachining nutqi nafakat bolalarga nisbatan, balki bolalar bog’chasining xodimlariga nisbatan ham osuda, doimo bosik, xushmuomala bo’lishi shart.

SHunday qilib, bolalar bilan ishlash orkali pedagog quyidagilarga e’tiborini karatishi lozim:

- ona tilining barcha tovushlarni to’g’ri talaffuz qilish, nutqdagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish;
- anik, tushunarli nutqka, ya’ni yaxshi diktsiyaga ega bo’lish;
- o’z nutqida adabiy talaffuzlardan foydalanish, ya’ni orfoepik koidalarga rioya qilish;
- ifodalilikning intonatsion vositalaridan bildirilgan fikrlarni hisobga olgan holda to’g’ri foydalanishga intilish;
- bolalar bilan muloqotda biroz sekinlashtirilgan sur’atda, ovozni sal pasaytirgan holda nutq so’zlash;
- matnlar mazmunini so’zlar va grammatik tuzilmalardan foydalangan holda ravon hamda imkonli shaklda hikoya qilish va bolalarga yetkazish;

- bolalar va xodimlar bilan suhbatda ovozni balandlatish va ko’pol muomalaga yo’l ko’ymaslik.

Bolalar bog’chasi tarbiyachisi uchun namunali nutqka ega bo’lish – bu uning kasbiy tayyorligi ko’rsatkichidir. SHuning uchun o’z nutqini takomillashtirish haqida qayg’urish – bo’lajak pedagogning axlokiy va ijtimoiy burchidir. U o’zida keyinchalik bolalarga beradigan nutqiy ko’nikmalarni mukammal rivojlantirishi shart.

**XULOSALAR:**

- Maktabgacha ta’lim umuman olganda, uzluksiz ta’limning birinchi bo’ђini hisoblanadi. Maktabgacha ta’limning maksadi maktabda o’kish uchun tayyor bo’lgan, soђlom va to’lakonli shaxs sifatida shakllangan bolani tarbiyalashdan iboratdir.
- Bolalar nutqini rivojlantirishni atrof-olam haqidagi bilimlar doirasi va lug’at hajmi, har bir yosh bosqichida bolalarda shakllanishi lozim bo’lgan nutqiy mahorat va ko’nikmalar belgilangan, shaxsning muayyan sifatlarini (kirishimlilik, xushmuomalalik, salomlilik, bosiklik) tarbiyalash ko’zda tutilgan tegishli dastur asosida amalga oshirish zarur.
- Nutqni rivojlantirish dasturi bola faoliyatining o’quv, o’yin, mehnat va maishiy kabi shakllarida amalga oshadi.
- Bola nutqini shakllantirish yetakchi vositasi ta’lim, asosiy ta’lim shakli esa – Mashg’ulotlardir.
- Bolalarga ona tilini o’kitish ularning yosh xususiyatlarini va har bir bolaning nutqiy rivojlanganlik darajasini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim.
- Ilk yoshdagi bolalar (1-3) bilan Mashg’ulotlarni didaktik o’yinlar shaklida o’tkazish lozim. Maktabgacha bosqichdagi kichik yoshli bolalar (3-5) bilan Mashg’ulotlar emotsional tusga ega bo’lishi lozim, bu yerda ko’rgazmaviylik, o’yin usullari, didaktik o’yinlarning turli xillaridan foydalanish tavsiya kilinadi.
- Bolalar badiiy adabiyoti bolalarni har tomonlama rivojlantirishning asosiy vositasi bo’lib xizmat kiladi, u bolalar nutqini rivojlantirish va boyitishga ulkan ta’sir ko’rsatadi.
- SHuningdek, tasviriy san’at, bayramlar, tomoshalar ham nutqni rivojlantirish vositasi hisoblanadi.
- Bolalarga ona tilini o’kitish metodlariga ko’rgazmaviylik, so’zli va amaliy metodlar kiradi.
- Har bir metod – bu didaktik vazifalarni hal etish uchun xizmat kiladigan usullar majmuasidir. O’kitish roliga karab nutqni rivojlantirish usullari bevosita va bilvosita usullarga bo’linadi.
- Mashg’ulotlarda butun usullar majmuasidan foydalanish tavsiya kilinadi.
- Tarbiyachining nutqi – bu bolalar ona tili va madaniy nutq namunalarini o’zlashtirib oladigan asosiy manba hisoblanadi.
- Bolalar bog’chasi tarbiyachisi uchun namunali nutqka ega bo’lish – bu uning kasbiy tayyorlik darajasidir.
- Nutqni takomillashtirish haqida qayg’urish – har bir pedagogning axlokiy va ijtimoiy burchidir.

**NAZORAT SAVOLLARI:**

- Bolalarga ona tilini o’kitish bo’yicha kanday Mashg’ulotlar toifalari mavjud? Har bir mashђulot toifasini tavsiflab bering.

- Bolalarga ona tilini o’kitishni ularning yosh xususiyatlarini va har bir bolaning nutqiy rivojlanganlik darajasini hisobga olgan holda amalga oshirish lozimligi haqidagi talabni kanday tushunasiz?
- Har bir yosh bosqichida nutqni rivojlantirishga oid Mashg’ulotlar o’tkazishning o’ziga xos xususiyatlarini tavsiflab bering.
- Qaysii faoliyat turlarida bolalarda nutqiy mahorat va ko’nikmalar shakllanadi? O’z javobingizni anik misollar yordamida asoslang.
- Bolalar nutqini rivojlantirishning asosiy vositalarini tavsiflang.
- Bolalar bog’chasida rivojlantirish imkoniyatlariga ega bo’lgan nutqiy muhit deganda nima nazarda tutiladi?
- Ona tilini rivojlantirishning metodik tamoyillarini tavsiflang.
- Bolalarga ona tilini o’kitish metodlari va usullarini tavsiflab bering.
- Tarbiyachi nutqi bolalar uchun kanday ahamiyatga ega? O’z javobingizni asoslab bering.
- Pedagag o’z nutqidagi kamchiliklarni kanday qilib aniklashi mumkin?
- Pedagog nutqiga nisbatan kanday talablar ko’yiladi?
- Nima uchun nutqni takomillashtirish har bir pedagogning axlokiy va ijtimoiy burchi hisoblanadi?

## MAVZU-7. ILK YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH

**Nutqning tayyorgarlik bosqichlarini o’z vaktida aniklashda emotsional muloqotning ahamiyati**

**Nutqni tushunishni rivojlantirishning asosiy metodik usullari**

**Nutqkacha bo’lgan rivojlanish bosqichi: gugulash, chuchulash; ularning nutq bilan alokasi. Ovoz munosabatlarini rivojlantirish metodikasi (0-1 yosh)**

**Faol nutqni rivojlantirish. Lug’at o’zlashtirish bosqichlari. Dastlabki so’zlarni talaffuz qilishni o’rgatish metodikasi**

### Nutqning tayyorgarlik bosqichlarini o’z vaktida aniklashda emotsional muloqotning ahamiyati

Hayotining birinchi yilida bola tez o’sadi. Jismoniy o’sish bilan birga «atrof muhitga moslashish organi» (I.P.Pavlov)vazifasini bajarishga tayyor bo’lish uchun bolaning miyasi ham rivojlanib boradi. Mazkur tayyorgarlik bosqichma-bosqich ro’y beradi: 0 oydan 2,5-3 oygacha; 5-6 oydan to 9-10 oy va 1 yilgacha.

Muloqotning **birinchi shakli** – emotsional-bevosita (vaziyat-shaxs) shakldir. Bu boshka odamga bo’lgan kizikish, unga nisbatan emotsional munosabat bilan

tavsiflanadi. Muloqotning bunday shakli bola hayotining birinchi yarim yilligiga xos holatdir.

Muloqotning yanada rivojlangan **ikkinchi shakli** – ya'ni, emotsional-vositali (vaziyatli-amaliy) shakli bola hayotining ikkinchi yarim yilligida ro'y beradi. Bu muloqot predmetlar orkali vositali muloqotga aylantiriladi. Ushbu yoshda bolaning kizikishlari atrofdagi olamga yo'naltirilgandir. Unda yangi taassurotllarga ehtiyoj yorkin paydo bo'ladi.

Kattalar bilan muloqotda, hazil-huzul va boshka ijobiy hislarga to'lik bo'lgan bola ***o'yinchoqlar bilan o'ynashga*** kirishadi. Bu mohiyatan, bolaning tashabbusiga ko'ra yuzaga kelgan birinchi o'yin shaklidir. Bolaning narsalar va o'yinchoqlar bilan harakatlari, ko'llarning kichik harakatlari uning nutqini rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Bola bilan muloqotda makollar, matallar, sanok she'rlardan foydalanish zarur. Bu tovush va nutq muhitini boyitadi, nutqni rivojlantirishga yordam beradi, intonatsion tinglash qobiliyatini, she'riy so'z jaranglashiga nisbatan sezgirlikni rivojlantiradi. Ilk yoshdagi bolalar bilan ishlashda kattalar nutqiga alohida talablar ko'yiladi, chunki ularning nutqi taklid uchun namuna bo'lib xizmat kiladi. SHu bois u har tomonlama namunali bo'lishi, ya'ni: grammatik to'g'ri, intonatsion ifodali, unchalik baland emas, tez ham emas, oz so'zli va anik bo'lishi lozim.

Nutqning intonatsion ifodaliligi mutlak muhim ahamiyatga ega, chunki kichkintoy eng avvalo aynan nutqiy ohanglarni tushuna boshlaydi va ularga munosabat bildirishga harakat kiladi. Intonatsiyaning kamligi nutqni tushunishni rivojlantirishga va uni faollashtirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tuђilganidan boshlab bir yoshgacha bo'lgan bolalarning nutqni tushunishlarining asosiy metodik usullarini ko'rib chikamiz.

Bola 6 oylik bo'lganidan so'ng uning nutqini o'z vaktida rivojlantirish uchun nafakat bolada jonlanishni vujudga keltirish va fikrni bir joyga jamlashni mashk qilish uchun shunchaki so'zlashish, balki unga dastlabki so'zlarni ***tushunishni*** o'rgatish darkor.

6 yoshgacha kattalarning bolalar bilan muloqot shakli emotsional-bevosita (vaziyat-shaxs) bo'ladi, 6 oydan boshlab esa muloqotning nisbatan rivojlangan shakli – emotsional-bilvosita (vaziyatli-amaliy) muloqot shakliga navbat keladi. Kattalar bolaga o'yinchoqlar bilan o'ynashni o'rgatadi, o'z harakatiga taklidni yuzaga keltiradi, o'yinchokka e'tiborni jalb kiladi, ya'ni bolaning dikkatini o'zidan o'yinchoqlarga va ular bilan harakatlar bajarishga yo'naltiradi. Ushbu jihat bola rivojida ulkan ahamiyatga ega. Agarda kichkintoy bilan muloqot fakat emotsional asosda amalga oshishda davom etaversa, keyinrok unga biron-bir narsani o'rgatish kiyin kechadi. Kattalar bilan muloqot kilar ekan, bola kuladi, erkalanadi, kanday qilib bo'lsa ham o'ziga dikkat-e'tiborni jalb qilishga harakat kiladi, va bu paytda bola o'yinchoqlarni ham, kattalarning o'yinchoqlar bilan amalga oshirayotgan harakatlarini ham ko'rmaydi, ularning so'zlariga kulok tutmaydi. Bunday holatlarda bola emotsional muloqotga kirishadi, birok u narsalar va ular bilan harakatlar bajarish borasida kattalar bilan muloqot qilishni bilmaydi. Bolada nutqni ***tushunishni*** rivojlantirish uchun emotsional muloqot kamlik kiladi, muloqot bilish

tusiga ega bo’lishi uchun bola kattalar taklifiga binoan o’yinchoqlar bilan harakatlarni bajarishi zarur.

So’zning asta-sekin bola uchun muayyan harakatga kirishishga signalga aylanishi uchun (u ko’zlari bilan izlaydi, nomi aytilgan narsani ko’rsatadi, uni olib kelib beradi va h.k.) kanday pedagogik shart-sharoitlar zarurligini bilish lozim.

Dastlabki so’zlar – emotsional ifodaliligi, ta’sirliligi, vaziyatga oidligi, kommunikativ yo’naltirilganligi bilan farklanadi. Bunday nutq ***vaziyatga asoslangan nutq*** (avtonom) deb ataladi, chunki u fakat bola atrofidagi mavjud muhit bilan tanish bo’lgan yakin kishilargagina tushunarli bo’ladi. So’zni dastlabki ***tushunish*** muayyan vaziyatni kabul qilish bilan birgalikda ro’y beradi.

Dastlabki so’zlar muayyan narsalarga taallukli bo’lib, umumlashtiruvchi tusga ega emas (soat fakat krovat tepasida osilgani). So’z bolaning umumiy xulk kiyofasiga uyђunlashib ketadi va mimika, imo-ishora, nazar tashlash, ifodali harakatlar bilan bir so’zli fikrni tashkil kiladi («Xayr», «Ber», «Ol»).

Dastlabki so’zlarning paydo bo’lishi bolaning rivojlanishida ***ijtimoiy*** vaziyat o’zgarganligidan dalolat beradi. endi u o’z istak-xohishlari haqida o’zi aytishi mumkin, kattalar esa uning xulk-atvorini so’zli ko’rsatmalar yordamida yo’naltirish imkoniyatiga ega bo’ladi.

Hayotining birinchi yili davomida bolaning narsalarga munosabati quyidagicha bo’ladi: sochidan tortadi, kuloђiga ko’lini tikadi, narsalar ustidan oshib o’tadi va h.k. Bunday ђayratli harakat – «Men» obrazining shakllana boshlanayotganidan dalolatdir. Ushbu obrazni shakllantirish uning «xohlayman», «xohlamayman» kabi dastlabki xohish-istaklarining paydo bo’lishi, «mumkin», «mumkin emas» kabi muhim tushunchalarni tushuna boshlashi bilan bog’liqdir.

Bolaning ushbu yoshda o’zini anglay boshlashini unga nisbatan katta yoshli odam munosabatlarining aks-sadosi deb atash mumkin. O’ziga nisbatan ijobiy munosabat – shaxsning normal rivojlanishining asosidir. O’ziga nisbatan salbiy munosabat esa – bolaning ilk yoshida bola bilan katta yoshli odam o’rtasidagi emotsional-ijobiy munosabat yetarli bo’lmaganligidan dalolat beradi.

Bolaga fakat organik ehtiyojlarini (ovkatlanish, uxlash, isinish) kondirish kamlik kiladi, u kattalar bilan muloqot qilishga, insoniy mehr-muhabbatga muhtoj. Ushbu yoshda muloqot yetishmovchiligi ***gospitalizatsiya*** deb nomlangan kasallikni yuzaga keltiradi. eng xavli va zaif davr bu – 6 oydan 12 oygacha bo’lgan davrdir. Bu davrda har kanday sharoitda ham bolani onasi bilan muloqot qilishdan mahrum kilmaslik lozim. Agarda busiz hech iloji bo’lmasa, onasining o’rniga boshka odamni topish darkor.

O’zining katta yoshli yakin kishisi bilan muloqot qilish bolaga yangi taassurotlar baxsh etadi. Kattalarning ishtiroki kichkintoyda u hali bilib ulgurmagan atrofdagi olam oldidagi ko’rkuvga barham beradi. Bola bilan muloqot u bilan hamkorlik asosiga kurilishi lozim. Bola bilan kattalar o’rtasidagi muloqotning barkarorligini ta’minlash zarur, chunki shu tufayli bolaning emotsional bosikligi shakllanadi, muloqotning nutqiy va nonutqiy shakllari shakllana boshlaydi.

Bolalarda (ikkinchi yarim yillikda) vaziyatlar, narsalar o’rtasida aloka boƫlashga yordam beruvchi kidiruv harakatlarini paydo qilish lozim (9 oydan keyin – surat va so’z bilan: «falon narsa kaerda?»).

Nutqni ***tushunishni*** rivojlantirish maksadida katta yoshli odam iloji boricha bola uchun kizikarli bo’lgan yorkin va harakatlanuvchi narsalar nomini, ular bilan amalga oshiriladigan harakatlarni, bolalar va atrofdagi kattalar nomlarini ko’proq ***aytishi*** zarur.

Bolaning katta yoshli odamga, uning harakatlariga, so’zlariga bo’lgan kizikishi ostida inson hayotining birinchi kunidan boshlab to umrining oxirigacha sherik bo’ladigan narsa -ya’ni odamlarga va ayni paytda hayvonlarga xos bo’lgan yo’naltiruvchi refleks yotibdi.

Biz tomon yoƫilayotgan har kanday yangilik biz tomonimizdan tegishli harakatni keltirib chikaradi, biz bu yangi narsani yaxshilab tushunish olish uchun paydo bo’layotgan obrazlarga tiqilib karaymiz, paydo bo’lgan tovushlarni dikkat bilan tinglaymiz, agarda uning hidi chiksa, darhol uni hidlashga, agarda u bizga yakin turgan bo’lsa ushlab ko’rishga harakat kilamiz.

**Nutqni tushunishni rivojlantirishning asosiy metodik usullari**

So’zlarni tushunishni o’rgatishda bolalarga nafakat ular karab turgan narsalarning va ularning o’zlari bajarayotgan harakatlarning nomini aytish, balki bolalarga ushbu narsalarni ataylab ko’rsatish va ularni kiziktirish zarur. Bu usul «ko’rsatib, nomini aytish» usuli deb ataladi.

Ko’pincha bolani biron-bir narsa nomini tushunishga undashda katta yoshli odam undan so’raydi: «falon narsa kaerda?», birok biz uni amaliy ish bilan mustahkamlamasak, ya’ni «ko’rsatib, nomini aytmasak», bola narsa bilan uning nomi o’rtasidagi bizga zarur bo’lgan shartli alokani o’rnata olmaydi, o’z-o’zidan u ushbu so’z ma’nosini tushunmaydi. «Falon narsa kaerda» degan savol bilan bolada u tushuna oladigan so’zlarni mustahkamlashda foydalanish mumkin. Masalan, «soat» deganimizda bola ko’zlari bilan soatni izlay boshlasa, undan soat kaerdaligini tez-tez so’rab turish lozim. Birok bu o’rinda savol emas, aynan soatni ko’rib va eshitib kabul qilish vaktlarining bir-biriga mos kelishi birlamchi ahamiyatga egadir.

Ammo katta yoshli odamning fakatgina ushbu usul mohiyatini tushunishi hali yetarli emas. Uni turli hayotiy vaziyatlarda bolaga kizikarli qilib ko’llashni ham o’rganish zarur: bunda katta yoshli odamning nutqi birmuncha o’ziga xos bo’ladi. Katta yoshli odam bola bilan suhbatlashar ekan, u bolani tushunishga undayotgan so’zni hadeb bir xil ohangda qaytaravermasdan iboralarni ham aytishi lozim. Ko’rsatilayotgan narsa bilan boƫlanishi lozim bo’lgan so’zni alohida ohang, so’zdan oldin va so’zdan keyin kiska, birok ahamiyatli bo’lgan pauzalardan foydalanish, uni ko’p marta talaffuz qilish lozim. Ushbu usuldan («ko’rsatib, nomini aytish») foydalangan holda katta yoshli odam bolaga ayrim o’yinchoqlar, shaxsiy gigienaga oid narsalar, ovkat yeyish bilan bog’liq buyumlar nomlarini tushunishni o’rgatishi darkor. Bolaga ko’rsatilayotgan narsa qanchalik kizikarli bo’lsa, u narsalar bilan shunchalik keng va ko’p tanishishi (ko’l tegizishi, ushlab ko’rishi, ko’lga olishi, kimirlatishi, biron narsaga urib ko’rishi, agarda taom bo’lsa – ta’mini ko’rishi) mumkin.

Gigienik jarayonlarda, kiyinish, ovkatlanish, o’ynash vaktida bolaga so’zlarni tushunishni o’rgatish uchun ko’p imkoniyatlar paydo bo’ladi.

Harakatni anglatuvchi so’zlarni («ko’rsat», «takkilat», «tashla», «karsak chal» va boshk.) tushunishni o’rgatishda bu so’zlarni ushbu harakat bola yoki katta yoshli odam tomonidan amalga oshirilayotgan paytda aytish lozim. Zarur so’zni aytishda bolaning ko’lidan ushlab, tegishli harakatni bajarib ko’rish mumkin. So’zni tushunishni mustahkamlash uchun kichkintoyga «ko’rsat» deganda katta yoshli odam nomini aytgan narsani barmoƫi bilan ko’rsatishni va «ber» deganda katta yoshli odam nomini aytgan narsani olib berishni o’rgatish

zarur. Bu usullarni asosan bolalar taniydigan va nomlarini tushuna boshlagan narsalarga nisbatan ko'llash mumkin. Aynan bitta so'zda uzok to'xtalib kolib ketmaslik kerak, balki uning sonini asta-sekin kengaytirib borish, ayni paytda ilgari o'zlashtirilgan so'zlarni ham unutmaslik lozim.

**Nutqkacha bo'lgan rivojlanish bosqichi: gugulash, chuchulash; ularning nutq bilan alokasi. Ovoz munosabatlarini rivojlantirish metodikasi (0-1 yosh)**

«Ko'rsatib, nomini aytish» usuli deb asosan, nutqni tushunishni rivojlantirishga yo'naltirilgan usulga aytiladi. 6 oydan boshlab bolada ***ovoz*** munosabatlarini, ***ovoz*** taklidlarini va ovoz ifodaliligini rivojlantirish zarur. Bola ***chuchulashi*** uchun, uning kayfiyati yaxshi, quvonchhli bo'lishi, kiyimlari kuruk va issik bo'lishi, shuningdek xona osuda bo'lib, u fakat o'zining ovozini eshitishi kerak. Lekin shu vaziyatlarning o'zi kamlik kiladi. Bolani ***chuchulashga*** undash va bunda uni har tomonlama ko'llab-kuvvatlash zarur.

Agarda 5-6 oygacha bolalarga har kanday so'zlarni aytish mumkin bo'lsa, fakat bu bolalar tinglab, jonlanishlari uchun emotsional mayin ohangda aytilsa bo'lgani, hayotining ikkinchi yiliga kadam ko'yayotgan bolalarga nisbatan bunday deb bo'lmaydi.

5-6 oydan keyin bola bilan so'zlashishda ulardan nafakat jonlanish, balki taklidni yuzaga keltirish uchun iloji boricha turli tovushlar, bo'ђinlarni ko'proq aytish kerak. Dastlabki paytlarda buning uchun bolaning o'zi qaysii tovushlarni talaffuz kilayotganini kuzatish, ularni ilib olib, bola huzurida ko'p marta takrorlash lozim. Bunday «alohida» suhbat «yo'klama» deb ataladi. Bu ***chuchulashni*** rivojlantirish uchun samarali usuldir.

Bolada chuchulashning paydo bo'lishiga va o'z-o'zidan katta yoshli odam bilan «yo'klama» qilish zarurati yuzaga kelishiga yordam beradigan quvonchhli kayfiyat yaratish uchun «Karsak-karsak», «Kuvlashmachok» kabi jamoat o'yinlaridan birini o'tkazish lozim. Uning kayfiyati ko'tarilishi bilan kichkintoy kattalar aytayotgan tovushlar va bo'ђinlarni takrorlashiga erishish maksadida «yo'klama»ga o'tish lozim.

Bolalarda taklidni yuzaga keltirish uchun bolalar katta yoshli odam yuzini ko'rishi zarur, shunda ular uning yuz ifodasiga, lablarining kimirlashiga taklid qilishga harakat kiladilar. Bundan tashkari, tovushlar va bo'ђinlarni biroz intonatsiya bilan kuylash tarzida, ayrimlarini esa aksincha kiska («bum», «eh») aytish darkor.

Bolalar ko'pincha ularni anik ayta olmaydilar, fakat shu so'zni aytgan odamning ovoz intonatsiyasi, yuz ifodasi va so'zlayotgandagi ko'l harakatlarini takrorlagani holda «a» tovushini talaffuz kiladi.

Agarda maxsus usullar bilan bolada chuchulashni yuzaga keltirmasdan, unga yengil tovushlar va so'zlarga taklid qilishni o'rgatmasdan fakat «nomini aytib, ko'rsatish» bilan cheklanilsa, bola ko'p narsani tushunsa ham uzok paytgacha so'zlamaydi, chunki chuchulash va kattalarga taklid kila olish bola nutqini o'z vaktida rivojlantirishning muhim shartlari hisoblanadi.

«Yo'klama»ni ham xuddi «ko'rsatib, nomini aytish kabi» fakat bolalar o'ynayotgan paytda o'tkazish bilan cheklanmaslik kerak. Bolani parvarish qilish, unga karash paytida va boshka har kanday kulay sharoitda bolani chuchulashga undash va uni ko'llab-kuvvatlash, chuchulash uchun maxsus sharoit yaratish maksadida xonada osudalik yaratish zarur.

**Faol nutqni rivojlantirish. Lug'at o'zlashtirish bosqichlari. Birinchi so'zlarni talaffuz qilishni o'rgatish metodikasi**

Hayotining birinchi yili oxiriga kelib bolaning erishgan natijalari rivojlanishning yangi ijtimoiy vaziyatini kurishni talab kiladi. Bu bolaning katta yoshli odam bilan birgalikdagi faoliyatiga oid vaziyatdir. Ushbu birgalikdagi faoliyatning mazmuni – (narsalardan) foydalanishning jamoatchilik tomonidan ishlab chikilgan usullarini o'zlashtiradi, bola koshik bilan ovkatlanishni, kalam bilan rasm chizishni, stulchaga o'tirish va hokazolarni o'rganadi.

Muloqot jadal rivojlanishda davom etadi, zero kattalar bilan bevosita muloqotsiz premetli faoliyat mumkin emas. Predmetli faoliyat bilan bog'liq muloqot fakat emotsionalligicha kolmaydi, u nutqiy muloqotga aylanadi. SHunday qilib, ilk yoshdagi ***bosh*** vazifa narsalardan foydalanishning insoniy usullarini ***o'zlashtirish*** va nutqni rivojlantirishdan iborat bo'ladi.

Bir yoshdan keyin bola so'z bilan tegishli narsa, hodisa, sifat o'rtasida tezrok aloka boђlashni o'rganadi. U so'zlar kombinatsiyasini, ya'ni iboralarni tushunadi, bir yarim yoshga kelib esa bevosita unga karatilmagan nutqni ham tushuna boshlaydi.

Ikkinchi yilning ikkinchi yarmida nutqning jadal rivojlanishi tufayli bolalarda psixik funktsiya (xotira, kabul qilish va boshk.) rivojlanib ketadi va o'z xususiyatini o'zgartiradi.

Muloqotga bo'lgan ehtiyoj, predmetli harakatlarni o'zlashtirish bolaning o'z faol nutqini ham talab kiladi. Nutq asosida umumlashtirishlar, fikrlashning ramziy vazifasi, ya'ni real narsalarning o'rnini almashtira olish hamda o'rin bosuvchi narsalar va til belgilari bilan amallar bajarish kobiliyatlari rivojlanadi. Birok nutqkacha predmetli harakatlarni (aynan bir narsa bilan turli harakatlarni yoki turli narsalar bilan aynan bir xil harakatni bajarish), juftlik o'yinlarni («ku-ku», «shar yumalatish» va boshk.) rivojlantirish va umumlashtirishga oid uzok yo'lni bosib o'tishga to'g'ri keladi.

Bola uchun katta yoshli odam – bitmas-tuganmas ijobiy emotsiyalar, kizikarli taassurotlar va borgan sayin so'z muhim ahamiyatga ega bo'lib boradigan o'yinlar manbai hisoblanadi. Kattalar bilan muloqotga kirishish, narsalar va o'yinochklarga egalik qilishga intilarkan, bola ushbu maksadlarga erishish uchun so'zdan foydalanish haqidagi chakirikka javob beradi, ba'zida o'zi tashabbus ko'rsatib, fikr bildiradi.

Bola tilni faol o'zlashtiradi. So'z ortida turgan tasavvur yagona o'xshashlikdan keng o'xshatishlargacha, keyinrok esa yanada anik umumlashtirmalargacha rivojlanadi. Aynan bitta so'z yordamida ko'p obrazli munosabatlar ifodalanadi. Bola asta-sekin bu munosabatlarni grammatik jihatdan rasmiylashtirilmagan ikki so'zli, keyinrok esa uch so'zli gaplar orkali ifodalashni o'rganadi. Ikkinchi yilning oxiriga kelib dastlabki grammatik shakllar paydo bo'ladi. Bolaning so'z zahirasi ortadi. 1 yoshda – 1 yoshu 6 oyda so'z zahirasi 30-40 ta so'zni tashkil kiladi. Fikrlar asosan bir tarkibli gaplardan iborat bo'ladi. Bunda nonutqiy muloqot vositalari (ifodali harakat, bevosita namoyish qilish, ko'zlarning to'knashuvi, mimikalar, imo-ishoralar va boshk.) hamon hukmron bo'ladi. Bola maishiy vaziyatlar ma'nosini va ularda ko'llanilayotgan nutq mazmunini tushunib yetadi.

1 yoshu 6 oy – 2 yoshga kelib bolaning so'z zahirasi 200-300 tagacha o'sadi. Uning fikrlari grammatik jihatdan rasmiylashtirilmagan ikki-uch tarkibli iboralardan iborat bo'ladi. Bola bilan katta yoshli odam bevosita muloqotga kirishgan vaziyatda esa nutqiy muloqot yetakchi muloqot turiga aylanadi.

Bola hayotining uchinchi yiliga kelib nutq rivojlanishi ko'proq keng kamrovli vazifalar doirasida, eng avvalo katta yoshli yakin karindoshlari va bolalar bilan munosabatga kirishish hamda ular bilan birgalikda harakat qilish (nutqning kommunikativ vazifasi), atrof-olamni bilish (nutqning intellektual vazifasi) orkali davom etadi. Bola nutqiy muloqotning asosiy shaklini – dialogik nutqni o'zlashtiradi. U tashabbus ko'rsatib fikr bildirishni, savollar berishni, javob kutishni, o'zi ham savollarga javob berishni, atrofdagilarga iltimos va takliflar bilan murojaat qilishni o'rganadi.

Bola o'z istak-xohishlari, hissiyotlari, fikrlarini ifodalash, kutilayotgan natijalarga erishish uchun so'zlardan foydalanadi. Birok bola tomonidan foydalanilayotgan so'zlar fonetik jihatdan ancha nomukammal bo'lib, u keng kamrovli ma'nolarni anglatadi. So'z va predmetli harakatlarni ko'llash va ular bilan mos ravishda harakat qilish orkali katta yoshli odam bola bilan o'zaro bir-birini tushunishni va uning tilini boyitishni yo'lga ko'yadi.

Bola tashabbus ko'rsatish orkali muloqot sub'ekti, teng hukukli hamkor sifatida chikadi. O'zini tushunishlariga intilish, o'z istak-xohishlarining bajarilishiga erishish bolani to'g'ri so'zlashga majbur kiladi. Ushbu yoshda tengdoshlari bilan muloqotga kirirish emotsional aloka o'rnatish va o'z shaxsiga e'tiborni jalb qilishga yordam beradi: bolalar bir-birlari bilan o'ynash

jarayonida o’z harakatlarini nutq bilan sharhlab boradilar, ammo hozircha ular bir-biriga to’g’ridan-to’g’ri yuzlanib, murojaat kilmaydilar.

Bola hayotining uchinchi yiliga kelib bolaning til muhitidagi faol yo’naltiruvchi faoliyati boshlanadi. Bu quvonchhli kechinmalar ta’siri ostida vujudga keladigan tovushlar bilan turli o’yinlarda («shovkinli ko’shiklar») va oddiy so’z ijodkorligida («golf-molflar», «o’yin-po’yin» va boshk.) ko’rinadi.

Kulay shart-sharoitlarda muloqotning uchinchi yiliga kelib bola kattalar bilan muloqotda ko’rgazmali-taassurotli vaziyatga tayanmagan holda o’z tassurotlarini nutqda ifodalay boshlaydi. Bolalar o’zlari o’qib chiqqan kitoblari, tinglagan ertaklari va o’zlarining ilgarigi tajribalari haqida fikr bildira boshlaydilar.

Ilk yoshdagi bolalarga nutqni o’kitish jarayonida pedagogga (kattalarga) kanday metodik usullarni ko’llash tavsiya etiladi?

Ushbu savolga javob berar ekanmiz, biz shuni kayd etishimiz lozimki, Yuqorida ko’rsatib o’tilgan metodik usullar («ko’rsatib, nomini aytish», «yo’klama») bolalar hayotining ikkinchi yilida ham ular bilan ishlashda foydalanilishi lozim, birok ular bolalarning yosh xususiyatlariga karab o’zgartiriladi. 1 yoshu 4-5 oydjan keyin ko’p martalab takrorlash va ayni paytda ko’rsatish, maxsus mashђulot sifatida «ko’rsatib, nomini aytish»ni amalga oshirishning zarurati yo’k. Bu yoshga kelib bola kattalarga taklid qilishni ancha takomillashtiradi. U endi talaffuz uchun imkoni yetadigan so’zlar, bo’ђinlarni kattalarning ketidan yaxshi takrorlaydi, va shuning uchun unga «ayt», «takrorla» kabi so’zlarni tushunishni o’rgatish zarur. Bola ularni o’zlashtirib olishi uchun ushbu so’zlar ketidan uning talaffuz qilish uchun imkoni yetadigan so’zlarni bir necha marta takrorlash zarur, masalan, «koptok» so’zini ayt. Oradan biroz vakt o’tganidan keyin bola undan nimani talab qilishayotganini anglaydi va kattalarning ketidan takrorlay boshlaydi.

Bolaning «ayt», «takrorla» kabi so’zlarni tushunishi kattalarga bolaga turli tovushlar, bo’ђinlar, so’zlarning talaffuzini mashk kildirish imkonini beradi.

«Yo’klama» o’tkazishdagi kabi bola kattalarning ketidan ishtiyok bilan, kuvnok holda takrorlashi, bu mashkni kizikarli o’yin – odatga aylantirishi juda muhimdir. Agarda bolalarga buni ataylab o’rgatilmasa, katta yoshli odamning biron-bir narsani aytish haqidagi talabi salbiy munosabatni yuzaga keltiradi va bola jim turaveradi.

Ko’pincha katta yoshli odam bola iltimosini bajarayotganida boshka narsalar haqida ham so’zlayveradi, yoki uning iltimosini jimgina bajaradi. Bu katta metodik xato hisoblanadi. Bolaning iltimosiga shu tarika munosabat bildirish orkali kattalar uni nutqka o’rgatish uchun kulay imkoniyatni ko’ldan chikaradilar. Bolaga uning talaffuz qilishi uchun oson bo’lgan va iltimosni ifodalovchi so’zlarni so’zlarni ***aytib turish*** hamda bolada ***taklid*** yuz berishiga erishish uchun uni bir necha marta takrorlash zarur.

Ikkinchi yilning boshida so’zga harakatni ko’shish mumkin. Bola uni oson o’rganib oladi va shu bilan bir vaqtida aytib turilayotgan so’zni talaffuz kiladi. Masalan, bola koptokni kreslo ostiga dumalatib yuboradi va kattalarga yuzlanib, bakiradi. Katta yoshli odam: «Koptok yo’kmi?». «Yo’k…yo’k..» deb ayt. Ayni paytda katta yoshli odam ko’llarini salgina ikki tomonga yoyaadi. Bola bu harakatni takrorlaydi va «yo’k» deydi. Ushbu usulni ko’p marta takrorlaganidan so’ng bola shu kabi o’xshash vaziyatlarda bakirmasdan ana shu harakatlardan va zarur so’zlardan foydalanadi. Ushbu usul «zarur so’zni aytib turish» deb ataladi.

Bola nutqini hosil kiluvchi yangi usullarning paydo bo’lishi ikki yoshli bolalar bilan amaliy ishlarda «yo’klama»ning umuman keragi yo’kligini bildiradimi? Yo’k, uni nutqiy apparat rivoji uchun foydali bo’lgan kuvnok o’yin sifatida ko’llash mumkin va shart, birok shu bilan birgalikda iloji boricha yangi usullardan ko’proq foydalanish zarur. Agarda bola oson tovushlarni kiynalmasdan kattalar bilan birgalikda aytayotgan bo’lsa, bu holda biz uni «ayt» yoki «takrorla» so’zlari ma’nosini tushunishga undaymiz va bolaga nutqni mashk kildirishning yangi, yanada tejamli usulini ko’lga kiritamiz. Agarda bola o’z istak-xohishlarini imo-ishora yoki bakirik orkali ifodalagani holda kattalarga murojaat qilishni o’rganib olgan bo’lsa, bu holda biz unga «ber», «o’tir», «ko’yib yubor», «mumkin», «kerak emas», «mumkin emas» kabi yangi so’zlarni o’rgatamiz. «Ber» so’zini ko’llagan holda so’rashni bilish biron narsa talab qilib

bakirishga yo'l ko'ymaydi, bola uning o'rniga iltimosni ko'llaydi, va shuning uchun iloji boricha bolaga uni barvakt ko'llashni o'rgatish darkor. Bolalarning «mumkin» so'zini ko'llashlarining alohida ahamiyati haqida to'xtalib o'tamiz.

Ma'lumki, kattalar bolalar bilan qanchalik xushmuomala bo'lgani sayin bola ham shunchalik xushmuomala bo'lib boradi. Katta yoshli odam bolaning oldida yotgan o'yinchokni, garchi u bolaga kerak emasligini bilsa ham, so'ramasdan olmasligi lozim, buni «mumkinmi» degan so'z bilan osongina hal qilish mumkin. Bolalarga ham shuni o'rgatish lozim. Agarda bolani ogohlantirmasdan turib uning o'yinchoђini olishsa, unda salbiy munosabat (ko'z yoshlar, bakirik) yuzaga keladi. Agarda undan «mumkinmi?» deb ruxsat so'rashsa, u o'z ixtiyori bilan so'ralgan narsani beradi. Birinchi navbatda bolalarga zarur sharoitlarda aytib turish va o'z xulk-atvori bilan o'rnak ko'rsatish orkali hayotiy zarur so'zlarni (rahmat, bering, mumkin, mumkin emas, marhamat va boshk.) o'rgatish zarur.

Katta yoshli odamning bolaga iltimos yoki topshirik bilan murojaati ham uni nutqka undovchi «harakatga yo'llanma» usuli hisoblanadi. Bolalarga bir-biriga hamda kattalarga murojaat qilishni ko'proq o'rgatish zarur. Lekin hamma topshirik ham ushbu maksadga xizmat kilmaydi. Katta yoshli odam boladan biron-bir narsani olib kelib berish, olib borib ko'yish, yiђishtirib ko'yishni so'raganida bola bu topshiriklarni indamay bajaradi. Bunday topshiriklar bola kattalar nutqini tushunishni mashk kilayotgan ikkinchi yilning birinchi yarim yilligida katta ahamiyatga egadir. Bundan tashkari, yoshidan kat'iy nazar bu topshiriklar katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir, ammo ular boladan nutqiy faollikni talab kilmaydi. U so'zlay boshlashi uchun kattalarning murojaati har kanday iltimosdan iborat bo'lmasdan u birovga biron-bir narsani aytish, birovdan biron-bir narsani so'rashni ko'zda tutishi lozim. Katta yoshli odam bunday topshirik berish uchun ko'proq bahona topishi, ayni paytda ularni bola ishtiyok bilan bajaradigan qilib berishi lozim.

Bola o'yin bilan band bo'lganida, biron-bir narsani dikkat bilan ko'rib chikayotganida yoki biron-bir odam bilan suhbatlashayotganida unga topshirik berib bo'lmaydi. Bolalar faoliyatidagi bunday jihatlarga ularni ehtiyotsiz harakat tufayli to'xtatib ko'ymasdan ularni uzaytirish uchun juda ehtiyotkorlik bilan yondoshish zarur. Agarda bola undan nimani istashayotganini darhol tushunmasa, unga aytib turish, ba'zan esa o'sha topshirikni u bilan birga bajarish lozim.

Bola nutqini rivojlantirishda katta siljish beradigan usul uni savollarni tushunishga va ularning eng oddiylariga javob bera olishga tayyorlash hisoblanadi. Katta yoshli odam savol beradi, va bola aytib turilayotgan so'zni takrorlashi uchun dastlab unga o'zi javob beradi. Avvalboshda aynan bir vaziyatda aynan bitta savolni berish va unga aynan bitta javob qaytarish maksadga muvofikdir. Keyinchalik savollarni turli sharoitlarda berish orkali ularning xususiyatlarini o'zgartirib borish lozim.

O'z vaktida va yaxshi rivojlanayotgan bola ikki yoshga kelib «kayokka borayapsan?» degan savolni tushunadi va ko'p hollarda unga to'g'ri javob qaytaradi. Birok buning uchun undan doimo so'rab turish va Yuqorida bayon kilingan tizimga rioya kilgan holda javob qaytarishni o'rgatish darkor. Bunday yo'l bilan bolaga «Bu nima?», «Kim bu», «U nima kilayapti?» kabi boshka savollarga ham javob qaytarishni o'rgatish, o'z-o'zidan unda har doim nutq hosil qilish va uni murakkablashtirish mumkin. Bolalar bu savollarga fakat o'zlariga tanish bo'lgan, nomlarini ilgari suhbatda ko'llagan narsalar yoki harakatlar haqida ketayotgan bo'lsagina javob bera olishlari mumkin.

Bola bir so'z bilan javob berishni o'rganganidan so'ng, agarda unga vaktida «suv ber», «non ber» kabi so'zlar aytib turilsa, u asta-sekin 2-3 ta so'zdan iborat bo'lgan iborani o'zlashtirib oladi. Ibora tarkibiga kiradigan so'zlarni bola kattalar ortidan takrorlashi uchun ular bolaga ilgaridan tanish bo'lishi lozim.

Bolaga mikdorlarni tanishtirar ekan, katta yoshli odam katta-kichik, ko'p-kam so'zlarini o'rgatadi. Ikki o'yinchokni takkoslagani holda katta yoshli odam belgi so'zlarni ovozi bilan anik ajratgani holda quyidagi so'zlarni anik talaffuz kiladi: «Bu ***katta*** kubik, bu ***kichik*** kubik. ***Kichik*** kubikni stolga ko'y». Mikdorlarni takkoslashga oid mashђulotni o'tkazishda otlar nomida

kichraytiruvchi suffikslardan foydalangan ma’kul: mashina-mashinacha, koptok (katta), koptokcha (kichik), ayik (katta), ayikcha (kichik).

Ushbu yoshda bolalarga ranglarni ajratishni va ularning nomlarini tegishli so’zlar bilan aytishni o’rgatish muhimdir. Ammo gapda aniklovchi so’zga ega bo’lgan sifatga oid so’zlarni o’rgatishdan oldin albatta yo’l-yo’lakay kuzatuvni amalga oshirish zarur: paypoklar oppok, ko’ylak oppok, devor oppok, taglik oppok, kor oppok.

Boshka ranglar bilan ham ana shunday ishlarni bajarish lozim. SHundan keyin bolaga sifatlardan foydalangan holda gap tuzish oson bo’ladi.

Dastlabki paytlarda bola so’zlarni kelishtirishda kiynaladi. Birok, mashk qilish, ushbu iborani turli variantlarda qaytarish yo’li bilan u sifatlarni ot bilan to’g’ri kelishtirishni o’rganib oladi.

Sayr qilish bolaning kuzatuvchanligini, shuning okibatida fikrlashini va nutqini rivojlantirishda ancha yordam beradi. SHuning uchun sayrda bola bilan albatta gaplashish, unga u yoki bu narsani yoxud hodisani tushuntirish, shuningdek uni suhbatga chorlash kerak. Ba’zan, shunday bo’ladiki, nimani xohlayotganini ayta oladigan bola kattalarga iltimos bilan murojaat qilishda so’zdan emas, balki imo-ishora va ko’l harakatlaridan foydalanadi. Bunda unga so’zni aytishi uchun tegishli vaziyatni yaratish zarur. Katta yoshli odam (pedagog) o’zini tushunmaganga olishi va bolaga boshka narsani uzatishi bilan uni zarur so’zni aytishga majbur kiladi.

Bolalar nutqi, ayniksa ikkinchi yilning oxirida, kattalarning savollariga javob berib, ularga murojaat kilayotganlarida, biron-bir narsani so’z bilan ma’lum kilayotganlarida yoki hikoya kilayotganlarida o’zi bilan o’zi gaplashgandagiga qaraganda ancha xilma-xil bo’ladi. Lekin o’yin paytidagi bu suhbatdan ham nutqni mashk qilishdagi usullardan biri sifatida foydalanilishi lozim. Bolalar ko’proq o’yinchoqlar (ko’ђirchok, hayvonlar) bilan gaplashadilar: taxminan ular kattalar bolalar bilan o’ynaganlarida ko’llaydigan so’zlarni takrorlaydilar.

Barcha bolalar ham o’yin paytida ko’p gaplashadilarmi? Yo’k, ko’pincha indamay o’ynayotgan bolalarni kuzatishga to’g’ri keladi. Bu bolaning umumiy rivojlanish darajasiga va unga o’ynashni o’rgatishganiga, kanday o’rgatishganiga, kanday o’yinchoqlar berishiga bog’liq bo’ladi.

Nutq o’z vaktida rivojlanishi uchun ikkinchi yilda bolalar o’yinlarida hayvonlarni tasvirlovchi o’yinchok va ko’ђirchoklar katta o’rin egallashi lozim. Bolalarga nafakat ana shunday o’yinchoqlarni berish, balki ular bilan o’ynashni ham o’rgatish zarur. Odatda tegishli o’kitish ishlari amalga oshirilgan takdirda bolalar 1 yil – 1 yilu 3-4 oydan keyin o’yinchoqlar bilan turli harakatlarni bajaradilar: kattalarini kichiklariga joylaydilar, ochadilar, yopadilar, yumalatadilar, o’yinchoqlarni bir-biriga urib, takkilatadilar. Agarda ular o’z ixtiyoriga ko’yilsa ko’ђirchoklar va hayvonlar bilan xuddi ana shu tarzda o’ynaydilar: ularni sudraydilar, kutiga tashlaydilar, taxlaydilar, bir-biriga urib, takkilatadilar.

Bolalarga ko’ђirchokni kanday qilib ovkatlantirish, uxlatish, polda yurgazish, yuvintirish, sochlarini tarab ko’yishni o’rgatish zarur, chunki ularning o’zlarini kanday qilib yuvintirayotganliklari va ovkatlantirayotganliklarini ko’rib, ana shu harakatlarni kattalarning yordamisiz ko’ђirchoklarga ham ko’llay boshlaydilar, deb umid qilib bo’lmaydi. Bu yoshda bolalar asosan ularga ko’rsatilgan o’yinchoqlarga taklid kiladilar. Ko’ђirchok bilan amalga oshiriladigan, unchalik murakkab bo’lmagan o’yin namunalariga taklid qilish bolaning hayotda ko’rgan narsalarini o’yinga olib o’tish kobiliyati, ya’ni nisbatan murakkab bo’lgan aks ettiruvchi (syujetli) o’yinga o’tish qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi. Biz uchun ushbu holatda bolalarning ko’ђirchoklar va hayvonlar bilan o’ynash paytida juda ko’p so’zlay boshlashlari muhimdir. Ular o’zlari o’ynayotgan o’yinchoqlari nomlarini va ular bilan nimalar kilayotganliklarini aytadilar, nihoyat bolalar asta-sekin nutqni egallaganliklari holda o’yinchoqlarga murojaat qilishni va ular bilan so’zlashishni boshlaydilar.

Kattalarning ko’ђirchok bilan o’ynaganda odatda oddiy, kundalik hayotda tez-tez uchrab turadigan so’zlarni ko’llashlari ham juda muhimdir: «ko’rsat», «ovkatlanding», «uxla», «kiy», «cho’milamiz» va boshk. Bu bilan ular bolalarga ushbu so’zlardan foydalanishni o’rgatadilar.

SHuningdek, tanish narsalar tasvirlangan suratlar ham nutqni rivojlantirish uchun ajoyib material sifatida xizmat kiladi. Birinchi yilning oxiriga kelib bolalarni ayrim so'zlarni tushunishga tayyorlashda xonadagi narsalar va o'yinchoqlar bilan bir katorda suratlarda tasvirlangan odamlar, hayvonlar, bolalar, kundalik foydalanishdagi buyumlar, tabiat hodisalari nomini aytish zarur. Suratlarni tomosha qilishni doimo «Bu nima?», «Nima kilayapti?» kabi savollar bilan ko'shib olib borish, ya'ni bolani so'zlashga undash lozim.

Suratni ko'rar ekan, bola katta yoshli odam iltimosiga ko'ra tasvirlangan narsani ko'rsatadi va uning nomini aytadi. Suratlardan mustaqil ko'rib chikishda foydalanish ham mumkin. Dastlab bola katta yoshli odamning surat haqidagi izohlarini tinglaydi, so'ngra hamsuhbati kiziktirib ko'yganidan so'ng o'zi ham so'zlay boshlaydi, ko'p martalab takrorlashlardan keyin esa suratlar o'z-o'zidan bolaga suratni kattalar bilan birga tomosha qilishda ulardan eshitgan so'zlari, tovushlarini aytishni boshlash uchun signal bo'lib xizmat kiladi. Agarda bolaga kattalar bilan birgalikda surat tomosha qilish o'z vaktida o'rgatilmasa, u keyinchalik ham bunga kizikmasdan, lokayd bo'lib koladi, ularni indamasdan saralaydi hamda suratlarni ko'rib chikish va ular haqida fikr bildirish o'rniga ulardan o'yinchok sifatida foydalanadi.

Ilk yoshdagi bolalar uchun suratlardan tashkari kitoblardan ham foydalanish zarur. Odatda bolalar suratlarga qaraganda kitoblarni ishtiyok bilan tomosha kiladilar. Ushbu yoshda bolalarga kitobni o'qib berish emas, balki uning mazmunini aytib berish lozim, ammo ba'zi-ba'zida ularga kitob o'qilishini ko'rsatish maksadga muvofikdir. Bolalarning kitob o'kishga taklid qilishlari ham nutqning rivojlanishiga xizmat kiladi.

Bola nutqni mustaqil ravishda egallay olmaydi. Fakat ota-onalar va maktabgacha ta'lim muassasalarining bolaning nutqiy faoliyati tashkil etilishiga doimiy dikkat-e'tiborni karatishlari tufayligina uning nutqini rivojlantirishda ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Sanab o'tilgan barcha usullardan mohirona foydalanish bolalar nutqini o'z vaktida rivojlantirishga yordam beradi.

Yuqorida bayon kilinganlar asosida shunday xulosaga kelish mumkin: ilk yoshda bolalar nutqini rivojlantirish – murakkab ruhiy jarayondir.

**XULOSALAR:**

- Bola hayotining birinchi yilida uning nutqiy rivojida ulkan siljishlar ro'y beradi. Bu jadal borayotgan umumiy rivojlanish va ona tilining turli kirralarini o'zlashtirib olish bilan belgilanadi.
- ***Birinchi*** yilda ovoz munosabatlari, taklid va tushunish rivojlanadi, dastlabki so'zlar o'zlashtiriladi;
- ***Ikkinchi*** yilda – tushunish, taklid qilish, faol nutq rivojlanadi (asosan lug'at o'zlashtiriladi);
- ***Uchinchi*** yilda – tushunish, faol nutq: lug'at, grammatik shakllar, sintaktik tuzilmalar (turli gaplar) rivojlanadi.
- Birinchi yilning o'zidayok nutq ***muloqot*** vazifasini bajara boshlaydi va rivojlantiruvchi fikrlash kuroliga aylanadi.
- Nutqni rivojlantirish uchun bola tarbiyalanayotgan hayotiy vaziyat – unga karov, atrofdagi kattalarning munosabati, ularning tarbiyaviy ta'siri, shuningdek o'z faolligi (bolaning turli faoliyatdagi faolligi) katta ahamiyatga egadir.
- Dastlabki uch yilda nutq bolaning hayot faoliyati jarayonida: rejimli davrlarda, mustaqil o'yinda, maxsus uyushtirilgan mashђulotda shakllanadi.
- Bola nutqining o'z vaktida rivojlanishida unga nisbatan kattalarning munosabati muhim ahamiyatga egadir. Dikkat-e'tiborli, yaxshi munosabatga javoban bolada ijobiy hissiyotlar va turli xil munosabatlar rivojlanadi.
- Ta'sirni tarbiyalash doimiy ravishda amalga oshirilishi va bolaning butun asab-ruhiy rivojlanishining barcha tomonlariga yo'naltirilishi lozim. Fakat har tomonlama rivojlanish bo'lgandagina unda o'z vaktida nutq shakllanadi.

- Ilk yoshda ***muloqot*** tarbiyaviy ta’sir shakli hisoblanadi. Muloqot shakli va mazmuni bolaning rivojlanishiga karab o’zgarib boradi: emotsional muloqot; ularning ovoz intonatsiyasini tushunishlari asosidagi muloqot; mimika, imo-ishoralar, harakatlar, so’ngra kattalar nutqi; nutqiy muloqotning o’zi.
- Kichik bolalar bilan ishlashda kattalar nutqiga alohida talablar ko’yiladi. U taklid uchun namuna bo’lib xizmat kiladi, shuning uchun u har tomonlama namunali bo’lishi, ya’ni: grammatik to’g’ri, intonatsion ifodali, unchalik baland emas, unchalik tez ham emas, ko’p so’zli emas va anik bo’lishi zarur.

Nutqni ilk rivojlantirish ikki davrga bo’linadi: birinchisi – tayyorgarlik, ikkinchisi – mustaqil nutqni rasmiylashtirish**.**

***Tayyorgarlik*** davri bolalar nutqini kelgusida rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki aynan shu davrda tegishli poydevor yaratiladi. Uning negizida esa kelgusida bola nutqi kuriladi, muloqotga ehtiyoj shakllanadi, ovoz munosabatlari, nutqiy harakat (artikulyatsiya) apparati, fonematik tinglash kobiliyati, kattalar nutqini tushunish, so’zlarni eslab kolish va o’zlashtiralayotgan so’zlardan muloqot qilish maksadida erkin foydalanish rivojlanadi.

**NAZORAT SAVOLLARI:**

- Katta yoshli odamning go’dak bilan emotsional muloqoti nimani anglatadi? U kachon va nimalarda ifodalanadi?
- Kichkintoyning ko’l harakatlari uning nutqini rivojlantirishda kanday ahamiyatga ega? O’z javobingizni anik misollar yordamida asoslang.
- Nima uchun bola atrofidagi kattalar intonatsion ifodali nutqka ega bo’lishlari lozim? Uning kichkintoy nutqining rivojiga ta’sirini tavsiflab bering.
- Go’daklik yoshidagi bola nutqini o’z vaktida rivojlantirish uchun katta yoshli odam qaysii metodik usullardan foydalanishi zarur?
- «Gospitalizatsiya» kasalligi nimani anglatadi? U umuman bola rivojiga va uning nutqiga kanday ta’sir ko’rsatadi?
- «Ko’rsatib, nomini aytish» nomli metodik usulning bola nutqini o’z vaktida rivojlantirishda kimmati nimalardan iborat?
- «Yo’klama» nomli metodik usul nimani anglatadi? U qaysii nutqiy kobiliyatni rivojlantirishga yo’naltirilgan?
- Go’daklik yoshidagi bolaga qaysii maksadda xonada osuda sharoit yaratish zarur?
- Ilk yoshdagi bola rivojidagi asosiy jihat nima?
- Ushbu yosh bosqichida bola qaysii nutq shaklini o’zlashtiradi? O’z javobingizni anik misollar yordamida asoslang.
- Ilk yoshdagi bola nutqini rivojlantirish maksadida katta yoshli odam qaysii metodik usullardan foydalanmoђi lozim? Har bir usulni tavsiflang.
- Nima uchun ilk yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish murakkab ruhiy jarayon hisoblanadi?

## 8-MAVZU. RAVON NUTQNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

**Ravon nutq tushunchasi, uni rivojlantirish vazifalari**

**Bolalarga dialogik nutqni o’rgatish**

## Ravon nutq tushunchasi, uni rivojlantirish vazifalari

Ravon nutq – bu kishilarning muloqotini va o’zaro bir-birlarini tushunishlarini ta’minlovchi mazmunan keng yoyilgan fikrdir. Ravon nutqni fikrlar dunyosidan ajratib bo’lmaydi: ravon nutq bu fikrlar ravonligidir, unda bolaning mantikiy fikrlash, o’zi kabul kilayotganlarini mulohaza qilish va ularni to’g’ri ifodalash kobiliyati aks etadi. Ravon nutqni shakllantirish, uning vazifasini o’zgartirish murakkablashib borayotgan bola faoliyati okibati bo’lib, u bolaning atrofdagilar bilan muloqotga kirishish sharoiti, muloqot shakliga bog’liq bo’ladi. Maktabgacha yoshda u muloqot va ta’lim jarayonida shakllanadi. Ravon nutqning shakllanishi ilk yoshdan boshlab asta-sekin ro’y beradi.

Bolalar hayotining dastlabki yetti yilida atrofdagi kishilar bilan muloqot vositasi sifatida nutqning paydo bo’lishi va uni rivojlantirish jarayoniga alohida e’tibor karatish zarur.

Har bir kishi hayotida ravon nutq muhim ahamiyatga ega bo’lib, u uchta asosiy vazifani bajaradi: individuallararo, ichkiindividual va umuminsoniy. Nutq vazifasi uning ontogenezdagi hakikiy rivojlanish jarayoni bosqichini aks ettiradi, ularning har biri o’ziga xos xususiyatlarga egadir:

1-vazifasi – individuallararo – kishilar o’rtasidagi muloqot vositasidir. Ushbu holatda nutq og’zaki nutq – monolog, dialog, bir nechta odamlar suhbati sifatida chikadi.

2-vazifasi – ichkiindividual – bu yerda nutq ko’plab ruhiy jarayonlarni (fikrlash, dikkat-e’tibor, xotira, tasavvur va boshk.) anik-tinik anglash darajasiga ko’targani hamda shaxsga ruhiy jarayonlarni tartibga solish va nazorat qilish imkonini bergani holda ularni amalga oshirish vositasi bo’lib xizmat kiladi.

3-vazifasi – umuminsoniy – bu o’rinda nutq alohida bir odamga umuminsoniy ijtimoiy-tarixiy tajriba xazinasidan axborot olish imkonini beradi. Ushbu holatda – bu grafik ramzlar va belgilarda moddiylashtirilgan yozma nutqdir.

Nutqning shakllanishida va bolaning undan foydalanishida maktabgacha bosqichdagi turli davrlarda bolalarda o’zgarib turadigan kommunikativ tusdagi omillar hal kiluvchi ahamiyatga ega bo’ladi. Kommunikativ tusdagi omillar deganda muloqotni yo’lga ko’yishga, muloqotga ehtiyoj tuђilishiga ta’sir kiladigan omillar tushuniladi.

Dastlabki yetti yilda bolada kattalar bilan muloqotga ehtiyoj rivojlanishining 4 ta bosqichi ro’y beradi.

I – bosqich – vaziyatli-shaxsli muloqot (bola hayotining birinchi yarim yilida) – kattalarning dikkat-e’tiboriga va yaxshi muomalasiga bo’lgan ehtiyoj;

II – bosqich – vaziyatli-amaliy muloqot (6 oydan boshlab 2 yilu 6 oygacha) – kattalar bilan hamkorlikka va ularning ishtirokiga muhtojlik;

III – bosqich – vaziyatsiz - bilish muloqoti (2 yilu 6 oydan boshlab 4 yoshgacha) – kattalarning hurmat bilan munosabatda bo’lishlariga muhtojlik. U bolaning jismoniy olamdagi his kilinmaydigan o’zaro bog’liqliklarni aniklashga yo’naltirilgan bilish faoliyati doirasida vujudga keladi. Ushbu davrda bola kattalar bilan o’ziga xos «nazariy» hamkorlikka intiladi, u predmetli olamning hodisa va vokealarini birgalikda muhokama qilishda ifodalanadi.

IV – bosqich – vaziyatsiz-shaxsli muloqot (4 yoshdan 7 yoshgacha) – kattalar bilan o’zaro bir-birini tushunishga va kattalarning ђamxo’rlik ko’rsatishiga ehtiyojmandlik. Bu ehtiyoj bolaning insoniy munosabatlar olamiga kizikishi tufayli vujudga kelib, u bolaning munosabatlar koidalari va me’yorini o’zlashtirish bilan bog’liqdir. Bola kattalar bilan karashlar umumiyligiga erishishga intiladi va bu unga ulardan o’z hatti-harakatlarida ko’llanma sifatida foydalanish imkonini beradi.

SHunday qilib, nutqni rivojlantirish jarayoniga muloqot vositasi, ya’ni kommunikativ faoliyat sifatida karash kerak. Uning vujudga kelishi va rivojlanishi bolaning muloqot va umumiy hayot faoliyati ehtiyojlariga bog’liqdir.

Nutqka u bajaradigan tahlil vazifasidan kelib chikib yondashish nutqning eng avvalo bolaning atrofdagi odamlar bilan muloqot vositasi sifatida paydo bo’lishini tushunib yetishga

olib keladi. O’z-o’zidan, agarda bolaning muloqoti nutqka jon baђishlasa, uning rivojlanish sur’ati va muddati bolalarda muloqot faoliyati turli yosh bosqichlarida kanday yo’lga ko’yilganligi bilan bog’liqdir, ushbu vazifalarning paydo bo’lishi va rivojlanishi bolaning ong va erkinlikning yukori darajasiga qanchalik tez erishishi, bolaning unga turli sohalardagi bilimlarini rivojlantirish va takomillashtirish imkonini beradigan yozma nutqni kancha muddatda o’zlashtira olishiga bog’liqdir.

Matndan kelib chikadigan ravon nutqni shakllantirish, uning vazifalarini o’zgartirish bola faoliyatining murakkablashayotgani okibati bo’lib, u bolaning atrofdagilar bilan muloqoti mazmuni, sharti va shakllariga bog’liqdir. Nutq vazifasi fikrlashning rivojlanishi bilan parallel ravishda shakllanadi, ular bola til vositasida ifodalaydigan mazmun bilan uzluksiz ravishda bog’liq bo’ladi.

Bolalarda ravon nutqni rivojlantirish – bolalar bog’chasining asosiy vazifasi hisoblanadi, maktab yoshining nihoyasiga kelib bola kattalarga xos bo’lgan og’zaki nutqning asosiy shakllarini egallashi, ya’ni ravon nutqning ikki shakli – dialogik va monologik nutqni egallab olishi shart.

Bolalar bog’chasining vazifasi – bolalarda ravon so’zlashuv nutqi (dialogik nutq) va monologik nutqni rivojlantirishdan iborat. So’zlashuv nutqini shakllantirish vazifasi ko’p kirrali. Maktabgacha bosqichdagi kichik yoshli bolalarda ularga karatilgan nutqni tinglash va tushunish, bir-birini tinglash, savollarga javob berish va o’zi ham savollar berish, suhbat mavzusi bo’yicha izchil javob berish kobiliyati shakllanadi.

4 yoshdan boshlab bolalarga suhbatda ishtirok etishni, uzluk-yuluk fikrlardan nisbatan keng, izchil fikrlarga o’tish, savollar berishni o’rgatish zarur; 5-6 yoshli bolalar uzok davom etadigan maksadli suhbatlarga kodir bo’ladilar. Bolalarga ko’yilgan savollarga ularning mazmunidan kelib chiqqan holda kiska yoki keng qilib anik javob berish, suhbatdoshi so’zini bo’lmasdan dikkat bilan tinglash, ularning javoblarini to’ldirish, tuzatishlar kiritish, o’zlari ham savollar berishni o’rgatish zarur va h.k. Ayni paytda shaxsning nutqiy sifatlarini tarbiyalash – bolalarda kirishimlilik, xushmuomalalik, hushyorlik, bosiklik kabi sifatlarni shakllantirish; suhbat jarayonida nutqiy muloqot madaniyati ko’nikmalarini, tengdoshlar jamoasi oldida chikish kila olish kobiliyati va telefon orkali suhbatlashish madaniyatini tarbiyalash lozim.

Monologik nutqning ***o’quv*** vazifasi mustaqilligi, tugallanganligi, kismlari o’rtasida mantikiy alokasining mavjudligi bilan tavsiflanadigan ravon fikr bildirishni o’rgatishdan iboratdir, ya’ni bu –kisman (nutqiy) ko’nikmalar va ona tilida fikr bildirish uchun zarur bo’lgan murakkab kobiliyatlarni shakllantirish demakdir.

Ravon nutq ustidagi ishlarning asosiy ***rivojlantiruvchi*** vazifasi – bolalarning fikrlashini, o’z fikrini til vositalari yordamida anik ifodalash qobiliyatini rivojlantirish, nutqiy fikrlashga oid vazifalarni mustaqil ijodiy hal etish ko’nikmalarini shakllantirish, xotirani, tasavvurni faollashtirishdan iborat.

Vazifalarni muvaffakiyatli hal etish uchun pedagog o’ziga quyidagilarni anik tasavvur qilishi zarur: 1 - ravon nutqni rivojlantirish uchun asos bo’lib xizmat kiladigan til materiali; 2 - ushbu materialda shakllantirish mumkin bo’lgan nutqiy ko’nikmalar va mahoratlar umumiyligi; 3 - ushbu ko’nikmalarni «oddiydan murakkabga» tamoyili asosida mashk qilishning ketma-ketligi.

Monologik nutq hikoya qilishni o’rgatish jarayonida shakllanadi – bolalar og’zaki monologik nutqning ikki toifasini - qayta hikoya qilish va hikoya qilish, tavsiflovchi hikoyalar, bayon kiluvchi hikoyalar, isbotlovchi hikoyalarni o’zlashtirib oladilar.

Yuqorida kayd etilganidek, ravon nutqning ikki turi mavjud: dialogik (dialog) va monologik (monolog) nutq.

**Dialog** – ikki yoki bir necha kishining suhbati. Suhbat ***maksadi*** odatda biron narsa haqida so’rash va javob olish, biron-bir harakatga undashdan iborat.

**Monolog** – bir shaxsning ravon nutqi. Monologning ***maksadi*** – biron-bir fakt haqida xabar berishdir.

Dialog o’z uslubiga ko’ra asosan, og’zaki nutq, monolog esa odatda, kitobiy uslubdagi nutq hisoblanadi.

Dialogik ravon nutqda ko’pincha noto’lik gaplardan foydalaniladi, tushirib koldirilgan gap a’zolarini so’zlovchi nutq vaziyatidan kelib chikib tushunib oladi, va og’zaki uslubdagi, standart tuzilishdagi (kolip) to’lik gaplardan ko’proq foydalaniladi: «u kelmay ko’ya olmaydi» - ya’ni, u albatta keladi.

Bunday tuzilishdagi gaplar monologik nutqda ko’llanilmaydi. Bolalar dialogik nutqni har kuni maishiy hayotda uni uchratishlari sababli uni ancha oson o’zlashtirib oladilar.

Biron-bir narsani tavsiflashda, biron narsa haqida bayon qilishda yoki mulohaza yuritishda nutqning monologik shaklidan foydalaniladi. Nutqning ushbu ikki turlari o’rtasidagi fark matn ichidagi gapning mantikiy aloka turi bilan belgilanadi. Monolog doimo vaktli yoki sabab-okibatli alokada bo’ladigan (bir-biriga nisbatan) borlik faktlari haqida xabar kiladi.

Vaktinchalik aloka ikki tomonlama bo’lishi mumkin: faktlar hakikatdan ham bir vaqtidalik yoki ketma-ketlik munosabatlarida bo’lishi mumkin.

Bir vaktning o’zida mavjud bo’ladigan faktlar haqidagi xabarlar ***tavsif*** deb ataladi. Faktlar ketma-ket keladigan xabar ***bayon qilish*** deyiladi. Sabab-okibatli munosabatlarda bo’lgan faktlar haqidagi xabarlar esa ***mulohaza*** deb yuritiladi.

Bolalar monologik nutqni tushunib yetishlari va o’z xabarlarini uzatish maksadida uni o’zlashtirib olishlari uchun ular tegishli sintaktik tuzilmani o’zlashtirib olishlari lozim. Hamonki, bola oddiy keng tarkalgan gaplarni tuzishni o’rganib ololmas ekan, uning nutqi ravon bo’lishi mumkin. Okibatda – monologik nutqning turli toifalarini o’kitish – bu eng avvalo grammatika – sintaksisga o’kitishdir.

Bolalarga monologik nutqni o’kitish kiyin, chunki bolalar kundalik hayotda va kattalar nutqida ham monologik nutqni kamdan-kam hollarda eshitadilar: bolalar bilan so’zlashganda kattalar ko’pincha dialog shaklidan foydalanadilar.

Monologik nutqning dastlabki ko’nikmalarini maktabgacha bo’lgan davrda rivojlantirish lozim, chunki maktabda monologni o’kitishni boshlash uchun kech bo’ladi.

Bolalar bog’chasining pedagogi bolalarga monolog-tavsif, bayon qilish, mulohaza yuritishni o’rgatish uchun makbul didaktik material topishga harakat qilishi zarur.

Ilk yoshda bola ravon nutqni eshitadi. Dastlab bu unga nisbatan aytilgan lukmalar, so’ngra esa ertaklar, hikoyalar, kattalarning monologik nutqlari bo’ladi. Ravon nutqdan til elementlari – tovushlar, morfemalar, so’zlar, gaplarni ajratib olar ekan, bola ravon matnda har bir til elementining o’rnini eslab koladi, bu esa ilk yoshdan boshlab nutqdan oldingi mashklar boshlanadigan til sezgilarini rivojlantirish jarayonini tashkil etadi.

**Bolalarga dialogik nutqni o’rgatish**

Dialog – suhbat – bolaning kattalar va o’z tengdoshlari bilan muloqotining asosiy shakli hisoblanadi.

Bolalar bog’chasida o’kitish ikki shaklda amalga oshiriladi: a) erkin nutqiy muloqotda; b) maxsus Mashg’ulotlarda.

Dialog ko’proq erkin nutqiy muloqotda paydo bo’ladi va u bolalar lug’atini boyitishning talaffuzga oid grammatik ko’nikmalarini tabiiy ravishda rivojlantirish bazasi, ravon nutq ko’nikmalariga ega bo’lish bazasi hisoblanadi.

Dialog maxsus Mashg’ulotlarda o’kitiladi (oyiga 1-2 ta mashђulot); Bolalar bog’chasida bo’lib turgan vakti mobaynida bola erkin muloqotda pedagog va boshka bolalar bilan muloqotga kirishadi. Uyda esa kattalar bola turli mavzularda dialogga kirishishlari lozim.

Dialogik nutqni (yoki og’zaki nutqni) o’rgatish odatda suhbat shaklida, ya’ni kattalar bilan bola o’rtasida hamda bolalarning o’zlari o’rtasida fikr almashish shaklida ro’y beradi.

Agarda maktabda suhbat bilimlarni yetkazish vositasi sifatida ko'llanilsa, suhbat jarayonida bolalar nutqini boyitishda ko'shimcha ijobiy hodisa ko'rinishida kabul kilinadi, maktabgacha tarbiya muassasasida ham suhbat aynan nutqni rivojlantirish uchun o'tkaziladi. Birok, nutq albatta borlik hodisasini albatta aks ettirishi, kodlashtirishi bois bolalar bog'chasidagi suhbat xuddi maktabdagi kabi bilim beradi.

Suhbatlar mavzusi va mazmuni bolalarning yosh xususiyatlari hamda ularning nutqiy rivojlanish darajasini hisobga olgan holda «Bolalar bog'chasida tarbiyalash va ta'lim berish dasturi» bilan belgilanadi.

***Suhbat*** ta'lim metodikasi sifatida – bu tarbiyachining bolalar guruhi bilan (yoki alohida bir bola bilan) anik maksadga yo'naltirilgan, muayyan mavzuda oldindan tayyorlangan so'zlashuvidir. Bolalar bog'chasida takrorlovchi, umumlashtiruvchi va nazorat-tekshiruv suhbatlaridan foydalaniladi.

Takrorlovchi va umumlashtiruvchi suhbatlarda tarbiyachi turli usullar yordamida bolalarni ko'rgan narsalarni tahlil qilish, takkoslash, to'ldirish, chukurlashtirish usullarini o'rgatadi, bolalardagi mavjud bilimlarni tizimlashtiradi, ularni muyyan xulosalarga kelishga undaydi.

Nazorat-tekshiruv suhbatlari pedagog tomonidan biron-bir o'tilgan mavzu bo'yicha bolalarning bilimlarini aniklash uchun o'tkaziladi. Pedagog savollar yordamida bolalarning biron-bir mavzuni o'tish jarayonida olgan bilimlari darajasini aniklashi mumkin.

Bolalar bilan ishlash jarayonida pedagog tayyorlanmagan va tayyorlangan suhbatdan foydalanadi.

Tayyorlanmagan suhbat (buni fakat bolalarga nisbatangina ko'llash mumkin, chunki bolalar ular bilan nimalar haqida so'zlashishlarini, nimalarga dikkat-e'tiborlarini jalb qilishlarini bilmaydilar) rejimli jarayonlarni o'tkazishda, bolalar faoliyatining har xil turlarida: o'yinlarda, mehnatda tashkil etilishi mumkin. Tarbiyachi esa har kanday muloqot turiga tayyor turishi zarur. Zero, buning uchun u kasbiy ta'lim olgan, tarbiyachi olgan bilimlarining muhim kismlaridan birini bolalar bilan suhbatlashish tashkil etadi. SHuning uchun tarbiyachi bolalar bilan shunday so'zlashishi lozimki, toki u o'z nutqi bilan bolalarga ona tilini o'rgatsin.

Nutqiy muloqotga bo'lgan zarurat tufayli to'satdan yuzaga keladigan suhbatda tarbiyachi o'zining til sezgisiga ishongani holda o'n nutqining grammatik shaklini va uning jaranglashi (fonologiyasi)ni tayyorlamaydi, ammo u har bir suhbatga tayyorgarlik ko'rishi shart.

***Tayyorgarlik*** suhbati deb nomlanishining sababi shuki, bunda tarbiyachi mashђulotdan oldin (mashђulotdan bir necha kun oldin) bolalarni shunday vaziyatda koldiradiki, bunda ularning dikkat-e'tibori bo'lajak suhbat mavzusi bo'ladigan atrof-olamdagi hodisalarga jalb kilinadi, chunki faktlarga oid materiallar bolalarga bungacha tanish bo'lishi lozim.

Suhbatni tashkil qilish, uning tuzilmasi mavzu va mazmunga, bolalarning yoshiga bog'liq bo'ladi. Har bir suhbatda quyidagi tarkibiy komponentlarni ajratib ko'rsatish mumkin: 1) kirish (boshlash); 2) asosiy kism (suhbat mavzusini rivojlantirish); 3) nihoyasiga yetish.

**Kirish** maksadi bolalarning dikkat-e'tiborini suhbat mavzusiga jalb qilish, ularda suhbatda ishtirok etish xohishini paydo qilish, bolalar xotirasida ilgari olingan taassurotlarni, imkoni boricha obrazli va emotsional taassurotlarni jonlantirishdan iborat.

Tarbiyachi suhbatlashadigan narsa (hodisa) haqida taklif kilgan topishmok ham ***kirish*** bo'lishi mumkin. Suhbatni tegishli mavzudagi she'rni o'kish yoki suratlarni ko'rish bilan boshlash mumkin. Suhbat boshlanishida tarbiyachi bo'lajak suhbat mavzusini (maksadini) shakllantiradi, uning muhimligini asoslaydi, uni tanlash sabablarini bolalarga tushuntirib beradi.

***Asosiy kism*** maksadi – bolalar ko'rgan narsalarni esga olish, ko'shimcha bilimlarni tahlil qilish, ularni tushuntirish hisobiga chukurlashtirish, ko'shimcha bilimlarni ma'lum qilish, ularni bir tizimga keltirish va mustahkamlashdan iborat.

Suhbatning asosiy kismi mikromavzu yoki bosqichlarga ajratilishi mumkin. Har bir bosqich – bu mavzuni bo'ђin kismlari bo'yicha tahlil qilishdan iboratdir. Pedagog mashђulotga tayyorlanar ekan, barcha bosqichlarni belgilab olishi lozim.

Suhbat mavzusini rivojlantirish anik maksadga yo'naltirilgan bo'lishi lozim, tarbiyachi imkoni boricha bolalarning mazkur mavzudan chetga chikishlarining oldini olishi zarur (ba'zan ortikcha faktlarni aniklash uchun undan chekinish mumkin, birok so'ngra yana asosiy suhbat mavzusiga kaytish darkor). Tarbiyachi suhbat rejasini oldindan belgilab oladi. Tarbiyachining ko'lida reja bo'lsa, bolalar qanchalik mavzudan qanchalik chetga chikmasinlar, u ilgarigi savol o'z ahamiyatini yo'kotdi, deb hisoblagan paytda o'z rejasidagi navbatdagi savolni berish orkali ularni yana mavzuga qaytarishi mumkin.

Pedagog unutmasligi lozim, bolalarning fikrlash xususiyati shundayki, ular suhbat mavzusini oson unutadilar, har bir mayda-chuyda narsaga chalђiyveradilar. Bola kanchadik kichik bo'lsa, u shunchalik tezrok chalђiydi, hozirgina o'zi aytgan narsalarini tezlik bilan unutadi va boshka mavzuga o'tadi.

Mashђulot – suhbat bolalarda mantikiy fikrlash, boshlangan mavzuni oxiriga yetkazish qobiliyatini shakllantirishga karatilgan.

Bolalar biladigan narsalar haqida ko'shimcha ma'lumotlarni xabar qilish suhbat asosiy kismining zarur elementi hisoblanadi. Bu bolalar bilimlarini kengaytiradi va chukurlashtiradi. Tarbiyachining kiska va anik axboroti suhbatni anik maksadni ko'zlagan holda yo'lga ko'yish imkonini beradi. Suhbat topishmok, she'rlar va tarbiyachining tegishli suratga oid sharhlari bilan tugallanishi mumkin, ammo u ko'pincha pedagogning ushbu suhbatdan kelib chiqqan holda bolalarning axlok borasida o'rganishi lozim bo'lgan jihatlar haqidagi mantikiy xulosasi bilan yakunlanadi. Ayni paytda pedagog o'z xulosasida o'zi suhbat mobaynida bolalarga o'rgatishi lozim bo'lgan so'zlar, so'z shakllari va sintaktik tuzilmalarni ko'llashi lozim.

Suhbatni shunday uyushtirish lozimki, toki unda barcha bolalar ishtirok etsinlar. Agarda bola fakat tarbiyachining boshka bolalar bilan suhbatini tinglab o'tirsa va o'zi ushbu fikr bildirishlarda ishtirok etmasa, bu bola «suhbatlashishni» mashk kilmaydi, va uning suhbatdagi ishtiroki fakat nomigagina bo'ladi, xolos.

Suhbatni cheklangan sondagi bolalar (6-8 nafar bola) bilan o'tkazish maksadga muvofikdir. Agarda guruhda 25-30 ta bola bo'lsa, bu holda mashђulotni bolalarni uchta-to'rtta kichik guruhga bo'lgan holda o'tkazish zarur. Belgilangan vaqtidan oshib ketmaslik uchun har bir kichik guruh bilan suhbat davomiyligini kiskartirish mumkin, birok har bir bolaning nafakat tinglab o'tirishini, balki so'zlashishni mashk qilishiga ham erishish lozim. Pedagog yordam uchun ota-onalarni jalb qilishi va ularga tayyorgarlik suhbatini kanday olib borish lozimliga haqida batafsil ko'rsatmalar berish zarur. Ota-onalarning barchasi og'zaki nutqni yaxshi bilishlari bois ushbu vazifani bajara oladilar.

Dialogik ravon nutqni rivojlantirishga doir maxsus Mashg'ulotlar ***suhbat metodi*** (suhbat) va ***imitatsiya*** metodi asosida o'tkaziladi. Mazkur metodlar ko'pincha quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi:

- Tayyorgarlik suhbati (so'zlashish) usullari;
- Teatrlashtirish usullari (imitatsiya, qayta aytib berish).

***Tayyorlangan*** suhbatning quyidagi vazifalari mavjud:

- To'g'ridan-to'g'ri – bolalarni suhbatlashishga, ya'ni suhbatdoshi so'zlarini bo'lmasdan tinglash, lukma tashlash uchun kulay paytni kutgani holda o'zini tutib turish, suhbatdoshi uchun tushunarli qilib so'zlash;
- ***Yo'ldosh*** – talaffuz va grammatik ko'nikmalarni mashk qilish, ma'lum so'zlar ma'nosini aniklashtirish.

Suhbat jarayonida tarbiyachi savollar, topishmoklar, badiiy so'z kabi turli usullardan foydalanadi. Bu usullarning barchasi suhbat paytida bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yo'naltirish, nutqiy muloqotni ta'minlash, bolalar fikrlarini, ularning dikkat-e'tiborlarini, xotiralarini, emotsiyalarini faollashtirishga yordam beradi. Ammo suhbat olib borishning ye***takchi*** usuli ***savollar*** hisoblanadi. Bolalar bilan suhbatning muvaffakiyati va pedagogik samaradorligi ko'p jihatdan savollarning to'g'ri ko'yilishiga bog'liq bo'ladi. Savollar berish hamda uning javobining murakkabligi va kiyinligini asta-sekin kuchaytirib borishni bilish eng

asosiy va zarur pedagogik odatlardan biridir. Savol ko'yish bolalar oldiga ularning kuchi yetadigan darajadagi nutqiy-fikrlash vazifasini ko'yish demakdir. Ayni paytda u haddan tashkari osonlashtirib yuborilmasligi lozim, chunki bunday vazifani ko'yishdan maksad – bolalarni fikrlashga, eslashga undashdan iborat. Kanday fikrlash-nutqiy vazifalarini ko'yishiga karab, savollarni reproduktiv, kidiruv va muammoli savollarga ajratish mumkin.

Suhbatda ob'ektlar o'rtasidagi bog'liqlik haqida xulosa bildirishni, to'plangan bilimlardan, takkoslashlardan foydalanishni hamda Nima uchun? Nega? Nima tufayli? Ular nimasi bilan o'xshash? Nima uchun? Kanday qilib? kabi savollarga javob berishni talab kiluvchi kidiruv va muammo tusidagi savollar yetakchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Suhbatning har bir bosqichida savollarni taxminan quyidagi ketma-ketlikda joylashtirish zarur: dastlab bolalar tajribasini jonlantirish uchun ***reproduktiv***, keyin yangi materialni hazm qilish uchun oz sonli, birok murakkab bo'lgan ***kidiruv*** savollari va oxirida 1-2 umumlashtiruvchi savollar. Savollar anik va maksadli bo'lishi lozim. Noanik bo'lgan savollar bolalarga javob berishni kiyinlashtiradi – ular javob bera olmaydilar yoki noto'g'ri javob beradilar. Savol anik, shoshmasdan mantikiy urђular, mazmuniy pauzalarga rioya kilgan holda berilishi zarur. Bolaga javob qaytarishga vakt berish uchun tarbiyachi pauza saklab turadi. Agarda savol tez berilsa, bola uning mazmunini tushunishga ulgurmaydi va tarbiyachiga savolni bir necha marta takrorlashga to'g'ri keladi, bu esa bolaga javobni o'ylashda xalakit beradi, bolani tarbiyachiga kulok tutmaslikka o'rgatib ko'yadi. Bolani savolni birinchi martada kabul qilishni o'rgatish zarur.

Tarbiyachi suhbat jarayonida quyidagilarni amalga oshirish mumkin:

- Bolalar tomonidan o'zlashtirilmagan, ko'shma gaplar yoki bir turdagi a'zolardan iborat bo'lgan gaplarning ayrim sintaktik tuzilmalarini aytib turish;
- Gapning bolalar o'zlashtirmagan mazmunli bo'laklarining intonatsiyasini aytib berish (masalan, ogohlantirish, hayratlanish, tashvishga tushish, xursand bo'lish intonatsiyasi va h.k.);
- Bir o'zakli so'zlarni hosil qilishni aytib turish: suyuk – suyuklik, sabzavot – sabzavotli va boshk.
- Tuslanmaydigan fe'l shakllarini hosil qilishda yordam berish: sepish – sepilgan, ko'yish – ko'yilgan.

Suhbat jarayonida bolalarni savol berishga undash, ularning kizikuvchanligini rivojlantirish zarur. Bolaning savol bera olishga kodirligi uning fikrlash faoliyatidan dalolat beradi.

Badiiy asarlar – ertaklar, hikoyalar, she'rlarni ***teatrlashtirish*** usuli - bu bolalarning ularga tarbiyachi o'qib bergan asarlarni o'sha shaxslar nomidan qayta aytib berish usullaridir.

Boshka shaxslar nomidan qayta hikoya qilib berish uchun dialogik nutqni o'z ichiga olgan asarlardan foydalangan ma'kul. Ularni qayta hikoya qilib berish bolalarning og'zaki nutqini, xususan, murojaat, sanash, hayratlanish, hayron bo'lish intonatsiyalarini takomillashtirish imkonini beradi; nutq emotsional jihatdan yanada boyiydi – u personajlarning ahvolidan kelib chiqqan holda goh xursand, goh kayђuli va goh iltijonamo jaranglaydi.

Bolalarga og'zaki dialogik nutqni o'rgatish jarayonida teatrlashtirilgan tomosha, ko'ђirchok teatri kabi usullardan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda bolalar ham ijrochi va ham tomoshabin sifatida ishtirok etishlari mumkin.

***Sahnalashtirish o'yini*** – bu bolalarning badiiy asarni uning kahramonlari obrazlarida qayta hikoya qilib berishlari; bolalarning matnni erkin qayta aytib berishlari va bolalarning syujetli-rolli o'yinlaridir.

Syujetli-rolli o'yinlarda bolalarga birinchi navbatda, o'z nutqida ertak matnidan chetga chikishga ruxsat beriladi. Tarbiyachi ularni fakat grammatika yoki leksikada adabiy so'zlashuv nutqi me'yorlaridan chekingan hollardagina to'g'rilaydi; o'yin choђida fonetik xatoliklarga yo'l ko'yilganida uni to'g'rilash shart emas.

***Teatrlashtirilgan*** tomoshalar sahnalashtirish o'yinlaridan shunisi bilan farklanadiki, unda badiiy asar matnini yoddan biladigan bolalar ishtirok etadilar, ularning bu chikishdan ko'zlagan maksadi – o'z tinglovchi do'stlarining ko'nglini olishdir; bu tomoshada bolalar teatr kostyumlarida (maska kalpoklar va boshka kiyimlar) chikadilar.

***Ko'ђirchok*** teatri – bu syujetli rejissyorlik o'yining har xil turlaridir: bolalar bir vaktning o'zida oddiy o'yinchoqlar (o'yinchoqlar teatri), petrushkalar (ko'l barmoklariga kiyiladigan ko'ђirchoklar, suratlar kirkimlari va h.k.)ni asar kahramonlari rolini o'ynashga majbur kilganliklari holda badiiy asar matnini rollar bo'yicha so'zlaydilar.

Ko'ђirchok teatri shakli ko'yidagilardir: o'yinchoqlar teatri, petrushkalar teatri, «barmoklar» teatri, soyalar teatri, stol teatri, flanelegraf.

Bolalar nashriyotlari badiiy asarlarni sahnalashtirish uchun xalq ertaklariga siluetlar; teatr-kitoblar; panorama-kitoblar kabi turli ko'rinishdagi ko'rgazmali ko'llanmalarni chop etmokdalar.

Yuqorida sanab o'tilgan ko'ђirchok teatri turlari bolalar bog'chasida bolalar nutqini faollashtiruvchi metodik vositalar sifatida foydalaniladi: bolalar pedagog yordamida, katta guruhlarda esa o'zlari mustaqil ravishda ko'ђirchoklarga, kirkilgan suratlarga rejissyorlik kiladilar, ular nomidan ishtiyok bilan so'zlaydilar va shu tarika o'zlarining nutqiy ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

***Sahnalashtirish*** o'yini – maktabgacha yoshdagi har kanday bolaning teatrlashtirilgan chikishidir.

Bolalarning og'zaki nutq ko'nikmalarini o'zlashtirishining borishiga karab, ularning savollarga javoblari yanada anik, mulohazali va mazmunli bo'lib borishi lozim.

Suhbat jarayonida bolalar bilan so'zlashuvning jonliligi ko'p jihatdan og'zaki nutqka va nutqiy muloqotning savol-javob shakliga xos bo'lgan grammatik tuzilmalarining turlichaligi bilan bog'liqdir.

Suhbatlarda bolalar keng kamrovli fikr bildirishlari va bir-ikkita so'zdan iborat bo'lgan javob berishlari mumkin (Sizga park yokdimi? – Ha.). Bolalarni keng kamrovli javoblarga savollarni to'g'ri ko'yish orkali yo'naltirish zarur: «Bahorda ob-havo ko'proq kanday bo'ladi? Bu hakda aytib bering».

Bolaga mana bunday ko'rsatma berish mumkin: «kiska javob ber. Batafsil javob ber (ammo to'lik javob bilan emas)», ulardan so'rash mumkin: «Kim kiska javob bera oladi (yoki o'rtoђingizdan chiroylirok javob bera oladi)». Zarur holatlarda pedagog ko'yilgan savolga keng kamrovli javob namunasini namoyish qilishi mumkin.

Suhbat jarayonida bolalarda nutqiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirish zarur.

**XULOSALAR:**

- Ravon nutq – bu fikrlar tuguni bo'lib, unda bolaning mantikiy fikrlashi, uning kabul kilayotgan narsasini mulohaza qilib ko'rish va uni to'g'ri ifodalash kobiliyati aks etadi.
- nutq har bir kishi hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lib, u uchta asosiy vazifani bajaradi: individuallararo, ichkiindividual va umuminsoniy.
- Nutqning shakllanishida va bolaning undan foydalanishida bolalikning turli davrlarida o'zgarib turadigan kommunikativ tusdagi omillar hal kiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.
- Ravon nutqning ikki turini rivojlantirish – bolalar bog'chasining asosiy vazifasidir.
- Monologik nutqning har xil turlarini o'kitish – bu grammatika-sintaksisga o'kitishdir.
- Dialog erkin nutqiy muloqotda paydo bo'ladi va u bolalar lug'atini boyitishning talaffuzga oid grammatik ko'nikmalarini tabiiy ravishda rivojlantirish bazasi, ravon nutq ko'nikmalariga ega bo'lish bazasi hisoblanadi.
- Suhbat – bolalarga dialogik nutqni o'rgatishning asosiy metodlaridan biri hisoblanadi.

- Suhbatni uyushtirish, uning tuzilmasi mavzu, mazmun va bolalarning yoshiga bog'liq bo'ladi.
- Suhbatda ob'ektlar o'rtasidagi bog'liqlik haqida xulosa bildirishni, to'plangan bilimlardan, takkoslashlardan foydalanishni, asosiy narsani aniklab olishni talab kiluvchi kidiruv va muammo tusidagi savollar yetakchi ahamiyatga ega bo'ladi.
- Suhbatlarda bolalarning keng kamrovli va kiska javob berishlariga ruxsat etiladi.

**NAZORAT SAVOLLARI:**

- «Ravon nutq» tushunchasi nimani anglatadi?
- Nutq inson faoliyatida kanday vazifalarni bajaradi? Ularning har birini tavsiflang.
- Kommunikativ tusdagi omillar deganda nimani tushunish lozim?
- Monologik nutqni shakllantirishda nimalar o'quv va yo'ldosh vazifalar hisoblanadi?
- Tavsiflash, bayon qilish, mulohaza yuritishning nimaligini anik misollar orkali tavsiflab bering.
- Bolalarga dialogik nutqni o'kitishning asosiy metodini tavsiflab bering.
- Suhbatdan qaysii tarkibiy komponentlarni ajratib ko'rsatish mumkin?
- Dialogik ravon nutqni rivojlantirishga oid Mashg'ulotlarda pedagog qaysii asosiy metodlardan foydalanishi zarur?
- Tayyorlangan suhbat kanday vazifalarga ega bo'ladi?
- Reproduktiv va kidiruv savollari nimani anglatadi?
- Suhbat jarayonida pedagog bolalarga nimalarni aytib turishi mumkin va nima uchun?
- Badiiy asarlarni sahnalashtirish usullarini tavsiflab bering.

## IX – MAVZU. BOLALARGA MONOLOGIK NUTQNI O'RGATISH

**Turli yosh bosqichlarida monologik nutqni o'kitish ishining mazmuni va uning vazifalari.**

**Qayta hikoya qilishni o'rgatish metodikasi.**

**Hikoya qilib berishni o'rgatish. Hikoyalar turlari va ularni o'rgatishning izchilligi. Hikoya to'kishni o'rgatish.**

### Turli yosh bosqichlarida monologik nutqni o'kitish ishining mazmuni va uning vazifalari

Bolalarga monologik nutqni muntazam o'kitish taxminan ***besh yoshdan*** boshlanadi. Lekin bunga tayyorgarlik bola hayotining ***ikkinchi*** yilida - bolalarning o'kish va sanok she'rlarni yodlash jarayonida boshlanadi. To'rt yoshdan boshlab bolalar monologning ***tavsiflash*** va ***bayon qilish*** turlarini ko'llashga, yetti yoshdan boshlab esa – kiska ***mulohaza yuritishga*** kodir bo'ladilar.

Monologning kiyinligi shundaki, u dikkat-e'tiborini o'zi uchun ahamiyatli bo'lgan vokea yoki badiiy asarga karatgan boladan bir vaktning o'zida nafakat narsalar, hodisalarni paykash, balki ular o'rtasidagi bog'liqlikni ham sezishni talab kiladi. Bu bir vaktning o'zida fikrlash va nutqni rivojlantirish vositasi hisoblangan xotirani ham ishga solishga olib keladi.

Kattalar bolaga ђamxo'rlik ko'rsatib, monologlar uchun mavzu kidirish, bolalarni tinglash orkali bu mushkulotlarni yengib o'tishda ularga yordam beradilar.

Bolalarga monologik nutqni to’g’ri o’rgatish uchun pedagog maktabgacha bosqichdagi katta yoshli bolalarning yosh imkoniyatlarini yaxshi bilishi zarur. Ular nutqiy sohada nimasi bilan ajralib turadilar?

Maktabgacha yoshdagi katta bolalar nutqini rivojlantirishdagi asosiy natijalar muloqot sohasidagi chukur o’zgarishlar bilan bog’liqdir. Tengdoshlar bilan muloqot qilish birinchi o’ringa o’tadi. Bola o’z tengdoshini kattalardan afzal ko’ra boshlaydi. O’yin jarayonidagi o’rtog’iga karatilgan nutq kattalar bilan bo’lgan muloqotga qaraganda ancha mazmunlirok bo’la boshlaydi. SHerik bilan dialog - muvofiklashtirilgan predmetli va nutqiy faoliyat tusiga ega bo’ladi. Bolalar endi ko’shnilari e’tiborini jalb kila oladilar, o’zlari ham uning ishlari va bildirgan fikrlari bilan kizikadilar.

Maktabgacha yoshdagi katta bolalar nutqi vazifalar turlicha. Nutqdan atrofdagilar bilan aloka o’rnatishda, o’ziga, o’z ishlariga va kechinmalariga dikkatni jalb qilishda, bir-birini o’zaro tushunishda, sherik xulkiga, uning fikri va hissiyotlariga ta’sir ko’rsatishda, o’z faoliyatini tashkil etishda, o’yindagi o’z o’rtoђining harakatlarini muvofiklashtirishda foydalaniladi. Nutq atrof-muhit haqidagi muhim bilim manbai, tabiat, narsalar va odamlar dunyosi haqidagi tasavvurlarni kayd etish vositasi, bilish faoliyati vositasi bo’lib xizmat kiladi.

Maktabgacha yoshdagi katta bola uchun nutq ob’ektiv alokalarning o’ziga xos sohasi sifatida namoyon bo’ladi, u bularni so’z, tovush, kofiyalar va fikrlar bilan anglaydi.

O’zining amaliy, bilish va shaxsiy ehtiyojlarini kondirish uchun bola mavjud barcha vositalardan, vaziyatdan kelib chikib beixtiyor bildirilgan fikrlardan, nonutqiy vositalardan (imo-ishoralar, yuz ifodasi, harakat) va matnli nutqdan (foydalanilgan vositalar asosida tushunarli bo’lgan) foydalanadi.

Nutqning barcha turlari va shakllari til shaxsining takrorlanmas individual kiyofasini yaratgan holda o’zaro hamjihatlikda mavjud bo’ladi

Dialogni rivojlantirish nafakat shunchaki nutqning muayyan kompozitsion shaklini o’zlashtirish, balki bolaning ijtimoiy va shaxs jihatdan shakllanishining muhim tarkibiy kismi hisoblanadi. Dialogik muloqot nafakat aloka (intellektual axborot) va o’z manfaatlariga yo’nalishni, balki sherikning nuktai-nazarini, uning kizikishlari, istaklari, kayfiyatini hisobga olishni ham ko’zda tutadi. Dialogda nutqiy harakatlarni muvofiklashtirish bevosita o’z tengdoshini tushuna olish va uning nuktai-nazarini kabul qilishga bog’liq bo’ladi.

Bolalar bunday tajribani birgalikdagi faoliyatda: yasash, chizish, jamoa o’yinlarini o’ynash natijasida to’playdilar. Tengdoshlari bilan muloqot qilishda bola nutqi mazmundorlikdek (muloqot vaziyatidan kat’iy nazar mazmun fakat til vositalaridan foydalanish orkaligina tushunarli) sifatga ega bo’ladi.

Maktabgacha yoshdagi katta bolalarning dialogik muloqoti negizida nutqning yangi shakli – monolog tuђiladi va shakllanadi.U bolaning o’z fikrlari, his-tuyђulari, atrof-muhit haqidagi bilimlarini o’rtoklashish istagi okibatida vujudga keladi. Bunda nutq kiska hikoya shakliga ega bo’ladi. Hikoyada albatta, bolani lol koldirgan va uni hayajonga solgan biron-bir kizik hodisa (tabiat ko’ynidagi kizikarli uchrashuv, ukasning kulgili harakatlari va h.) aks etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar tanish ertaklarni, multfilmlar mazmunini aytib berishni, o’kiganlarini so’zlab berishni xush ko’radilar.

Maktabgacha yoshdagi katta bolalarning eng muhim yutuђi – jaranglayotgan nutqka kizikishning shidda bilan rivojlanishi, til faoliyatini eng oddiy anglashning shakllanishidir. So’zga nisbatan lingvistik munosabat dabdurustdan tovush, kofiya, mazmun bilan o’tkaziladigan o’yinlarda, so’z ahamiyati haqidagi savollarda, ularning jarangdorligi va mazmunida ko’rinadi. Til vokeligini anglash uning barcha tomonlarini – fonetik, leksik, grammatik tomonlarini kamrab oladi. So’zga nisbatan ongli munosabat lug’at takomillashtirishga (antonimlar, sinonimlar, ko’p ma’noli so’zlarni tushunish), nutqning tovush madaniyatini rivojlantirishga (tovush talaffuzi, tinglash kobiliyati, intonatsiya ifodaviyligi), nutqning grammatik to’g’riligini shakllantirishga (morfologiya, so’z yasash, sintaksis), ravon nutqni rivojlantirishga ta’sir ko’rsatadi.

***Lug’at*** rivojlantirishda uning sifat jihatidan takomillashtirilishi oldingi o’ringa chikadi. Bu antonimiya (o’tkir-o’tmas, achchik-chuchuk), sinonimiya (o’tkir, uchkir, charxlangan), ko’p

ma’nolilik (o’tkir pichok, achchik kalampir, o’tkir til) kabi hodisalarni tushunish va ulardan nutqda faol foydalanishga taalluklidir. Bolalar tabiat hodisalari, narsalar, insonlarning hatti-harakatlarini takkoslashda turlicha va umumiy xususiyatlarni ajratishni hamda aksil va yakin ma’noli so’zlar, kiyoslashlar, anik fe’llar, o’xshatishlar yordamida ularni nutqka olib kirishni o’rganadilar.

So’z yasashda sinonim yoki antonimni tanlab olish usullari bolalarni ko’p ma’noli so’zlar bilan tanishtiradi. Buyumlar funktsiyalarini takkoslash asosida umumlashtiruvchi nomlar shakllanadi (hayvonlar, mebel, transport va h.).

Nutqning ***tovush*** madaniyatini tarbiyalash ham til vokeligini eng oddiy tarzda anglashni shakllantirish bilan o’zaro bog’liqdir. Maktabgacha yoshdagi katta bolalar so’zlar, tovushlar, kofiyalar (pomidor-koridor) faol o’ynaydilar. Ular so’z jaranglashidagi umumiy va turlicha tovushlarni belgilay oladilar, artikulyatsiya yoki akustik jihatdan yakin tovushlarni (S-SH, S-Z, S-S) farklashga kodirlar, she’r, makol yoki tez aytishdagi 4-5 ta so’zda uchragan tovushlarni belgilay oladilar. Bolalar aralash tovushlardan iborat bo’lgan tez aytishlarni anik talaffuz qilishni mashk qilishni, ularni turli tezlikda, turli ohanglarda aytishni yoktiradilar.

Maktabgacha davrdagi katta yoshda nutqning ***grammatik*** jihatdan to’g’riligini shakllantirish nutqka nisbatan tankidiy munosabatning paydo bo’lganligi va rivojlanganligi, anik va to’g’ri gapirishga intilish bilan bog’liqdir. To’g’rilikka intilish grammatikaning barcha sohalarida, ya’ni – morfologiyada (shaklning anik shakllanishida, ko’p turdagi shakllarni o’zlashtirishda), so’z yasashda (non uchun - nondon, tuz uchun - tuzdon), sintaksisda (og’zaki nutq tuzilmasini bartaraf etish: «va» boђlovchisini ko’p marta ko’llash orkali gapni «cho’zish» hamda bir gapda to’g’ridan-to’g’ri va bilvosita nutqni aralashtirib yuborish) paydo bo’la boshlaydi. Nutqning grammatik to’g’riligiga intilish bola hayotining yettinchi yilida ro’y beradi. Besh yoshli bola hali ham ishtiyok bilan grammatik shakllarni o’ynaydi va aynan so’z bilan amalga oshirilayotgan ana shu sinovgina nutqning grammatik to’g’riligini yanada rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratadi.

Lug’at rivojlantirish, nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash, grammatik to’g’rilikni shakllantirish ravon nutq tuzish usullarini o’zlashtirish (boђlovchilar, o’rin-hol, leksik takrorlashlar, sinonimlar yordamida gaplarni boђlash vositalari; tavsiflash, bayon qilish tuzilmasi) bilan uzviy bog’liqdir. Ko’p turdagi vazifalarni bajarish munosabati bilan dialogik nutq negizida rivojlangani holda nutqning barcha jihatlari tilni anglashni shakllantirishga to’g’ridan-to’g’ri bog’liq holda bo’ladi hamda buning uchun bolaning katta bilan muayyan shakldagi muloqot turiga muhtoj bo’ladi. Bu nafakat tashki dunyo va boshka odamni anglashga, balki tilning o’zini, uning tuzilishi va faoliyat yuritishni anglashga ham yo’naltirilgandir.

Nutqiy rivojlanishning o’ziga xos xususiyatlari kirishuvchanlik ko’rinishlarida hamda ayni paytda til va ravon nutqni egallash sur’atida ifodalanadi.

Ko’pchilik bolalar o’z harakatlarini sharhlashni, atrofdagilar e’tiborini o’ziga jalb qilishni xush ko’radilar. Bunda ayrim bolalarda nutqiy muloqot amaliy faoliyat bilan zid keladi va buning natijasida bunday ko’p gapiruvchi bolakay ish bajarishda guruhdagi boshka bolalardan ortda kola boshlaydi. Unchalik kirishimli bo’lmagan bolalar kap so’zlaydilar, lekin odatda ular amaliy vazifalarni tez va to’g’ri hal etadilar.

Ravon nutqning paydo bo’lish muddati va mahsuldorligi ham fark qilishi mumkin. Ilk turdagi nutqiy rivojlanishda maxsus tayyorgarliksiz hikoya qilib berish 4-5 yoshdan boshlanadi. Bolalar sehrli ertaklarni, bo’lgan vokealarni bir-birlariga so’zlab beradilar, o’yinchoqlardan foydalangan holda o’ziga xos hikoyalar to’kiydilar. Agarda bola yetti yoshida tanish an’anaviy ertakni («Zumrad va Kimmat») mustaqil hikoya qilib bera olsa, o’yinchoqlar, suratlar asosida kichik og’zaki insho to’kiy olsa - bu hammasi me’yoridaligidan dalolatdir.

Ravon nutqni o’kitish vazifalari quyidagilardan iborat: Bolalarning o’z tashabbusiga ko’ra yoki kattalarning taklifiga ko’ra hikoya qilib berishga kizikishini ko’llab-kuvvatlash; ertaklar, suratlar va o’z shaxsiy tajribasiga oid taassurotlarning so’zdagi mazmunini kiska hikoya, mulohaza, tavsiflar yordamida ifodalashni o’rgatish.

## Qayta hikoya qilishni o’rgatish metodikasi

***Qayta hikoya qilib berish*** va ***hikoya to’kish*** monologga o’kitish ***metodi*** hisoblanadi. Bolalar monologik matnlarni qayta hikoya qilib beradilar, real va xayoliy vokealar haqida hikoya kiladilar, hikoyalar to’kiydilar.

Monologik nutqni o’kitish metodini o’zlashtirib olish pedagog uchun quyidagilarni anglatadi: bolalarni tinglashni o’rganish; qayta hikoya qilish va hikoya qilish, shuningdek hikoya to’kishda bolalarga yordamlashishni o’rganish.

Monologik nutq ustidagi ishlar har bir yosh guruhida eng avvalo matn hajmi va uning mazmunining murakkabligi bilan farklanadi (har ikkalasi ham bolalar bog’chasida tarbiyalash dasturi bilan belgilanadi).

So’zli obrazlarga tayanish barcha yosh guruhlarida monologni o’kitishning asosiy usuli hisoblanadi. Real narsalar va suratlarga tayanish - ko’shimcha usullardir.

Hikoya qilishni o’rgatishning ***vazifasi*** bolalarning og’zaki monologik nutqning qayta hikoya qilish, hikoya qilish, hikoya to’kish kabi turlarini o’zlashtirishlarini ta’minlashdan iboratdir.

***Qayta hikoya qilish*** – eshitilgan badiiy asarni ravon, ifodali aytib berish.

Qayta hikoya qilish nisbatan oson nutqiy faoliyatdir, chunki, bola tayyor mazmunni qayta aytib beradi, bunda u muallifning tayyor nutqiy shakllaridan (lug’at, so’z oborotlari, tuzilish), uni o’kiyotgan tarbiyachining nutq ifodaliligi usullaridan foydalanadi. Ammo bu mexanik ravishdagi takrorlash emas, balki matnni tushungani holda erkin va emotsional aytib berishdir. ***Qayta hikoya qilib berishni*** o’rgatish ***vazifasi*** ilk yosh guruhlarida asta-sekin kiyinlashtirilib boriladi – yaxshi tanish ertaklar, hikoyalarni aytib berish, yangi o’qib chikilgan asarlarni aytib berish, hikoyachi shaxsini o’zgartirgan holda (birinchi shaxs nomidan emas, balki uchinchi shaxs nomidan va aksincha) aytib berish, tarbiyachi rejasi asosida aytib berish, bolalar bilan birgalikda tuzilgan reja asosida aytib berish, o’xshashlik asosida (analogiya bo’yicha) aytib berish (kahramonni, mavsumni o’zgartirish va h.k.), sahnalashtirgan holda aytib berish (o’yinchoqlar siluetlar), bolalar tanlovi bo’yicha aytib berish. Hikoya qilib berish uchun quyidagilar matn sifatida xizmat qilishi mumkin:

- Maishiy tusdagi axborot, uni tarbiyachi har kuni erkin muloqot choђida bolalarga beradi, so’ngra bolalar uni bir-birlariga va oila a’zolariga so’zlab beradilar;
- Badiiy adabiyot matnlarini aytib berish, uni bolalar monologik nutqni o’rgatishga oid maxsus Mashg’ulotlarda aytib beradilar;
- Tarbiyachi bilan ishga kelishda yo’lda, do’konda, sayrda yuz bergan (yoki yuz berishi mumkin bo’lgan) turli xil vokealar uning axboroti mavzusi bo’lib xizmat qilishi mumkin. SHuningdek, bu insonni o’rab turgan jonzotlar, gullar, o’simliklar va hashorotlarga oid har kanday ko’rinishdagi bayonlar bo’lishi ham mumkin. Ushbu hikoyalar bayon qilish monologi, tavsiflash monologi shaklida bo’lishi lozim. Maktabgacha bosqichdagi katta yoshli bolalarga mo’ljallangan axborotlar esa mulohaza-monologlar bo’lishi lozim.

Har bir axborot o’zining didaktik vazifalariga ega:

-sof bilish tusidagi hikoyalar bolalarning dikkat e’tiborini biron-bir hodisaga jalb qilish va ayni paytda ularning leksikasini boyitish, ularga yangi grammatik, sintaktik shakllar berishga mo’ljallangan;

-axborot – bolalarga hikoya qilishni o’rgatish uchun maxsus didaktik material, ya’ni, monologik nutq namunasi bo’lib, u bolalarda nutqdan foydalanish qobiliyatini rivojlantirish, ularning leksik va grammatik ko’nikmalarini faollashtirishga mo’ljallangan.

Ushbu toifadagi monologlarga tarbiyachi fakat bolalarga tanish bo’lgan leksik va grammatik shakllarni kiritishi, ya’ni bolalar bilan fakat ularga tanish bo’lgan narsalar va hodisalar haqida so’zlashishi mumkin.

SHunday qilib, bolalar o’zlari uchun ancha kiyin bo’lgan monolog-nutq shaklini o’zlashtirib olmagunlaricha ana shunday qilish zarur.

Borlikning so’zli tasvirlari, hayotda ro’y bergan vokealarni pedagog do’stlar bilan so’zlashgandagi kabi ishonchli ohangda yoki aksincha, kuvnok, yumor bilan aytib berishi lozim, fakat shundagina tarbiyachining nutqi (axboroti) bolalarga kuchli ta’sir ko’rsatadi, va ular uni boshka bolalarga ham ishtiyok bilan so’zlab beradilar va shu bilan o’z nutqlarini yanada rivojlantiradilar. Pedagog ota-onalarga o’z farzandlarini bolalar bog’chalaridan olib ketayotganlarida yo’lda uning so’zlarini dikkat bilan tinglashni va bola aytib berayotgan hikoya mazmuni juda kizikarli ekanini ko’rsatishlarini tavsiya qilishi zarur. SHu tarika barcha bolalarning hikoya qilishlari natijasida nutqiy mashklar ham bajariladi.

Badiiy asarlarni hikoya qilib berishda bolalarga yordamlashish so’zli kabul qilish vositalari va asosan, turli xil savollar orkali amalga oshiriladi.

Savollarning quyidagi turlari mavjud. Monologik matnni hikoya qilib berishga yordam beruvchi savollar:

-birgalikda hikoya qilishga yo’naltiruvchi savol (iboradagi so’nggi so’zga ko’yilgan savol);

-aytib turuvchi savol;

-yo’naltiruvchi savol;

-to’g’ridan-to’g’ri savol;

-to’g’ridan-to’g’ri savollar zanjiri (reja);

-kidiruv savollari;

-ko’rsatma savollari.

Qayta hikoya qilib berishdan oldin bolalarga ushbu asar matni o’qib beriladi. Hayotining ikkinchi yilini boshdan kechirayotgan bolalar bilan o’tkazilayotgan Mashg’ulotlarda pedagogga birgalikda hikoya qilishga ***yo’naltiruvchi*** savollarni ko’llash, ya’ni iboradagi so’nggi so’zga savol ko’yish tavsiya etiladi: - Bir bor ekan, bir …. Bir… nima ekan? – yo’k ekan.

Ko’pincha pedagogga o’z savoliga o’zi javob berishga va bolaning ushbu javobni qaytarishiga erishishga to’g’ri keladi. Bolaning tarbiyachi aytayotgan iborani oxiriga yetkaza olishi uchun unga badiiy asarni necha marta o’kish kerakligi uning nutqiy rivojlanganligiga bog’liq bo’ladi.

Birinchi sanok she’rni bola taniy boshlashi, undagi ayrim so’zlarni yodda saklab kolishi uchun u sanok she’rni besh yoki o’n marta eshitishi mumkin. Birok bola bilan anik maksadni ko’zlagan holda ish olib borilsa, uning yoshiga mo’ljallangan ikkinchi sanok she’rni u birinchisidan ancha tez o’zlashtirib oladi.

Uch yoshli bolalarga hikoya qilishda yordamlashar ekan, tarbiyachi ***aytib turuvchi*** savollardan foydalanadi (Boђda mo’ylovli mushukcha yuribdi. Boђda nima yuribdi? Muylovli mushukcha boђda yuribdimi?).

Aytib turuvchi savollar asosida hikoya qilishni yana ***aks ettirilgan*** hikoya qilish deb ham atashadi. Ushbu usulning ***maksadi*** – bolalarning alohida so’zlarni takrorlashiga emas, balki badiiy asarning butun iboralarini takrorlashlariga erishish, ularga matnni erkin yodlab olishda ko’maklashishdan iborat.

Hayotining **to’rtinchi yilini** boshdan kechirayotgan bolalarga hikoya qilishda tarbiyachi hikoyani ***yo’naltiruvchi*** savollar, ba’zida esa ***aytib turuvchi*** savollar bilan osonlashtirgani holda to’g’ridan-to’g’ri savollar bilan yordam berib turadi.

Agarda she’r qayta aytib berilayotgan bo’lsa, bolalarning uning tez-tez ko’llaniladigan, oson esda saklab kolinadigan ayrim kismlarini yoddan bilganlari ma’kul. SHunda ular tarbiyachining savollariga she’rdan tsitatalar bilan javob berishlari mumkin, lekin bularni ular bilan oldindan kelishib olish lozim.

Nasriy asarlarni qayta aytib berishda ham bolalarning javoblari iloji boricha badiiy matnga yakin bo’lgani yaxshi. SHuning uchun tarbiyachining to’g’ridan-to’g’ri savollari bolalarga nafakat lug’atdan, balki matn sintaksisidan ham iloji boricha to’larok foydalanishda yordam berishi lozim. Agarda bolalar matnni unutib ko’ygan bo’lsalar, tarbiyachi uni aytib turadi.

To’rt yoshli bolalar tomonidan ***bayon qilish*** va ***tavsiflash*** tusidagi asarlarni hikoya qilishda ularga so’zli usullar orkali yordam ko’rsatish zarur. Bu yoshdagi bolalarga tavsiflash uchun ***mulohaza yuritishni*** bilish talab etiladigan asarlarni tanishtirish tavsiya kilinadi. Ular bilan tanishtirish, keyinrok esa qayta hikoya qilish uchun mustaqil mulohaza yuritishga tayyorgarlanish hisoblanadi. Bunday asarlarni hikoya qilishga o’rgatishda real obrazlarga tayanish lozim: so’zli usullarni didaktik o’yin yoki real narsalarni ko’rsatish bilan birgalikda amalga oshirish mumkin.

***Besh yoshli*** bolalarga ham tarbiyachi ***to’g’ridan-to’g’ri*** savollar berish orkali qayta hikoya qilishda yordamlashishi lozim, ammo ayni paytda u mavzuni rivojlantiruvchi savollar ***turkumi*** (zanjiri)ni berishi, ya’ni hikoya qilishning oddiy rejasini tuzishi darkor. Dastlab reja bor-yo’ђi 2-3 ta savoldan iborat bo’lishi mumkin. Keyinchalik esa, bolalarning vokealarni vakt bo’yicha izchillikda bayon qilish zaruratini o’zlashtirishlari(bayoniy matnlar), tavsifiy matnlarni hikoya qilib berishni o’rganishlariga karab, bayon mavzusi murakkablashtirilib borilishi lozim.

Birincha marta pedagog bolalar asar mohiyatini kabul qilishlari, undan estetik zavk olishlari uchun butun matnni o’qib beradi. Uni kismlari bo’yicha qayta aytib berish mumkin: tarbiyachi asarning tugallangan bir kismini o’qib beradi, so’ngra uning butun mazmunini kamrab olgan savollar turkumini beradi va bolalar ushbu parchani hikoya qilib beradilar. Ayni paytda tarbiyachi bolalarning nafakat so’zlarning to’g’ri aytishlari va gap tuzishlari, balki asarda ishtirok etayotgan shaxslarning suhbatlarini ifodali qilib aytishlarini nazorat qilib boradi.

Ushbu yoshdagi bolalarga asta-sekin ***kidiruv*** savollarini, ya’ni mulohaza yuritishga yordam beruvchi savollarni o’rgatish zarur. Odatda bu savollar so’rok so’zlaridan iborat bo’ladi, ya’ni: Nima uchun? Nega? Kanday? Kay tarzda? Nega endi?

Hayotning oltinchi va yettinchi yilini boshdan kechirayotgan bolalarga badiiy asarlarni hikoya qilib berishda pedagog yordamlashishi zarur, bunda u savolllarni nima uchun va nimani so’zlash zarurligi; narsalarni kanday tartibda tavsiflash va vokealarni kay tartibda bayon qilishni belgilab beruvchi ***ko’rsatma*** tusida berishi zarur.

Hikoya qilishni o’rgatishda pedagog bolalarning dialogik nutq bilan birgalikda asar kahramonlarining kechinmalariga mos ravishda ovoz ohangini o’zgartirishni o’rganishlari zarurligini unutmasligi lozim.

Bolalarning katta badiiy asarlarni butunlay hikoya qilib berishlari shart emas: hikoya qilib berish uchun ayrim lavhalarni, narsalar yoki vokealar tavsifini ajratib olish mumkin.

Agarda tarbiyachi maktabgacha bosqichdagi kichik yoshli bolalarga ahyon-ahyonda kidiruv savollarini bersa, yetti yoshli bolalar bilan ishlashda va ularga badiiy asarni nafakat aytib berishni, balki uning mazmunini tushungan holda mulohaza yuritishni o’rgatishda u bolalarga ko’proq shunday toifadagi savollarni berishi zarur, ayni paytda tarbiyachi to’g’ridan-to’g’ri, yo’naltiruvchi va hatto aytib turuvchi savollardan ham voz kechmasligi lozim.

## Hikoya qilishni o’rgatish. Hikoyalar turlari va ularning izchilligi. Hikoya to’kishni o’rgatish

***Hikoya*** – biron-bir fakt, vokeaning mustaqil tuzilgan keng kamrovli bayonidir.

Hikoya tuzish – hikoya qilib berishga nisbatan ancha murakkab faoliyatdir, chunki bolalarning o’zi ushbu mavzu bo’yicha hikoya mazmuni, uning nutqiy shaklini tanlashlari, uni ketma-ket (tarbiyachi yoki o’z rejasi asosida) bayon qilishlari zarur.

Hikoyalar shakliga ko’ra ***tavsifiy*** va ***syujetli*** bo’lishi mumkin.

***Tavsiflash*** – narsa yoki hodisaning o’ziga xos belgilarini bayon qilishdir. Tavsiflash kiska bo’lishi va muayyan tuzilma asosida tuzilishi lozim: dastlab narsaning nomi aytiladi, so’ngra uning o’ziga xos belgilari, uning kismlarining nimaga mo’ljallanganligi va ular o’rtasidagi o’zaro bog’liqlik hamda narsaning vazifasi bayon kilinadi. Tavsifiy hikoyalar ***kiyosiy*** (karama-karshi belgili hamda hajmi, rangi, materiali, kismlari, shakliga karab bosqichma-bosqich takkoslanadigan ikki narsani tavsiflash) va ***izohlovchi*** (mulohaza yuritish, isbotlash bilan birgalikda hikoya qilish va aytilayotgan harakatlarni bajarib ko’rsatish) bo’lishi mumkin.

***Syujetli*** (bayoniy) hikoya – vokealarni biron-bir kahramon bilan birgalikda vakt bo'yicha ketma-ketlikda aytishdir. Bolalarga uni odatdagi tuzilma asosida tuzishga o'rgatish zarur – dastlab kahramonning nomi aytiladi, ba'zan uning tashki ko'rinishi tavsiflanadi, birinchi vokea bayon kilinadi, u kachon va kaerda yuz berganligi tushuntiriladi, so'ngra ikki-uch lavha keltiriladi va hikoya yakunlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun hikoyalarning uchta turini ko'rsatish mumkin:

-kabul kilinishiga karab aytiladigan hikoyalar (bolaning hikoya paytida nimani ko'rayotganligi haqida hikoya);

-xotira asosida hikoya qilish (bola hikoya aytish paytida nimalarni kabul kilganligi haqida hikoya);

-tasavvur asosida hikoya qilish (o'ylab topilgan hikoya).

Kabul qilish va xotira asosidagi hikoyalar faktli materiallarga asoslangan bo'lib, bolalar faktlarni bayon kiladilar.

Tasavvurga asoslangan hikoyalar ijod mahsuli bo'lib, unda hikoyachi bola mavzuga karab o'z tajribasining shaklini o'zgartiradi hamda yangi vaziyat va obrazlar yaratadi.

Bitta mashђulotda bitta fikrda hikoyalar turlarining aralashib ketishiga yo'l ko'yish mumkin: bola o'yinchokni tavsiflab (kabul qilish asosidagi hikoya) bo'lganidan so'ng uni kaerda sotib olganligi yoki uni kanday qilib tuzatganini (xotira asosidagi hikoya) aytib berishi mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha hikoyalar turlari ta'lim maksadlaridan kelib chiqqan holda tavsiflash, bayon qilish yoki shunchaki mulohaza yuritish sifatida bajarilishi mumkin.

Bolalarni hikoya qilishga xuddi suhbatga tayyorlagandek tayyorlash lozim: bolalar hikoya predmetini butun hayotiy to'liklikda, sezgilari bilan birgalikda (hajmi, shakli, rangi, hidi, ta'mi, ovozi, harakat tusi va boshk.) o'ziga tasavvur qilishi zarur; narsaning barcha belgilarini, harakatlarini va ularning munosabatlarini aytish uchun bolalarda zahirada so'zlar, grammatik shakllar bo'lishi lozim. Hikoya qilishni mashk qilishdan oldin leksik, grammatik (zarur hollarda - fonetik) mashklar bajarilishi, shuningdek, suhbatlashishni mashk qilish zarur.

Hikoyaning maxsus vazifasi (qayta hikoya qilish vazifasi kabi) – monologik nutqni rivojlantirishdan iborat.

Tarbiyachi hikoya qilishni o'rgatishni savollar ***zanjiri*** yordamida, ya'ni bolaning bayon qilish, tavsiflash yoki mulohaza yuritishda mantikka amal qilishini ko'zda tutuvchi reja yordamida amalga oshiradi.

Hikoya rejasi ***oddiy*** bo'lishi, ya'ni bir chizikdagi savollar zanjiri shaklida yoki ***murakkab***, ya'ni keng tarmoklangan ko'shimcha (aytib turuvchi yoki fakat yo'naltiruvchi) savollar zanjiri shaklida bo'lishi mumkin.

Turli yosh guruhlaridagi bolalar bilan Mashg'ulotlar turlicha o'tkaziladi va ushbu Mashg'ulotlarda bolalarga ko'yiladigan talablar ham turlicha bo'ladi.

Hikoyaga oid Mashg'ulotlarda doimo tanikli she'rlar, ertaklar, makollar, topishmoklarni esga olish maksadga muvofikdir: bu bolalarning emotsional kayfiyatini ko'taradi va ularning hikoyalarini yanada ifodali kiladi.

Monologik nutqka oid Mashg'ulotlarni real ob'ektlarga (kuyoncha) tayanish usullari yordamida va real narsalarni eslash (farrosh mehnati haqida hikoya) asosida o'tkazish maksadga muvofikdir.

Bolalar suratlarga karab ***hikoya qilishni*** tegishli suratlarni (harakatlanadigan yoki harakatlanmaydigan) ko'rib chikish jarayonida o'rganadilar.

***Statik*** suratlar – bu ***tavsiflash*** uchun didaktik materiallardir: ularda tasvirlangan narsalar yoki harakatlar haqida hikoya qilish bir vakt rejimida olib boriladi.

***Harakatlanadigan*** suratlar – (bosmaxonada chop etilgan turkum suratlar, diafilmlar, diapozitivlar va boshk.) – ***bayon qilish uchun*** didaktik materiallardir: ularda tasvirlangan narsalar yoki harakatlar bir-biridan keyin keladigan vaziyatlardan iboratdir.

***Mulohaza*** yuritish uchun materialni har kanday surat berishi mumkin, fakat buning uchun «nima uchun?» ( u yoki bu vokea, harakat yuz berdi) yoki «kanday vaziyatda?» (narsa u yoki bu belgiga ega bo'ladimi-yo'kmi?) degan savol to'g'ri ko'yilsa bo'ldi.

Bolalar tarbiyasi mavzusiga oid statik suratlardan didaktik material sifatida foydalaniladi: ular oson kompozitsiyaga ega bo'lib, ularda ayrim ob'ektlarni ajratib ko'rsatish, ularning o'zaro munosabatini aniklash ham osondir («Biz o'ynayapmiz», «Uy hayvonlari», «YOvvoyi hayvonlar», «Yil fasllari» va boshk.).

Harakatlanadigan suratlar bilan ishlash metodikasi kitobning o'z shakli bilan belgilanadi. Bolalarga yaxshi tanish bo'lgan ertaklar va hikoyalarga ishlangan diafilmlar va diapozitivlar bolalarga monologik nutqni o'rgatish uchun ayniksa, juda kulaydir. Dastlab bolalar ularni ko'p marta tomosha kiladilar, uning titrlari o'qib chikiladi (pedagog yoki ota-ona tomonidan), so'ngra titrlarni o'kishdan bolalarning kadrlarda tasvirlangan lavhalarni hikoya qilib berishiga o'tiladi.

Monologni o'kitish jarayoni (bayon qilish, tavsiflash, mulohaza yuritish) shundan iboratki, tarbiyachi o'z rejasi (savollar zanjiri) asosida birinchidan, bolaga mavzudan chikib ketmaslikka, vokealarni ***mantikiy*** ketma-ketlikda bayon qilishga yordam beradi, ikkinchidan, hikoyachi nutqining emotsional ifodaliligi haqida kayђuradi va ushbu mavzu uchun mos keladigan she'rlar, ertaklar, topishmoklar, yozuvchilar hikoyalari parchalarini taklif kiladi.

Bolalarning tasavvur asosidagi ***og'zaki to'kima*** hikoyalari monologik nutq turlaridan biri hisoblanadi. Xayolparast bolalar suratlarning boshlanishi yoki nihoyasini ishtiyok bilan o'ylab topadilar, ya'ni suratlarda tasvirlangan vokealardan oldin yuz berishi mumkin bo'lgan vokealarni yoki suratda tasvirlangan vokealardan keyin yuz berishi mumkin bo'lgan vokealarni o'zlari to'kiydilar; tanish ertaklar yoki hikoyalar mavzusida ***kontaminatsiya***[8] tuzadilar, kahramon nomidan (1-shaxs nomidan hikoya qilish) hikoya kiladilar, unda yil faslini o'zgartiradilar va h.k.; o'zlari ertak hamda hikoyalar to'kiydilar.

Bolalar ijodlarini quyidagi tarzda tasniflash mumkin:

-suratlar asosida ijodiy to'kima;

-badiiy asarlar mavzusidagi kontaminatsiyalar;

-ertaklar hikoyalarni erkin to'kish.

Surat asosida ijodiy to'kishni maktabgacha bosqichdagi katta yoshli bolalar bilan amalga oshirish tavsiya etiladi. Hikoya suratda tasvirlangan har kanday narsa haqida bo'lishi mumkin.

Badiiy asarlar mavzusidagi kontaminatsiyalar. Bolalar katta ishtiyok bilan o'zlarini o'z sevimli kahramoni (kahramonlari) tushib kolgan vaziyatlarga ko'yib ko'radilar, uning harakatlarini o'zlashtiradilar, muallifni «tuzatadilar», asar kahramonlarining muayyan vaziyatlardagi sarguzashtlarini ijodiy jihatdan qayta hazm kiladilar. Bolalarning ushbu xususiyatidan eng avvalo, ularda olijanob xarakter kirralarini tarbiyalashda foydalanish zarur. Nutqni rivojlantirish uchun – monologni o'rgatish: tarbiyachi yoki ota-onalardan birontasining iltimosi bilan rağbatlantirilgan bolalar ishtiyok bilan xayol sura boshlaydilar, o'zlarini badiiy asarning biron-bir kahramoni (ijobiy yoki salbiy) sifatida tasavvur kiladilar.

YAxshilik va go'zallikka karama-karshi ko'yilgan ertakdagi hamda real hayotdagi yomonlik va badbasharalik obrazlari ham tarbiyaviy jihatdan muhim ahamiyatga egadir.

Hikoya to'kish – kombinatsiyani o'rgatish metodikasi quyidagicha: bolaga ertak yoki hikoyaning muayyan lavhasini bu xuddi uning o'zi bilan yuz bergani kabi o'z nomidan aytib berish taklif kilinadi. Pedagog «to'kish»ning borishini hamdardlik bilan kuzatib boradi, o'zini bolaning har bir so'ziga ishonayotgandek qilib ko'rsatadi, ayni paytda bolaning nutqini kuzatib boradi, uning nutqidagi kamchiliklarni unga xalakit bermasdan tuzatib boradi. Asarni tanlashda pedagog uning bola asar kahramonlarining ijobiy xususiyatlaridan namuna oladigan darajada munosib bo'lishiga alohida e'tibor karatishi lozim. Zero, ushbu yoshda bolaning o'rganganlari butun umrga muhrlanib koladi.

Erkin to'kish shundan iboratki, bunda bolaga ertak yoki «bo'lishi mumkin bo'lmagan» loflarni to'kish uchun to'lik erkinlik beriladi. To'kishga ataylab o'rgatilmaydi, ammo erkin (mustaqil) ijod qilish kobiliyati bolalar bog'chasida va uyda bola nutqini rivojlantirish ishlarining

[8] Контаминация (лотинча Contaminatio – тњлънашиш, њрнини алмаштириш; матн усули, бир асарнинг турли таќрирдаги љисмларини бирлаштириш), КСЭ, 622-бет, 4-нашри, М., 1987.

butun tizimi doirasida tarbiyalab boriladi. Bola nutqiy jihatdan qanchalik yaxshi tayyorlangan bo'lsa, undagi tasavvur va ijodiy kobiliyat shunchalik yaxshi rivojlanadi.

Leksikasi boy, grammatik to'g'ri bo'lgan, eng asosiysi – mantikiy va ifodali mustaqil ijod qilish olti-etti yoshli bolalarning ko'lidan keladi. Bungacha ularning to'kimalari – o'zlariga tanish bo'lgan badiiy asarlarning mantikiy jihatdan bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan so'zlar to'plamidan iborat bo'ladi.

Kichik yoshdagi bolalarning hikoya to'kishga kodir emasliklarini me'yordan chekinish, deb hisoblamaslik lozim. Bu tabiiy bo'lib, bolalarning nutqi va fikrlash darajasi hali hikoya to'kish uchun yetarli emasligi bilan izohlanadi.

Qayta hikoya qilishni mashk qilish hikoya to'kish borasidagi tayyorgarlik ishi hisoblanadi.

Ravon nutqni (hikoya qilishni) rivojlantirishning asosiy sharti kattalar va bolaning birgalikdagi so'z ijodkorligi hisoblanadi. Yuqorida kayd etilganidek, hatto besh yoshli bolalar ham tanish ertaklarni, to'kima vokealarni hikoya qilishga, o'z shaxsiy tajribasidan kelib chikib hikoya qilishga kizika boshlaydilar. Katta odam yo'naltiruvchi va aniklashtiruvchi savollar berish, o'zining kizikayotganligini bildirish, o'yin vaziyatlarini hosil qilish (o'yinchoqlar, rasmlar to'plami, ko'ђirchok teatrli kahramonlari yordamida) bola tashabbusini ko'llab-kuvvatlashi zarur. Pedagogning hikoya mavzusini, vokealar rivojini, vokelarning ehtimoliy yakunini, so'z shaklini aytib berishi birgalikdagi so'z ijodkorligi uchun katta ahamiyatga egadir. Birgalikda hikoya qilib berish dastlab dialog ko'rinishiga ega bo'ladi, bunda katta odam savol beradi, bola javob beradi, katta odam gapni boshlaydi, bola esa uni nihoyasiga yetkazadi. Bunday dialogdan nutq – monolog tuђiladi. Keyinchalik bola monologi asosida bolalarning birgalikdagi ijodkorligi boshlanadi, u kattaning bolaning bilan dialogi shaklini takrorlaydi. Birgalikda hikoya qilish uchun yaxshi asos rasmlar turkumi bilan ishlashda, rollarga bo'linib hikoya qilib berishda, o'yin-sahnalashtirishlarda yaratiladi.

Maktabgacha davrdagi katta yosh – bolaning nutqni o'rganishga kizђin kirishish, til vokeligini eng oddiy tarzda anglash davridir. Maktabgacha yoshdagi bolaning til sohasidagi boy tajribasi, anik, obrazli so'zda ifodalangan yorkin taassurotlari, kechinmalari uning til va nutq sohasidagi mustaqil faoliyatining muhim shartidir.

Muammoli nutq holatlari fonetik, lekski va grammatik mazmundagi turli so'zli didaktik o'yinlarda modellashtiriladi. SHuning uchun bolalar bog'chasida didaktik o'yinlarni tashkil qilishni bolalarda so'zga nisbatan lingvistik munosabatni rivojlantirishning asosiy sharti sifatida ko'rib chikish mumkin.

Leksik mazmundagi o'yinlar va mashklar nutqning mazmun jihatini rivojlantirishning zarur sharti hisoblanadi. Ularda turli buyumlar va ob'ektlarni kiyoslash, ularning turli umumiy xususiyatlari va vazifalarini ajratish muhim ahamiyatga egadir.

Real ob'ektlar (o'yinchoqlar, rasmlar, kiyimlar, mebellar va h.) ham va tasavvur kilinadigan vaziyatlar (kuvnok va ma'yus ayikcha, ertagi va kechki ob-havo, kahramonning vokea boshidagi va uning yakunidagi kayfiyati) ham takkoslanishi mumkin. Hikoyani boshlashdan oldingi lug'at mashklari bolalar ravon nutqining anik va obrazli so'zlar hamda iboralar bilan boyitilishiga yordam beradi.

Turli toifadagi so'zli o'yinlar, mashklar, muammoli vaziyatlarning o'zaro bog'liqligi, ularning asta-sekin murakkablashuvi, muammoli nutq vazifalarini muntazam ravishda ko'yib borish -to'lakonli nutqiy rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Bolalar tili va ularning ravon nutqini rivojlantirishga doir doimiy ishlarning makbul shakli maxsus nutq Mashg'ulotlari hisoblanadi, unda nutqni rivojlantirishga oid vazifalar yalpi tarzda va o'zaro bog'liqlikda hal etiladi.

**XULOSALAR:**

- Monologik nutqni kabul qilishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'kitish bola hayotining ikkinchi yilida – o'kish va kichik folklor namunalarini o'rganish jarayonida olib borilishi lozim.

- Bolalarga monologik nutqni muntazam ravishda o’kitishni besh yoshdan boshlash zarur.
- Bolalarga monologik nutqni to’g’ri o’rgatish uchun pedagog bolalarning yosh imkoniyatlarini bilishi lozim.
- Qayta hikoya qilish va hikoya to’kish – bu bolalarga monologik nutqni o’rgatishning asosiy metodlari hisoblanadi.
- So’zli obrazlarga tayanish barcha yosh guruhlarida monologni o’kitishning asosiy usullari hisoblanadi. Real narsalar va suratlarga tayanish esa – ko’shimcha usullardir.
- Monologik nutq ustidagi ishlar har bir yosh guruhida matnning murakkabligi va uning hajmi bilan farklanadi.
- Bolalarning og’zaki monologik nutqning har xil turlarini: qayta hikoya qilish, hikoya qilish, hikoya to’kishni o’zlashtirib olishlari hikoya qilishni o’rgatish vazifasi hisoblanadi.
- Maktabgacha bosqichdagi katta yosh - bolaning nutqka nisbatan oddiy bilish kizikuvchanligi paydo bo’lishi, til borliђini oddiy anglash davridir.
- Turli toifadagi so’zli o’yinlar, mashklar, muammoli nutqiy vazifalarning muntazam ravishda ko’yib borilishi - to’lakonli nutqiy rivojlantirishning muhim shartlari hisoblanadi.
- Nutqiy Mashg’ulotlar - bolalarning ravon nutqini rivojlantirishga doir muntazam ishlarning asosiy shaklidir.

**NAZORAT SAVOLLARI:**

- Bolalarga monologik nutqni o’rgatishga qaysii yoshdan boshlab tayyorgarlik ko’rish lozim?
- Monologning bola uchun kiyinligi sababi nimada?
- Maktabgacha bosqichdagi katta yoshli bolalarning nutqiy imkoniyatlari xususiyatlari nimalardan iborat?
- Maktabgacha bosqichdagi katta yoshli bola nutqi vazifalarining turli-tumanligini anik misollar orkali tavsiflang.
- Maktabgacha bosqichdagi katta yoshli bolalar nutqini rivojlantirishning o’ziga xos xususiyatlari nimalarda ko’rinadi?
- Monologik matnni qayta hikoya qilishda yordam beradigan savollar toifalarini tavsiflang.
- Kabul qilish, xotira va tasavvur asosida qayta hikoya qilishni anik misollar orkali tushuntirib bering.
- Real ob’ektlarga tayanish usullarini tavsiflab bering.
- Bolalar to’kimalarini tasniflang va ularni tavsiflang.
- Nutqni mazmun jihatdan rivojlantirishning asosiy shartlarini tavsiflab bering.

## X-MAVZU. LUG’AT RIVOJLANTIRISH METODIKASI

**Lug’at ishlari mohiyati, mazmuni va vazifalari**

**Lug’at ishining metod va usullari**

**Bolalarda lug’at shakllantirishga doir Mashg’ulotlar turlari**

### Lug’at ishlari mohiyati, mazmuni va vazifalari

Bolalar bog’chasidagi lug’at ishlarining mohiyati – bu til leksikasi sohasida bolalarning ularga tanish yoki notanish bo’lgan, ammo ular uchun kiyin hisoblangan so’zlarning o’zlashtirishlariga, nutq madaniyatini oshirishga karatilgan o’quv-tarbiya ishlarini bir tizimga keltirishdan iboratdir. Bolalarni ular o’z amaliyotida kiyinchilik bilan o’zlashtiradigan, to’satdan yoki umuman tanimaydigan, buzilgan shaklda talaffuz kiladigan so’zlar bilan kurollantirish ancha pedagogik sa’y-harakatlarni talab kiladi. Psixologiya, lingvistika, fiziologiyaga oid ma’lumotlar turli yosh bosqichlaridagi bolalar uchun ana shunday so’zlar doirasini aniklashga yordam beradi.

Bolalar lug’atini boyitish bir vaktning o’zida ularni atrofdagi borlik olam bilan tanishtirish bilan birgalikda olib boriladi. Tarbiyachi bolaga bir so’zni ma’lum qilish va uning ma’nosini ochib berish bilan bir vaqtida uni nomi aytilayotgan narsa yoki hodisaga nisbatan to’g’ri munosabatda bo’lishni o’rgatadi.

Lug’at ishlarini o’tkazishda tarbiyachi bolaning umumiy nutq madaniyatiga ta’sir kiladi, unga umumiy ravishda kabul kilingan adabiy so’zlar va ifodalarni ma’lum kiladi, ularni to’g’ri tovush va grammatik shaklda ifoda kiladi, bunda u bolalarda uchraydigan sheva leksikasini bartaraf kiladi (ta’kiklaydi), ularni adabiy me’yorlar bilan almashtiradi.

«Lug’at egallash» atamasi – bu nafakat so’zni o’zlashtirish, uni tushunish, balki uni albatta ko’llash, nutqiy faoliyatda foydalanish demakdir.

Insonning yukori nutq madaniyati, lug’atining boyligi haqida u «eshitilgan», insonning jonli nutqini bezab turgan takdirdagina so’z yuritish mumkin.

Lug’at ishidagi asosiy jihat – bu fakat bolalarga yangi so’zni tanishtirish emas, balki ularni faol nutqka kiritishir.

Bolalar bog’chasidagi lug’at ishi – bu bolalarning faol lug’atini notanish yoki ular uchun kiyin bo’lgan so’zlar bilan reja asosida boyitib borishdan iboratdir.

Rus tili lug’ati to’xtovsiz tarixiy rivojlanish jarayonida bo’ladi. Undagi o’zgarishlar eng avvalo insonning ishlab chikarish faoliyati, jamiyatning rivojlanishi bilan bog’liqdir. YAngi narsalar va hodisalarning paydo bo’lishi bilan ularni nomlovchi yangi tushunchalar va so’zlar ham paydo bo’ladi. Bundan tashkari, ilgaridan mavjud bo’lgan ayrim so’zlar yangilanadi, ularning ma’nosi o’zgaradi, ko’p so’zlar muomaladan chikib ketadi. Bolalar bilan lug’at ishlarini o’tkazishda so’zning rivojlanuvchi tusga egaligini hisobga olish zarur.

Rus tilining lug’at tarkibini ***umumiy ko’llanishdagi leksika*** tashkil kiladi. Bu rus tilida so’zlashayotgan odamlarga ko’shimcha izohlarsiz tushunarli bo’lgan va muomala uchun zarur bo’lgan so’zlar guruhidir. U uzok vakt mobaynida yaratilgan. Bu leksikaga nutqning turli kismlari kiradi. Bolalar bog’chasida lug’at ishining mazmunini asosan umumiy ko’llanishdagi leksika tashkil etishi tufayli tarbiyachi bolalar nutqini nafakat otlar bilan, balki fe’llar, sanok so’zlar, old ko’makchilar, sifatlar va boshka nutq kismlari bilan ham boyitishi zarur.

Bolalar lug’atini ***folklor elementlari*** (ko’zim, toychoђjim, ona kizim) bilan ham boyitish darkor, chunki ma’lum hollarda (hikoya aytish, ertak to’kish, sahnalashtirish Mashg’ulotlari, o’yinlar va boshk.) ular bolalar nutqiga kiritish uchun ataylab taklif kilinadi, so’ngra alohida emotsional jihatlar (erkalash, yupatish, iltimos qilish va h.k.) bolaning maishiy nutqini bezashi mumkin.

Lug’at ishining o’ziga xosligi adabiy me’yorlardan chekinish sifatida karaladigan oddiy so’zlashuv so’zlarini, vulgarizmni ko’llashni ta’kiklashdan iborat.

Bundan tashkari, unutmaslik lozimki, tilda ayrim so’zlarni ***ta’kiklash*** hodisasi mavjud. Bolalar bog’chasida ham ushbu hodisa bilan yuzma-yuz kelishga to’g’ri keladi: masalan, odob-axlok koidalariga amal kilgan holda biz bolalarga hojatga borishni anglatuvchi so’zlarni shartlar obrazlar bilan almashtirishni o’rgatamiz.

Rus frazelogiyasining ayrim misollari bilan tanishtirish lug’at ishining ***mazmuniga*** kiradi.

Maktabgacha bosqichdagi bolalarga, ayniksa ushbu bosqichdagi katta yoshli bolalarga xalq-so’zlashuv frazeologiyasidan ularning imkoni yetadigan, mazmunan oddiy bo’lgan ayrim so’zlarni, shu jumladan rus folklorining barkaror oborotlari, makollar va matallarni kabul qilish,

tushunish, eslab kolish va kezi kelganda foydalanishni o’rgatish zarur. Birok ushbu ishni amalga oshirishda unutmaslik lozimki, bolalarning so’zning rakobatchi mazmuniga, uning tarkibiga bog’liq bo’lmagan butun so’z birikmasining umumiy mazmunini o’zlashtirishlari kiyin kechadi (masalan, oђzi kuloђida, yettinchi osmonda va boshk.). SHuning uchun tarbiyachi o’z nutqiga ma’nosi bolalarga muayyan vaziyatlarda tushunarli bo’ladigan, yoki tegishli tushuntirish natijasida tushuniladigan ifodalarni kiritishi lozim. Bunday ifodalar katoriga quyidagilarni kiritish mumkin: «o’zim, shunchaki», «eng shimarib», «azamat pahlavon» va h.k.

Har bir ***so’zda*** quyidagilarni ajratish mumkin: uning ***mazmuni*** yoki unga yashiringan ma’nosi; so’zning ***tovush tarkibi*** (tovush tarkibi), uning ***morfologik*** tuzilmasi.

Bolalar bilan lug’at ishlarini amalga oshirishda so’zning ushbu uchta xususiyatini hisobga olish zarur.

Amaliyotda ko’pincha bolalarning so’z ma’nosini bilmasliklari yoki uning ma’nosini buzib talkin qilishlarini uchratish mumkin (masalan, langar – bir ko’nђizcha. Bu suvga tashlanadigan narsa). SHuningdek, mazmuniga ko’ra bolalarga yaxshi tanish bo’lgan so’zning tovush tarkibini buzish hollariga duch kelish mumkin (tramvay, kutubxona, kotlet, kompot va h.k.). Bu buzilishlarni sabr-tokat bilan tuzatish, shuningdek yangi so’zlarning bolalar talaffuzida to’g’ri jaranglashini nazorat qilish lozim. Morfologik tizimga oid murakkab holatlarni bilgani holda tarbiyachi bolalarning dikkat-e’tiborini ataylab ayrim so’zlarning grammatik jihatiga, ularning so’z bilan birikishiga karatishi mumkin. Masalan: - Paltoning yokasi kunduzli ekan. Paltoning ilgichi ham bor ekan va h.k.

Alohida holatlarda tarbiyachi maxsus usullar bilan ba’zan atrofdagilar nutqida buzib talaffuz kilinadigan so’zlarda to’g’ri urђu ko’yilishini mustahkamlashi lozim (masalan, sur’at – surat).

Bolalarga ayrim otlarni tanishtirishda tarbiyachi ularning turini ta’kidlashi, otni sifatlar bilan birgalikda ko’llashi, bunda sifatning yakuniga e’tiborni karatishi zarur: palto –kichik, ko’ylak –chiroyli, kizil, ok, sichkon – kulrang va h.k.

Bolalar o’rta turdagi (srednыy rod) otlarni kiyinchilik bilan o’zlashtiradilar, shuning uchun bu so’zlarni bolalarga muayyan so’z birikmalarida berish tavsiya kilinadi.

Leksikaning asosiy hajmini ***znamenatelnыe*** (otlar, sifatlar, ravishlar, fe’llar) so’zlar tashkil etadi. Bular eng to’la hukukli so’zlar bo’lib, ular nomlar sifatida xizmat kiladi. Tushunchani ifodalaydi va gapning asosi bo’lib xizmat kiladi (ya’ni, ega, kesim, aniklovchi, to’ldiruvchi, hol vazifasida chikadi). Pirovardida, bolalar nutqini boyitish eng avvalo ***znamenatelnыe*** so’zlar sohasida olib borilishi lozim.

Sanok so’zlarni o’zlashtirish bolalarga ancha kiyin kechadi.

Bolalar nutqini sanok so’zlar bilan boyitish asosan, ularda matematik tasavvurlarni shakllantirishga doir Mashg’ulotlarda ro’y beradi, ushbu so’zlarni faollashtirish va mustahkamlash ona tili Mashg’ulotlarida lug’at ishining maxsus mavzusi bo’lmoђi lozim.

Maktabgacha yoshda bola shunday lug’atga ega bo’lishi lozimki, toki u bolaga tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilish, maktabda muvaffakiyatli ta’lim olish, adabiyotni, televizion va radio eshittirishlarini tushunish imkonini bersin. SHuning uchun maktabgacha ta’lim pedagogikasi lug’at rivojlantirishga nutqni rivojlantirishning muhim vazifalaridan biri sifatida karaydi.

Lug’at rivojlantirishni xalq tomonidan tarixiy davrlar mobaynida to’plangan lug’at zahirasini o’zlashtirishning uzok davomi etadigan jarayoni sifatida tushunish darkor.

Ushbu jarayonning mikdoriy va sifat jihatlarini ajratish mumkin. eng avvalo bola lug’atidagi mikdoriy o’zgarishlarni kayd etish lozim. CHunonchi, 1 yoshda kichkintoy 10-12 ta so’zni faol biladi, 6 yoshga kelib esa uning faol lug’ati 3-3,5 mingtagacha ortadi.

Lug’atng sifat xususiyatlari haqida so’z yuritganda bolalarning so’zning bilish natijasini aks ettiruvchi ijtimoiy biriktirilgan mazmunini asta-sekin egallab olishlarini nazarda tutish lozim. Ushbu bilish natijasi so’zda mustahkamlanadi, shu tufayli odamlar tomonidan anglanadi va muloqot jarayonida boshka odamlarga uzatiladi.

Har bir so’zning mazmuni tushunchadir. Fikr, so’z umumiylikni ko’rsatadi. Psixologiyada ham so’z mazmuni umumlashtirma yoki tushuncha sifatida belgilanadi. «So’z mazmuni psixologik jihatdan aynan umumlashtirilgan tushunchaning o’zidir. Biz so’z mazmunini fikrlash fenomeni sifatida ko’rib chikishga haklimiz» (L.S.Vыgotskiy[9]). SHuning uchun lug’at egallash jarayoni tushunchalar bilan uzviy bog’liq va shu tufayli u quyidagi o’ziga xos xususiyatlarga ega:

I-xususiyati – bolalar lug’atining mazmuni. Fikrlashining ko’rgazmali-ta’sirchan va ko’rgazmali-obrazli tusga egaligi bois bola eng avvalo ko’rgazmali takdim etilgan yoki uning faoliyati uchun mumkin bo’lgan, bolalar lug’atida ancha keng aks ettirilgan narsalar, hodisalar, sifatlar, xususiyatlar, munosabatlarni o’zlashtirib oladi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning lug’atida nisbatan mavhum tushunchalarni belgilaydigan bunday so’zlarning yo’kligi yoki ularning ma’nosi buzilishi ham shu bilan izohlanadi.

II-xususiyati – so’zning ma’nosi, mazmun-mohiyatini asta-sekin egallash. Maktabgacha yoshdagi bolada tushunchalar asosida fikrlash hali shakllanmaganligi sababli u egallab olgan so’zlarning ma’nosi ham muayyan yosh bosqichida tushunarli bo’lmaydi. Dastlab bola so’zni muayyan narsa yoki hodisa bilan boђlaydi. Bunday so’z umumlashtiruvchi xususiyatga ega emas, u fakat bolaga muayyan narsa, hodisa haqida signal beradi va ularning obrazini chakiradi (masalan, bola uchun soat so’zi fakat uning xonasida osilib turgan soatni anglatadi, xolos.).

Maktabgacha yoshdagi bolaning atrofdagi borlikni – narsalar, hodisalar (xususiyatlar, xossalari, sifatlar)ni o’zlashtirishining borishiga karab u ularni u yoki bu belgisiga karab umumlashtirishni boshlaydi. Ko’pincha umumlashtirishlar ahamiyatsiz, birok bola uchun emotsional jihatdan muhim bo’lgan belgilariga karab kilinadi.

SHunday qilib, maktabgacha bosqichdagi bolalikda so’z mazmuni bolaning bilish imkoniyatlari rivojlanishiga karab o’zgarib boradi.

III-xususiyati – bola lug’ati hajmining kattalar lug’ati hajmidan ancha kamligi. CHunki bolaning bilish tajribasi va pirovardida atrof-olam haqida to’plagan ma’lumotlari katta yoshli odamning bilimlari hajmidan ancha kam bo’ladi.

Lug’at rivojlantirishdagi mazkur xususiyatlar bolalar bog’chasidagi maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan lug’at ishlarining ***vazifalarini*** aniklash imkonini beradi:

- Mazmunli muloqot uchun zarur bo’lgan mikdordagi so’zlar to’planishini ta’minlash
  a) so’zlar mazmunini atrof-olamdagi ob’ektlarga takkoslash, ularning xususiyatlari va munosabatlari asosida egallab olish;
  b) narsalar va hodisalarning ahamiyatli belgilarini ajratish asosida so’zning umumlashtiruvchi ma’nosini o’zlashtirish;
  c) nutqning obrazli katoriga kirish va undan foydalana olish.

- Ijtimoiy jihatdan mustahkamlab ko’yilgan so’zning o’zlashtirilishini ta’minlash. Ushbu vazifani hal etish quyidagilarni ko’zda tutadi:
- Lug’at faollashtirish, ya’ni nafakat so’zlarni bilish, balki ularni muloqot amaliyotiga kiritish.

Bolalar lug’atining xususiyati va lug’at ishlarining vazifasini bolalar bog’chasidagi lug’at ishlari dasturi va metodikasining asosini tashkil etadigan tamoyillar belgilab beradi:

- Bolalar lug’atini shakllantirishda ularning atrof-olamni faol va ta’sirchan bilishlariga tayanish.
- Lug’at ishlari mazmunining bolaning asta-sekin rivojlanayotgan atrof-olamni bilish imkoniyatlari bilan bog’liqligi.

Lug’at ishlari dasturi mazmunini murakkablashtirish uchta yo’nalishda amalga oshirilmokda:

[9] Выготский Л.С. Избранные психологические исследования. М., 1956, 322-бнт.

- Bolani asta-sekin ortib borayotgan narsa va hodisalar doirasi bilan tanishtirish asosida uning lug'atini kengaytirish.
- Atrof-olamdagi narsa va hodisalar haqidagi bilimlarni chukurlashtirish asosida sifat, xususiyat va munosabatni belgilovchi so'zlarni kiritish.

Lug'at ishining ushbu yo'nalishlari barcha yosh guruhlarida ro'y beradi va turli mazmunda kuzatiladi: ob'ektlar va tabiat hodisalari, moddiy madaniyat buyumlari, ijtimoiy hayot ko'rinishlari bilan tanishtirishda va h.k.

**Lug'at ishining metod va usullari**

Bolalarning lug'ati ularga atrofdagi olamni tanishtirish bilan bir vaqtida o'sib boradi. Lug'at shakllantirish jarayonida tarbiyachi bolalarning psixologik jarayonlarini, ularning akliy kobiliyatlarini: sezgi, dikkat-e'tibor, xotira, fikrlash, (kuzatish) kuzatuvchanligini rivojlantiradi. Umumiy pedagogik jarayonda nutqni rivojlantirish bilan birgalikda bolalarning hissiyotlari va xulk-atvori, madaniy-gigienik ko'nikmalari, axlokiy tasavvurlari va hatti-harakatlari, estetik tuyђulari shakllanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama tarbiyalashning ushbu vazifalari lug'at ishlarini o'tkazishda nazarda tutiladi. Kelgusida lug'at ishlarining muayyan usullari va metodlarini ko'rib chiqqan holda biz bu umumpedagogik masalalarga to'xtalib o'tirmaymiz.

***Lug'at ishlarining metodi*** – bu:

***Lug'at boyitish metodlari:*** atrof-olamni bevosita kuzatish; mazmuni bolalarga notanish bo'lgan yoki juda kam tanish bo'lgan suratlarni ko'rsatish; badiiy asarlarni o'kish, diafilmlar va kinofilmlar (ilmiy-ommabop va hujjatli filmlar) ko'rsatish.

Lug'at ***mustahkamlash va faollashtirish:*** bolalarga tanish mazmundagi o'yinchoqlarni, suratlarni ko'rib chikish, didaktik o'yinlar.

Har bir bolaning leksik zahirasini to'ldirish uni atrof-olam bilan tanishtirish jarayonida ro'y beradi: so'z bolaning o'zi belgilagan (nusxa ko'chirgan) narsa yoki harakatni tasavvur qilishi bilan bir vaktga xotiraga kiradi.

Bolaning ona tilidagi so'zni o'zlashtirish jarayoni ushbu so'zlarga mos keluvchi narsalarni «tadkik qilishi» bilan bir vaqtida ro'y beradi: ***bola narsalarni ko'zdan kechiradi, ko'l tekkizadi, ushlab ko'radi, siypalaydi, uning kanday ovoz chikarishiga kulok tutadi, ta'mini ko'rmokchi bo'ladi, hidlab ko'radi.*** Bola o'z dikkat-e'tiborini jamlagan ***narsa*** uning ongiga barcha ***beshta sezgi*** – ko'rish, tinglash, hidlash, ta'm, ushlab ko'rib, sezish orkali kiradi. Dunyoni bu kabi sezgilar orkali anglash bolaning e***motsional*** dunyosini rivojlantiradi; u nafakat keskin holatlarni («ajoyib» - «rasvo») boshdan o'tkazishga, balki barcha oralik his-tuyђularni sezishga kodir bo'ladi.

Narsani ***sezgi bilan kabul qilish*** so'z yordamida bola xotirasida ushbu narsa haqidagi tasavvur sifatida muhrlanib kolganidan so'ng uning nomini atovchi ***so'z*** bolada eng avvalo u mazkur narsa bilan bevosita to'knash kelganida boshdan o'tkazgan his-tuyђularnii uyђotadi.

Masalan, archa so'zi. Bola bu so'zni eshitishi bilan uning ilgari his kilgan barcha his-tuyђulari darhol jonlanadi: u o'z xayolot dunyosida muayyan archani, uning yashil barglarini ko'radi, deyarli uning hidini tuyadi va h.k.

So'zni bu tarzda kabul qilish ***she'riy kabul qilish*** deyiladi. Agarda tarbiyachi bolaga ilk yoshdan boshlab ona tilidagi so'zlarni ularning butun she'riy ifodasida o'rgatib kelgan bo'lsa (ya'ni, ularni kabul qilishning his-tuyђu negizi haqida kayђursa), bu holda bolada insonga nafakat ***o'zi ijod qilishi*** uchun, balki shoirlarning ijodini ***tushunish*** uchun ham zarur bo'lgan shoirlik ***kobiliyati*** rivojlanadi.

Bola so'zning «his-tuyђuli asosini» o'zlashtirib olganidan so'ng u uning umumlashtiruvchi ahamiyatini tushunishga kodir bo'ladi. Aynan shuning uchun ilk yoshdagi va maktabgacha yoshdagi bolalar lug'atini boyitish ularni atrofdagi maishiy hayot, tabiat, kishilar mehnati, ularning ijtimoiy hayoti bilan tanishtirish jarayonida uyushtirilishi zarur. Ayni paytda tarbiyachi (va bola atrofidagi barcha kattalar) bola bilan grammatik jihatdan rasmiylashtirilgan ravon

nutqda (ya’ni oddiy nutqda, chunki bir-biriga boђlanmagan so’zlar to’plamini nutq deb bo’lmaydi) muloqot qilishlari lozim. Pirovardida, bola kattalar nutqidan eshitgan ayrim so’zlarini o’zi ajratadi.

Bola hayotning 3-yilida bolalar «birinchi savollar davrini» boshdan kechiradilar. Bunda ularning atrofda ko’rgan barcha narsalar nomlarini bilib olishga intilishlari paydo bo’ladi: «Kim bu?», «Ismi nima?», «Bu nima?», «Nima uchun?».

Ushbu yoshda bolaning kizikuvchanligi eng avvalo «lingvistik» tusga ega bo’ladi: bunda bolani ushbu so’zlar bilan ataladigan narsalar mohiyati qanchalik kiziktirsa, so’zlar ham shu darajada kiziktiradi. Bola bilan erkin muloqot choђida uning savollariga javob qaytarish uchun tarbiyachi bolaga uchragan va e’tiborini o’ziga jalb kilgan narsa nomini aytish orkali bola lug’atini boyitadi. CHunonchi, narsa belgilari (sifat) nomlarini; harakat va holatni (fe’llar, sifatdoshlar, sifatdosh va ularning ravishlik belgilari) bilib oladi va esda saklab koladi.

Bevosita kuzatish mumkin bo’lmagan narsalar nomlarini bolalar ular tasvirlangan suratlarni ko’rish orkali bilib oladilar. Insonning narsani uning tasviri (modeli) bilan oson takkoslashga ***kodirligi*** - tuђma kobiliyatdir.

Bola juda erta yoshdan boshlab ishtiyok bilan o’z ko’rib turgan narsalar rasmlarini chizishni boshlaydi, bunda u chizgan rasmlari ko’rgan narsasiga o’xshashiga ich-ichidan ishonadi (ayni paytda uning o’zi aytgan dastlabki so’zning tovush tarkibi u kattalardan eshitgan so’zlar tovushiga o’xshashligiga ishonchi komil).

SHunday qilib bola o’z nutqini kattalar bilan ***jonli nutqiy*** muloqotda boyitadi, shu bilan birga u mazkur muloqot orkali hakikatda kuzatayotgan yoki suratlar asosida tasavvur kilayotgan narsalari nomlarini bilib oladi. ***Pirovardida,*** lug’at ishlari real ob’ektlar yoki suratlarni hisobga olgan holda olib boriladi. ***Ushbu metod*** barcha yosh guruhlarida ko’llaniladi. Narsalar bilan o’ynash choђida bolalar ularning joylarini o’zgartiradilar, har tomonga tashlaydilar, suradilar, ushlab ko’radilar, yurђizadilar, narsalarni kuzatadilar va ularning sifati, harakatini aytib beradilar. Ayni paytda tarbiyachi bola bilan unga yo’naltiruvchi savollar bergan holda so’zlashishi lozim. Bola javob qaytarar ekan, tarbiyachi o’z savoli orkali aytib berayotgan so’zlarni takrorlaydi. SHu tarika bolaning leksikasi kengayadi. Ayniksa, syujetli-rolli «rejissyorlik» o’yinlarida, sahnalashtirish jarayonida nutqni rivojlantirish uchun juda ko’plab kulay vaziyatlar yuzaga keladi.

***Rolli*** o’yinda bola o’zi kuzatgan yoki hikoyalar orkali bilgan va esda saklab kolgan kattalarning turli vaziyatlarini takrorlaydi. Bola kattalarning ana shunday vaziyatlardagi harakatidan va shu bilan birga ularning nutqidan ko’chirma oladi.

***«Rejissyorlik»*** o’yinida bola o’ziga rol olmaydi, aksincha u ushbu syujetda rollarni o’yinchoqlar o’rtasida taksimlaydi; syujetlar – bolalar bog’chasi, hayvonot boђi va boshk. Tarbiyachi bolaning mavjud hayotiy tajribasini hisobga olgan holda aytib, yordamlashib turadi.

***Sahnalashtirish o’yinida*** bola o’ziga tanish ertak kahramonlaridan biri rolini o’ynaydi, o’yin jarayonida u kahramon so’zlarini takrorlaydi va shu tarika o’z nutqini boyitadi.

***Syujetli o’yinlar*** o’zlashtirilgan til materialini mustahkamlashda bolalarga ajobiy mashk sifatida xizmat kiladi. Bolalar ataylab o’z oldiga muayyan hayotiy vaziyatlarda kattalardan eshitgan nutqini yoki ertak kahramoni nutqini ***anik berishni maksad*** qilib ko’yadilar.

***Harakatchan o’yinlar,*** koida asosidagi ***o’yinlar*** yod olingan sanok she’rlar, ko’shiklari bilan bolalar nutqini boyitadi. YOd olish tarbiyachi nutqiga taklid qilish jarayonida ro’y beradi, bu o’yinlarni tarbiyachi bolalar bilan birga o’ynaydi va dastlab o’zi kizikarli, sanok she’rlarni aytadi, ko’shik kuylaydi.

Bola u yoki bu narsa nomini belgilovchi so’zni (ba’zan, bir marta eshitib) ***tez*** va mustahkam (umrbod) e***sda saklab koladi,*** ammo bu fakat tarbiyachi so’zlarni talaffuz qilishning metodik koidalariga ***rioya kilgan*** takdirdagina ro’y beradi. YA’ni, u:

- etarli darajada ***baland*** ovozda so’zlashi;
- ***anik*** talaffuz qilishi, ya’ni artkulyatsiya organlarini ђayrat bilan va to’g’ri ishlatishi;
- orfoepiya koidalariga rioya qilishi, bunda u yoki bu so’z komponentini bo’rttirib yuboruvchi sun’iy talaffuzdan kochishi lozim.

- So’zni gapga uning grammatik shakllari imkoniyatlari ko’rinadigan darajada ko’shish kerak.

Masalan, Bizga ayikcha mehmon bo’lib keldi. Ayikchaning ko’zlari kora, panjalari katta. Bolalar ayikcha bilan o’ynashni juda yoktiradilar.

Bola bu gapni eshitar ekan, «Ayikcha» so’zi nutqda o’zgarayotganini sezib koladi. Albatta, tarbiyachi kichkintoyga grammatik atamalarni ma’lum kilmaydi, ammo bir vaktning o’zida unda lug’at ***boyishi*** bilan birga ***grammatik*** sezgi ham rivojlanadi.

Birok, bolalar har doim ham atrofdagi narsalarga kizikish bildiravermaydilar, va har doim ham ularning nomlarini so’rayvermaydilar. Tarbiyachi bolalar dikkat-e’tiborini narsalarga, ularning sifatlariga, harakatlariga jalb qilishi zarur. Buni muntazam ravishda amalga oshirish tavsiya etiladi.

Hafta davomida bolalar quyidagi mikdordagi so’zlarni o’zlashtirishlari mumkin:

| | |
|---|---|
| 3 yoshda | -5 ta so’z |
| 4 yoshda | -10 ta so’z |
| 5 yoshda | -15 ta so’z |
| 6 yoshda | -20 ta so’z |
| 7 yoshda | -30 ta so’z. |

**Bolalarda lug’at shakllantirishga doir Mashg’ulotlar turlari**

Lug’at ishlariga oid dasturlarni amalga oshirish Mashg’ulotlar tizimi orkali amalga oshiriladi. Bu tizim uch xil ko’rinishdagi Mashg’ulotlardan tashkil topadi:

- Lug’at ishlari atrof-olamdagi doimo kengayib borayotgan narsalar va hodisalar doirasi bilan tanishtirish jarayonida amalga oshiriladigan Mashg’ulotlar (ekskursiya, narsalarni namoyish qilish va h.k.);
- Lug’at ishlari bolalarning atrofdagi narsalar va hodisalar haqidagi bilimlarini chukurlashtirishga tayanadigan Mashg’ulotlar (sifatlar, xususiyatlar, o’ziga xos jihatlari bilan tanishtirish);
- Umumlashtirishlar jarayonida lug’at ishining hal kiluvchi vazifasi tushunchalarni shakllantirishdan iborat bo’lgan Mashg’ulotlar.

Ushbu barcha mashђulot turlarida lug’at rivojlantirish bilish faoliyatini rivojlantirish bilan uzviy bog’liqlikda amalga oshiriladi. Bundan Mashg’ulotlar o’tkazishni tashkil etish va ularning metodikasiga oid umumiy talablar kelib chikadi:

- Lug’at rivojlantirishning bilish jarayonlarini rivojlantirish bilan yagonaligi (kabul qilish, tasavvur qilish, fikrlash).
- Nutqiy va bilish faoliyatining anik maksadni ko’zlagan holda tashkil etilishi.
- Nutqiy va bilish faoliyatini tashkil etish uchun asos sifatida ko’rgazmaviylikning mavjudligi.
- Lug’at ishining barcha vazifalarini hal etish har bir mashђulotda yagonaligi.

Bolalarni predmetli olam bilan tanishtirishga oid Mashg’ulotlarda ish vazifasi kanday hal etiladi? Mazkur mazmun uch xil turdagi Mashg’ulotlar orkali amalga oshiriladi.

**1. Predmetlar bilan birlamchi tanishtirishga doir Mashg’ulotlar**

Mazkur Mashg’ulotlarda tarbiyachi predmetlar va ularning tasvirini, ular bilan bajariladigan harakatlarni namoyish kiladi, «Sayrga chikish uchun ko’ђirchokni kiyintiramiz», «Ayikchaga choy ichiramiz» toifasidagi o’yin Mashg’ulotlarini o’tkazadi va h.k.

Ushbu Mashg’ulotlarning asosiy ***maksadi*** – bolalar nutqiga narsalar va ular bilan bajariladigan ayrim harakatlar nomlarini kiritishdan iborat. Ushbu vazifani fakat kabul qilishni to’g’ri tashkil etish orkaligina hal etish mumkin.

Tarbiyachi bolalar dikkat-e’tiborini narsalar bilan bajariladigan harakatlarga jalb kilar ekan, bolalarning ularning nomlarini aytishlariga zo’r berib harakat kiladi: takrorlashni, savollarga javob berishni taklif kiladi, so’zlovchilarni rağbatlantiradi, bolalarni birgalikda va alohida-alohida holatda so’zlashga undaydi.

Bu turdagi Mashg’ulotlarda o’yin usullaridan keng foydalaniladi: narsalarning kutilmagan holatda paydo bo’lishi, ular bilan o’yin harakatlari, shuningdek, o’yin aksessuarlari: «mo’’jizali kopcha», «sehrli kalpokcha», jo’natma, o’yinchoqlar yashaydigan uycha, harakatlar bajariladigan televizor va h.k.

Bolalarning narsalar va ular bilan bajariladigan harakatlar nomlarini muvaffakiyatli o’zlashtirishlari uchun ularning har birining faolligi talab etiladi, shuning uchun bolaning yoshi qanchalik kichik bo’lsa, bunday Mashg’ulotlarni shunchalik ko’p tashkil qilish va ularni bolalarning kichik guruhlari bilan o’tkazish zarur.

**2. Bolalarning predmetlarning xususiyatlari haqidagi bilimlarini chukurlashtirishga oid Mashg’ulotlar**

Predmetlarni ko’zdan kechirish Mashg’ulotlari (birinchi marta mazkur Mashg’ulotlar ye.I.Tixeeva tomonidan ishlab chikilgan). Ushbu Mashg’ulotlarning asosiy maksadi kismlar, detallar va narsalarning vazifasini ajratib ko’rsatish, ularning sifat va xususiyatlari bilan tanishtirishdan iboratdir.

Ko’zdan kechirish Mashg’ulotlari metodikasining asosini bolalarning kismlarni ajratib ko’rsatish, ularning vazifasi va foydalanishga yo’naltirilgan faol harakatlarini yo’lga ko’yish tashkil etadi. Jadal faoliyat narsalar haqidagi bilimlarni bolalar uchun ahamiyatli kiladi va so’zni narsa kismi, uning detallariga anik kiyoslashni ta’minlaydi.

Bunday Mashg’ulotlar uch, to’rt va besh yoshli bolalar bilan o’tkaziladi. Ushbu Mashg’ulotlardagi narsalar to’plami turlicha bo’lishi mumkin, birok narsa: bolaning atrof-olamda yo’l topa olishi uchun uning faoliyati uchun ahamiyatli bo’lishi; bola harakat harakat qilishi lozim bo’lgan kismlarga ega bo’lishi lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishning borishiga karab bunday turdagi Mashg’ulotlar harakat faolligini kiskartirish va ko’rish tahlilchisiga tayanishni kuchaytirish hisobiga kiyinlashtirib boriladi, bu esa Mashg’ulotlar ishtirokchilarining sonini butun boshli bir guruhgacha oshirish imkonini beradi.

Bolalar lug’atini rivojlantiruvchi Mashg’ulotlarning boshka bir turi narsalar sifati bilan tanishtirish Mashg’ulotlaridir.

Mazkur Mashg’ulotlarni o’tkazishda pedagog quyidagi koidalarni hisobga olishi lozim:

- Lug’at ishlari narsalarning sifat va xususiyatlarini ajratishga tayanadi, shuning uchun tarbiyachi ularni sinchiklab sensor tekshiruvidan o’tkazishni tashkil qilishni bilishi lozim. Bolalarda tekshiruv usullari ushbu Mashg’ulotlarda o’kitish jarayonida shakllanadi.
- Tekshiruv usullarini shakllantirish tarbiyachining tekshiruv harakatlaridan foydalanishga nisbatan ajratib olinayotgan sifatga mos bo’lgan anik ko’rsatmalarini talab kiladi (masalan –bosib ko’r – kattiklikni ajratish uchun, silab ko’r – yumshoklikni ajratib olish uchun va h.k.).
- Har bir sifat va xususiyatni ajratib olish, uni yo’ldosh xususiyatlaridan xalos qilishga uni karama-karshi xususiyat bilan takkoslash orkali nisbatan samarali erishiladi. Masalan: kattik-yumshok, oğir-engil, shaffof-noshaffof. Bu kattiklikni sifat sifatida yo’ldosh temperatura sezgilaridan nisbatan anik ajratib olish, kabul kilinayotgan narsa yuzasining sillikligini yoki ğadir-budurligini his qilish imkonini beradi.

- Narsaning sifat va xususiyatlari bolalar tomonidan anglanishi hamda o’zlashtirilishi uchun ularni ahamiyatli qilish lozim, ya’ni ularni mahsuldor-mazmunli faoliyatga ko’shish zarur, buning muvaffakiyati mazkur sifatlarni hisobga olishga bog’liq bo’ladi. Bu natijaga erishish boladan izlanayotgan sifat yoki xususiyatni ajratib olish va uni hisobga olishni talab kiladi.
- Mashg’ulotlarda lug’at ishlari vazifasini muvaffakiyatli hal etish ko’rgazmali materialni tanlashga bog’liq bo’ladi. SHunday narsalarni tanlash zarurki, toki unda ajratib olinayotgan sifatlari yorkin tasvirlansin, chalҕituvchi sifatlari esa (yorkin ranglarga bo’yash, harakatlanuvchi kismlarining mavjudligi, o’yin borasida kizikarliligi va boshk.) iloji boricha kamrok bo’lsin.

Bunday turdagi Mashg’ulotlar maktabgacha yoshdagi bolaning bilish mantiҕi talab kiladigan muayyan tuzilmaga ega bo’ladi:

I-kism – U yoki bu faoliyatga oid vaziyatda narsa sifatini ajratib olish.

II-kism – Bolalarga tekshirish harakatlarini o’rgatish, har bir bola tomonidan zarur sifatlarni ajratib olish. Uning asosida mazkur sifatni belgilovchi yangi so’z kiritiladi.

III-kism – Bolalarga turli-tuman narsalar sifatini ajratish va yangi so’zlardan foydalanishni mashk kildirish.

Bolalar olgan bilim va ko’nikmalar keyingi Mashg’ulotlar hamda kundalik hayotda mustahkamlanadi.

Ushbu turdagi Mashg’ulotlarni murakkablashtirish ajratilayotgan sifat va xususiyatlar to’plamini oshirish yo’lida olib boriladi. eng turlicha to’plam bolalarga turli xil materiallarni tanishtirishda ro’y beradi. Bunday mazmundagi Mashg’ulotlarga nisbatan metodik talablar shundayligicha koladi, birok ularning murakkabligi shundaki, bunda sifatga u yoki bu xususiyatlar belgilari sifatida karaladi.

Narsalarni takkoslashga oid Mashg’ulotlar bolalar lug’atini narsalar, ularning sifatlari va xususiyatlari haqidagi bilimlarni chukurlashtirish asosida shakllantirish Mashg’ulotlari tizimida yakunlovchi hisoblanadi.

Bunday Mashg’ulotlar narsalarning kismlari, detallarini ko’rish, ularning sifat va xususiyatlarini ajrata olish borasida shakllantirilgan kobiliyatga tayanganlari tufayli ular katta guruhda va maktabga tayyorlanayotgan guruhlarda o’tkaziladi.

Lug’at ishining vazifalarini hal etish borasida ushbu Mashg’ulotlarning ***maksadi*** narsalar ajratishni tavsiflash uchun nisbatan anik so’zlarni tanlash qobiliyatini shakllantirishdir. Mashg’ulotlar muvaffakiyati, ularning samaradorligi quyidagi shart-sharoitlarga bog’liq:

- Takkoslash uchun narsalarni tanlash. Ular yetarli mikdorda takkoslanayotgan belgilarga ega bo’lmoҕi lozim: farklilik va umumiylik belgilari (rang, shakl, mikdor, kismlar, detallar, materialning vazifasi va h.k.);
- Takkoslashning rejaliligi. Tarbiyachi bolalarni narsalarni umuman takkoslashdan (vazifasi, rangi, shakli, mikdoriga qarab asta-sekin dastlab farklariga karab, so’ngra esa o’xshashligiga karab kismlarga ajratish va takkoslashga yo’naltiradi. Takkoslash umumlashtirish bilan nihoyasiga yetadi, bunda har bir narsaning farklovchi belgilari ajratiladi.
- Narsalarni tanlash. Bunday Mashg’ulotlarda tarbiyachining takkoslashlarni izchil kurish; bolalarning o’zlari paykamaydigan o’ziga xos xususiyatlarini ko’rish, javobni iloji boricha anik shakllantirish va zarur so’zlarni tanlashda bolalarga yordam beruvchi savol va ko’rsatmalari ta’limning asosiy usullari hisoblanadilar.
- Tarbiyachi va bolalarning nutqiy faolligini takkoslash. Bu yerda bolalar ham iloji boricha ko’proq nutqiy faollik ko’rsatishlari zarur. Tarbiyachi o’zining oz so’zli anik savollari, ko’rsatmalari bilan ularning akliy va nutqiy faolligini uyҕotadi.

SHunday qilib, narsalar va materiallarning kismlari, sifatlari va xususiyatlari bilan tanishtirishga doir Mashg’ulotlar bolalar nutqiga o’zida turli nutq kismlarini: otlar (narsalar va

ularning kismlari nomlari), fe’llar (narsalar bilan harakatlar nomlari, narsalardan foydalanish, kidiruvchilik harakatlari), sifatlarni (sifatlar nomlari) jamlagan so’zlarning ancha keng va xilma-xil zahirasini kiritish imkonini beradi.

### 3. Lug’at ishlari vazifasini tushunchalarni umumlashtirish, shakllantirish jarayonida hal etuvchi Mashg’ulotlar

Hajmi hamda chalђitish va umumlashtirish darajasiga karab turlicha bo’lgan tushunchalar mavjud. Bilish faoliyatining o’ziga xos xususiyatlarga egaligi bois maktabgacha yoshdagi bolalar fakat sezilarli belgilari yetarli darajada anik ifodalangan hamda ko’rgazmali-harakatli va ko’rgazmali-obrazli fikrlash usullari uchun imkonli bo’lgan tushunchalarnigina o’zlashtiradilar, xolos.

Bolalar bog’chasida tarbiyalash dasturi tur va toifaga oid umumlashtirmalarni shakllantirish talabini o’z ichiga oladi. Toifali umumlashtirishlar dasturda sezilarli belgilarini ajratish va ular bo’yicha umumlashtirishni amalga oshirishni talab kiladi, ammo bu belgilar xususiyatlari, ularning soni cheklangan.

CHunonchi, ko’pincha narsalarning tashki xususiyatlari turli umumlashtirmalarning sezilarli belgilari bo’lishi mumkin. Xususan: kismlar, shakllar, mikdorlar va h.k. masalan, kreslo stuldan tirsakko’ygichlari borligi bilan farklanadi; golf, paypok uzunligi bilan, dastro’mol, durra – shakli bilan farklanadi va h.k.

Toifali tushunchalar uchun tashki belgilar ham, ichki belgilar ham va ayni paytda nisbatan yashirin belgilar yoki ularning guruhlari ham sezilarli bo’lishi mumkin.

Masalan, «o’yinchok», «kiyim» kabi toifali tushunchalarning asosida tashki belgilariga ko’ra turlicha bo’lgan narsalardan foydalanish usuli yotadi; «sabzavotlar», «mevalar» tushunchalarining asosini esa bir nechta belgilar, ya’ni ulardan foydalanish, ularni inson tomonidan yetishtirish usullari va h.k. tashkil etadi.

Tur va toifaga oid tushunchalarni shakllantirish jarayonida narsalar turlari va guruhlarini anik ifodalovchi yangi so’zlarni kiritish amalga oshiriladi, shu tufayli so’zni anik ko’llash, narsalarning nomlarini anik aytish ta’minlanadi. Bu nutqiy muloqotda kiskalik, aniklik va o’zaro bir-birini tushunishni ta’minlaydi.

Tushunchalarni va ularga mos keluvchi lug’at shakllantirishga baђishlangan Mashg’ulotlar bolalardan narsalarning o’ziga xos xususiyatlarini, ya’ni: kismlari, shakli, mikdori va vazifasini ko’ra olishni talab kiladi. SHuning uchun ular maktabgacha yoshdagi bolalarning predmetlar haqidagi bilimlarini chukurlashtirish amalga oshirilgan Mashg’ulotlarda olgan bilim va ko’nikmalariga tayanadilar.

SHunday qilib, ushbu Mashg’ulotlar lug’at rivojlantirish ishlarining umumiy tizimiga kiradi va ular boshka mashђulot turlari bilan uzviy bog’liqdir.

Anchayin umumiylik mavjudligiga karamasdan tur va toifa tushunchalarini shakllantirishga oid Mashg’ulotlar o’zlarining metodik xususiyatlariga egadirlar, ular tushunchalar mazmuni bilan izohlanadi va asosan to’rt yoshli bolalar bilan o’tkaziladi.

Ushbu Mashg’ulotlarni o’tkazish metodikasida tarbiyachi quyidagilarni hisobga olishi zarur:

- Mashђulot ko’rgazmali materialga kuriladi. Narsalar to’plami ahamiyatsiz belgilari bilan farklanadigan bir turdagi narsalar va yakin turlardagi narsalarni o’z ichiga olishi lozim: rangi, shakli, hajmi bo’yicha turlicha bo’lgan dastali piyola, shuningdek stakan, bokal, krujka va h.k., bolalar dastali piyolani shulardan farklashlari lozim.
- Bola o’xshash narsalar guruhidan predmetni tanlab olish zarurati oldida koldiriladi. U tanlashga sabab bo’lgan belgini ajratgani holda o’z karorini asoslashi lozim.
- Tanlash zarurati bolaga tushunarli bo’lishi lozim. SHu munosabat bilan tanlash vazifasi bola uchun kizikarli bo’lgan faoliyatga, ko’pincha o’yinga ko’shiladi.

Bunday turdagi Mashg’ulotlar uchun ko’ђirchokli o’yin-Mashg’ulotlardan foydalanilishi mumkin. Turga oid umumlashtirmalar va tegishli lug’at shakllantirishga baђishlangan

Mashg’ulotlar metodikasi ham  belgilar guruhidan otlarni ajratib olishga yo’naltirilgan. Ammo bu holda turli xildagi narsalar guruhi umumlashtirilishi tufayli, bunday Mashg’ulotlar alohida tuzilmaga ega bo’ladi:

I-kism. Bolalarga tanish bo’lgan, mashђulot uchun tanlab olingan barcha to’plamni ajratish.

II-kism. Belgilarini umumlashtirish uchun otlarni ahamiyatsizlaridan ajratish, narsalar guruhlarini sezilarli belgilariga karab umumlashtirish va ushbu guruhni belgilovchi so’zlarni kiritish (tushuncha ustidagi ishlar).

III-kism.  Sezilarli belgilarini hisobga olish asosida bolalarning narsalar turlarini tushuncha ostiga olib kelishlarini mashk kildirish.

Bu yerda mashђulotning turli kismlari uchun ko’rgazmali materiallarni tanlash ham o’ziga xos xususiyatiga ega bo’ladi. Birinchi va ikkinchi kismlar uchun ahamiyatsiz belgilari bo’yicha bir-biridan yaqqol farklanib turadigan uch-to’rt turdagi narsalar tanlab olinadi.

Mashђulotning uchinchi kismi uchun narsalar to’plami ushbu tushunchaga kiruvchi boshka turlar va nimasi bilandir bir-biriga yakin bo’lgan, ammo boshka tushunchalarga kiruvchi bilan to’ldiriladi. Masalan, «sabzavot» tushunchalarini shakllantirishga doir Mashg’ulotlarning birinchi ikki kismi uchun shakli, ta’mi va rangi bo’yicha farklanadigan sabzi, piyoz, bodringni olish mumkin. Uchinchi kismi uchun ko’shimcha ravishda kartoshka, karam, kizilcha, pomidor va boshkalar olinadi, farklash uchun sholђom nok, ko’zikorin, mevalar, limon va h.k. beriladi.

Tushunchalar va tegishli so’zlarga baђishlangan Mashg’ulotlarda birinchi kism tushirib koldirilishi mumkin. Bunda birdaniga ikkita ilgari shakllantirilgan tushunchalar bilan ish olib boriladi (masalan, sabzavot va mevalar, kiyim va poyabzal, mebel va idish-tovoklar va h.k.). Ushbu o’rinda nafakat surat va narsalardan, balki «uchadi-uchmaydi» kabi so’zli o’yin mashklaridan ham foydalaniladi.

Tushunchalar ustidagi keyingi ishlar ularni tabakalashtirish, kismlarga ajratish yo’nalishi bo’yicha olib boriladi. Masalan, «transport» tushunchasi tabakalashtiriladi, va shu asosda yangi so’zlar kiritiladi: transport -havo, suv, yer ustki, yer ostki transporti; kiyim – kishki, yozgi, mavsumiy kiyimlar; idishlar – choy, yemakxona, oshxona idishlari. Bu mazmun maxsus Mashg’ulotlarda amalga oshiriladi, birok bu o’rinda asosiysi sezilarli belgini ajratish va uni tushunchaga olib borishdan iboratdir.

SHunday qilib, Mashg’ulotlar jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarda so’zning tushunchaviy xususiyati shakllanadi, ularning fikrlashi rivojlanadi.

Lug’at faollashtirish va mustahkamlash maxsus Mashg’ulotlar, didaktik o’yinlar va kundalik muloqot jarayonida tashkil etiladi.

Lug’at mustahkamlash borasida maxsus ish olib borilayotgan mashђulot narsalarni tavsiflash, topishmoklar aytish va ularni topish o’rganiladigan Mashg’ulotlar hisoblanadi.

Narsalarni tavsiflashga doir Mashg’ulotlardan besh, olti, yetti yoshli bolalar bilan o’tkaziladigan amaliy ishlarda keng foydalanish lozim. Ularni bolalarga tanish bo’lgan «Mo’’jizali kopcha» o’yini shaklida o’tkazish lozim. Bolalarning dikkat-e’tiborini ko’p sonli belgilar ajratishga yo’naltirish uchun «Kim ko’p ko’radi va aytadi?» ko’rinishidagi o’yin shaklidan foydalanish tavsiya etiladi.

Topishmok topishni o’rgatishga doir Mashg’ulotlar alohida o’rin egallaydi. Ushbu Mashg’ulotlarning lug’at ishining vazifalarini hal etishdagi kimmati nafakat ularda narsalar xususiyati haqidagi bilimlar va tegishli lug’at mustahkamlash ishlari amalga oshirilishida, balki ular bolaga rus tilining obrazli ifodasiga kirib borishda yordam berishidadir.

Har bir topishmok narsaning, uning o’ziga xos xususiyatlarining suratli, obrazli tavsifidir. Ayni paytda ko’pincha bunday tavsiflar boshka narsa orkali beriladi. SHu sababli bola topishmokni topishi uchun u narsalarning xususiyatlarini bilishi, narsalarni takkoslay olishi, ulardagi umumiylikni ko’rishi zarur. Topishmokli Mashg’ulotlarni bolalar narsalarning xususiyati bilan tanishganidan so’ng kiritishning sababi ham mana shunda.

Bunday Mashg’ulotlarning maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishdagi imkoniyatlaridan eng yukori darajada foydalanish uchun ularni o’tkazishda quyidagi metodik koidalarni hisobga olishi zarur:

- Topishmoklar tanlash. Topishmoklar mazmuniga ko’ra bolalar uchun imkonli bo’lishi lozim, ya’ni u o’ziga xos xususiyatlari bolalarga yaxshi tanish bo’lgan narsalar haqida bo’lmoђi darkor. SHakliga ko’ra eng imkonli topishmoklar ikki turdagi topishmoklardir: narsaning nomina aytmagan holda uning o’ziga xos xususiyatlarining bevosita ta’rifi sifatida kurilgan topishmoklar (kishda ham, yozda ham bir xil rangda») va metaforik topishmoklar, bunda bitta narsaning o’ziga xos xususiyatlari boshka narsa orkali beriladi (masalan, tipratikan haqidagi topishmok: «Daraxtlar ostida, archa ostida, yugurar yostikcha igna ostida» ).
- Mashg’ulotlarda bolalarga topishmoklar javoblarini eslab kolmasdan, obrazli tavsiflar ortidan real narsalar va ularning xususiyatlarini ko’ra olishni o’rgatishni maksad qilib ko’yish lozim. Bu quyidagi zaruriyatlarni keltirib chikaradi: birinchidan, bunday Mashg’ulotlarga ko’rgazmali materiallarni kiritish, ikkinchidan, so’zli obrazni narsaning anik xususiyatlari bilan takkoslashni o’rgatish, uchinchidan, javobni obraz talkiniga oid dalil-isbotlar bilan asoslash.

Topishmok topishga baђishlangan Mashg’ulotlar odatda, ikki kismdan iborat bo’ladi. Birinchi kismida narsalarni fakat topishmokda aks etgan belgilarini ajratgan holda ko’rib chikish tashkil etiladi. Ayni paytda o’ziga xos xususiyatlarini belgilash uchun topishmok elementlaridan foydalaniladi.

Mashg’ulotlarning ikkinchi kismi topishmok topishga baђishlanadi. Bu o’rinda tarbiyachi bolaning topishmok javobini kanday qilib topganligini so’raydi.

Dastlab turli materialda ikki-uchta ana shunday mashђulot o’tkaziladi, so’ngra keyingi Mashg’ulotlar kiyinlashtirilishi lozim.

Tanish narsalar haqidagi topishmoklarning yangi variantlarini namoyish qilish orkali va namoyishsiz topish ham kiyinlashtirish hisoblanadi. Birok barcha holatlarda topishmok topish motivatsiyasi bo’lishi shart. Aynan shu Mashg’ulotlarda bolalarga tanish bo’lgan topishmoklar ham beriladi, eski topishmoklar takrorlanadi, lekin ular ko’rgazmaviyliksiz amalga oshiriladi.

Lug’at mustahkamlash va faollashtirish maxsus Mashg’ulotlardan tashkari Mashg’ulotlarga ko’shilgan yoki kundalik hayotda o’tkaziladigan kator didaktik o’yinlar va o’yin mashklari jarayonida ham amalga oshiriladi. Lug’at faollashtirish uchun ayniksa, maktabgacha bosqichdagi katta yoshli bolalar guruhlarida keng foydalaniladigan «Teskarisini ayt», «Buyoklar», «Boђbon», «Davom et» kabi so’zli didaktik o’yinlar juda foydalidir. Bitta narsaning turga oid umumlashtirmalarga kiruvchi turli kismlari yoki sifatlari nomini aytish bunday davom etish mazmuni bo’lishi mumkin.

Mashg’ulotlardan va didaktik o’yinlardan olingan turli xildagi lug’atdan mustaqil foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarning maishiy muloqotida amalga oshiriladi. Bu yerda tarbiyachining tutgan o’rni mazmunli suhbatni yo’lga ko’yish, tarbiyachi nutqiga, uning lug’at tarkibiga nisbatan bolalarning dikkat-e’tibori hamda bolalarning to’plangan lug’atng butun boyligidan foydalanishlarini tashkil etishdan iboratdir.

Yuqorida ko’rib chikilgan narsalar bilan tanishtirish jarayonida bolalarda lug’at shakllantirish tartibi dasturiy talablarni amalga oshiradi hamda maktabgacha yoshdagi bolani aklan va nutqiy rivojlantirishni birgalikda amalga oshirishni ko’zda tutadi.

## XULOSALAR:

- Lug’at ishlarining mohiyati – bu til leksikasi sohasida bolalarning ularga tanish yoki notanish bo’lgan, ammo ular uchun kiyin hisoblangan so’zlarning o’zlashtirishlariga, nutq madaniyatini oshirishga karatilgan o’quv-tarbiya ishlarini bir tizimga keltirishdan iboratdir.
- Lug’at rivojlantirish - bu xalq tomonidan tarixiy davrlar mobaynida to’plangan lug’at zahirasini o’zlashtirishning uzok davomi etadigan jarayonidir.
- Lug’at egallash jarayoni tushunchalarni egallash bilan uzviy bog’liqdir va shu tufayli u o’ziga xos xususiyatlarga ega bo’ladi: bolalar lug’ati tarkibi; so’zning mazmuni, mohiyatini asta-sekin o’zlashtirish, kattalar lug’atiga qaraganda lug’at hajmining ancha kamligi.

- Lug’at ishining vazifasi – bu lug’at boyitish; so’zning ijtimiy-mustahkamlangan mazmunini o’zlashtirish; lug’at faollashtirishdir.
- Lug’at ishining tamoyillari bu - bolalar lug’atini shakllantirishda ularning atrof-olamni faol va ta’sirchan bilishlariga tayanish; lug’at ishlari mazmunining bolaning asta-sekin rivojlanayotgan atrof-olamni bilish imkoniyatlari bilan bog’liqligidir.
- Lug’at ishi barcha yosh guruhlarida quyidagi yo’nalishlarda amalga oshirilmoђi lozim: Bolani asta-sekin ortib borayotgan narsa va hodisalar doirasi bilan tanishtirish asosida uning lug’atini kengaytirish; narsalarni sezilarli belgilariga karab farklash va umumlashtirish asosidagi oddiy tushunchani belgilovchi so’zlarni o’zlashtirish; atrof-olamdagi narsa va hodisalar haqidagi bilimlarni chukurlashtirish asosida sifat, xususiyat va munosabatni belgilovchi so’zlarni kiritish.
- Lug’at ishining yetakchi vositasi – ta’limdir.
- Lug’at boyitish metodlari bu: atrof-olamni bevosita kuzatish; mazmuni bolalarga notanish bo’lgan yoki juda kam tanish bo’lgan suratlarni ko’rsatish; badiiy asarlarni o’kish, diafilmlar va kinofilmlar (ilmiy-ommabop va hujjatli filmlar) ko’rsatishdan iboratdir.
- Lug’at mustahkamlash va faollashtirish metodlari bu – o’yinchoqlar, rasmlarni ko’zdan kechirish, didaktik o’yinlar, so’zli mashklar va boshk.

**NAZORAT SAVOLLARI:**

- Bolalar bog’chasidagi lug’at ishlarining mohiyati nimalardan iborat?
- So’zning psixologik jihatdan ahamiyatini tavsiflab bering.
- Bolalarning lug’at egallash jarayoni kanday o’ziga xos xususiyatlarga ega?
- Barcha yosh guruhlarida lug’at ishlari dasturi tarkibini kiyinlashtirish qaysii yo’nalishlarda ro’y beradi?
- Siz lug’at shakllantirish borasida kanday mashђulot turlarini bilasiz? Har bir mashђulot turini anik misollarda tavsiflang.

## 11-MAVZU. NUTQNING GRAMMATIK TUZILISHINI SHAKLLANTIRISH

**Maktabgacha yoshdagi bolalarda ona tilining grammatik qurilishini o’zlashtirishning lingvistik va psixofizik asoslari.**

**Grammatik kurilishni shakllantirishga doir ishlar mazmuni va vazifalari.**

**Barcha yosh bosqichlarida so’z o’zgartirishni shakllantirish metodi va usullari.**

### Maktabgacha yoshdagi bolalarda ona tilining grammatik qurilishini o’zlashtirishning lingvistik va psixofizik asoslari

Grammatika deganda, biz nutqiy faoliyat natijalarini tavsiflash va tartibga solish uchun lingvistlar tomonidan o’ylab topilgan koidalar majmuini emas, balki fikr bildirishni vujudga keltirish va boshkalarning bildirgan fikrlarini tushunish uchun zarur bo’lgan bilimlar umumiyligini tushunamiz. So’nggi paytda grammatika aynan shu ma’noda psixologlarning dikkat-e’tiborini jalb kilmokda. Grammatikani tadkik qilish nafakat shunchaki kizikarli, nafakat lingvistik maksadlar uchun zarur, balki u umuman fikrlash va bilish jarayonlarini keng tadkik qilish uchun ham zarur kismdir.

Bizni so’z yasovchi va sintaktik operatsiyalardan foydalangan holda son-sanoksiz yangi fikrlarni tuzish qobiliyatining shakllanishi kiziktiradi. Uzok vakt mobaynida tayyor nutqiy namunalar imitatsiyalari va ularni ko’llash amaliyoti ushbu kobiliyatni rivojlantirishning zarur va yetarli sharti hisoblangan. Birok tilni rivojlantirish faktlari, eksperimentlardan olingan ma’lumotlar asosida ushbu nazariyani ko’rkmasdan yo’kka chikarish mumkin. Imitatsiya nazariyasiga karshi yana bir dalil keltirish mumkin: aniklanishicha, eshita olmaydigan bolalar nutqni ham imitatsiya kila olmaydilar, lekin shunga karamasdan ular o’zlarida tildan normal foydalanish qobiliyatini shakllantira oladilar.

Psixolingvistik tadqiqotr doirasida tilni o’zlashtirish borasida kanday ahvol namoyon bo’ladi?

Bola tilga nisbatan sust munosabatda bo’lmaydi, aksincha u faol bo’lgani holda til hodisalarni o’zi anglamagan holda doimiy ravishda tahlil kiladi.

Bolaning o’z tilini tashkil etishga, unda biron-bir qonuniyatlarni topishga va koidaga intilishi hamda ushbu koidaga muvofik holda harakat qilishi ko’plab faktlar bilan tasdiklanmokda. Hammaga yaxshi ma’lumki, bolaning tili kattalar tilidan «grammatik noto’ђrligi» bilan fark kiladi. Ammo shunisi kizikki, bu noto’g’rilikning o’zi tizimli, asosli bo’lib, u bolaning o’zi tomonidan yaratilgan oralik til tizimi okibatidir, bola ushbu tizim ichida anchayin to’g’ri harakat kiladi. Bunday tizimni yaratishda, bir tomondan, eshitilayotgan kattalar nutqiga nisbatan tahliliy harakatlar, ikkinchi tomondan – umuman olganda bilish va tahliliy harakatlari rol o’ynaydi.

Grammatikaning eng muhim jihati – so’z o’zgartirish va so’z hosil qilish operatsiyalarini o’zlashtirishni ko’rib chikamiz. So’zni bildirilgan fikr tarkibiga kiritish uchun u bilan muayyan harakatlarni amalga oshirish zarur, masalan, otni tavsiflanayotgan narsalar soniga muvofik holda muayyan son shakliga ko’yish, fe’l sonini otlar soni bilan moslashtirish, harakat yo’naltirilgan otni zarur kelishikka ko’yish yoki tegishli old ko’makchidan foydalanish lozim.

Bola tayyor shakllarni «kabul kilmaydi», aksincha ularni ma’lum koidalar asosida tuzib chikadi. Bu koidaning mohiyati shundaki, bunda bola til belgisini birgalikdagi semantik va grammatik birlik (L.S.Vыgotskiy ta’riflagan «psixologik kurol bilan») sifatida o’zlashtiradi. Butun til rivojlanishining asosida bolani predmetli faoliyati yotadi. Bolaning til borliђi elementlari bilan harakati mohiyatan, xuddi predmetli olam bilan amalga oshiriladigan harakatlar kabidir. Sobik sovet davridagi tanikli psixolog D.B.Elkonin ham aynan shunga e’tiborni karatgan. U umuman olganda, o’zlashtirish bilan moddiy predmet sifatidagi harakatlarni shakllantirmasdan turib uni amalga oshirish mumkin emasligini kayd etgan[10]. Ushbu harakatlar choђida bolada til borliђi haqidagi tasavvur shakllanadi. Bola bu tasavvurlarni o’zining predmetli olam haqidagi bilimlariga mos ravishda shakllantiradi.

So’nggi fakt M.I.Popova[11] tomonidan o’tkazilgan maxsus sinovlarda ko’rsatilgan. U bolalarning kanday qilib so’zda so’z yasovchi elementlarni ajratib olishlarini tadkik kilgan (lingvistikada ularni morfemalar deb atashadi). Bunda tur ko’rsatkichiga ega bo’lgan o’tgan zamon fe’l shakllari material sifatida xizmat kilgan. So’z yasash xususiyatlariga ko’ra aniklanadigan ot turi fe’l ko’shimchasini aniklash uchun yagona mo’ljal hisoblanadi. Tegishli morfemani (tur belgisi) ajratib olmasdan turib to’g’ri kelishishni amalga oshirish mumkin emas. Bolalar esa sinov paytida tegishli shakliy ko’rsatkichlarni real predmetli munosabatlar asosida ajratib oldilar. Bolalarning grammatik hodisalarni tushunishi predmetli munosabatlarga asoslangani haqida boshka tadkikotchilar ham yozganlar (F.A.Soxin, F.I.Fradkina).

Bola so’z yasash toifalarining tashki, tovushli ifodalarini o’zlashtirib olishi lozim. Bunda bola eng avvalo so’z yasovchi elementning tashki – moddiy tomoniga yo’naladi va uni mustaqil mazmun sifatida kabul kiladi, morfemalarning jaranglashini obrazli asoslaydi. Boshkacha qilib aytganda, bola dastlab morfema jarangining o’zida real munosabatlar bilan bog’liqlikni topishga harakat kiladi. Agarda bola eng avvalo morfema so’zga olib kiradigan tovush o’zgarishini

[10] Эльконин Д.Б. Развитие речи детей в дошкольном возрасте. М., 1958.

[11] Попова М.И. Грамматические элементы языка в речи детей дошкольного возраста. –«Вопросы психология», 1958, №4.

aniklasa va uni kiyoslay olsa (tovush o’zgarishlari hakikatda yuz bergan o’zgarishlar bilan), u bu munosabatlarni topishi mumkin. Ayni paytda bola so’zga «butunlay» yo’naladi, ya’ni umumiy tovush xususiyatlariga e’tibor karatadi. Predmetli olamdagi o’zgarishlar predmetning kandaydir ahamiyatli xususiyatlariga (bola nuktai-nazaridan) taallukli bo’lmaydi, aks holda predmet belgilash uchun boshka so’zni, yangi nomni talab kiladi.

Bu o’zgarishlar predmet harakati natijasida kelib chikishi mumkin (holat o’zgarishi); predmet belgilariga taallukli bo’lishi mumkin (sifat o’zgarishi), predmetlar soniga taallukli bo’lishi mumkin va h.k. Predmetning ushbu o’zgarishlari bola tomonidan hissiyotli kabul kilinadi va uning ongida tasavvur ko’rinishida aks etadi. Tasavvur predmetli harakatlar hisobiga boyiydi, bu jarayonda bola o’zaro hamkorlikdagi predmetlarni kuzatadi va o’zi ham ushbu hamkorlikda faol ishtirok etadi. Hissiyotli kabul kilinayotgan belgilardagi o’zgarishlar haqidagi ma’lumotni bola kattalar bilan muloqot choђida oladi. Muloqotga ehtiyojmandlik va ushbu muloqotning tobora murakkablashib borayotgan shartlari boladan atrof borlikdagi o’zgarishlar haqida olingan tasavvurlarni nafakat kabul qilish va aks ettirish, balki ifodalashni ham talab kiladi.

Olingan bilimlarni ifoda qilish tegishli vositalarni talab etadi. Umuman olganda, bolada bu vositalar mavjud, u mazkur narsa yoki harakat nima deb atalashini biladi va h.k. Predmetdagi o’zgarishlar haqidagi bilimlarni ifodalash uchun nom-so’zni o’zgartirish zarur. SHunda aynan ushbu shaklni tanlash uchun tegishli koidani kidirish boshlanadi (mazkur shaklni bola so’zdan «alohida» tarzda o’zlashtirib olgan).

Birok, shakllarni o’zlashtirish kamlik kiladi, chunki ushbu shakllarni tanlashni ham bilish zarur. Kattalarda shaklni tanlash tilda shakllangan vositalar bilan bog’liq, bola bo’lsa uning tasavvurida predmetli munosabatlar namunalari bilan bog’liq bo’lgan, asoslangan shakllarni tanlashga intiladi. Ayni paytda shakllarni tanlashning obrazlarga asoslangan turi va predmetli munosabatlarga yo’nalish bolalarda ancha vaktgacha, to maktab yoshigacha saklanib koladi.

Bolaning morfemaning tovushli shakliga yo’nalganligi va uning morfema jaranglashiga motivatsiyalangan mazmun sifatida karashi bolani juda muhim xulosaga olib keladi: o’xshash hodisalar o’xshash tarzda belgilanadi. Bolalarning ko’p sonli yangi so’z yasashlarining (neologizmlar) yuzaga kelish sababi shunda. Bu - bola kattalardan hech kachon eshitmagan, ammo u yoki bu so’z yasovchi element «faoliyati» haqidagi umumlashtirilgan tasavvurga to’la muvofik holda hosil kilingan so’zlardir.

Birok bu o’xshashlik to’g’ridan-to’g’ri oddiy mexanik holatdagi o’xshashlik emas, bu – bolaning olam haqida olgan bilimlarini mos tarzda ifodalash, koidalarni «tekshirib ko’rish» va o’zlashtirishga nisbatan ijodiy intilishi namoyishidir. Bunga bolalarning so’z ijodkorligidan ko’plab misollar keltirish mumkin.

SHunday fikr mavjudki, unda bolaning o’z predmetli anik ma’nosiga ega bo’lmagan, to’g’ridan-to’g’ri hech qaysii borlik predmeti bilan kiyoslanmaydigan morfema kabi mavhum elementlarni ajratib ololmasligi kayd etiladi. Birok, ushbu nuktai-nazarga karshi bo’lgan va morfemaning so’zda «beixtiyor» ajratib olinishini isbotlaydigan ko’pgina ma’lumotlar ham mavjud.

Muayyan bosqichda bitta so’z shakllari bola uchun turli so’zlar hisoblanadi. So’z yasovchi elementni so’zning alohida ahamiyatga ega bo’lgan kismi sifatida ajratib olgunga kadar mazkur element eski so’zga yangi ma’no olib kirmaydi, aksincha u yangi so’z yaratadi. Gap shundaki, so’zning har bir shaklini bola narsalar olamidagi yangi narsalardan biri sifatida kabul kiladi. Bu bolaga ushbu munosabatlarni belgilaydigan so’z yasovchi elementni asta-sekin boyitib borish imkonini beradi. Mazkur umumlashtirishlar asosida til tuzilmasining bir kismi sifatida u yoki bu hodisa haqidagi umumiy tasavvur (beixtiyor) hosil bo’ladi. Ko’rgazmali namoyish psixik aks ettirish sifatida sust emas, faol bo’ladi, u inson hayotini, amaliyotni o’z ichiga oladi, u «sub’ektiv-ob’ektivlar»ning muntazam ravishda bir-biriga kuyulish sari harakatidir. Ijod so’zi so’z shakllarining ob’ektiv mazmuni shakllanganligidan dalolat beradi. Tasavvurlarni umumlashtirish lingvistlar e’tiborini jalb kiluvchi bolalar grammatikasi mazmuni kuriladigan poydevor bo’lib xizmat kiladi.

So’z hosil qilishni (so’z o’zgartirishni) o’zlashtirishda bolaning morfemaning tovush kiyofasiga yo’nalishi shu bilan isbotlanadiki, dastlab talaffuzning anikligi aynan ko’shimchalarda ko’rinadi. M.I.Popova ham shunday xulosaga kelgan, u grammatik shakllarni o’zlashtirish uchun bolada so’zning tovush shakliga yo’nalganlik hissi shakllangan bo’lishi lozimligini ko’rsatib bergan. Yo’nalganlik hissini shakllantirish uchun bolaning so’zlar bilan faol ish olib borishi juda muhim ahamiyat kasb etadi. Yo’nalganlikning o’zi ham aslida aniklovchi komponent sifatida ushbu faoliyatga kiradi. Bolaning faolligisiz shunchaki tajriba to’plash katta natija keltirmaydi.

Bola morfemani egallash jarayonida kator bosqichlardan o’tadi. Dastlab morfema ajratiladi, so’ngra u vazifasiga ko’ra ko’llanila boshlaydi, o’z jaranglashidan «ajralgani» holda belgi sifatida chikadi.

Morfemaning tovush kiyofasini kabul qilishda bolada ko’rgazmali tasavvur asosida jaranglashning predmetli munosabatlar bilan obrazli alokasi shakllanadi. Bola ushbu obrazli aloka asosida o’ziga kerak bo’lgan so’zning to’g’ri talaffuz kilinishini «tekshirib ko’radi», bunda u o’zi hosil kilgan umumlashtirmalarga amal kiladi. SHuning uchun bolada so’zlarni buzib talaffuz qilish holatlari ro’y beradi (O’zbek tilidan misollar keltirish lozim).

Boladagi faol harakat morfemaning unga bevosita berilmagan xususiyatlarini ochishi uchun zarurdir. Ayni paytda bola so’zlar bilan xuddi predmet bilan bo’lgani kabi harakat kiladi va uning natijasida aniklangan koida ushbu so’z yasovchi elementni nima uchun ko’llash lozimligini ko’rsatadi.

Koidaning shakllanganligi va uning mustahkamligini sinov yo’li bilan tekshirib ko’rish mumkin, bunda bola ushbu gipotetik koidani avvaldan notanish til materialiga nisbatan, masalan, kvazi-so’zlarga nisbatan ko’llash zarurati oldida koldiriladi.

Ichki, anglanmagan, birok shak-shubhasiz, amalda bo’lgan til tizimining mavjud bo’lishi bolaning to’g’ri kurilgan so’zni noto’g’ri kurilgan so’zdan ajratib olishida namoyon bo’ladi. Bola to’g’ri so’z hosil qilishga intilgani holda doimo o’z nutqini tuzatib borishga harakat kiladi («Daryoda balik ko’p edi.. baliklar…ko’p baliklar»). Bola o’z fikr bildirishlarining sintaksisini ham aynan shu tarzda to’g’rilaydi («Timur yiђladi, chunki unga shapalok urishdi… oyisi shapaloђi bilan urdi, chunki uning oyisi shapalok tushirdi»). O’zini-o’zi to’g’rilashga oid bunday ko’plab holatlar, shuningdek atrofdagilar nutqini to’g’rilash (bolalar fikriga ko’ra, noto’g’ri bo’lgan) bolalarning turli tillardagi nutqlarining magnitofon yozuvlarida kuzatilgan.

Bolalarning so’z ijodkorligi – koiadalar, umumlashtirmalarni shakllantirish, obrazli alokalar harakati jarayonlarining eng yaqqol ko’rinishidir. Bolalarning so’z ijodkorligini bolalikda ona tilining grammatik tuzilishini o’zlashtirish jarayonining tomonlaridan biri sifatida tahlil kilgan F.A.Soxin ushbu jarayonlar negizini tilning tizimli alokalarining bola ongida aks etishi va uning til mexanizmlari shaklida mustahkamlanishi tashkil kiladi, degan xulosaga kelgan.

Bolaning til borliђiga nisbatan faol ijodiy munosabati uning tilning so’z hosil qilish imkoniyatlarini amalga oshirishida ko’zga tashlanadi. Bolada generallashuv natijasi sifatida borlik hodisalarining ularni ifodalashning til kobiliyati bilan umumlashtirilgan alokalari aks etadigan so’z hosil qilish modeli haqida ayrim tasavvurlar shakllanadi.

Boladagi bu alokalarning xususiyati shundaki, umumlashtirish jarayonining o’zi yoshga oid ayrim psixologik o’ziga xosliklarga bo’ysundirilgan. Biz tomonimizdan bola ruhiy hayotida obrazli, ko’rgazmali komponentlarning hukmronlik qilishi kayd etilgan. SHuning uchun so’z hosil kiluvchi vositalar bolaning amaliy, predmetli tajribasi orkali aniklanishi lozim.

Nutqiy rivojlanishning turli bosqichlarida bola uchun leksik ahamiyat («o’zakli») predmetli ahamiyatga eng yakini sifatida yetakchi o’rin tutadi. U ahamiyatlarni rasmiy til birliklari (tabiatan mavhum bo’lgan) yordamida takomillashtirish mexanizmini hali egallamagan.

Uch yoshgacha bolaning lug’ati «turli» so’zlar hisobiga ortib boradi. Uch yoshdan keyin so’z yasovchi daraja yetakchi darajaga aylanadi. Bolaning faoliyat ko’rsatish va muloqot sohasi jadal kengayib boradi, va uni tavsiflash uchun nakd leksik vositalar yetmaydi: bola so’z yasashga murojaat qilishga majbur bo’ladi. Agarda yangi hodisani ifodalash uchun ma’lum birlik mavjud

bo’lmasa, bu holda mazkur birlik «ixtiro kilinadi», ammo aslida u yangidan emas, balki bola til tizimining so’z yasash darajasini tashkil kiluvchi ma’lum (anglanmagan) koidalar asosida shakllantiriladi. Ayni paytda yangi kashfiyot tuzilmasi faoliyat tajribasi bilan determinirlanishi zarur.

Turli yoshdagi bolalar uchun so’z hosil qilishning yetakchi darajasi o’zgarib boradi. Ilk yoshda bolaning nutqiy faoliyatida leksik daraja yetakchi hisoblanadi: borlikning turli hodisalarini tavsiflash uchun bola o’z ixtiyorida mavjud bo’lgan leksik birliklardan foydalanishga harakat kiladi. «Poezdni kim boshkaradi?» degan savolga kichik yoshli bola quyidagicha javob beradi: «Mashinist» (uning ixtiyorida tanish so’z bor). «Kim hamma narsani buzadi?» - bola zarur so’zni topa olmaydi va anik darajada o’tadi: «Timur». Nisbatan katta yoshli bola o’zidagi mavjud so’z yasash koidalariga muvofik holda buzuvchi so’zlarni yaratadi va shu tarika vaziyatdan chikib ketadi. U shu bilan ob’ektlarning butun sinfini nomlaydi, ayni paytda «Timur» so’zi o’zining anikligi tufayli bunga yaramaydi.

Yo’naltiruvchi faoliyat tasavvurga, vaziyat obraziga asoslangan. Vaziyat dastlab yalpi, bo’laklarga ajratilmagan holatda namoyon bo’ladi. Bola nutqida u ham dastlab a’zolarga bo’linmagan holatda ifodalanadi. Vaziyat haqidagi tasavvurni rivojlantirish hamda ushbu vaziyatni nutqiy ifodalashni rivojlantirish yalpi va bo’laklarga ajratilmagan vaziyatdan anik va bo’laklarga ajratilgan vaziyatga karab rivojlanib boradi. Yo’naltirish mazmuni quyidagilardan iborat: - ob’ektning anik sifatlari, belgilarini tanish; - ushbu belgilar nomlarini aytish yoki ularni ifodalash shakllarini tanlash, ob’ektlar haqidagi ma’lumotlarni boshkasiga uzatish uchun ularni ajratish. SHu bilan bir vaqtida ob’ektlarni ixtisoslashtirish, ulardan vaziyatlarni ajratib olish va vaziyat elementlariga nom berish (belgilar, harakatlarni nomlash) kabi boshka jarayonlar ham davom etadi. Ushbu jarayonning ilk bosqichlarida predmet, vaziyat va ifoda shakllarini kiyoslashda ko’rgazmalilik, obrazlilik hukmron bo’ladi. Masalan, bola narsalarning hajmiga ko’ra bir-biridan farklanishini bilsa, u tilda ushbu farklarni ifodalash usullarini ham topishi lozim. Kattalar nutqida unga ushbu hodisaning turli ko’rinishlari taklif etiladi, ammo bola ushbu misollardan mexanik tarzda nusxa ko’chirib olmaydi, balki uni ijodiy jihatdan qayta mulohaza qilib ko’rishga intiladi: chichon – «katta sichkon», nanna – «katta non» (A.N.Gvozdev). YOki harakat obrazini ifodalash uchun tilda kabul kilingan amalga oshirish usullari: - raspaketit, vьitolknul (K.I.CHukovskiy). Biz bu yerda so’z mazmunini o’zgartirish uchun, yangi mazmunini ifodalash uchun uning shaklini ongli ravishda o’zgartishni ko’rib turibmiz. SHuning uchun grammatik shakllarni o’zlashtirishning izchilligi tasodifiy emas (A.N.Gvozdev tomonidan ro’yxatdan o’tkazilgani kabi): otlar soni, otlarning kichraytirilgan shakli, buyruk mayli, kelishiklar (u bolalarga predmetlarning borlikda yo’naltirilganligi haqidagi bilimlarni ifodalashda yordam beradi), zamon kategoriyalari, fe’l shaxslari. Bu yerda nisbatan oz mavhumli, anik shakllardan yanada mavhum shakllarga, oddiy, rasman ifodalashdan (kichraytirilganlik) murakkab va predmetli vaziyat bilan kiyin takkoslanadigan ifodalar sari yo’nalish yaqqol ko’zga tashlanadi.

Kayd etilganidek, grammatik shakllarni egallab olish ko’rgazmali tasavvurni shakllantirish asosida ro’y beradi. Bu murakkab yo’l bo’lib, unda bir nechta bosqichlarni ajratish mumkin: so’zning tovush shakliga yo’nalish, umumiy tovush shakllarini aniklash, ushbu shakllarni borlik hodisasining kandaydir elementi bilan birlashtirish, va nihoyat, tovush kompleksining mazkur hodisa bilan «kattik» alokasini o’rnatish va okibatda, ushbu hodisani belgilash uchun mazkur tovush kompleksini barcha so’zlarga o’tkazish.

Grammatikaning gap tuzish usullari bilan bog’liq bo’lgan kismini o’zlashtirish kay tarzda ro’y berishini ko’rib chikamiz. So’z nutqning muhim xususiyati - uning mahsuldorligini ta’minlovchi sintaksis haqida bormokda.

Olimlar ko’plab tadqiqotrdan kelib chiqqan holda til tarkibini bilish tuђma kobiliyat emas, balki til rivojlanishi jarayonida bola koidaga o’xshash narsalarni o’zlashtirib oladi va ular yordamida o’zining cheklangan tajribasini son-sanoksiz gaplar tuzish hamda ularni tushunish darajasiga kengaytiradi, degan fikrlarni bildirmokdalar. Bugungi kunda lingvistikaning vazifalaridan biri – ushbu kobiliyat tabiatini va mexanizmini tushunishdan iboratdir. SHu narsa

kundek ravshanki, sun’iy sharoitlarda til o’rgatilganida biz yanada cheklangan til tajribasiga va yanada kam sonli gaplarga duch kelamiz. Ayni paytda fakan ana shunday kobiliyat, agarda u shakllantirilsa, bizning o’quvchimizga o’rganilayotgan tilda muloqot qilish, ya’ni ancha ko’p sonli gaplarni tuzish va ularni tushunish imkonini beradi.

Ona tili sintaksisini egallash, Yuqorida ko’rsatib o’tilgan koidalarning kanday qilib (eng umumiy ko’rinishda) yuzaga kelayotganligini ko’rib chikamiz. Bolaning birinchi so’zlari ko’pincha gapda kommunikativ kuchga ega bo’ladi, va mohiyatan, bir so’zli gaplar hisoblanadi. Ularda grammatik tizimning yetishmayotgan elementlari yiђishtirib ko’yilgan, vaziyatdan kelib chikib muloqot berilgan, va bunday gaplarning mazmuni vaziyatga karab o’zgarishi mumkin. «Ona» - bu «Oyi, bering», va «Mana oyi», va «Mening kornim och» va boshkalar ham bo’lishi mumkin.

Bu fakt bizga quyidagilar tufayli kizikarlidir: birinchidan, bola so’zni shunchaki talaffuz kilmaydi, real nutqiy faoliyatda bunday bo’lmaydi. So’z (to’g’riroђi, uni ko’llash) nutq jarayonining, kommunikatsiyaning bir kismi hisoblanadi, va so’z doimo nima uchundir (motiv) hamda nima sabablidir (maksad) ko’llanadi. Ikkinchidan, bir so’zli gapni ko’llash bola nutqida, ayni paytda deyarli hamma bolalar nutqida tabiiy ravishda va uzok vakt davomida kuzatiladigan hodisadir.

Bolalar nutqi bir necha marta psixologlar va lingvistlar tomonidan tadkik kilingan, ammo bu tadqiqotrga ko’pincha talkin qilishdagi mazmuniy yondashuv yetishmagan: ularning barchasi shunchaki lug’at sonini va uning o’sishini sanash, bolalar so’zlarini «nutq kismlari bo’yicha» zerikarli tasniflashdan iborat bo’lib kolgan. Birok, deya hakli ravishda yozadi D.Slobin, gap kattalar tilida qaysii nutq kismi u yoki bu so’zga kiritilishi mumkinligida emas, balki uning bolaning til tizimida kanday o’rin egallashi haqida bormokda. Psixolingvistik tadqiqotr shuni ko’rsatdiki, bola kattalar tilining kategoriyalar tizimiga amal kilmaydi, aksincha u o’zining «individual» til tizimining ichidagi vazifaviy xususiyatlariga asoslangan o’z so’zlar kategoriyasini yaratadi. Masalan, kattalar tilida ot kategoriyasiga taallukli bo’lgan so’z bolalar gapida (va bolalarning til tizimida) fe’l vazifasini bajarishi mumkin. Ushbu hodisa bola bir so’zli gaplar bosqichidan ikki so’zli gaplarga o’tganida ta’sir kila boshlaydi, o’shanda grammatika shakllana boshlaydi, tilni tarmoklantirish boshlanadi. Bola berilayotgan mazmunni ikki so’zni bir-biriga ko’shish orkali kengaytirish imkoniyati mavjudligini «sezib kolishi bilan» ikki so’zli gaplar soni shiddat bilan o’sa boshlaydi. SHu o’rinda fakat bitta bola nutqiga oid ma’lumotlar bo’yicha ana shunday toifadagi gaplar sonining o’sishiga misol keltiramiz: 14, 24, 54, 89, 350, 1400, 2500.

Tahlillar shuni ko’rsatmokdaki, bola gapda so’zlarni shunchaki tasodifiy tarzda boђlamaydi va bu o’rinda gap ko’proq so’zning ikki vazifaviy sinflari mavjudligi haqida bormokda. Bu unchalik katta bo’lmagan va nisbatan yopik bo’lgan «tayanch so’zlar» toifasi hamda ko’pchiligi bir so’zli gaplardan iborat bo’lgan keng, «ochik» so’zlar toifalaridir. Ikki so’zli gap tuzish uchun «tayanch» sinfidan so’z tanlab olinadi (u xuddi gapning semantik asosi hisoblanadi), mazmun esa «ochik» sinfdagi ikkinchi so’z hisobiga o’zgarib boradi. Masalan: «YAna kitoblar», «YAna sut», «YAna o’ynash».

Mazkur hodisa turli til toifalarida so’zlashayotgan bolalar nutqi rivojida kuzatilgan va u tilni tizimlashtirish, uni tarmoklantirish boshlanganligidan dalolat beradi. Bolalarning fikr bildirishlari ham o’zgaradi, ularda ham turli tilli bolalar uchun umumiy bo’lgan toifalarni aniklash mumkin. Mazkur masala ta’lim maksadlari uchun kizikarlidir: bolalar eng kam til vositalaridan foydalanganlari holda nimalar haqida so’zlamokdalar? Lekin afsuski, bu borada juda kam narsalar ma’lum. Xususan, ma’lumki, bolalar asosan ob’ektlar nomlarini aytadilar hamda juda erta paydo bo’ladigan va universal hisoblangan «ega-kesim» kombinatsiyasidan foydalangan holda harakatlarni tavsiflaydilar. Bola juda yoshligidan kandaydir inkor shaklini kidira boshlaydi – shundan kelib chiqqan holda insonlarning kommunikatsiyasi uchun inkor kategoriyasining nakadar muhimligini bilish mumkin.

Bolalar nutqini tadkik qilish jarayonida fikr bildirish semantikasining quyidagi turlari (ko’plab tillarda) ajratiladi: nom, joylashgan joyini aniklash, iltimos-buyruk, vokea, vaziyatni

tavsiflash, narsaning nimaga oidligini ko’rsatish, predmet sifatini aniklash, predmet sifatini ifodalash, savol, inkor (ushbu barcha fikr bildirishlar bilan birgalikda), birlashtirish («Piyola bilan choynakni ko’rayaman»).

Bola ikki so’zli gap doirasidan chikishi bilan uch va undan ortik so’zlarni bir-biriga boђlay boshlaydi, unga gaplar so’zlarni pala-partish ravishda terib tashlash yoki tasodifiy ravishda bir-biriga boђlash orkali emas, balki muayyan tuzilmalarni birlashtirish orkali tuzilishi yanada tushunarli bo’lib boradi. Xuddi bolaning farklanmaydigan tovushlarni tashlab yuborgani holda tilning tovush tizimi borasida umumlashtirmalarni amalga oshirayotgani, yoki o’z ixtiyorida fakat mazmunga ta’sir kiladigan so’z o’zgartirish usullarini koldirgani holda so’z o’zgartirishning morfologik tizimimni o’zlashtirib olishi kabi sintaksisni egallash jarayonida ham bola muayyan semantik munosabatlarni uzatuvchi sintaktik tuzilmalarni «aniklaydi». Bolalar nutqini kuzatish, fakat gapning tuzilmaviy tarkibi o’rtasida kayd etiladigan fikr bildirishlardagi pauzani tahlil qilish, intonatsiya turlarini tahlil qilish va h.k. ana shu jarayondan dalolat bermokda.

Muloqot ehtiyojlaridan kelib chikadigan savol va inkorni ifodalash zarurati bolani tegishli til vositalarini kidirish zarurati oldida koldiriladi. Bu jarayon o’ta kizikarli bo’lib, u bola keyinchalik voz kechadigan ko’p sonli oralik grammatikalarni, tizimlarni yaratish orkali tilni o’rganishdagi faollikni yaqqol namoyish kiladi. Rus tilida savol gaplarning paydo bo’lishi rus tilida so’zlashadigan bolalarning intonatsiyani o’zlashtirishlarida birdagina sur’atni oshirib yuboradi. Intonatsiya anik kayd etilgan «savol signali»ga aylanadi.

Yuqorida bayon etilganlar til egalari bo’lmish kattalar ko’p sonli yangi fikr bildirishlar talkinini yaratishda foydalanadigan ayrim koidalar tizimi mavjudligi haqida hamda bola aynan shunday tizimni egallashi to’g’risidagi taxminlarni juda asosli ekanini ko’rsatadi. Tilni rivojlantirish (parallel ravishda lug’at to’plash) mohiyati ham ana shunda.

A.R.Luriyaning hakli ravishda kayd etishicha, til kobiliyati ham, til faolligi ham birdaniga paydo bo’lmaganlar va ular ikki mustaqil hodisa hisoblanmaydilar. O’ylash mumkinki, tildagi «layokatlilik»ning o’zi uni ko’llashni rivojlantirish natijasi hisoblanadi hamda borlikni faol aks ettirish va faol muloqotga kirishish jarayonida bolada tilni tushunish paydo bo’ladi.

«Tilning nasliy ildizlarini anik insoniy hatti-harakatlarning tashki borlikni aks ettirish va olamning sub’ektiv obrazini, bolaning atrofdagilar bilan asosiy muloqot usullarini shakllantirish amalga oshiriladigan shakllaridan kidirish lozim, deyish uchun asos bor»[12].

Bolalarning grammatikani o’zlashtirishlari masalasini ko’rib chikib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- Bola tayyor so’z shakllari va ularning tayyor kombinatsiyalari bilan amallar bajarmaydi, balki ularni o’zi tomonidan ochiladigan koidalar tizimi asosida yaratadi.
- Koidalarning mohiyati til tizimining elementini ongsiz ravishda ajratish va uning vazifalarini borlikni belgilashdan iborat qilib ko’yishdadir.
- Koidani shakllantirish asosida mazkur til hodisasining semantik, mazmun jihatdan ahamiyatlarini baholash jarayoni yotadi: bola dikkat-e’tiborini fakat so’z yoki gaplar mazmuniga karatadi.
- Semantik jihatdan ahamiyatlilik haqidagi axborot predmetli, o’yin va til faoliyati chegaralaridan «topiladi».

### Grammatik kurilishni shakllantirishga doir ishlar mazmuni va vazifalari

Bolalar bog’chasi, oila oldida - bolalarga to’g’ri so’zlashni o’rgatish, ya’ni so’zlardagi barcha tovushlarni to’g’ri talaffuz qilish, to’g’ri grammatik shakllarni ko’llashni o’rgatish vazifasi turadi. SHundan kelib chikadiki, o’kituvchining muhim vazifasi bolalar ona tilining barcha grammatik shakllarini iloji boricha oldinrok eshitishlari va asta-sekin ularning ma’nosiga

[12] Лурия А.Р. Научные горизонты и философские тупики современной лингвистики. – «Вопросы философии», 1975, №4, 148-бет.

tushunib borishlari haqida qayg’urishdan iborat bo’lmoђi darkor. Ona tilining grammatik ahamiyatlari ma’nosini tushunish – o’sib borayotgan insonning akli shakllanayotgani va rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Ushbu jarayon ongsiz ravishda amalga oshadi. Birok, u sifatsiz o’kitish tufayli to’xtab kolsa, bolaning aklan rivojlanishi ham kechikadi. Ona tilining grammatik tuzilishini maktabgacha o’zlashtirmagan bola keyinchalik yomon o’kiydi, chunki u maktabda o’rganilayotgan borlik hodisasining aloka va munosabatlarini tushunishga ojizlik kiladi.

Bu boradagi vazifalar quyidagilardan iborat:

- Fikr bildirishni grammatik rasmiylashtirishni o’zlashtirishga yordamlashish: so’zlarni o’zgartirish (son, kelishik, zamon va h.k. bo’yicha), ularni turli tarkibdagi gaplarda kelishish, kichraytiruvchi-erkalovchi nomlarni, tugallangan va tugallanmagan ko’rinishdagi fe’llarni hosil qilish;
- YAngi so’zlarni grammatik jihatdan o’zgartirish va ularni gapda o’xshashliklari asosida kelishtirishga undash. So’zlarni va ularning shakllarini mustaqil ravishda tuzish, so’z ijodkorligidan nomlar o’rtasidagi rasmiy-semantik munosabatlarni tadkik qilishning fakat bolalarga xos bo’lgan usuli sifatida foydalanish. Narsalar va hodisalar o’rtasidagi munosabatlar borasidagi o’z tushunchalarini gapning murakkablashtirilgan tuzilmasi orkali aks ettirish (oddiy yoyilmagan va yoyik, boђlangan ko’shma gaplar va ergashgan ko’shma gaplar).
- So’z o’zgartirishning kiyin ko’rinishlarini o’zlashtirishga ko’maklashish (Bosh kelishik va karatkich kelishikdagi ko’plikdagi otlar, o’zgarmaydigan otlar, fe’llarning buyruk mayli shakllari, fe’llarning tugallangan va tugallanmagan shakllarini hosil qilish).
- Fe’llar, otlar, sifatlardan so’z hosil qilish usullarini shakllantirish. Gaplar tuzilmasini takomillashtirish, gaplarning har xil turlarini – oddiy, murakkab, begonalar nutqi ishtirokidagi gaplarni faol o’zlashtirishda ko’maklashish.
- Grammatik vositalarni o’zlashtirish jarayonida nutqka nisbatan tankidiy munosabatni, to’g’ri so’zlashga intilishni ko’llab-kuvvatlash.

Ushbu vazifalar kanday dasturiy tarkibda hal etilishi mumkin, ya’ni ushbu bo’lim bo’yicha ishlarni tashkil etish uchun tarbiyachi qaysii so’zlar va grammatik shakllardan foydalanishi zarur.

Tarbiyachi grammatik to’g’ri nutqni shakllantirishga doir ishlar mazmunini yaxshi bilishi, ayniksa maxsus metodlar orkali beriladiganini yaxshi bilishi lozim.

Grammatik katorni bola turli nutqiy faoliyat jarayonida mustaqil ravishda o’zlashtiradi. Uch yoshli bola tur, son, zamon, shaxs kabi grammatik kategoriyalardan foydalanadi hamda oddiy va ko’shma gaplarni ko’llaydi.

Bola sabab-okibatli alokalar, vaktbay, muhit, mikdoriy va boshka alokalarni anglash bilan bir vaktning o’zida ularni grammatik shakllarda va kurilmalarda (birlik va ko’plik son, ot kelishigi, fe’l zamonlari va turlari; orttirma zamonli murakkab gaplar, maksad va h.k.) ifodalash usullarini o’zlashtiradi.

Bola grammatik vositalarning keng turini o’zlashtiradi. Masalan, «Nima yo’k» nomli didaktik o’yinida grammatik shakllardan foydalanadi: mo’ykalam, ruchka, kaychi va h.; «Sayyohatda» o’yinida o’ziga to’rt oyokli do’stlar tanlaydi: sichkoncha, kurbakacha, tulkicha, kirpicha; ko’ђirchok uchun nonushta uyushtirar ekan dasturxonga choynakni, kanddonni va sutdonni ko’yadi va o’ylanib koladi: kand uchun – kanddon, suxari uchun –suxaridonmi?

Bola tildan foydalangan holda uning xususiyatlarini o’rganadi, so’zlar va grammatik shakllar orkali u bilan sinovlar o’tkazadi. Bolalar aks ma’noli so’zlarning (antonimlar: katta-kichik, kuchli-zaif) o’zaro bog’liqligini, ma’no jihatidan bir-biriga yakin so’zlarni (sinonimlar: kuchuk, kuchukcha, olapar), so’z yasovchi juftlikdagi so’zlarni (tulkida – tulkicha, kiyikda - kiyikcha) o’zlashtiradilar. Ko’p ma’noli nomlar bilan tanishadilar (kizchaning ko’li,

ko’ђirchokning ko’li, o’quvchining ko’li, dazmolning ushlagichi, kutining ushlagichi, kastryulning kuloђi, bolaning oyoђi, stulning oyoђi, gulning oyoђi, kushning oyoђi).

Grammatik mazmunga ega bo’lgan dialogik o’yinlar, mashklar va muammoli vaziyatlar – bolalar nutqining grammatik jihatdan to’g’riligini, ularning grammatik shakllar sohasidagi kidiruv faolligini rivojlantirishning zarur shartlari hisoblanadi. Bola so’z bilan sinov o’tkazar ekan, to’g’ri shaklni «ushlab ko’rgani» holda jaranglayotgan nutqni tinglaydi, so’zlarni erkin almashtirish, grammatik o’xshashliklarni aniklash, shakl va so’z yasash koidalarini yaratishni o’rganadi. Muammoli nutqiy vaziyatlarda («yozma nutq» vaziyati, bunda bola hikoyani aytib turadi, katta yoshli odam esa yozib oladilar), birgalikda to’kish vaziyatida, bunda katta yoshli gapni boshlaydi, bola esa nihoyasiga yetkazadi; «Jonli so’z» o’yinida gap tuzilmasini modellashtirish jarayonida bolalar turli tarkibdagi gaplarni tuzishni, nutqni erkin ravishda tuzatishni o’rganadilar.

Afsuski, hozirgi paytgacha bolaning amaliy bilimlarni o’zlashtirishda ortda kolayotganini kanday qilib barvakt aniklash mumkinligi haqidagi ko’rsatmalar (tavsiyalar) ishlab chikilmagan. Biz bu ortda kolishni bola maktabda hattoki 1-sinf kursini o’zlashtirishga ham kodir emasligi ma’lum bo’lganida va endi biron narsani o’zgartirish kiyin bo’lgan bir paytda paykaymiz.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqidagi grammatik xatoliklar grammatik ahamiyatni o’zlashtirish jarayoni normal holatda davom etayotganligidan, bolaning o’z ona tilida grammatik ahamiyat mavjudligi haqidagi ђoyani o’zlashtirib olganidan va mazkur ahamiyatni u taklid kiladigan grammatik shakllar namunalarini takdim etadigan tarbiyachilar (ota-onalar)ning pedagogik kobiliyatidan kelib chiqqan holda egallab olayotganidan dalolat beradi. Nutqda grammatik shakllarni tushunish (intiutiv) sari o’z vaktida yo’naltirilgan bola esa bunday xatoliklarga yo’l ko’ymaydi, chunki ko’pincha u jim o’tiradi.

SHuningdek, bolalar nutqidagi kator grammatik xatoliklarning mavjudligi bolalarning o’zlari ko’llayotgan grammatik shakllar ma’nosini tushunishlari, ammo hali ularni nutqda kanday qilib ko’llashni **e**sda saklab kolmaganliklari – ya’ni, nutqiy me’yorlarni o’zlashtirib olmaganliklaridan dalolat beradi.

**So’z yasashdagi grammatik xatoliklar.** Bolalar «o’z» so’zlarini o’zlari o’zlashtirib ulgurgan so’zlarga o’xshatib hosil kiladilar. Masalan: (shu yerga o’zbekcha variantdagi misollar ko’yiladi).

Bunday misollarni juda ko’plab keltirish mumkin: chunki, normal rivojlanayotgan har kanday bola o’z so’zlarini «ijod kiladi».

Kattalar bolalarning ushbu yangi hosil kilgan so’zlarining grammatik ma’nosini oson tushunadilar, chunki bu yerda ma’no jihatidan grammatik xatoliklar yo’k: old ko’shimchalar, suffikslar mutlako tushungan holda ko’llanmokda, ulardagi ma’no to’g’ri; bu o’rindagi xatolik shundan iboratki, bolalar ushbu affikslarning adabiy nutqda qaysii o’zak morfemalari bilan ko’llanishini hali eslay olmaydilar.

**So’z o’zgartirishdagi grammatik xatoliklar.** Bolalar nutqdagi so’zni odatda, turlash yoki kelishtirishning mahsuldor turi asosida o’zgartiradilar, samarasiz turni ular odatda, kechrok o’zlashtiradilar, agarda bu borada ularga yordam berilmasa, so’z o’zgartirishdagi xatoliklar maktabgacha «umr ko’radi», maktabda esa ularni tuzatish ancha kiyin kechadi.

So’z o’zgartirishning samarasiz turiga kichik so’zlar guruhi, ya’ni yemok, yurmok, o’smok kabi fe’llar (ularning har biri alohida tuslanish guruhini tashkil kiladi), nom, ism kabi har xil turlanadigan otlar (10 ta so’z) va boshkalar kiradi, birok bu so’zlar nutqda uchraydi, shuning uchun ularning xato o’zgartirilganligini doimo paykash mumkin.

Bunday turdagi xatoliklardan ayrimlarini misol sifati keltiramiz (bu yerga ushbu misolning o’zbekcha varianti ko’ilishi kerak).

Bolalar odatda, nutqda fe’lning sifatdosh oborotlari va ravishdosh (deprichastie?) shakllaridan foydalanishni bilmaydilar, chunki ular buni kattalar nutqida juda eshitadilar: kattalar bolalarning tushunmay kolishlaridan ko’rkib bunday grammatik shakllarni iloji boricha kam ko’llashga intiladilar, okibatda, bolalar maktabda uni o’zlashtirishga tayyor bo’lmaydilar. Natijada bolalar nutqi grammatik jihatdan birlashtirilgan nutq bo’lib koladi.

Tarbiyachi (va ota-ona) bolalarning shevaga oid nuksonlariga ham e'tiborni karatishi zarur (shu yerga o'zbekcha variantdagi misol ko'ish kerak). Kayd etish lozimki, bolalar nutqida sheva bilan bog'liq nuksonlarni bartaraf etish ancha kiyin, chunki bola uyda, ba'zan bolalar bog'chasida ham doimo kattalarning shevaga xos nutqini eshitadi.

**Barcha yosh guruhlarida so'z o'zgartirishni shakllantirish metodlari va usullari**

Grammatikaga oid mashklar bir vaktning o'zida bolalarning leksika va fonetika bo'yicha o'zlashtirib olgan materiallarini mustahkamlashga doir mashklar ham hisoblanadi. Bolalarning eng oz mikdordagi so'zlar va tovushlarni artikulyatsiya qilish hamda gap intonatsiyasini modellashtirish qobiliyatini oldindan o'zlashtirib olmaslaridan turib grammatik mashklarni bajarish mumkin emas.

**Uch-to'rt yoshli bolalarda grammatik ko'nikmalarni shakllantirish.** Tarbiyachining asosiy vazifasi shundan iboratki, u bolalarga iborali nutqdan amalda foydalanishni o'rgatishi, ya'ni nutqda asosiy grammatik kategoriyalarni to'g'ri ko'llash, so'zni soni, kelishigi, shaxsi, zamoniga karab amalda o'zgartirishni o'rgatishi lozim.

Grammatik kator ustidagi ishlarni otlar bilan tanishuvdan boshlagan ma'kul, chunki, otlar nutqimizning yarmidan ko'pini tashkil kiladi. Bundan tashkari, otlarni o'zgartirish orkali nutqning boshka kismlari ham, ya'ni: sifatlar – kelishiklar, turlar va sonlar bo'yicha; o'tgan zamondagi sifatlar va fe'llar – turlari va soni bo'yicha o'zgaradi.

Otlarni o'zgartirish ishlarini *vinitelniy* kelishigidan boshlash lozim. Buning uchun uni bosh kelishik bilan takkoslash, so'ngra eng anik va imkonli kelishiklar sifatida *datelnыy* va birgalik kelishiklarini o'rganish zarur, shundan keyingina bolalarga karatkich va old ko'makchili kelishiklarning ayrim ma'nolarini, ushbu kelishiklar hamda Kaerga? Kaerdan? kabi farklovchi savollar asosida hosil kilingan old ko'makchili tuzilmalarni tanishtirish lozim.

Ayniksa old ko'makchi ustidagi ishlarga alohida e'tibor karatish zarur. Old ko'makchili tuzilmalar bilvosita kelishiklarning asosiy shakllari bilan bog'liqdir, shuning uchun old ko'makchilar bilan amaliy tanishuvni kelishiklarni ko'llash bilan birlashtirgan ma'kul. Birinchi navbatda bolalar da, dan,ostida-ustida kabi ko'makchilar o'rtasidagi farklarni tushunib olishlari zarur. Ushbu tushunchalarni musahkamlash uchun harakat va nutqni takkoslash juda muhimdir.

Bolalarga nutqda old ko'makchilardan foydalanishni o'rgatishda old ko'makchi va o'zgartiriladigan ko'shimchani ohang bilan ajratib ko'rsatish muhimdir: stol ustida, stol ostida yotibdi, stoldan olib tashladi va h.k.

Bolalar otlarning kelishik shakllarini o'zlashtirib olganlaridan so'ng ularni qaysii turga (rodga) mansubligi bilan amalda tanishtirish mumkin. Buning uchun «bir» sanok so'zi ishtirokidagi otlarni ***«bizning»*** holi bilan birgalikda ko'llash lozim: bitta shaftoli, bitta olma, bitta nok yoki boђ, bizning maydonchamiz, bizning derazamiz.

Bu vaktga kelib bolalar bitta, ko'p so'zlarini farklay olishlari lozim. Turli narsalarni tanlab olganlari holda ular bir, bizning so'zlarini mazkur predmetlar bilan kelishtirishni o'rganadilar.

Uchinchi yilning boshiga kelib, bola muayyan darajada fe'l leksikasini, ya'ni: noanik shakldagi ichmok, bermok fe'llarini va bor, ber, keltir, yuv kabi buyruk maylidagi ayrim fe'llarni o'zlashtirib oladi.

Bolalarga o'tgan zamon fe'lini tanishtirishni ular otlarning kelishik shakllarini o'zlashtirib olganlaridan so'ng amalga oshirish zarur. O'tgan zamon fe'llari oson o'zlashtiriladi va u bolalarning faol lug'ati tarkibiga kiradi. O'tgan zamon fe'llari materiallari asosida bolalar nutqiga fe'lni o'zgartirishning tur va son shakllari oson kiritiladi: yuvdi; yuvdik; chizdi, chizdik. So'ngra «bo'laman» fe'li bilan bola kelasi zamon shaklini o'zlashtirib oladi. Oddiy kelasi zamon fe'llari shakllari to'rt yoshlarga kelib bola nutqida paydo bo'ladi.

Bolalar nutqiga turli xildagi fe'llarni kiritishni «harakat - nutq» usulidan foydalanan holda fe'l ustki old ko'shimchalarni kuzatish ishlari bilan birgalikda amalga oshirgan ma'kul. Bundan tashkari, bola muayyan surat yoki harakatga yo'nalgani holda old ko'shimcha fe'lga olib

kirayotgan (ketdi, kirdi, yakinlashdi, chikdi) ma’no kirrasini anglab olishi mumkin. Bolalar old ko’shimcha ma’nosini o’zlashtirib olganlaridan keyin uni old ko’makchi bilan takkoslash mumkin (…ga kirdi, ….dan kirdi, …dan chikdi va h.k.).

Bolalarning amaliy Mashg’ulotlarini tashkil etishga doir maxsus Mashg’ulotlarda tarbiyachiga o’yinchoqlar, narsalar, kiyimlar, poyabzal, idish-tovoklar, ozik-ovkatlar va boshka syujetli o’yinlardan foydalanish tavsiya etiladi. Bolalar o’ynaganlari holda atrofdagi kattalar faoliyatiga taklid kiladilar. Tuzilayotgan gapni rang-barang qilish uchun o’yin syujetini o’zgartirish – yangi o’yin personajlarini kiritish, bolaga yo’naltiruvchi savollar berish va shu bilan uni muayyan iboralar bilan javob berishga majbur qilish zarur.

Namoyish kilinayotgan harakatlar bo’yicha «bilan» old ko’makchisi ishtirokidagi tuzilmalarni kiritish kulaydir: ayikcha bilan, kuchukcha bilan o’ynadi; kuyoncha bilan, oyisi bilan, Samat bilan gaplashdi.

Namoyish etilayotgan harakatlar bo’yicha tuzilayotgan butun gapni bolalar albatta o’zlari aytib ko’radilar. Agarda bola gapda xatolikka yo’l ko’ysa, tarbiyachi uni tuzatishi va gapni yana bir bor takrorlashi lozim.

Bolalarga iboralarni tegishli grammatik shakl bilan rasmiylashtirishni o’rgatishni o’yinli vaziyatlar asosida ham amalga oshirish mumkin. O’yinli usullardan bolalar bilan grammatik tuzilmalarni ko’llash borasidagi suhbat sifatida barcha kelishik shakllarini mustahkamlashda foydalaniladi.

Bolalarga old ko’makchilarni ko’llashni o’rgatishga doir Mashg’ulotlarda predmetlarning kenglikdagi munosabatlarini albatta ko’rsatish shart. Buning uchun kubiklar, piramidalar, kitoblar va boshka narsalardan foydalanish mumkin. Masalan, uycha qurilishini ko’rsatib beruvchi harakatlarni quyidagi so’zlarni aytgan holda amalga oshirish zarur: «Kubikning ustiga kubik ko’yamiz, devor hosil bo’ldi. Devor ortida stolcha turibdi» (bu o’rinda devor ortidagi narsa harakatini ko’rsatish zarur). Stolcha atrofida kuyoncha va ayikcha o’tirishibdi. Stol ustida piyolalar bor, stol ostida esa skameyka turibdi». Stol ustidagi va ostidagi narsalar holatini albatta ko’rsatib zarur, shundagina bola narsalarga oid so’z birikmalarini oson o’zlashtirib oladi.

Maxsus grammatik mashklarni suratlardan foydalangan holda amalga oshirish lozim. Ularni sinchiklab ko’rib chiqqandan va savollarga bir so’zli javob berilganidan so’ng to’lik bilvosita ko’shimchani tuzish va aytib ko’rishga o’tish darkor, chunki, ularga fe’lga bog’liq so’zni rasmiylashtirish ancha kiyin kechadi. Masalan, Alisher Barno bilan koptok o’ynayapti. Kizcha choynagi bilan gullarni suђormokda.

Bitta surat syujeti asosida savollar berish va bolaning unga javob qaytarishi savol-javob tusidagi kizikarli Mashg’ulotlardan biri hisoblanadi. Masalan, «Bola ko’lini yuvmokda» surati asosida kator savollar berish mumkin: «Xurshid, Timur, Alisher nima qilishayapti?», «Alisher nimani yuvmokda?», «Biz ko’limizni nima bilan yuvamiz?», «Kimning ko’li toza?» va h.k.

Bola hayotining to’rtinchi yilida unga bir tarkibli gaplar tuzishni o’rgatish, shuningdek uning nutqiga umumlashtiruvchi tushunchalarni kiritishga katta e’tibor beriladi. Mashg’ulotlarda suratlar asosida, tayanch so’zlar yordamida, namoyish etilayotgan harakatlar asosida, gapning yetishmayotgan kismlarini to’ldirish asosida gap tuzish kabi turli xil ishlarni amalga oshirish zarur.

Bir tarkibli aniklovchilar bilan gap tuzishga doir ishlarni bolalar bilan «Toping, bu nima?» o’yinini uyushtirish orkali amalga oshirish mumkin. Bola ajralib turuvchi belgilariga karab narsa nomini aytishi zarur, masalan: «dumalok, sersuv, sarik, shirin, dumi bor, foydali» - sholђom. YOki: - «katta, dumalok, ko’k, rezinali» – koptok.

Bir tarkibli kesimli gaplarni tuzish uchun «Esla va ayt» o’yinidan foydalanish mumkin. Tarbiyachi bolaga topshirikni hech kim eshitmaydigan qilib aytadi. Bola topshirikni izchil ravishda bajara boshlaydi, bolalar esa u nima kilayotganini aytib beradilar: «Abduazim kaychini oldi, kizil va ko’k koђozlardan bo’laklar kesib olib, ularni Zuhra va Farruxga berdi».

Nutqni rivojlantirishga doir mashklar – ya’ni, nutqiy grammatik modellarni mustahkamlashga doir mashklar boshka ishlar bilan, masalan kitob o’kish bilan birgalikda

bajarilishi mumkin. Kichik asarlarni o'kish o'kilayotgan matnga mos o'yinlar va harakatlar bilan amalga oshirilishi mumkin.

Grammatik mashklar o'yin, sayr soatlarida, navbatchilik paytida bajarilishi lozim, shunda kichkintoylarning nutqiy mahoratlari yanada ortadi.

Umuman olganda, bolaning maktabgacha tarbiya muassasasidagi butun faoliyati uning dikkat-e'tibori, xotirasi, fikrlash doirasini rivojlantirishga, uning nutqini takomillashtirishga xizmat qilishi lozim.

**Besh-olti yoshli bolalarda grammatik ko'nikmalarni shakllantirish.** Bu yoshga kelib bola quyidagi asosiy grammatik shakllarni o'zlashtirib olishi mumkin va shart: birlik va ko'plik sondagi otlarning old ko'makchi-kelishik shakli, ko'p sonli sifatlarni kelishiklar, sonlar va turlar (rodlar) bo'yicha o'zgartirish, fe'l shakllari, ravishlarni to'g'ri ko'llash. Besh yoshda bola o'z nutqida garchi ayrim gap turlari uning uchun hali ancha kiyin bo'lsa ham, ko'shma gaplardan foydalanadi. Old ko'makchilar va boђlovchilar turli xil ma'nolarda ko'llaniladi. Ko'proq umumlashtiruvchi so'zlar ko'llay boshlanadi: mebel, ovkat, idish-tovoklar, o'yinchoqlar, transport. Umuman bolaning so'z zahirasi ortib borgani sayin uning nutqi ravon va izchil bo'lib boradi. Besh yoshli bolalar tuzayotgan gaplarda ular o'zlariga yaxshi tanish bo'lgan hodisalarning (ertaga, kechasi, yakshanba va h.k.) sabab-okibatli munosabatlarini ifodalaydilar.

Dasturga muvofik tarbiyachi besh yoshli bolalarga nutq asosiy kismlarining grammatik shakllarini to'g'ri ko'llashni o'rgatishga doir ishlarni davom ettirishi lozim.

Bolalarga o'z nutqida vaktli, maksadli va sababli sintaktik munosabatlarni (Kachon? Qaysii maksadda? Qaysii maksad uchun? Nima uchun? Nega? kabi savollarga javob berish) ifodalashni o'rgatish zarur. Tarbiyachi nutqka kator old ko'shimchali fe'llarni kiritadi, ayni paytda Nima kilding? Nimani qilib bo'lding? (chizdim-chizib tugatdim, yuvdim – yuvib bo'ldim va h.k.) savollariga javob beruvchi fe'llar; savolga karab asosi o'zgaradigan fe'llar (Nima kilayapman, Nimani qilib tugataman?:kurib tugataman – kurib tugatayapman, sakrayman - sakrayapman); kelgusi oddiy va kelgusi murakkab zamonli, -di ko'shimchali va usiz shakldagi fe'llar («Men o'ynamokchiman» - «Men o'ynayapman», «U kiyinmokchi», «U kiyinadi»); bahoni (yaxshi-yomon, ifodali, tez, sekin, past, baland); vaktni (bugun, kishda, yozda va boshk.); joyni (bu yerda, anavi yerda, shu yerda, o'ngda, chapda, balandda, pastda, anavi tomonga) belgilovchi eng ko'p tarkalgan ravishlar; gapda so'zlarni boђlash va gaplarni boђlash uchun foydalaniladigan to'kima boђlovchilar (va, esa, ammo, birok); gaplarni boђlash uchun xizmat kiladigan bo'ysundiruvchi boђlovchilar (uchun, chunki, agar, kachonki, zero) ustidan birlamchi kuzatishni amalga oshiradi.

Hayotining beshinchi-oltinchi yilini boshdan kechirayotgan bolalarda grammatik ko'nikmalarni shakllantirish maishiy muloqot jarayonida va ayni paytda predmetli Mashg'ulotlarda maxsus nutqiy mashklarni o'tkazishda, suratlar bilan ishlashda ro'y beradi. Mashg'ulotlar uchun taklif etilgan didaktik material zamon kategoriyalari, sonlar, shaxslar, turlar (rodlar), fe'llarni o'zlashtirishga, nutqda tugallangan va tugallanmagan ko'rinishdagi fe'llarni amalda ko'llashga yordam berishi zarur. Bolalarni amalga oshirilayotgan va amalga oshirib bo'lingan harakatlarni farklashga o'rgatish uchun ularga tanish vaziyat bilan bog'liq holda anik xususiyat baxsh etish lozim.

Gap tuzishda «bugun», «hozir», «endi» ravishlarini hozirgi zamon fe'li bilan, «kecha», «anchadan buyon», «yakinda» ravishlarini o'tgan zamon fe'li bilan boђlash muhimdir.

Maxsus mashklarda boђlangan ko'shma gap va ergashgan ko'shma gaplardan iborat bo'lgan ko'shma gaplar tuzishga doir ishlar sezilarli ahamiyat kasb etishi darkor. Buning uchun savol-javob shaklidan foydalangan ma'kul. Dastlab bola ko'shma gapning fakat ikkinchi kismini (aslida ko'yilgan savolga javob ham shu) aytadi, keyinchalik esa undan ko'shma gapni butunicha aytishini talab qilish zarur. Ko'pincha bolalar aynan ergash gaplarni ko'llashda xatoga yo'l ko'yadi.

Ko'shma gaplarni tuzishga doir Mashg'ulotlar turlicha o'tkazilishi mumkin: suratlar bilan: syujeti bir-biriga yakin bo'lgan ikki surat tanlab olinadi: uning birida o'rin-ko'rpasini

yozayotgan kizcha, ikkinchisida esa – uxlayotgan kizcha tasvirlangan. Tarbiyachi rahbarligida bola gap tuzadi: «Gulya endigina joy solayapti, Lola bo'lsa uxlab koldi».

Gap tuzish «Nima oldin, nima keyin?», «Hammasi teskari», «Xatosini top» kabi o'yinlar bilan bog'liq bo'lishi ham mumkin. Ushbu o'yinlarni o'tkazishda bolalar «va» biriktiruvchi boђlovchisi va «yoki» ajratuvchi boђlovchisi yordamida gap tuzadilar.

Nima uchun? Nega? savollariga javob beruvchi gaplarga alohida e'tibor karatish lozim. Bunday gaplarni tuzish uchun o'yinchoqlardan, suratlar turkumidan foydalanish, syujetli-rolli o'yinlarni tashkil qilish mumkin. Bu borada «Telefon» o'yini katta imkoniyatlar yaratadi – bolalar o'zlarining «telefon» suhbatlarini hikoya qilishda ko'shma gap tuzishlari shart: «Barno unga ko'ђirchokni keltirishimni iltimos kildi».

Ko'shma gaplarni tuzishga doir ishlar sayrda, tabiat bilan tanishuvda, rasm chizish, musika Mashg'ulotlarida davom ettirilishi lozim. Orttirilgan nutqiy ko'nikmalar sahnalashtirish o'yinlarini, didaktik va harakatchan o'yinlarni o'tkazishda mustahkamlanadi.

**Hayotning yettinchi yilini boshdan kechirayotgan bolalarda grammatik ko'nikmalarni shakllantirish. ye**tti yoshga kelib, bola odatda, nutqning barcha grammatik shakllarini, ya'ni: otlarni turlash, eng keng ko'llaniladigan fe'llarni tusashni egallashi lozim. Harakat belgisini (kenglik, vakt, harakat obrazi) tavsiflash uchun ular ravishlardan foydalanadilar, buning uchun bolalar ularni so'z birikmasi va gap katorida ko'llaydilar:tez yurdi, sekin gapirdi, chapga burildi va boshk.

Etti yoshli bolalar nutqida old ko'makchilar ko'pincha nafakat o'z ma'nosida, balki chet ma'noda ham ko'llaniladi. SHunisi dikkatga sazovorki, old ko'makchilar dastlab kenglik ma'nosi ko'rsatkichi sifatida to'rt-besh yoshli bolalar nutqida paydo bo'ladi (uydan, devordan uzoklashdi); so'ngra besh-olti yoshli bolalar ushbu old ko'makchini ob'ektiv ma'no ko'rsatkichi sifatida ham ko'llaydilar (onamning sovђasi, dadamning xati) va fakat, keyinrok, yetti-sakkiz yoshlarga kelib, bola sabab ma'nosini ifodalash uchun «dan» old ko'makchisidan foydalanishi mumkin (ko'rkanidan kichkirib yubordi, oђrikning zo'ridan yiђlab yubordi).

Etti yoshga kelib, odatda, nutqning sintaktik katori shakllanadi: bola oddiy gaplarni, bir xil a'zoli gaplarni to'g'ri tuzadi, bunda u biriktiruvchi, zidlovchi, ajratuvchi boђlovchilarni ko'llaydi; u o'z nutqida ko'shma gaplardan, ko'pincha esa turli xil sintaktik munosabatlarni ifodalovchi ergashgan ko'shma gaplardan foydalanadi: ko'shimcha gaplar – «Kamol nima ko'rganligimizni so'radi»; maksadli gaplar – «Biz ozik-ovkat xarid qilish uchun do'konga ketayapmiz»; shartli gaplar – «Agar yomђir yoђmasa, biz sayr kilgani chikamiz» va boshk.

O'z taassurotlari haqida hikoya kilar ekan, olti yoshli bola ravon monologik nutq shaklidan foydalanishi lozim.

Bolalar bog'chasining tayyorlov guruhida grammatik rasmiylashtirilgan nutqni rivojlantirish borasidagi ishlar asosiy o'rinni egallashi lozim. Xuddi oldingi yillardagi kabi, u maxsus Mashg'ulotlarda va boshka faoliyat turlari bilan bog'liqlikda amalga oshiriladi.

Aynan bir fikrni turli vositalar yordamida rasmiylashtirish maktabga tayyorlash guruhidagi bolalarda grammatik nutq ko'nikmalarini shakllantirishga doir ishlarning asosiy turi bo'lishi mumkin. Masalan, bolalar o'yin-kulgi kilayotgan syujetli suratni tahlil qilishda kator gaplarni tuzish mumkin: «Bolalar quvonchhdan sakrab yuborishdi», «Xursand bo'lib, bolalar osmonga sakradilar»; «Bolalar sakrab yuborishdi, chunki ular xursand edilar». Aynan bir mavzuda turlicha gaplar tuzishga doir bunday ishlar maktabgacha yoshdagi bolalar bitta fikrni turlicha ifodalash imkonini beradi. Mashg'ulotlarda tarbiyachi ataylab bolalarga bir-birining o'rnini bosishi mumkin bo'lgan gaplar tuzishni o'rgatadi.

Aynan bir mavzuga oid gaplar variantlarini yaratish uchun didaktik o'yinlar, syujetli rasmlar, badiiy matnlardan foydalanish mumkin. Aynan bitta fikrni ifodalash uchun turlicha gaplar tuzishga oid ishlar yetti yoshli bolalarda grammatik to'g'ri nutq ko'nikmalarini shakllantirishda asosiy o'rinni egallashi lozim.

Bu yoshdagi bolalarga nutqda sifatdoshlarni ko'llashni o'rgatish ular nutqini rivojlantirishga doir ishlarning ikkinchi yo'nalishi bo'lishi mumkin.

Bolalar nutqiga sifatdosh shakllarni kiritish uchun bolalar, kattalar, hayvonlar, kushlarning turli harakatlarini tasvirlovchi suratlardan foydalanish mumkin (o'kiyotgan bola, raks tushayotgan kiz, yugurayotgan kuyon va h.k.).

Bolalar surat asosida gap tuzadilar: «Bola o'kiyapti». Tarbiyachi o'kiyotgan bola so'z birikmasini tuzishga yordam beradi. Tarbiyachi so'z birikmasidagi sifatdoshni aytadi, so'ngra bolalardan so'raydi: «Qaysii bola?» – «O'kiyotgan bola».

Mashђulot uchun eng ko'p ko'llaniladigan fe'llarni olish va ulardan hozirgi zamondagi hakikiy sifatdoshlarni hosil qilish darkor. Bolalarga hech kanday atamalar ma'lum kilinmasligi kerak, bunda ularning ayrim sifatdoshlarni esda saklab kolishlari va zarur bo'lganda ularni o'z nutqiga ko'sha olishlari juda muhimdir.

Bolalarning sifatdoshlarni ko'llashlariga oid ishlar tabiatni kuzatish choђida, rasm chizish Mashg'ulotlarida, badiiy adabiyotni o'kish jarayonida o'tkazilishi mumkin. Bunda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

- Predmetni, uning belgilarini ko'rsatish va nomini aytishni ularning mohiyatini ochib beradigan izohlar bilan birgalikda amalga oshirish lozim. Masalan, tushayotgan barg so'z birikmasida – bu tushayotgan bargdir. Bolalarga tanishtiriladigan sifatdoshlarni yaxshisi, oldin alohida-alohida, keyin jo'r bo'lib aytgan ma'kul.
- muayyan so'zning hosil bo'lishini tushuntirib berish: «chizayotgan» so'zi chizmok so'zidan, «raksga tushayotgan» so'zi raksga tushmok so'zidan.
- Sifatdoshga savollar ko'yish: «Dala kanday, sarђayatimi?» - «Sarђayapti».
- Ot va sifatdoshdan iborat bo'lgan so'z birikmasi asosida gap tuzish: sarђayotgan barglar – «Olmaning sarђayotgan barglari ko'rinib turibdi»; varillayotgan samolyot – «varillayotgan samolyot shahar ustidan uchib o'tdi» va h.k.

Agarda o'kilayotgan asar matnida sifatdosh uchrasa, bolalarning uni hikoya qilib berishida mazkur sifatdoshni u taallukli bo'lgan otlar bilan birgalikda ko'llashlariga, tarbiyachi savol berganida esa ushbu sifatdosh hosil bo'lgan fe'l nomini ayta olishlariga e'tibor berish juda muhimdir.

Maktabgacha yoshdagi katta bolalarga mustaqil hikoya-tavsiflar (o'yinlar, narsalar bo'yicha) yoki syujetli suratlar turkumi asosida hikoyalar tuzishni o'rgatish maksadida nutqni rivojlantirishga doir maxsus ishlarni o'tkazishda tarbiyachi bolalarning o'zlariga ma'lum bo'lgan barcha grammatik shakllarni ko'llashlariga erishishi lozim: otlarning kelishik shakli va sifatlar, sifatlar to'lik va kiska shaklda, sifatlarni takkoslash darajalari (yukori, baland, eng baland); fe'llarning tuslanadigan shakllari; eng keng tarkalgan ravishlar (o'ngga, chapga, oldinga, orkaga, bu yerda, anavi yerda, Yuqorida, pastda, yaxshi,tez), hozirgi zamon hakikiy sifatdoshlari; old ko'makchilar va boђlovchilar.

Bolalar nutqining sintaktik katorini rivojlantirar ekan, tarbiyachi bolalarning oddiy gaplarni, bir xil a'zoli, oborotli gaplarni, ko'shma gaplarni to'g'ri tuzishlariga e'tiborni karatishi lozim. Fakat Yuqorida ko'rsatib o'tilgan barcha grammatik shakllarni o'zlashtirgan takdirdagina bola maktabda o'kishga yaxshi tayyorlangan bo'ladi.

**XULOSALAR:**

- Grammatika – fikr bildirish va boshkalar bildirgan fikrlarni tushunish uchun insonga zarur bo'lgan bilimlar umumiyligidir.
- Bola tilga sust emas, balki faol, amaliy yondoshadi, o'zi anglamagan holda doimo til hodisalarini tahlil kiladi.
- Butun til rivojining asosini bolaning predmetli faoliyati tashkil kiladi. Bolaning til borliђi elementlari bilan harakatlari xuddi predmetli olam elementlari bilan bo'lgani kabidir.

- So’z hosil qilishni (va so’z o’zgartirishni) egallashda bola morfemaning tovush kiyofasiga yo’naladi.
- Bolalarning so’z ijodkorligi – koidalar, umumlashtirmalar, obrazli munosabatlar harakatlarini shakllantirish jarayonining yaqqol ko’rinishidir.
- Grammatik elementlarni egallash jarayoni ko’rgazmali tasavvurni shakllantirish asosida ro’y beradi va u bir nechta bosqichlarga ega.
- Bugungi kun lingvistikasining asosiy vazifalaridan biri - son-sanoksiz gaplarni tuzish hamda ularni tushunish qobiliyatini rivojlantirish tabiati va mexanizmini tushunishdan iboratdir.
- bola kattalar tilining kategoriyalar tizimiga amal kilmaydi, aksincha u o’zining «individual» til tizimining ichidagi vazifaviy xususiyatlariga asoslangan o’z so’zlar kategoriyasini yaratadi.
- Tilni rivojlantirishning mohiyati (lug’at to’plash bilan parallel ravishda) shundan iboratki, toki o’kiyotgan bola ko’p sonli yangi fikrlar talkinini yaratish uchun koidalar tizimini egallab olsin.
- Ona tilining grammatik ahamiyatlari ma’nosini tushunish – o’sib borayotgan insonning akli shakllanayotgani va rivojlanayotganidan dalolat beradi.
- Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqidagi grammatik xatoliklar grammatik ahamiyatni o’zlashtirish jarayoni normal holatda davom etayotganligidan, bolaning o’z ona tilida grammatik ahamiyat mavjudligi haqidagi ђoyani o’zlashtirib olganidan va mazkur ahamiyatni u atrofdagi kattalarning pedagogik kobiliyatidan kelib chiqqan holda egallab olayotganidan dalolat beradi.
- Nutqni rivojlantirishga doir mashklar – ya’ni, nutqiy grammatik modellarni mustahkamlashga doir mashklar boshka ishlar (kitob o’kish, rasm chizish, o’yin o’ynash va boshk.) bilan birgalikda bajarilishi lozim.
- Maktabgacha yoshdagi katta bolalarga syujetli suratlar asosida mustaqil ravishda hikoyalar tuzishni o’rgatish maksadida nutqni rivojlantirishga doir maxsus ishlarni o’tkazishda tarbiyachi bolalarning o’zlariga ma’lum bo’lgan barcha grammatik shakllarni ko’llashlariga erishishi lozim.
- Fakat barcha grammatik shakllarni o’zlashtirgan takdirdagina bola maktabda o’kishga yaxshi tayyorlangan bo’ladi.

**NAZORAT SAVOLLARI:**

- Grammatika deganda nimani tushunish lozim?
- Imitatsiya nazariyasi nimani anglatadi?
- Imitatsiya nazariyasiga karshi kanday ilmiy dalillar mavjud?
- «o’tagenerallashuv» hodisasini anik misollar yordamida tavsiflang.
- Butun til rivojlanishining asosini nima tashkil kiladi? Nima uchun shunday deb o’ylaysiz?
- Bolaning grammatik elementlarni o’zlashtirishi qaysii faoliyat negizida ro’y beradi?
- Bola morfemani o’zlashtirishda qaysii bosqichlardan o’tadi?
- Boladagi mavjud koidalarning shakllanganligi va barkarorligini kanday qilib tekshirish mumkin?
- Bolalar so’z ijodkorligi nimani bildiradi?
- So’z ijodkorligining psixofiziologik negizini nima tashkil kiladi?
- Bolaning ona tili sintaksisini egallash jarayoni kanday amalga oshadi?
- Bolalar nutqida kanday fikr bildirish turlari ajratilgan?
- Bolaning til tizimini egallash, til kobiliyatlariga ega bo’lish jarayoning asosini nima tashkil kiladi?
- Bolalar bog’chasida pedagog oldida grammatika sohasida kanday vazifalar turibdi? Ularning har birini tavsiflab bering.

- Maktabgacha yoshdagi bolaning grammatik xatoliklari nimadan dalolat beradi?
- Bolalar nutqidagi grammatik xatoliklarning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
- Bolalarning suffikslar, prefikslar, so'z ko'shimchalarining grammatik ahamiyatini kay darajada tushunishlaridan dalolat beruvchi grammatik xatoliklariga misollar keltiring.
- Tarbiyachi bolalar nutqidagi grammatik xatoliklarni kanday qilib tuzatishi mumkin?
- Uch-to'rt yoshli bolalar nutqining asosiy grammatik belgilarini aytib bering.
- Uch-to'rt yoshli bolalar nutqining grammatik katori ustidagi ishlarni nimalardan boshlash zarur?
- Besh-olti yoshli bolalar nutqini grammatika nuktai-nazaridan tavsiflang.
- Besh-olti yoshli bolalar o'z nutqida qaysii asosiy sintaktik munosabatlarni aks ettirishlari mumkin?
- Bolalar bog'chasida ko'shma gaplar ustida ish olib borish metodikasi kanday?
- Bolalarning ona tilining grammatik tizimini o'zlashtirib olishlari nima uchun ularning akliy rivojlanishida shunchalik muhim ahamiyat kasb etadi?

## 12-MAVZU. NUTQNING TOVUSH MADANIYATINI TARBIYALASH

**Nutqning tovush madaniyati tushunchasi**

**Nutqning tovush madaniyatiga doir ishlar bo'limlari**

**Har bir yosh bosqichida nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash**

### Nutqning tovush madaniyati tushunchasi

Nutq madaniyati – bu to'g'ri so'zlay olish, ya'ni nutqiy muloqot shartlari va fikr bildirishdan ko'zlangan maksadni hisobga olgan holda hamda barcha til vositalaridan (til vositalaridan, shu jumladan intonatsiya, leksik zahira, grammatik shakllardan) foydalangan holda bayon kilinayotgan mazmunga mos holda gapirishdan iboratdir.

Bola so'zlashni o'rganmokda. Lekin buning uchun u avval ushbu tilga xos bo'lgan barcha fonemalarni aytishni; tovushlarni va so'zda muayyan pozitsiyada turgan tovushlar birikmasini an'anaga muvofik holda, ya'ni orfoepiya koidalari bo'yicha talaffuz qilishni; intonatsiyani yaratuvchi prosodemalarni modellashtirishni o'zlashtirib olishi lozim.

Bolalarga ona tilida nutqni o'rgatish tajribasidan ma'lumki, alohida tovushlar artikulyatsiyasini o'zlashtirish bola uchun eng kiyin vazifa hisoblanadi. O.I.Soloveva nutqning tovush madaniyati tarbiyalashga doir ishlarning asosiy yo'nalishlarini belgilar ekan, «pedagog oldida bolalarga so'zlardagi tovushlarni sof, toza talaffuz qilish, so'zlarni rus tilining orfoepiya koidalariga muvofik holda to'g'ri talaffuz qilish, anik talaffuz etishni (yaxshi diktsiya) o'rgatish, ularda ifodali nutqni tarbiyalash vazifalari turganligini» ta'kidlaydi[13].

Ba'zan tarbiyachining bolalarda to'g'ri nutqni shakllantirish borasidagi faoliyati tovush talaffuzi kamchiliklarini bartaraf etuvchi logoped mehnati bilan takkoslanadi. Birok nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash fakatgina tovushlarni to'g'ri talaffuz etish shakllantirishdan iborat emas. Tovushlarni to'g'ri talaffuz etishni shakllantirish nutqdagi tovush madaniyatini tarbiyalashga oid ishlarning bir kismidir. Tarbiyachi bolalarga to'g'ri nutqiy nafas olish, ona tilidagi barcha tovushlarni talaffuz qilish, so'zlarni anik aytish, tovushdan foydalanishni o'rgatadi, bolalarni shoshmasdan ifodali qilib so'zlashga odatlantiradi.

[13] Соловьева О.И. Методика развития речи и обучения родному языку в детском саду. 3-нашр. М., 1966, 50-51-бетлар.

Ayni paytda nutqdagi tovushni shakllantirish jarayonida tarbiyachi ayrim logopedik usullardan foydalanishi, ya’ni xuddi logoped kabi nutq kamchiliklarining oldini olishga karatilgan ishlar bilan shuђullanishi mumkin.

Tovush artikulyatsiyasini egallash ancha uzok va murakkab jarayon bo’lib, u ko’pincha besh yil, ba’zan esa yetti yilgacha cho’ziladi: bu boradagi ishlar muvaffakiyatli olib borilgan takdirda bola besh yoshdan boshlab sof so’zlay boshlaydi. «Bolalar bog’chasida tarbiyalash dasturi» bola hayotining yettinchi yiliga kelib – ya’ni, bolalarga o’kish va yozish o’rgatish boshlanadigan davrga kelib uning barcha tovushlar artikulyatsiyasini to’lik o’zlashtirishini ta’minlash vazifasini ko’yadi.

Bolalarga to’g’ri talaffuzni o’zlashtirish vazifasi agarda ular orfoepik talaffuzli shaxslar ichida o’sayotgan bulsa juda oson hal etilishi (bu holda ularda birinchi kundan boshlab artikulyatsiya bazasi to’g’ri shakllanadi) va ayni paytda u kattalardan shevaga xos yoki xalqona talaffuzdagi so’zlarlarni eshitsa bu jarayon juda kiyin kechishi (anikroђi –hech narsani o’zlashtira olmasligi) mumkin.

Til haqidagi fanda turli toifadagi gaplar intonatsiyasi va o’z-o’zidan, prosodemalar, ularning artikulyatsiya organlarini modullashtirishdagi ishtiroki masalasi juda kam o’rganilgan.

Tajribalar shundan dalolat bermokdaki, bolalar barcha prosodemalarni hech bir kiyinchiliksiz o’zlashtirib oladilar, ayniksa ularga ovoz ohangi modulyatsiyasini o’zlashtirish juda oson kechadi, ko’pchilik bolalar prosodemalarni deyarli mashksiz o’zlashtirib oladilar. Birok, o’kituvchilar (ota-onalar, tarbiyachilar, o’kituvchilar) o’zlari ona tili intonatsiyasini a’lo ravishda egallaganlari bois buni paykamaydilar. Agarda bola ayrim prosodemalarni «mustaqil ravishda» o’zlashtira olmasa, kattalar, odatda nutqdagi bu kamchilikka tezda e’tibor bermaydilar, bu borada bolaga yordam bermaydilar va u shu kamchilik bilan maktabga boradi. U yerda esa intonatsiyadagi nuksonni bartaraf etish nutq tovushlari artikulyatsiyasidagi nuksonlarni bartaraf etishga qaraganda yanada kiyin kechadi.

Bolalar intonatsiyaning ayrim elementlarini (prosodemalar) gapning yaxlit intonatsiyasidan ajratib olishni o’rganadilar va buni alohida emas, balki gapning o’zida bajaradilar. Bolalar gapning o’zini (tugallangan fikrni) intonatsiyasiga karab tushunishni o’rganadilar. Ular ikki tugallangan intonatsiyani, ya’ni: bayon va so’rok intonatsiyalarini o’zlashtiradilar.

Tugallangan intonatsiyalar bilan bir vaqtida bolalarga mantikiy urђular (gapni dolzarb o’kish) ko’rsatiladi va ular yoyik gapning mazmuniy kesimlarida tugallanmagan intonatsiyani bajarishni mashk kiladilar. Ma’lumki bunday intonatsiyalar oltita (A.N.Gvozdev): sanash intonatsiyasi («I k tsarevne nalivnoe, molodoe, zolotoe pryamo yabloko letit»), karama-karshi ko’yish intonatsiyasi («V tretiy raz zakinul on nevod, - prishel nevod s odnoy rыbkoyu, s neprostoyu rыbkoyu - zolotoyu»), chakirik intonatsiyasi («CHego tebe nadobno, starche?», «Svet moy zerkaltse, skaji, da vsyu pravdu rasskaji..»), ogohlantirish intonatsiyasi yoki ikki nukta intonatsiyasi («Otvechaet zolotaya rыbka: «Ne pechalsya, stupay sebe s bogom!», «Udivilsya starik, ispugalsya: rыbachil tridtsat let i tri goda i ne slыxival, chtob rыba govorila»), kirish intonatsiyasi («Vot prishel on k sinemu moryu (pomutilos sinee more), stal on klikat zolotuyu rыbku…»), alohida ajralish intonatsiyasi («No tsarevna molodaya, tixomolkom rastsvetaya, mejdu tem rosla, rosla, podnyalas – rastsvela, chernobrova, nravu krotkogo takogo»).

Yuqorida bayon kilingan o’zbek tilining fonetik va fonologik vositalari ravon nutqda bir vaktning o’zida ko’llaniladi. Bolaning ravon nutqi uslubi, uning his-hayajonliligi uning nutq tovushlarini kanday talaffuz etishiga (artikulyatsiyalarni ђayrat bilan va anik aytish yoki sekin va tushunarsiz aytish) va mavjud prosodemalardan qaysii birini tanlashiga (past-jarangdor, tez-sekin, ovoz tembri bilan ijobiy yoki salbiy hissiyotlarni tasvirlash) bog’liqdir.

L.V.SHerba rus tilida ikkita asosiy talaffuz uslublarining mavjudligiga e’tiborni karatgan.

*To’liklik (yoki kitobiy) uslubi* omma oldida nutq so’zlashda – ma’ruzalar o’kish, yiђilishda so’zga chikish, radio va televidenieda diktor bo’lib ishlashda, shuningdek o’quvchi, talabalar uchun va o’zini yaxshi anglashlarini xohlagan hamda tinglovchilarga uni

tushunishlarini osonlashtirishga intilayotgan har bir shaxs uchun majburiydir. To'lik uslubli nutqka anik talaffuz, o'rtacha sur'at xos bo'lib, ovoz kuchi xona hajmi va ovoz tembriga mos bo'ladi. Nutqda kishining o'z kadrini yaxshi bilishi, ya'ni uni tinglayotganlarga nisbatan hurmat va e'tibori yaqqol ifodalanadi.

*Noto'lik (yoki so'zlashuv) uslub* maishiy muloqotda ko'llaniladi. Bunda so'zlardagi tovushlarni birmuncha past va sust aytish, va tez aytish yoki, aksincha, iboralarni sekin aytish va shivirlash mumkin; so'zlashuv nutqiga ohangiy (his-hayajonli) ishlov berish ko'rinishlari turlicha bo'ladi: barcha his-tuyђular so'zlashuv nutqining jaranglashida to'lik aks etadi.

Etarli darajada madaniy nutqka ega bo'lgan har bir inson har doim ham vaziyatdan kelib chiqqan holda ikkala nutq uslublarini maxsus tayyorgarliksiz ko'llay olishi mumkin. Maxsus tayyorlangan nutq notiklik nutqi (publitsistik chikishlarda) yoki badiiy o'kish (aktyorlik faoliyatida) deb ataladi.

Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash bir vaktning o'zida nutqning boshka kismlarini ham, ya'ni lug'at, boђlovchi, grammatik jihatdan to'g'ri nutqni rivojlantirgan holda amalga oshiriladi.

## Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashga oid ishlar bo'limlari

Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash ona tilidagi tovushlarni anik aytish, ularni to'ђi talaffuz qilish, so'zlar va iboralarni anik talaffuz qilish, to'g'ri nutqiy nafas olish, shuningdek ovoz kuchidan yetarli darajada foydalana olish kobiliyati, nutqning normal sur'ati va ifodalilikning turli intonatsion vositalari (nutq musikasi, mantikiy sukut, urђular, nutq sur'ati, ritmi va tembri) ni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Nutqning tovush madaniyati yaxshi rivojlangan nutqni tinglay olish kobiliyati asosida shakllanadi va rivojlanadi.

Bolalarda to'g'ri va yaxshi jaranglaydigan nutqni rivojlantirar ekan, tarbiyachi quyidagi **vazifalarni** hal etishi zarur:

-bolalarda tinglash qobiliyatini tarbiyalash, uning komponentlarini, ya'ni: tinglash e'tibori (biron-bir tovushni jaranglashiga karab kanday tovush ekanligini va uning yo'nalishini aniklay olish), fonematik tinglash, mazkur nutq sur'ati va ritmini kabul kila olish kobiliyatlarini asta-sekin rivojlantirib borish;

-artikulyatsiya apparatini rivojlantirish;

-nutqiy nafas olish ustida ishlash, ya'ni iboralar bilan erkin so'zlay olish uchun kiska nafas olish va davomli nafas chikarishni o'rgatish;

-muloqot sharoitidan kelib chiqqan holda ovoz balandligini boshkarish qobiliyatini tarbiyalash;

-ona tilining barcha tovushlarini to'g'ri talaffuz qilishni shakllantirish;

-har bir tovushni, shuningdek so'zlar va iboralarni anik va tushunarli talaffuz qilishga, umuman yaxshi talaffuzga odatlanish;

-so'zlarni o'zbek adabiy tilining orfoepiya koidalari me'yorlariga mos holda talaffuz qilishni rivojlantirish;

-normal nutq sur'atini shakllantirish, ya'ni so'zlar va iboralarni nutqni tezlashtirmay va sekinlashtirmay sekinlik bilan hamda shu bilan birga tinglovchiga anik tushunish imkoniyatini yaratgan holda talaffuz qilishni o'rgatish;

-nutqning ohangiy ifodaliligini tarbiyalash, ya'ni fikrlar, hissiyotlar va kayfiyatni mantikiy pauza, urђu, ohang, sur'at, ritm va tembr yordamida anik ifodalash qobiliyatini shakllantirish

Tarbiyachi nutqdagi kamchiliklarni o'z vaktida aniklash va uni mutaxassisga yuborishdan oldin bunday nuksonlar haqida yetarli tasavvurga ega bo'lishi lozim.

Endi har bir vazifani batafsil ko'rib chikamiz.

- **Nutqni tinglash qobiliyatini rivojlantirish**

Nutqni shakllantirishning dastlabki davrida nutqni tinglashga oid asosiy komponentlarni rivojlantirish bir tekisda bormaydi. CHunonchi, nutqni rivojlantirishning birinchi bosqichlarida tinglash e'tiboriga alohida ahamiyat beriladi. Vaholanki, bunda asosiy mantikiy vazifa yukori tovush tinglash kobiliyati zimmasiga tushadi. Bolalar tovush balandligi o'zgarishini nutqning his-hayajonli xususiyatiga (jahl kilinsa unga javoban yiђlaydilar hamda xushmuomala va mayin munosabatga javoban jilmayadilar) va tembriga (onasi va boshka yakinlarini ovozlaridan taniydi) muvofik holda karab tanib olishni biladilar, shuningdek so'zning ritmik suratini, ya'ni uning sheva-bo'ђin tarkibini (so'zning bo'ђinlar soni va asosiy urђuning joyiga bog'liq bo'lgan tovush tuzilishi xususiyatlari) nutq sur'ati bilan birlikda to'g'ri kabul kiladilar.

Kelgusida nutqni rivojlantirishda fonematik tinglash qobiliyatini, ya'ni bir tovushni boshkasidan anik ajrata olish va buning natijasida ayrim so'zlarni tanish hamda tushunish qobiliyatini shakllantirish muhim o'rin tutadi.

YAxshi rivojlangan nutqni tinglash kobiliyati ona tilining barcha tovushlarini anik va to'g'ri talaffuz qilishni ta'minlaydi, so'z aytishda uning balandligini to'g'ri boshkara olish va uni ohista sur'atda, ohang jihatdan ifodali qilib so'zlash imkonini beradi.

Nutqni tinglash qobiliyatini rivojlantirish artikulyatsiya apparatini rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir.

Nutqni tinglash qobiliyatini tarbiyalash bolalarda nutq jarangdorligining turli xil ko'rinishlarini, ya'ni tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, so'zlarni anik va tushunarli aytish, ovozni pasaytirish yoki kuchaytirish, nutq balandligi, tezligi, ohistaligi, uni jadallashtirish va sekinlashtirish, tembral ishlov berish (iltimos, buyruk va boshk.) kabilarni kabul kila olish qobiliyatini shakllantirishga karatilgandir.

- **Artikulyatsiya apparatini rivojlantirish**

Nutqiy tovushlar oђiz bo'shliђida shakllanadi, uning shakli va hajmi harakatchan a'zolar: lablar, til, pastki jaђ, oђizning yumshok yukori kismi, kizilo'ngach holatiga bog'liq bo'ladi. Muayyan tovushni talaffuz qilish uchun zarur bo'lgan nutq organlarining to'g'ri holati va harakati artikulyatsiya deb ataladi.

Artikulyatsiya apparati tuzilishidagi buzilishlar, masalan, kiska tilosti tuguni, noto'g'ri tishlashish, oђiz yukori kismining haddan tashkari balandligi yoki pastligi va boshka ayrim kamchiliklar tovushni noto'g'ri talaffuz qilishga odatlanishga olib keluvchi dastlabki omillar hisoblanadi. Birok, agarda bolaning artikulyatsiya apparati organlari harakatchan bo'lsa, u yaxshi tinglash kobiliyatiga ega bo'lsa, bu holda ko'pchilik holatlarda uning o'zi tovush talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etishga kodir.

Agarda bolaning artikulyatsiya apparati harakatida nuksonlar mavjud bo'lsa (masalan, til kam harakatlansa), bu holda u tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish, sust, noanik va tushunarsiz nutqka olib kelishi mumkin.

SHuning uchun tarbiyachining vazifalari quyidagilardan iborat: tilning harakatchanligini rivojlantirish; lablarning yetarli darajadagi harakatchanligini rivojlantirish; pastki jaђni tovushlarni talaffuz qilish uchun muhim bo'lgan muayyan holatda tutib turishni o'rganish.

- **Nutqiy nafas olishni rivojlantirishga doir ishlar**

O'pkadan kekirdak, bo'ђiz, oђiz bo'shliђi yoki burun orkali chikayotgan havo okimi tovush hosil kiluvchi manba hisoblanadi. Nutqiy nafas olish o'z-o'zidan ro'y beradigan nonutqiy nafas olishdan farkli ravishda ixtiyoriy nafas olish hisoblanadi. Nonutqiy nafas olishda nafas olish va nafas chikarish burun orkali amalga oshiriladi, nafas olish o'zining davomiyligi bo'yicha nafas chikarishga deyarli teng bo'ladi.

Nutqiy nafas olish oђiz orkali amalga oshiriladi, nafas olish tez, nafas chikarish esa sekinrok ro'y beradi. Nonutqiy nafas olishda nafas olishdan keyin darhol nafas chikariladi, so'ngr pauza saklanadi. Nutqiy nafas olishda esa nafas olinganidan keyin pauza saklanadi, so'ngra asta-sekinlik bilan nafas chikariladi.

To'g'ri nutqiy nafas olish to'g'ri tovush hosil bo'lishini ta'minlaydi, nutqning tegishli balandlikda bo'lishini ta'minlash, pauzalarga anik rioya qilish, nutqning asta-sekinligini va intonatsion ifodaliligini saklash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Nutqiy nafas olishdagi xatoliklar umumiy zaiflik, adenoidik o'simtalar, turli yurak-tomir kasalliklari okibati bo'lishi mumkin. SHuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga salbiy tas'sir ko'rsatuvchi nafas chikarishdan okilona foydalana olmaslik, nafas olayotib so'zlash, o'pkani yetarli darajada havo bilan to'ldirmaslik kabi nutqiy nafas olishdagi nomutanosibliklar noto'g'ri tarbiya, kattalarning bolalar nutqiga yetarli darajada e'tibor bermaganliklari okibatida ham yuz bergan bo'lishi mumkin.

Zaif nafas oladigan va nafas chikaradigan maktabgacha yoshdagi bolalar odatda, past ovozda so'zlaydilar, uzun iboralarni talaffuz qilishda kiynaladilar. Nafas chikarishda havodan nookilona foydalanilganida nutqning izchilligi buziladi, chunki bolalar iboraning o'rtasida nafas olishga majbur bo'ladilar.

Ko'pincha bunday bolalar so'zlarni oxirigacha aytmaydilar va ba'zan ibora so'nggida ularni shivirlab aytadilar. Ba'zida bolalar uzun iborani nihoyasiga yetkazish uchun nafas olib so'zlashga majbur bo'ladilar, buning natijasida nutq noanik bo'ladi, bolalar xuddi tiqilib kolgandek so'zlaydilar. CHunki, tezlashtiriligan nafas chikarish iboralarni mantikiy pauzalarga rioya kilmasdan jadal sur'atda so'zlashga majbur kiladi.

SHuning uchun tarbiyachining vazifalari quyidagilardan iborat edi: maxsus o'yinli mashklardan foydalangan holda erkin, bir tekis va uzaytirilgan nafas chikarishni o'rgatish; pedagog nutqiga taklid kilgan holda undan to'g'ri, okilona foydalanishni (kichik iboralarni uzok nafas chikarish bilan talaffuz qilish) tarbiyalash.

- **Ovoz ustidagi ishlar**

Ovoz apparati vositasida balandligi, kuchi va tembri turlicha bo'lgan tovushlar chikariladi: ularning umumiyligi aynan inson ovozini aniklaydi.

Har bir ovoz xususiyatlarini alohida ko'rib chikamiz.

***Ovoz balandligi*** – ohangning ko'tarilishi va pasayishi, yukori ovozdan past ovozga o'tish va aksincha.

***Ovoz kuchi*** – tovushlarni muayyan balandlikda talaffuz etish, shuningdek tovushni bor ovozi bilan talaffuz eta olish kobiliyati.

***Ovoz tembri*** – ovozga sifat jihatdan ishlov berish (jarangdor, ma'nosiz, titrok, bo'ђik va boshk.)

Ovoz ovoz tugunchalarining tebranishi natijasida vujudga keladi. Uning sifati nafas olish, ovoz va artikulyatsiya apparatlarining birgalikdagi faoliyatiga bog'liq bo'ladi.

YUkori nafas yo'llarining turlicha tebranishlari, surunkali shamollash, adenoid o'simtalar va hokazolar ovozdagi buzilishlarning yuz berishiga yordam beradi. Ko'pincha maktabgacha yoshdagi bolalarda ovoz buzilishi undan noto'g'ri foydalanish: doimiy ravishda bakirib so'zlash, ayniksa yilning sovuk davrida ko'chalarda baland ovozda so'zlash orkali ovoz tugunchalarini zo'riktirish, bola ovozi diapazoniga mos kelmaydigan ohangda so'zlash (masalan, bolalar anchaga yosh bolalarning chiyillok nutqiga taklid kiladilar yoki «adasi nomidan» past ovozda so'zlashga urinadilar) okibatida yuz beradi. Ovozdagi buzilishlar burun-tomok yoki yukori nafas yo'llariga oid kasalliklarni boshdan kechirgan hamda kasallik paytida yoki soђayganidan so'ng darhol ovozni asrash rejimga rioya kilmagan bolalarda ham vujudga kelishi mumkin.

Ovoz imkoniyatlaridan noto'g'ri foydalanish bola shaxsining o'ziga xos xususiyatlari (juda uyatchan bola ko'pincha past ovozda so'zlaydi; tezda ђayratga keladigan bolalar baland ohanglarda so'zlaydilar); noto'g'ri tarbiyaga (agarda atrofdagilarning o'zlari baland ovozda so'zlasalar bolalar ham noiloj shunga o'rganadilar); agarda xonada doimiy shovkin-suron bo'lsa (radio, televizor, bolalar bog'chasi guruhidagi doimiy shovkin-suron va h.k.) bolalarning baland ovozda so'zlashga majbur bo'lishlariga bog'liqdir.

Tarbiyachining vazifalari quyidagilardan iborat: o'yinlarda, o'yinli mashklarda ovozning asosiy sifati – kuchi va balandligini rivojlantirish; bolalarni zo'rikmasdan so'zlashga o'rgatish, ularni ovozdan turli vaziyatlarga mos holda foydalanishga odatlantirish (past-baland).

- **Ona tilining barcha tovushlarini to'g'ri talaffuz qilishni shakllantirish**

Maktabgacha yosh ona tilining barcha tovushlarini to'g'ri talaffuz qilishni shakllantirish uchun eng kulay davr hisoblanadi. Bu ishlar bolalar bog'chasida nihoyasiga yetkazilmoђi lozim.

Tovushlarni to’g’ri talaffuz qilishni fakatgina bolalarda artikulyatsiya apparati organlarining harakatchanligi va tez o’zgara olishi, nutqiy nafas olishi yetarli darajada rivojlangan, ular o’z ovozlarini boshkarishni uddalay olgan takdirdagina shakllantirish mumkin. To’g’ri talaffuzni shakllantirish uchun yaxshi rivojlangan nutqni tinglay olish kobiliyatiga ega bo’lish ham juda muhimdir, chunki u o’z-o’zini nazorat qilish imkonini beradi, o’z-o’zini nazorat qilish esa doimo o’z ustida ishlashga undaydi.

Tovushni talaffuz qilishdagi kamchiliklar nutqiy apparatdagi nuksonlar (oҳizning yukorigi kattik va yumshok kismlaridagi nuksonlar), tish-jaҳ tizimi tuzilishdagi xatoliklar, til osti tugunchalarining kiskaligi, artikulyatsiya organlarining yetarli darajada harakatchan emasligi, fonematik tinglay olish kobiliyati (bir tovushni boshkasidan farklay olmaslik) yetarli rivojlanmaganligi okibatida yuz berishi mumkin. Jismoniy tinglay olish qobiliyatining susayganligi, o’z nutqiga beparvolarcha munosabatda bo’lish (o’zini ham, boshkalarni ham tinglay olmaslik), atrofdagilarning noto’g’ri nutqlarini o’zlashtirib olish ham talaffuzda kamchiliklarga olib kelishi mumkin.

Bolalarning tovushni noto’g’ri talaffuz qilishlari tovushlarni tashlab ketishda, bir tovushni boshkasi bilan almashtirishda va tovushni buzib talaffuz qilishda namoyon bo’ladi. Ayniksa, tovushlarni almashtirib yoki buzib talaffuz qilish holatlari aniklangan bolalar bilan ishlashni o’z vaktida boshlash juda muhimdir, chunki tovushlar o’rnini almashtirish keyinchalik yozma nutqda ham paydo bo’lishi mumkin (bir harfni boshkasi bilan almashtirish), buzib talaffuz etilayotgan hamda o’z vaktida tuzatilmagan tovushlar keyinchalik uni bartaraf etish uchun logoped va bolaning birgalikda ko’p vakt va mehnat sarflashlarini talab kiladi.

Bundan tashkari, unutmaslik zarurki, tovush talaffuzidagi kamchiliklar ko’pincha bolaning o’zi nutqda xatolikka yo’l ko’yishi emas, balki fakat maxsus davolash va ta’lim berishni talab kiluvchi nisbatan murakkab nutq buzilishlarining (alaliya, dizartriya va boshk.) bir belgisi hisoblanadi.

Tarbiyachi quyidagilarni amalga oshirishi lozim: bolalarga har kanday pozitsiyada (so’z boshida, o’rtasida va oxirida) va so’z tarkibi turlicha bo’lganida (har kanday undosh birikmalari va bo’ҳinlar soni istalgancha bo’lganida) barcha tovushlarni to’g’ri talaffuz qilishni o’rgatish; nutqida kamchilik bo’lgan bolalarni o’z vaktida aniklash va zarur hollarda ularni o’z vaktida maxsus bolalar muassasalariga yuborish.

- **Diktsiyaga oid ishlar**

YAxshi diktsiya, ya’ni har bir tovushni, shuningdek so’zlar va iboralarni alohida va anik, tushunarli qilib talaffuz etish bolada bir vaktning o’zida artikulyatsiya apparatini rivojlantirish va takomillashtirish bilan bir katorda asta-sekin shakllanadi. Diktsiyaga oid ishlar ona tilining barcha tovushlarini to’g’ri talaffuz qilishni shakllantirishga doir ishlar bilan uzviy bog’liqdir.

Bola nutqining barcha tomonlari jadal rivojlanayotgan 2 yoshdan 6 yoshgacha bo’lgan davrda uning so’zlar va iboralarni anik va tushunarli talaffuz etishiga e’tiborni karatish, bolalarda so’zlardagi barcha tovushlarni anik aytgan, iboralardagi barcha so’zlarni tushunarli qilib talaffuz kilgan holda ohista sur’atda taklid qilish nutqini tarbiyalash zarur. Birok har doim ham fakat taklid qilish orkali yaxshi diktsiyaga erishib bo’lmaydi. Bunga nutqni tinglash qobiliyatining yetarli darajada rivojlanmaganligi, artikulyatsiya apparati organlarining yetarlicha harakatchan emasligi, o’z ovozini boshkara olmaslik va boshka kamchiliklar to’sik bo’lishi mumkin.

Ko’pincha noanik diktsiya so’zlovchilarning nutqini dikkat-e’tibor bilan tinglay olmaydigan va o’z-o’zini nazorat qilish yetarli darajada rivojlanmagan, e’tiborini bir narsaga jamlay olmaydigan va salga jahli chikadigan bolalarda yuz beradi. Bunday bolalar nutqi noanik, aralash bo’ladi, ular har doim ham so’zlar, iboralarni oxirigacha aytmaydilar.

Asta-sekin atrofdagilar va o’z nutqini dikkat bilan tinglashni o’rganishi, nutqiy nafas olish, artikulyatsiyani rivojlantirishi, ovozni boshkarishni o’rganishi natijasida bolaning diktsiyasi ham yaxshilanib boradi.

Tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalarga grammatik jihatdan to’g’ri nutqni, yaxshi diktsiyani o’rgatishi, ularni atrofdagilar nutqini dikkat bilan tinglash va o’z talaffuzining anikligini kuzatib borishga odatlantirishi zarur.

- **Orfoepiyaga doir ishlar**

Kishilar bir-birlarini tushunishlari uchun ular og’zaki nutqining tovush kismi bir xil bo’lishi darkor. SHuning uchun tarbiyachilar nafakat o’zlari og’zaki nutq koidalariga rioya qilishlari lozim, balki ular bolalarni ham shunga odatlantirishlari kerak.

Biz bir necha bor bolalarning o’z nutqida mahalliy shevani, jaydari so’zlarni ko’llayotganini, urђuni noto’g’ri ko’yayotganliklarini, so’zlarni harfiga karab aytayotganliklariga (masalan, rus tilidagi «chto» so’zini «shto» deb emas, balki «chto» deb aytish) duch kelamiz.

Tarbiyachi bolalarning adabiy talaffuz koidalariga rioya qilishlari ustidan doimiy nazoratni amalga oshiradi. Bu o’rinda tarbiyachining vazifasi quyidagilardan iborat bo’lmoђi lozim: ona tilining orfoepik me’yorlarini o’zlashtirib olish yo’li bilan o’z nutqining talaffuz madaniyatini oshirish, Mashg’ulotlarga tayyorgarlik ko’rishda muntazam ravishda turli ko’llanmalar, lug’atlardan foydalanish.

- **Nutq sur’atiga doir ishlar**

Nutq sur’ati deganda, nutqning vakt bo’ylab davom etish tezligi tushuniladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar sekin so’zlashdan ko’ra ko’proq tez sur’atda so’zlaydilar. Bu nutqning tushunarliligi, anikligiga salbiy ta’sir ko’rsatadi, tovush artikulyatsiyasi yomonlashadi, ba’zan alohida tovushlar, bo’ђinlar va hatto so’zlar tushib koladi. Ayniksa bu nuksonlar uzun so’zlar yoki iboralarni talaffuz qilishda ko’p uchraydi.

Tarbiyachining faoliyati bolalarda so’zlar juda anik jaranglaydigan ohista nutq sur’atini shakllantirishga yo’naltirilishi zarur.

- **Intonatsion ifodalilikka oid ishlar**

***Intonatsiya*** – bu nutqdagi barcha ifoda vositalarining murakkab majmui bo’lib, u quyidagilarni o’z ichiga oladi:

***musikiylik*** - iborani aytishda ovozning kuchayishi va pasayishi, bu nutqka turli buyoklar baxsh etadi va birxillikdan kochish imkonini beradi. Musikiylik jaranglayotgan nutqning har bir so’zida ishtirok etadi. Balandligi va kuchiga karab o’zgargani holda unlilar unga ishlov berishni nihoyasiga yetkazadilar;

***sur’at*** – nutqiy kesimlar o’rtasidagi pauzalarni hisobga olgan holda nutqning aytilgan fikr mazmunidan kelib chiqqan holda jadallashishi va sekinlashuvi;

***ritm*** – urђuli va urђusiz bo’ђinlarning bir tekis o’rin almashishi (ya’ni, ularning quyidagi sifatlari: uzoklik va kiskalik, ovozni balandlatish va pasaytirish);

***iboraviy va mantikiy urђular*** – aytilgan fikr mazmunidan kelib chiqqan holda pauzalar, ovozni balandlatish, so’zlarni talaffuz qilishdagi zo’rikish va uzokligi bilan ajratish;

***nutq tembri*** – (tovush tembri va ovoz tembri bilan aralashtirib yuborilmasin) tovushning ekspressiv-emotsional buyoklari (kayђuli, kuvnok, hazin tembr).

Ifodalilikning ushbu vositalari yordamida muloqot jarayonida fikrlar va iboralarni, shuningdek emotsional-iroda munosabatlarini aniklashtirish amalga oshiriladi. Intonatsiya tufayli fikr tugallangan tusga ega bo’ladi, aytilgan fikr asosiy ma’noni o’zgartirmagan holda ko’shimcha ma’noga ega bo’lishi mumkin. SHuningdek, aytilgan fikr mazmuni ham o’zgarishi mumkin.

Ohang jihatidan ifodali bo’lmagan nutq odatda, tinglash qobiliyatining sustligi, nutqni tinglash qobiliyatining yetarli darajada rivojlanmaganligi, noto’g’ri nutqiy tarbiyalash, nutqdagi turli nuksonlar (dizartriya, rinolaliya va boshk.) okibatida yuz berishi mumkin.

Bola o’z nutqida turli his-hayajon va kechinmalarini tinglovchiga yetkazish uchun ifoda vositalarini to’g’ri ko’llashni bilishi lozim. Tarbiyachi nutqi his-hayajonga to’lik bo’lishi hamda intonatsion ifodalilik namunasi bo’lib xizmat qilishi lozim.

Intonatsion ifodalilikka doir ishlar asosan taklid yo’li bilan amalga oshiriladi. Tarbiyachi she’rlarni yod olishda, hikoya qilib berishda o’zi ham nutqning ifoda vositalaridan foydalanadi va bola nutqining ifodaliligiga e’tiborni karatadi. Bolalar tarbiyachining to’g’ri, ifodali nutqini eshitgani sayin asta-sekin mustaqil nutqda zarur intonatsiyalarni ko’llay boshlaydilar.

Nutqning tovush madaniyatiga doir barcha ishlar bo'limlari o'zaro bir-biriga bog'liq bo'ladi. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashga doir o'yinlar va Mashg'ulotlarni muntazam hamda izchil ravishda amalga oshirish uchun unga «jonli» ovoz ustidagi ishlar asos qilib olinishi lozim. Har bir yosh bosqichida materialga majburiy ravishda nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashga doir bo'limlarni kiritgan holda uni murakkablashtirib borish darkor.

Bolalar nutqini rivojlantirishning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda nutqning tovush madaniyatini shakllantirishni uchta asosiy bosqichga ajratish mumkin.

***Birinchi bosqich*** – bu 1 yoshu 6 oydan to 3 yoshgacha bo'lgan davr. Ushbu bosqichda (ayniksa, uning boshida) faol lug'at jadal rivojlanadi. Ilgari shakllanib ulgurgan artikulyatsiya harakatlari yaxlit so'zlarni talaffuz qilishda ishtirok etgani holda unga ayrim o'zgartirishlar kiritiladi, ya'ni bunda aniklashtirish yuz beradi, u yanada barkarorlashadi. Bolaning yaxlit so'zni aytishga ongli ravishda taklid qilish kobiliyati rivojlanadi, shu tufayli tarbiyachi bola nutqining tovush jihatiga sezilarli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Turli tovush taklidlaridan foydalanish nutqning tovush madaniyatiga doir ishlarning asosini tashkil kiladi.

Ishning samaradorligi ortadi, chunki ushbu yoshdagi bolalar bilan Mashg'ulotlar kichik guruhlarda olib boriladi.

***Ikkinchi bosqich*** – 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan davr. Bu yoshda so'zning fonetik va morfologik tarkibini shakllantirish jarayoni boradi. eng kiyin artikulyatsiya harakatlarini takomillashtirish davom ettiriladi. Bu bola uchun oralik, affrikat va sonor tovushlarini chikarish imkoniyatini yaratadi. Ushbu bosqichdagi ishlar bolalarning so'zning tovush jihatiga nisbatan sezilarli ravishda ajralib turadigan ongli munosabatiga tayanadi va u ona tilining barcha tovushlarini izchil ravishda mashk qilish asosiga kuriladi.

***Uchinchi bosqich*** – 5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davr. Bu bosqich go'yoki bolalar bog'chasida maktabgacha yoshdagi kichkintoylar nutqining tovush tomonini shakllantirishdagi yakunlovchi davr hisoblanadi. Davr boshida eng kiyin artkulyatsiya harakatlari shakllanib bo'ladi, birok bunda shu narsa muhimki, artikulyatsiya yoki akustik belgilari bo'yicha yakin bo'lgan (s-sh, z-x, s-z va boshk.) tovushlar bir-biridan anik farklanishi (talaffuzda ham, nutqni tinglash orkali kabul qilishda ham) lozim. Bunday tovushlarni tabakalashtirish, farklashni takomillashtirishga oid maxsus ishlar bolalarda fonematik tinglash qobiliyatini yanada rivojlantirishga, fonemalarni mazmun farklovchi tovushlar sifatida o'zlashtirishga yordam beradi (surat – sur'at, olma – olma va boshk.).

Mazkur davrda nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash asosiy tovushlar juftligini tabakalashtirish asosiga kuriladi va bir vaktning o'zida diktsiya, sur'at, intonatsion ifodalilik va h.k. larni o'z ichiga oladi.

Tarbiyachi har bir bosqichda nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashga doir ishlarning asosiy mazmunini nazarda tutgani holda ayni paytda bolalar nutqini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini ham hisobga olishi lozim.

## Har bir yosh bosqichida nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash

***1-bosqich – 1 yilu 6 oydan boshlab to 3 yoshgacha bo'lgan davr***

Bir yarim yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalarda nutqni tushunish tez rivojlanadi, lug'at boyligi keskin ortadi, so'z tarkibi takomillashadi. Ular dastlab tovush birikmalarini, so'ngra esa oddiy iboralar, kichik she'rlarni oson takrorlaydilar. Agarda ikki yoshda bola ikki-uchta so'zdan iborat bo'lgan iboralarni ko'llayotgan bo'lsa, u uch yoshga kirganida uch-beshta va undan ortik so'zlar ishtirokida murakkab iboralarni tuzadi. Ushbu davrda nutq nafakat kattalar bilan, balki tengdoshlar bilan ham muloqot vositasi sifatida shakllanadi. Bu davrda bolalarda nutqning tovush tomoni, ya'ni: ovoz va artikulyatsiya apparati, tovush talaffuzi, tinglash kobiliyati jadal rivojlanadi. YAxshi, anik va intonatsion jihatdan to'g'ri bo'lgan ifodali nutqka erishish uchun ilk yoshlardan boshlab bolalar bilan nutqning tovush madaniyatini rivojlantirishga doir ishlarni amalga oshirish zarur.

Nutqning tovush madaniyatini shakllantirish bolalarning kattalar bilan muntazam ravishda muloqotda bo'lish orkali amalga oshirilishi lozim. Ushbu davrdagi asosiy vazifa –

tinglash qobiliyatini doimiy rivojlantirish, artikulyatsiya apparati a’zolarini mustahkamlash va rivojlantirishdan iboratdir.

Ushbu maksadlarga erishish uchun muayyan tovushlar guruhi tanlab olinadi va bolalar tovushga taklid qilish asosida ularni mashk kiladilar. Asosan bu eng oddiy tovushlar guruhlaridir: unlilar – a, i, o; lab-lablilar – p, b, m; orka tillilar – k, g, x; lab-tishlilar – v, f; old tillilar – t, d, n. Ikki yildan keyin asta-sekin artikulyatsiya jihatidan nisbatan murakkab bo’lgan old tilli tovushlar ham beriladi – hushtaksimonlar – s, z, ts; shuvillovchilar – sh, j, ch, щ; sonorlilar – l, r, ammo bu 3 yoshdan boshlab bolalarning to’g’ri talaffuz qilishlariga erishish zarur, degani emas. Bolalar ushbu tovushlarni muntazam mashk qilish natijasida asta-sekin, 5-6 yoshlarga to’g’ri talaffuz kila boshlaydilar.

Tovushga taklid qilishni turli ish shakllariga ko’shish bolalarning nafakat turli ko’rinishdagi tovushlarni to’g’ri talaffuz qilishlarini aniklash va mustahkamlashga yordam beradi, balki yaxshi diktsiyaga erishishda, ya’ni ularning tovushlar hamda so’zlarni anik va tushunarli qilib talaffuz etishlariga erishishda ham ko’maklashadi. Aynan bir xil tovush taklidlarini bir necha marta ko’shib talaffuz qilish nutqiy nafasning rivojlanishiga yordam beradi, ularning turli balandlikda talaffuz qilish bolaning ovoz apparatini rivojlantiradi.

Tovush taklidlari bola tomonidan ko’p marta amalga oshirilgani bois u bola uchun namunaga aylanib koladi hamda akustik va artikulyatsiya ko’nikmalarini orttirish uchun yaxshi material bo’lib xizmat kiladi.

Dastlab ikki yoshgacha shunday tovush taklidlarini berish kerakki, toki ular bolaning tinglash-nutq ko’nikmalarini rivojlantirishga mos kelsin, masalan: u, mu, av, ga-ga, tu-tu, bay-bay va h.k. Bolaning fonetik imkoniyatlariga va uning oddiy so’zlari, tovushga taklid qilish shakllariga moslashish tovush talaffuzini aniklash imkonini beradi. Bu nutqiy harakat tahlilchisiga normal rivojlanish va «pishib yetilish» imkoniyatini, bolaga esa – ayrim tovushlarga kulok tutish imkonini beradi, bu esa o’z navbatida tinglash qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi.

2-3 yoshli bolalar bilan ishlashda tovushga taklid qilish murakkablashadi, xususiyatlariga ko’ra turlicha bo’lgan tovushlarni o’z ichiga oladi, masalan: pish-pish, ku-ku va h.k. Bu tovushga taklid qilishda ham, mustaqil nutqda ham tovushlarni anik, tushunarli qilib talaffuz qilishga yordam beradi, shuningdek nutqiy tinglash qobiliyatini rivojlantiradi. Bundan tashkari, tovushga taklid qilishga maktabgacha yoshdagi bolalar noanik talaffuz kiladigan yoki umuman ayta olmaydigan tovushlarni asta-sekin ko’shib borish tovush talaffuzini yaxshilashga yordam beradi. Bolalarda mavjud tovushlar aniklashtiriladi, yangilari paydo bo’ladi.

SHunday qilib, Mashg’ulotlarda va undan tashkarida turli tovush taklidlarini muntazam ravishda ko’llagan holda tarbiyachi bir vaktning o’zida nutqning tovush madaniyatini ham shakllantiradi. Talaffuz uchun osonlashtirilgan nutqiy materialda bola nutqning tovush madaniyatiga oid kator bo’limlarni mashk kiladi hamda shu bilan nutqni tinglash va nutqiy harakat tahlilchilarini nisbatan murakkab akustik-artikulyatsiyaga tayyorlaydi.

Ishlarning ushbu bosqichida bolalarning yoshiga karab ularga o’zida turli tovush taklidlarini jamlagan o’yinlar, ko’shiklar, she’rlar, sanok she’rlar va hikoyalar beriladi.

Tarbiyachi tovushga taklid qilishni o’yin-mashklar, nutqni rivojlantirish va atrof-muhit bilan tanishtirishga oid Mashg’ulotlar, didaktik o’yinli Mashg’ulotlar, musikiy Mashg’ulotlar tarkibiga kiritadi.

***2-bosqich – uch yoshdan besh yoshgacha bo’lgan davr***

3 yoshdan 5 yoshgacha bo’lgan davrda bolalarning nutqi rivojlanishda davom etadi. Ushbu yoshda lug’at yiђiladi, aniklashtiriladi va takomillashtiriladi. Bolalar so’zlarni mazmuniga karab anikrok ayta boshlaydilar. Ular grammatik shakllardan to’g’ri foydalana boshlaydilar, kichik ertaklar, hikoyalarni mantikiy izchilikkda hikoya qilish va suratlar mazmunini aytib berishga kodir bo’ladilar. Nutqning tovush tomoni ham jadal rivojlanadi. Bolalar ona tilining ko’pgina tovushlarini o’zlashtirib oladilar va to’g’ri talaffuz kiladilar, so’zlar va iboralar sof va anikrok ayta boshlaydilar, o’z nutqining sur’atiga e’tibor bera boshlaydilar.

Mazkur bosqichda nutqning tovush madaniyatini shakllantirishdagi asosiy vazifa bolalarda fonematik tinglash qobiliyatini rivojlantirish hamda so'zlar va iboralarni anik va tushunarli qilib talaffuz kilgan holda ona tilining barcha tovushlarini to'g'ri talaffuz qilishni rivojlantirishdan iborat bo'ladi.

Bu yoshda asosiy vazifani hal etish bilan bir katorda nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashning boshka bo'limlariga oid ishlarni ham amalga oshirish, ya'ni: ovoz balandligini vaziyatga karab moslashtirish, so'zlarni ulardagi urђularni anik ko'ygan holda shoshmasdan, to'g'ri va anik qilib aytish qobiliyatini tarbiyalashga doir ishlarni ham amalga oshirish zarur.

Ilk yoshdagi bolalar bilan ishlashda tovushga taklid qilish keng ko'llaniladi. 3-4 yoshli bolalar uchun nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash tovush talaffuziga oid ishlarni olib borish jarayonida amalga oshiriladi. Uni shakllantirish bolalar bog'chasida nihoyasiga yetkazilishi lozim, nutqning tovush madaniyatiga oid kolgan bo'limlarni takomillashtirish esa maktabda davom ettiriladi. Ayni paytda tovush talaffuzi ustidagi ishlarni nutqni tinglash qobiliyatini, nutqiy nafas olishni, ovozni, artikulyatsiya apparati, diktsiya va intonatsiyani rivojlantirish bilan ko'shib olib borish osondir.

To'g'ri tovush talaffuzini tarbiyalash ona tilining barcha tovushlarini izchil mashk qilish jarayonida amalga oshiriladi. Bunda nafakat u yoki bu tovushni to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmalarini shakllantirish, balki bolaning tinglash va talaffuz qilish imkoniyatlarini shakllantirish, ya'ni tinglash va artikulyatsiya nazorati o'rtasidagi bog'liqlikni ham shakllantirish zarur, zero ularsiz tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish mumkin emas.

Agarda 3 yoshli bolalar - s, z, sh, ch, щ, r, l kabi tovushlarini yetarli darajada yaxshi talaffuz eta olmasalar, darhol ularni mashk qilishga kirishish kerak emas, chunki bu bolalarning ularni noto'g'ri talaffuz qilishga odatlanib kolishlariga olib kelishi mumkin. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashga oid ishlarining barcha bo'limlari bo'yicha ishlarni olib borish zarur. Nutqni tinglash kobiliyati va talaffuz imkoniyatlarini takomillashtirish bu tovushlarning bola nutqida paydo bo'lishi hamda ularning to'g'ri talaffuz etilishiga yordam beradi.

Masalan, 3 yoshli bolalar bilan talaffuz uchun nisbatan oson bo'lgan – «f», «v» tovushlarini mashk qilishda tarbiyachi yangi tovushlar guruhi – ya'ni artikulyatsiya apparati organlarining «i» tovushiga yakin bo'lgan muayyan joylashuvi xos bo'lgan, shuningdek «f», «v» tovushlarini mashk qilishda hosil bo'ladigan maksadli havo to'lkini mavjud bo'ladigan shuvillovchi – «s», «z», «ts» tovushlarining paydo bo'lishi uchun shart-sharoitlarni yaratadi. Bir tovushlar guruhi uchun ishlab chikilgan ko'nikmalarning boshkasiga o'tish imkoniyati shu tarika yaratiladi.

Tovushlarni ketma-ket mashk qilish nutqning tovush madaniyatini shakllantirish va uni yanada takomillashtirish borasidagi ishlarni muntazam ravishda o'tkazib borish imkoniyatini yaratadi.

Ona tilining barcha tovushlarini mashk qilish bir-birini ketma-ket almashtiruvchi to'rt ish turini ko'zda tutadi: artikulyatsiya apparati organlarini tayyorlash, ajratilgan tovushni talaffuz qilishni aniklashtirish (bo'ђinlarda) va ushbu tovushni boshka tovushlardan ajrata olish, so'zlarda tovushni to'g'ri talaffuz qilishni mustahkamlash, iborali nutqda tovushni to'g'ri talaffuz qilishni mustahkamlash.

So'nggi uchta ish turiga nutqiy tinglash qobiliyatini rivojlantirish ham kiradi. Bu ish turlari Mashg'ulotlarda ham va ayni paytda undan tashkarida ham amalga oshirilishi mumkin.

Ushbu barcha ishlar turlarini bitta mashђulotda amalga oshirish tavsiya etilmaydi, chunki tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'zlashtirish jarayoni – bu muayyan ko'nikmaga ega bo'lishdan iborat, uni yaratish esa izchillik va doimiylikni talab etadi. Yuqorida sanab o'tilgan ishlar turlarini 3-6 kun oraliђida bajarish bolalarga artikulyatsiya apparati organlarining muayyan joylashuvi va harakatini o'zlashtirish hamda mustahkamlash imkonini beradi va tovushni to'g'ri talaffuz qilishni shakllantirish hamda uni yaxshi tinglay olishga yordam beradi.

Tovush talaffuziga oid ishlar nutq tovush madaniyatining boshka bo'limlariga doir ishlar (nutqni tinglash kobiliyati, artikulyatsiya, nutqiy nafas olish, ovozlar, diktsiya, nutq surati, uning

intonatsion ifodaliligini rivojlantirish,) bilan birgalikda olib boriladi. endi har bir ish turini batafsil ko'rib chikamiz.

1-ish turi – artikulyatsiya apparati organlari harakatini aniklashtirish. Tarbiyachi harakatlarni rivojlantirish yoki aniklashtirish, tovushning to'g'ri artikulyatsiyasiga yordam beradigan muayyan holatlarni ishlab chikish uchun o'yin mashklarini beradi. Bunda nutq tovush madaniyatining navbatdagi bo'limlariga oid ishlar ajratiladi: anik va to'g'ri artikulyatsiyani, oђizdan uzok muddat davomida bir tekis nafas chikarishni o'rgatish, tovush balandligini rivojlantirish.

2-ish turi – ajratib ko'yilgan tovushni talaffuz qilishni aniklashtirish va nutqni tinglash qobiliyatini rivojlantirish. Tarbiyachi ajratib ko'yilgan tovushni talaffuz qilishni aniklashtirish yoki uni taklid asosida atash uchun o'yinlarni yoki o'yinli mashklarni beradi. Bolalarning dikkat-e'tibori ushbu tovushni talaffuz etishda artikulyatsiya apparati organlarining holatiga va uning jaranglashiga karatiladi. Ushbu tovushni tovushlar guruhi ichidan ajratib olish uchun o'yinlardan foydalaniladi.

Bu ish turi nutqni tinglash, ovoz balandligini takkoslay olish kobiliyatlarini tarbiyalash, artikulyatsiya apparatini, nutqiy nafas olishni rivojlantirishga yordam beradi.

3-ish turi – so'zlarda tovushni to'g'ri talaffuz qilishni tarbiyalash va fonematik tinglash qobiliyatini rivojlantirish.

Tarbiyachi so'zlarda tovushlarni anik va to'g'ri ko'llashga yordam beruvchi turli materiallarni (asosan, didaktik o'yinlar) beradi. Dastlab mashk kilinayotgan tovush urђuli bo'ђinda turgan so'zlar beriladi. Bolalar uni yanada anikrok, cho'zib talaffuz qilishni o'rganadilar, ya'ni tovushni ovoz yordamida ajratish ko'nikmasini mashk kiladilar, keyinchalik esa ularni nafakat ajrata olish, balki uning bo'ђindagi joyini aniklashni o'rganadilar. Bir vaktning o'zida fonematik tinglash, so'zlarni orfoepiya me'yorlariga muvofik holda talaffuz qilish vazifalari hal etiladi.

4-ish turi – tovushlarni iborali nutqlarda to'g'ri talaffuz qilishni tarbiyalash va nutqni tinglash qobiliyatini rivojlantirish.

Pedagog maxsus tanlab olingan nutqiy materiallar, ya'ni: so'zli o'yinlar, tez aytishlar, topishmoklar, she'rlar, va hikoyalarni beradi. U mazkur tovushning Yuqorida sanab o'tilgan materialda to'g'ri ko'llanishini kuzatib boradi. Mustaqil nutqda tovushni to'g'ri talaffuz qilishni tarbiyalash nutqni tinglash va nutqiy nafas olish kobiliyatlarini rivojlantirish, nutqning ohista sur'ati va intonatsion ifodaliligidan foydalana olish qobiliyatini shakllantirish bilan birgalikda olib boriladi.

***3-bosqich – besh yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan davr***

Katta yoshdagi bolalar ko'p hollarda ona tilidagi barcha tovushlarni o'zlashtirib oladilar va to'g'ri talaffuz kiladilar, so'zlar va iboralarni anik va to'g'ri talaffuz qilishni, nutq balandligini vaziyatdan kelib chiqqan holda o'zgartirishni, ifoda qilishning intonatsion vositalaridan foydalanishni biladilar, yetarli darajada rivojlangan tinglash kobiliyatiga ega bo'ladilar. Birok bu yoshda hali ham ayrim tovushlar va murakkab so'zlarni, ayniksa bir necha undoshlar ishtirokidagi so'zlarni unchalik anik talaffuz kila olmaydigan bolalar ham uchraydilar. Ular har doim ham ohista nutq sur'atlaridan foydalana olmaydilar, ancha baland yoki past ovozda so'zlaydilar va h.k. Ayrim bolalar esa tovushlarni to'g'ri talaffuz etgani holda ularni tinglash jarayonida ajratib olishni kiynaladilar, bu esa kelgusida savod chikarishda kiyinchiliklarni keltirib chikarishi mumkin.

Bolalar odatda bolalar bog'chalariga turli yoshlarda kelishi va nutq tovush madaniyatining barcha bo'limlarini har xil o'zlashtirishlari tufayli uni shakllantirishga doir ishlar katta guruhlarda davom ettirilishi lozim. 5-7 yoshli bolalar nutqida tovush madaniyatini shakllantirishning asosiy vazifasi nutqni tinglash qobiliyatini yanada takomillashtirish, anik, to'g'ri va intonatsion ifodali nutq ko'nikmalarini mustahkamlashdan iboratdir.

Ushbu bosqichda nutq tovush madaniyatini shakllantirishni bolalar tomonidan ko'pincha aralashtirib talaffuz kilinadigan tovushlarni tabakalashtirish ishlari bilan bog'liq holda amalga oshirish mumkin: shippilovchi va chiyillovchilar tovushlar – sh-s, j-z, ch-ts, щ-s; jarangli va

jarangsiz tovushlar – v-f, z-s, j-sh, b-p, d-t, g-k; «l» va «r» tovushlari; kattik va yumshok tovushlar – d-d, l-l va boshkalar.

Zarur hollarda ko'pincha bolalar tomonidan aralashtirib yuboriladigan boshka tovushlar juftliklarini ham tabakalashtirish mumkin, masalan: ch-t, s-ts va boshk.

Tovushlarni tabakalashtirishga doir ishlar tovushlarni farklash bir vaktning o'zida ularning akustik va artikulyatsiya xususiyatlariga karab o'tkazilgan hollardagina to'g'ri tashkil etilishi mumkin. Bu xususiyatlar bolalar tomonidan ancha ilgari, tovushlarni mashk qilish choђida ajratilgan. Masalan, «s-sh» tovushlarini mashk qilish jarayonida tarbiyachi bolalarga ushbu tovushlarning asosiy akustik va artikulyatsiya xususiyatlarini ajratgan holda ularni bir-biriga takkoslashga undaydi: sovuk havo nasosdan chikadi va hushtak chaladi: sssss….-biz «s» tovushini talaffuz kilganimizda til pastki tishlar ortida turadi; yorilib ketgan shinadan shuvillab issik havo chikmokda: shshshshsh…..biz «sh» tovushini talaffuz kilganimizda til yukori tishlar ortiga ko'tariladi.

Tovushlarning farklovchi xususiyatlarini amaliy o'rganishga karatilgan bunday tizimli ish bolalar bog'chasiga kechrok katnay boshlagan bolalarga o'z tovush talaffuzini aniklashtirib olishda yordam beradi, fonematik tinglash kobiliyati rivojlanishi va artikulyatsiya apparatining tovushlarni farklashga xos bo'lgan tabakalashtirilgan nozik harakatlarini o'zlashtirishda ko'maklashadi. Bularning barchasi ona tilini muvaffakiyatli o'kitishni davom ettirishning zarur sharti hisoblanadi.

Ajratib ko'yilgan tovushlarni tabakalashtirish bilan bir katorda so'zlar va iborali nutqlardagi tovushlar ham tabaklashtirilishi bir vaktning o'zida bolalarda nafas olishni, diktsiyani, intonatsion ifodalilikni, ya'ni takomillashtirish ishlarini ham olib borish imkonini yaratadi.

Har kanday tovush juftligini tabakalashtirish uch xil turdagi ishlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi.

***1-ish turi*** – ajratib ko'yilgan tovushlarni tabakalashtirish. Tarbiyachi tovushlarni ularning akustik va artikulyatsiya xususiyatlariga karab farklashga doir ishlarni bajaradi. Bunda u «obrazli» suratlardan foydalangan holda, ya'ni tovushni hayvonlar, narsalar va harakatlar chikaradigan muayyan tovushlar bilan shartli ravishda takkoslashni amalga oshiradi.

Bir vaktning o'zida ushbu ish turi fonematik tinglash qobiliyatini takomillashtirish, tovushlarni anik talaffuz qilishni o'rganishga yordam beradi.

***2-ish turi*** – so'zlardagi tovushlarni tabakalashtirishdan iborat. Tarbiyachi nomlarida tabakalashtiriladigan tovushlar ishtirok etadigan turli suratlar, narsalar, o'yinchoqlarni tanlab oladi hamda bolalarga ularni farklashni o'rgatadi. Dastlab tabakalashtiriladigan u yoki bu tovush mavjud bo'lgan so'z olinadi, so'ngra esa fakat bir dona tabakalashtiriladigan tovush mavjud bo'lgan so'zlar, keyin esa har ikki tabakalashtiriladigan tovushni o'z ichiga olgan so'zlar tanlanadi. Bolalar ularni anik, to'g'ri talaffuz qilishlari va ularning farklarini ko'rsata olishlari lozim. Bir vaktning o'zida ushbu ish diktsiyani yaxshilashga yordam beradi, so'zlarni talaffuzning orfoepik me'yorlariga muvofik holda to'g'ri talaffuz qilishni ta'minlaydi.

***3-ish turi*** – nutqda tovushlarni tabakalashtirish. Tarbiyachi so'zli o'yinlar, hikoyalar, syujetli suratlar, she'rlar, tez aytishlar, topishmoklar, makollar, matallar hamda tabakalashtiriladigan tovushlar bilan boyitilgan boshka nutqiy materiallarni tanlab oladi. Ayni paytda u bolalarning ushbu tovushlarni to'g'ri ko'llashlarini va ularni o'z talaffuzlari bilan aralashtirib yubormasliklarini nazorat kiladi.

Pedagog she'rlar, hikoyalarda tovushlarni tabakalashtirish uchun materiallar berar ekan, u bir vaktning o'zida bolalar bilan nutq sur'ati, diktsiya, ovozdan to'g'ri foydalanishni mashk qilish imkoniyatiga ega bo'ladi hamda so'zlarni talaffuz etishning adabiy me'yorlarini hisobga olgan holda ularning to'g'ri talaffuz kilinishini kuzatib boradi.

Endi ko'rsatib o'tilgan ish turlaridan har bir yosh bosqichida foydalangan holda talaffuz ko'nikmalari, nutqning tovush madaniyatini amaliyotda kanday ishlab chikish (shakllantirish) zarurligini ko'rib chikamiz.

**1 yilu 6 oydan 3 yoshgacha bo'lgan davr**

***«A» tovushi***

***«Mehmonlar»***

***Maksad:*** tovush tinglay olish va tovush taklidlarini to'g'ri talaffuz qilishni tarbiyalash. Bir vaktning o'zida ovozdan o'rtacha balandlikda foydalanish mashk kilinadi.

***Mazmuni:*** Pedagog bolalarga ularning mehmonlarni kutib olishlari lozimligini ma'lum kiladi. Tarbiyachi bolalardan biri bilan xonadan chikar ekan, unga kuchuk surati tasvirlangan kalpokchani kiydiradi. So'ngra ular «tak-tak» deb, eshikni ochishadi. Bolalar so'raydilar: «kim u?» Bola javob beradi: «vov-vov». Tarbiyachi bolalarga murojaat kiladi: «Bizga kim mehmon bo'lib kelibdi?». Bolalar javob beradilar: «kuchukcha». Tarbiyachi: «kuchukcha kanday vovullaydi?». Bolalar: «vov-vov». Pedagog bolalarga ђoz, kurbaka, tovuk, echki va boshka jonzotlar tasvirlangan kalpokchalarni kiydirgani holda o'yinni takrorlaydi.

***Metodik ko'rsatmalar.*** Bolalar tovush birikmalarini anik va yetarli darajada baland talaffuz etishlarini nazorat kiling.

***«Ko'ђirchokni allalash»***

***Maksad:*** artikulyatsiya apparatini rivojlantirish va tinglash qobiliyatini shakllantirish. Bir vaktning o'zida uzok muddat mobaynida nutqiy nafas chikarish va ovoz balandligini o'zgartira olish kobiliyati mashk kilinadi.

***Mazmuni:*** Pedagog bolalarga ko'ђirchok tarkatadi va «a» tovushini uzok vakt mobaynida cho'zib aytish – aaaa – orkali ularni allashni taklif kiladi. Dastlab bolalar «a» tovushini baland ovozda talaffuz kiladilar. So'ngra tarbiyachi ko'ђirchoklar uxlab kolayotganini aytadi va bolalardan sekinrok allalashni so'raydi. Bolalar «a» tovushini past ovozda ayta boshlaydilar.

***Metodik ko'rsatmalar:*** Bolalar «a» tovushini ancha uzok vakt mobaynida, bir nafasda aytishlarini nazorat kiling; ovozidan unchalik yaxshi foydalana olmaydigan bolalarni yaxshirok nazorat qilish uchun ularni kichik guruhlarga ajrating.

***«U» tovushi***

***«Bu kimligini (nimaligini) top»***

***Maksad:*** Tinglash qobiliyatini tarbiyalash (talaffuz etilgan tovush taklidining turli balandliklarini tinglash orkali aniklash kobiliyati)

***Mazmuni:*** Tarbiyachi turli tovush birikmalarini narsalar va hayvonlar bilan takkoslagan holda talaffuz kiladi. Bolalar buning nimaligini yoki kimligini aniklashlari zarur. Masalan, tarbiyachi parovozning chinkiriђiga, sigirning ma'rashiga, xo'rozning kichkiriђiga, nay tovushiga taklid kiladi. Takroriy o'yinda pedagog bolalardan narsa yoki jonzotlarning uzok yoki yakindaligini aniklashni so'raydi.

***Metodik ko'rsatmalar:*** Tegishli narsalar, jonzotlar tasvirlarini tanlash; tovushga taklidlarni baland ovozda ijro etish.

***«Hay-huylash»***

***Maksad:*** Artikulyatsiya apparati organlarining anik harakatlarini mashk kildirish.

***Mazmuni:*** Pedagog bolalarga ular bokka gul tergani kelganligini ma'lum kiladi. Ayrim bolalar uzokka ketib kolishdi, ularni hay-huylab chakirish lozim (kaftlarini oђziga karnay qilib ko'yadi va kanday qilib «hay-huylash» kerakligini ko'rsatadi). Bolalar ikki kichik guruhga bo'linadilar. Bir guruh pedagog yonida koladi (ular past ovozda «hay-huylaydilar»), boshka guruh esa ajratilgan joyga yo'l oladi (ular baland ovozda chakiradilar).

***Metodik ko'rsatmalar:*** Past ovozda so'zlaydigan bolalar baland ovozda «hay-huylaydigan» guruhga kiritiladi. Barcha bolalar har ikki tovushni bir tekisda talaffuz etishlari, ovoz balandligidan to'g'ri foydalanishlarini nazorat qilish darkor.

***«V» tovushi***

***Bo'ri va it***

***Maksad:*** Tinglash qobiliyatini va «v» tovushini anik talaffuz qilishni tarbiyalash. Bir vaktning o'zida oђizdan uzun nafas chikarishni, ovoz balandligini o'zgartirishni mashk qilish.

***1-variant:*** Tarbiyachi bolalarga bo'rining kanday uvillashini tinglashni taklif kiladi (sekin ovozda: uvvvv…), so'ngra itning kanday hurishini tinglashni taklif kiladi (baland ovozda: vov-vov). Uning ko'rsatmasi bo'yicha bolalar ovoz balandligini oshiradilar, bo'rining uvillashi va itning hurishiga taklid kiladilar.

***Metodik ko'rsatmalar:*** Taklidlarning to'g'ri talaffuz etilishini nazorat kiling. Bo'rining uvillashi past ovozda, itning hurishi baland ovozda.

***2-variant:*** Tarbiyachi bolalarga bir nafasda bo'rining uvillashi, itning hurishi va yana bo'rining uvillashini ko'rsatishni taklif kiladi. Bolalar bu jonzotlar ovoziga ketma-ket taklid kiladilar: past-baland-past.

***Metodik ko'rsatmalar:*** Bolalarning ovozni pasaytirish va kuchaytirishni boshka nafas olmasdan bir nafasda amalga oshirishlari, past ovozdan baland ovozga ohisa o'tishlarini nazorat kiling.

3 yoshdan 5 yoshgacha.

***«S» tovushi***

***Maksad:*** Artikulyatsiya apparati organlarining anik harakatlari va ularning to'g'ri holatini mashk qilish.

***«Farruxning kanday jahli chikishi va uning kanday kuvonishini ko'rsat»***

***Mazmun:*** Tarbiyachi bolalarga Farruxning jahli chiqqanida uning lablarini mana bunday qilib cho'chchaytirishini (lablarini shishiradi), Farrux xursand bo'lganida esa uning jilmayishini (lablarini cho'zadi, yukori va pastki tishlarini ko'rsatadi) aytadi.

Tarbiyachi: «Endi esa men sizga Farrux haqida hikoya qilib bermokchiman. Uning jahli chiqqanida siz lablaringizni cho'chchaytirasiz (lablarini shishirib ko'rsatadi), u xursand bo'lganida esa siz jilmayasiz… Farruxning oyisi unga mashina olib berdi. Farrux xursand, u jilmaymokda… U mashinasini ko'tarib, ko'chaga o'ynagani chikdi, tashkarida esa yomђir yoђmokda, u nima qilishini bilmay koldi. Alisher Farruxdan mashinasini o'ynash uchun berib turishni iltimos kildi. Farruxning mashinani bergisi kelmadi, u lablarini cho'chchaytirdi. Ko'p o'tmay bulutlar tarkab, kuyosh chikdi. Farrux jilmaydi va Alisherga dedi: «Ketdik, mashinamni birga o'ynaymiz».

***Metodik ko'rsatmalar:*** Bolalarning jilmayish uchun lablarini kiynalmasdan cho'zishlarini va old tishlarini ko'rsatishlarini nazorat kiling. Lablar oldinga cho'zilganida ular bir-biriga tegib turishi lozim.

***«Sayrda»***

***Mazmuni:*** Pedagog bolalarga karab, deydi: «Bizning tilimiz sayr qilishga karor qilibdi. U o'z uyini ochdi (oђzini ochadi), dastlab chapga, so'ngra o'ngga karadi, keyin yana chapga, o'ngga karadi, karasa hech kim yo'k. SHuning uchun panjaraga yotib, kuyoshga toblanmokchi bo'ldi (tilini pastki tishlari ustida ko'yadi)».

Bu vaqtida bolalar tarbiyachi harakatiga taklid kiladilar.

***Metodik ko'rsatmalar:*** Keng tilning pastki old tishlar ustida bemalol yotishini nazorat kiling.

**«Korcha uchkunlamokda»**

***Mazmuni:*** Bolalarga «kor uchkunlari» – ipga terilgan paxta tutamchalari tarkatiladi. Bolalar, shamolni tasvirlaganlari holda shoshmasdan «kor uchkunlarini» puflaydilar.

***Metodik ko'rsatmalar:*** Bolalarning yuzlarini shishirmagan holda uzok vakt mobaynida bir tekis puflashlarini nazorat kiling.

***2-ish turi:***

***Maksad:*** Artikulyatsiya apparati harakatlarini aniklashtirish, alohida ajratilgan «S» tovushini to'g'ri talaffuz etish. Nutqni tinglash qobiliyatini rivojlantirish, uzok vakt davomida ођizdan nafas chikarishni mashk qilish.

***«Nasos»***

***Mazmuni:*** Tarbiyachi deydi: «Bolalar velosipedda sayr qilishga karor qilishgan edi, lekin uning ђildiragining dami chikib ketibdi. Ular nasoslarni olib, ђildiraklarni damlashga kirishdilar. Nasosdan chikayotgan havo hushtak chalmokda: sssss….ssss….Barchamiz birgalikda ђildiraklarni damlaymiz. Bolalar ana shu harakatlarga taklid kiladilar, tarbiyachi bilan birgalikda «s» tovushini cho'zib aytadilar.

***Metodik ko'rsatmalar:*** Bolalarning tovushni anik, to'g'ri va cho'zib aytishlarini nazorat kiling.

***3-ish turi:***

***Maksad:*** so'zlarda «s» tovushining to'g'ri talaffuz kilinishini mustahkamlash, fonematik tinglashni rivojlantirish, so'zlarning adabiy me'yorlarga muvofik holda anik talaffuz etilishiga erishish.

***«Bilasanmi?»***

***Mazmuni:*** Tarbiyachi: «Bolalar, men sizlarga bir nechta savollar beraman, ularga javob berishingizda har biringizning stolingizda yotgan suratlardan foydalanishingiz mumkin. To'g'ri javobni topgan bola yoki kiz bu yokka chikadi va suratda tasvirlangan narsa nomini aytib beradi». Keyin savollar boshlanadi: «Nimani minib yurish mumkin?» (Bolalarda samokat, samolyot, avtobus, trolleybus va boshka narsalarning suratlari mavjud.);

«Do'konda nimalar bor?» (sariyoђ, mineral suv, issik non); «Hayvonot boђida kimlar yashaydi» (sirtlon, yo'lbars, bo'rsik, sarlochin va boshk.). Bolalar narsalar nomini to'g'ri aytganlaridan so'ng, tarbiyachi ushbu so'zlarda qaysii tovush takrorlanayotganligini so'raydi.

***Metodik ko'rsatmalar:*** So'zlarning anik talaffuz kilinishini, so'zlarda «s» tovushining to'g'ri talaffuz kilinishini nazorat kiling. Agarda bolalar tovushni aniklashda kiynalsalar, bu holda tarbiyachining o'zi bir nechta so'zlarni aytadi va ularda «s» tovushini ajratib talaffuz kiladi.

***4-ish turi:***

***Maksad:*** Nutqni tinglash qobiliyatini rivojlantirish, yaxshi diktsiyani mashk qilish, «s» tovushini iboralarda bir nafasda aytilishini mustahkamlash, intonatsion ifodalilik bilan ohisa sur'atda so'zlash qobiliyatini tarbiyalash.

***«Pochtalon»***

***Mazmuni:*** Pochtalon bolalarga syujetli suratlarni tarkatadi. Har bir bola suratga olgach, uni boshka bolalarga ko'rsatadi va unda nimalar chizilganligini aytadi. Masalan, mana bunday suratlar turkumi foydalaniladi: boђda skameyka turibdi, samolyot o'rmon ustidan juda balandda uchib o'tmokda, it sho'rva ichmokda va h.k.

***Metodik ko'rsatmalar:*** Bolalarning anik, baland va bir nafasda so'zlarini nazorat kiling.

***5 yoshdan 7 yoshgacha.***

***1-ish turi.***

***«V-f» tovushlari.***

***Maksad:*** «v» va «f» tovushlarini farklash, ularning to'g'ri talaffuz kilinishiga erishish. Oҳizdan davomli nafas olish, ovozni ixtiyoriy ishga sola olish kobiliyatlarini rivojlantirish.

***«YOzmi yoki kish?»***

***Mazmuni.*** Tarbiyachi: «YOzda kuyosh nur sochadi, mayin va ilik shamol esadi. U shunday esadi: fff…Kishda sovuk bo'lib, kuchli shamol esadi, u shunday ovoz chikaradi: vvv…». Tarbiyachi dastlab bolalarga mayin shamol kanday esishini, so'ngra esa – kuchli shamol kanday esishini ko'rsatib berishni taklif kiladi.

So'ngra tarbiyachi «f» tovushini, keyin – «v» tovushini davomli talaffuz kiladi, bolalar esa qaysii fasl ekanligini, ya'ni kishmi yoki yozligini aniklashlari lozim.

***Metodik ko'rsatmalar.*** Bolalar «f» va «v» tovushlarini bir nafasda to'g'ri va davomli talaffuz qilishlarini nazorat kiling. «F» va «v» tovushlarini talaffuz qilishda pastki lab yukori katordagi tishlar bilan birga darcha hosil qilishi va undan havo chikishini, ayni paytda «f»ni talaffuz qilishda havo sekin chikishi, «v» tovushini aytishda esa kuchli bosim ostida chikishini ko'rsating.

***2-ish turi.***

***Maksad.*** So'zlarda «f» va «v» tovushlarining farklanishiga, ushbu tovushlar katnashadigan so'zlarning anik talaffuz kilinishiga erishish. Fonematik tinglash qobiliyatini rivojlantirish.

***«Koptokni uzat»***

***Mazmuni.*** Bolalar doira hosil kiladilar. Koptok tarbiyachida turibdi. Bolalarga koptokni bir-biriga uzatishda «v» yoki «f» tovushini aytish vazifasi ko'yiladi. Koptokni olayotgan bola esa ushbu tovushlardan biri ishtirok etadigan so'zni aytishi zarur.

***Metodik ko'rsatmalar.*** O'yinlarni o'tkazishda bolalarga zarur so'zlarni esga olishlari uchun vakt berish zarur.

***3-ish turi.***

***Maksad.*** Bolalarga iborali nutqda «v» va «f» tovushlarini aralashtirib yubormasdan, to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatish.

***«Kimga nimani berish kerak?»***

***Mazmuni.*** Tarbiyachi bolalarga o'ҳil bolalar va kizlarning «f» yoki «v» tovushi ishtirok etadigan ismlarini aytishni taklif kiladi. So'ngra u deydi: «Valida va Farrux xonani yiҳishtirmokdalar. Valida nomida «v» tovushi ishtirok etadigan narsalarni yiҳishtiradi, Farrux esa nomida «f» tovushi katnashadigan narsalarni yiҳishtiradi». Tarbiyachi bolalarga «v» yoki «f» tovushli narsalar tasvirlangan suratlarni tarkatadi (vaza, kofta, fartuk, samovar va h.k.). Har bir bola narsaning nomini aytadi va uni kim olishi lozimligini aytadi. Masalan: «Mening suratimda kofta tasvirlangan. Koftani Farrux yiҳishtiradi».

***Metodik ko'rsatmalar:*** Bolalarning «v» va «f» tovushli suratlarni to'g'ri tanlashlarini hamda so'zlarni anik va baland ovozda aytishlarini nazorat kiling.

**XULOSALAR:**

- «Nutq madaniyati» atamasi ko'p kirralidir: 1-uni keng ma'noda tushunish mumkin, unda u «nutq madaniyati» sinonimiga ega bo'ladi (bu o'rinda u namunaviy husnixat matnlarini va umuman olganda, til tizimining potentsial xususiyatlarini ko'zda tutadi); 2-tor ma'noda, nutq madaniyati – bu kundalik, og'zaki va yozma muloqot sharoitida til xususiyatlari hamda imkoniyatlarini anik yuzaga chikarishdir; 3-nutq madaniyati – bu mustaqil lingvistika fanidir.

- Nutq madaniyati – og’zaki va yozma adabiy nutq me’yorlarini (talaffuz, urђu, grammatika, so’zni ko’llash koidalari va boshk.), shuningdek nutq maksadi va tarkibiga muvofik holda til vositalaridan foydalana olish qobiliyatini o’zlashtirish.
- Lingvistik adabiyotlarda odatda, adabiy tilni o’zlashtirishning ikki bosqichi haqida, ya’ni: nutqning to’g’riligi va nutqiy mahorat haqida aytish kabul kilingan.
- Maktabgacha yoshda nutqda tovush madaniyatini tarbiyalash vazifasi bu – bolalarda so’zdagi tovushlarni sof va tushunarli qilib talaffuz etishni, so’zlarni o’zbek tili orfoepiyasi me’yorlariga muvofik holda to’g’ri talaffuz qilishni, anik talaffuz qilishni (yaxshi diktsiya) hamda nutq ifodaliligini tarbiyalashdan iborat.
- Bolalarning tovush artikulyatsiyasini o’zlashtirish jarayoni ancha davomli bo’lib, u 5-7 yilga cho’ziladi.
- Agarda bolalarga o’z vaktida va muntazam ravishda o’rgatilsa ular hech bir kiyinchiliksiz barcha prosodemalarni (intonatsiyalarni) o’zlashtirib olishlari mumkin.
- Intonatsiyalarning 6 ta turi mavjud: sanash intonatsiyasi, karama-karshi ko’yish, chakirish, ogohlantirish (yoki ikki nukta), kirish, ajratib ko’yish.
- O’zbek tilining fonetik va fonologik vositalari ravon nutqda bir vaktning o’zida foydalanilmokda.
- Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash nutqning boshka jihatlarini ham, ya’ni: lug’at, ravon, grammatik to’g’ri nutqni rivojlantirish bilan bir vaqtida amalga oshiriladi.
- Nutqiy rivojlantirishning dastlabki bosqichida tinglash kobiliyatiga alohida o’rin beriladi (garchi asosiy mazmun yuki yukori tovushni tinglay olish kobiliyati zimmasiga tushsa ham).
- YAxshi rivojlantirilgan nutqni tinglash kobiliyati ona tilining barcha tovushlarini anik, tushunarli va to’g’ri talaffuz kilinishini ta’minlaydi, so’zni talaffuz qilish balandligini to’g’ri boshkara olish, ohista sur’atda, intonatsion ifodali so’zlash imkoniyatini beradi.
- Artikulyatsiya apparati organlarining yaxshi harakatchanligi, yaxshi tinglash kobiliyati bolaning tovush talaffuzidagi nuksonlarni bartaraf etish imkonini beradi.
- To’g’ri nutqiy nafas olish normal tovush vujudga kelishini ta’minlaydi, tegishli nutq balandligiga, pazualarga anik rioya qilishni ta’minlash, nutqning bir tekisligini va intonatsion ifodalilikni saklash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.
- Ovoz sifati nafas olish, ovoz va artikulyatsiya apparatlarining birgalikdagi faoliyatiga bog’liq bo’ladi.
- Maktabgacha yosh ona tilining barcha tovushlarini to’g’ri talaffuz qilishni shakllantirish uchun eng kulay davr hisoblanadi. 7 yoshgacha bola ona tilining barcha tovushlarini adabiy til me’yorlariga muvofik holda talaffuz qilishni o’rganib olishi shart.
- Diktsiya (tovushlar, so’zlar, iboralarni to’g’ri talaffuz qilish) artikulyatsiya apparati faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish bilan bir vaqtida asta-sekin shakllantiriladi.
- Pedagog (bola atrofidagi kattalar) bolalarning adabiy talaffuz me’yorlariga rioya qilishlari ustidan doimiy nazoratni amalga oshirishlari, barcha xatoliklarni to’g’ri talaffuz namunalarini ko’rsatgan holda bartaraf etishlari lozim.
- Maktabgacha yoshda barcha bolalarda so’zlar ancha tinik talaffuz etiladigan ohista nutq sur’atini shakllantirish darkor.
- Intonatsiya – bu jaranglayotgan nutqka oid barcha ifoda vositalarining murakkab majmui bo’lib, uning yordamida muloqot jarayonida fikrlar va ifodalarni, shuningdek emotsional-iroda munosabatlarini aniklashtirish amalga oshiriladi.
- Bolalar nutqining intonatsion ifodaliligi ustidagi ishlar asosan taklid yo’li bilan amalga oshiriladi.

- Nutqni rivojlantirishning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda nutqning tovush madaniyatini shakllantirishni 3 ta bosqichga bo'lish mumkin: 1-bosqich – 1 yilu 6 oydan 3 yoshgacha; 2-bosqich – 3 yoshdan 5 yoshgacha; 3-bosqich – 5 yoshdan 7 yoshgacha.
- 1-bosqichda nutqning tovush madaniyatini shakllantirish kattalarning bolalar bilan muntazam muloqoti orkali amalga oshiriladi. Asosiy vazifa - tinglash qobiliyatini doimiy ravishda rivojlantirib borish, artikulyatsiya apparati organlarini mustahkamlash va rivojlantirishdan iborat. Bunda har xil tovush taklidlarini o'zida jamlagan o'yinlar, she'rlar, ko'shiklar, hikoyalardan foydalanish mumkin.
- 2-bosqichda nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash tovush talaffuziga doir ishlarni olib borish jarayonida amalga oshiriladi. Asosiy vazifa – bolalarda fonematik tinglash va ona tilining barcha tovushlarini to'g'ri talaffuz qilish, so'zlar va iboralarni anik hamda tushunarli qilib talaffuz etish; ovoz balandligini vaziyatdan kelib chiqqan holda boshkarish qobiliyatini tarbiyalash, so'zlarni ulardagi urђularga anik rioya kilgan holda to'g'ri va anik talaffuz qilishdan iborat. Ayni paytda tovush taklididan foydalanish darkor. Ona tilidagi barcha tovushlarni mashk qilish navbati bilan bir-birini almashtiruvchi to'rtta turni ko'zda tutadi: artikulyatsiya apparati organlarini tayyorlash, ajratilgan tovushni talaffuz qilishni aniklashtirish va ushbu tovushni boshkalari ichidan ajrata olish, iborali nutqda tovushni to'g'ri talaffuz qilishni mustahkamlash.
- 3-bosqichda nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashni bolalar tomonidan ko'p hollarda aralashtirib yuboriladigan tovushlarni (shuvillovchi, hushtaksimon, jarangli, jarangsiz va boshk.) tabakalashtirishga doir ishlar bilan bog'liq holda amalga oshirish lozim. Bunda asosiy vazifa nutqiy tinglashni yanada takomillashtirish, anik, to'g'ri, intonatsion ifodali nutq ko'nikmalarini mustahkamlash.
- Tabakalashtirish ajratib ko'yilgan tovushlar bo'yicha ham va ayni paytda so'zlar hamda iborali nutqlar bo'yicha ham amalga oshiriladi. Bu esa bir vaktning o'zida bolalarda nutqiy nafas olish, diktsiya, intonatsion ifodalilik, ya'ni nutq tovush madaniyatining barcha kirralarini takomillashtirish imkonini beradi.
- Har kanday tovush juftligini tabakalashtirish uch turdagi ishni amalga oshirishni ko'zda tutadi: ajratib ko'yilgan tovushlarni tabakalashtirish; so'zlarda tovushlarni tabakalashtirish; nutqda tovushlarni tabakalashtirish.
- Tovushlarni tabakalashtirish uchun materiallarni she'rlar, hikoyalar, tez aytishlar orkali berish va bir vaktning o'zida bolalar bilan nutq sur'ati, diktsiya, ovozdan to'g'ri foydalana olish, so'zlarni adabiy me'yorlarni hisobga olgan holda talaffuz qilishni mashk qilish lozim.

**NAZORAT SAVOLLARI:**

- «Nutq madaniyati» atamasi nimani anglatadi?
- Bolalar bog'chasida nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash borasidagi vazifalarni anik misollar orkali tushuntirib bering.
- Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashga doir ishlarning qaysii bo'limlarini bilasiz?
- Bolalarning nutqni tinglash qobiliyatini rivojlantirishga doir ishlar mazmunini anik misollar yordamida tavsiflab bering.
- Artikulyatsiya apparati harakatchanligini kanday qilib rivojlantirish mumkin?
- Nutqiy nafas olishni rivojlantirish borasidagi ishlar nutq uchun kanday ahamiyatga ega? Nima uchun shunday deb o'ylaysiz?
- Ovoz ustidagi ishlarni kanday amalga oshirish lozim?

- Ona tilining barcha tovushlarini to’g’ri talaffuz qilish kanday ahamiyatga ega? O’z javobingizni anik misollar yordamida asoslang.
- Diktsiya ustidagi ishlarni kanday qilib amalga oshirish lozim?
- Orfoepiya ustidagi ishlar nimani anglatadi?
- Bolalar bilan nutq sur’atiga doir ishlarni amalga oshirish shartmi? Qaysii maksadda va kanday qilib?
- Nutqning intonatsion ifodaliligi nimani anglatadi? U muloqotda kanday ahamiyatga ega?
- 1-bosqichda (1 yilu 6 oydan 3 yoshgacha) nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash jarayonida qaysii metod va usullardan foydalanish lozim?
- 2-bosqichda (3 yoshdan 5 yoshgacha) ko’llaniladigan ishlar turlarini tavsiflab bering.
- 3-bosqichda (5 yoshdan 7 yoshgacha) nutqning tovush madaniyatini shakllantirishga doir ishlar mazmuni va metodini tavsiflang.
- Nutqning tovush madaniyati ko’nikmalarini amaliyotda kanday qilib tarbiyalash lozim?

## 13-MAVZU. BOLALARNI BADIIY ADABIYOT BILAN TANISHTIRISH

**Bolalarni har tomonlama tarbiyalashda bolalar badiiy adabiyotining ahamiyati**

**Ilk yoshdagi bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish**

**Maktabgacha yoshdagi kichik bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish**

**Maktabgacha yoshdagi katta bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish**

### Bolalarni har tomonlama tarbiyalashda bolalar badiiy adabiyotining ahamiyati

Badiiy adabiyot bolalarni aklan, axlokan va estetik tarbiyalashning kudratli, ta’sirchan kuroli sifatida xizmat kiladi, u bola nutqining rivojlantirish va boyitishga ulkan ta’sir ko’rsatadi.

SHe’riy obrazlarda badiiy adabiyot jamiyat va tabiat hayotini, insoniy his-tuyђular va o’zaro munosabatlar olamini ochib beradi hamda tushuntiradi. Bu namunalar o’z tas’ir kuchiga ko’ra turlicha bo’ladi: hikoyalarda bolalar so’zlarning lo’ndaligi va anikligini bilib oladilar; she’rlarda o’zbekcha nutqning musikiyligini, ohangdorligini ilђaydilar; xalq ertaklari ular oldida tilning anikligi va ifodaliligini namoyon kiladi, ona tilidagi nutqning yumor, jonli va obrazli takkoslashlar, ifodalarga qanchalik boyligini ko’rsatadi.

Bolalar badiiy asarlar kahramonlariga qayg’urishni o’rganganlaridan so’ng ular yakinlari va atrofdagi odamlar kayfiyatini paykay boshlaydilar. Ularda insonparvarlik his-tuyђulari – birovning dardiga sherik bo’lish, yaxshilik qilish, adolatsizlikka nisbatan karshilik ko’rsatish kobiliyati uyђona boshlaydi. Bu printsipiallik, halollik, hakikiy fukarolik hislari tarbiyalanadigan poydevordir. «His-tuyђular bilimdan oldin keladi; kimki hakikatni his kilmagan bo’lsa, u uni tushunmagan va tanimagandir»[14].

Xalq – bolalarning betakror o’kituvchisidir. Xalq asarlaridan boshka hech qaysii asarlarda kiyin talaffuz kilinadigan tovushlarning bunday koyilmakom qilib joylashtirilishini, jarangiga ko’ra bir-biridan zo’rђa fark kiladigan so’zlarni hayron kolarli darajada yonma-yon terilishini uchratish kiyin. Beozor hazillar, nozik yumor, sanok she’rlar – pedagogik ta’sir ko’rsatishning samarali vositasi, dangasalik, ko’rkoklik, o’jarlik, injiklik, fakat o’zini o’ylash (egoizm)kabi xislatlarga karshi yaxshigina «malhamdir».

[14] Белинский В.Г., Чернишевский Н.Г., Добролюбов И.А. О детской литературе., 1954, 8-бет.

Ertaklar olamiga sayohat bolalar tasavvurini, ularning xayolot olamini, fantaziyasini rivojlantiradi. eng yaxshi adabiy namunalar asosida insonparvarlik ruhida tarbiyalangan bolalar o'z hikoyalarida va ertaklarida mazlumlar va zaiflarni himoya qilish, yomonlarni jazolash orkali o'zlarining adolatparvarligini namoyon kiladilar.

Va albatta bolalar estetik, ayniksa axlokiy tasavvurlarni kattalarning (ota-onalar, pedagoglar) o'qib chikilgan asarlar bo'yicha nasihatnamo mulohazalaridan, tayyorlangan savollarga javob berishdan emas, balki aynan badiiy asarlardan olishlari lozim. O'qib chikilgan asar bo'yicha haddan tashkari ko'p nasihat qilish katta, ko'pincha esa tuzatib bo'lmas ziyon yetkazadi: mayda-chuyda savollar bilan «sochib tashlangan» asar bolalar ko'z o'ngida o'zining barcha jozibadorligini yo'kotadi, okibatda unga nisbatan bolalarning ham kizikishi yo'koladi. SHuning uchun badiiy matning tarbiya imkoniyatlariga to'lik tayanish zarur.

K.D.Ushinskiy shunday yozadi: «Bola ona tilini o'rganar ekan, u fakat shartli tovushlarnigina o'rganmaydi. Balki ona tilining ona ko'kragidan ma'naviy hayot va kuchni ham emadi. U bolaga tabiatni shunday tushuntiradiki, boshka hech bir tabiatshunos bunga kodir emas, u atrofdagi odamlar xarakteri, u yashayotgan jamiyat, uning tarixi va intilishlarini shunday tanishtiradiki, boshka hech kanday tarixchi bunga kodir emas; U bolani xalq udumlari, xalq she'riyatiga shunday olib kiradiki, boshka hech bir estetik bunga kodir emas, nihoyat u bolaga shunday mantikiy tushunchalar va falsafiy karashlarni beradiki, albatta, boshka biron-bir faylasuf bunga kodir emas»[15]. Buyuk pedagogning ushbu so'zlarida nafakat ona tilini o'zlashtirish natijalari, balki uni o'rganish metodi: «nafakat ko'p narsani o'rgatadigan, balki hayron kolarli darajada oson, kandaydir yetishib bo'lmaydigan metod asosida o'kitadigan»[16] o'kituvchi tiliga ishonch ko'rsatib berilgan.

SHunday qilib, ona tilidagi muayyan badiiy asarni egallashda bolalarga yordam berar ekan, o'kituvchi har tomonlama tarbiyalash vazifasini ham bajaradi.

Maktabgacha davrdagi har bir yosh bosqichi o'zining nutqiy rivojlantirish vazifalarini ko'yadi. YOsh o'sib borishi bilan adabiy asarlarni kabul qilish darajasi ham ortib borishi tufayli ular asta-sekin murakkablashtirilib boriladi. Bolalarda she'r tinglay olish kobiliyati rivojlanadi. SHundan kelib chiqqan holda kattalar bolalarning yosh imkoniyatlarini bilishlari zarur.

Bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni har bir yosh bosqichida bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirib borish masalalarini ko'rib chikamiz.

### Ilk yoshdagi bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish

Ilk yoshdagi bolalarning badiiy asarlarni kabul qilishining asosi – bu ularga nisbatan emotsional javob, turli xil ohanglarni ilђab olish, ularga munosabat bildirish, imkoniyat darajasidagi adabiy asarlar kahramonlarini tanib olish va ular haqida qayg'urishdir.

Ushbu yoshdagi bolalar uchun kichik shakldagi she'riyat, ya'ni: folklor va mualliflik she'riyati muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniksa, bolalarga bosh kahramonlari bolalar, hayvonlar bo'lgan, o'yinli va maishiy vaziyatlar bayon kilingan asarlar juda kizikarlidir.

Bola kattalar bilan birgalikda matallar va sanok she'rlar syujetlari asosida ishtiyok bilan o'yinlar tashkil kiladi, u tovush taklidiga va folklor yo'nalishidagi bir maromdagi takrorlashlarga kulok tutadi hamda ularga taklid kiladi.

Bola adabiy asarlarda bayon kilingan vokealarni juda jiddiy kabul kiladi. O'ziga yokib kolgan ertakni bir necha marta eshitishga ham tayyor. Uning kahramonlarini illyustratsiyalar va o'yinchoqlarda xursand bo'lib tanib oladi, har gal ertakning baxtli yakunini berilib kutgani holda syujet harakatlarining odatdagi ketma-ketligini sinchkovlik bilan kuzatib boradi.

Kichkintoylarga mo'ljallangan badiiy asarlar soni unchalik ko'p emas. SHuning uchun ular ko'p martalab takror jaranglashi, bolaning kundalik hayotiga kirib borishi va unda badiiy asarni his qilishning birlamchi asoslarini rivojlantirishi lozim.

---

[15] Ушинский К.Д. Избранные педагогические сочинения. Т., М., 1974, 148-бет.

[16] Њша жойда, 149-бет.

Ilk yoshdagi bolalarga o’qib beriladigan asarlar doirasini asosan o’zbek folklori asarlari tashkil kiladi. Ular eng yaxshi tarzda ilk yoshdagi bolalar ehtiyojlariga mos keladi, chunki, u so’z, ohang, musika va harakatni o’zida jamlagandir. Bolalar hayvonlar haqidagi xalq ertaklari bilan tanishadilar: «SHolђom», «Bo’ђirsok», «Uycha», «CHipor tovuk» va boshk.

***Bolalar bog’chasi va ota-onalarning vazifalari:***

- Bolaga so’z san’ati olamini ochish, kitobga kizikish va mehrni, uni tinglash va tushunishni, xayoliy vokealarga emotsional munosabat bildirishni, kahramonlar haqida qayg’urish va «ularga yordamlashish» hissini tarbiyalash, ya’ni bolalarni badiiy rivojlantirish, ularni bo’lajak o’quvchilar sifatida shakllantirish;
- Hikoyani tinglash va tengdoshlari bilan birgalikda o’kish qobiliyatini shakllantirish;
- Bolalarga sanok she’r matniga mos keluvchi o’yin harakatlarini bajarishni o’rgatish;
- Bolalarda xalq asarlari, she’rlar, ko’shiklar ohangdorligi va musikiyligiga nisbatan emotsional munosabat bildirishni tarbiyalash;
- Bolalarga adabiy asarlar ko’p martalab o’kilganida va hikoya kilinganida ularning kahramonlarini tanib olishda yordamlashish;
- Bolaning she’rlar va ertaklardan ayrim so’zlar hamda ifodalarni takrorlashga raђbatlantirish;
- Illyustratsiyalarni ko’zdan kechirishni, ulardan adabiy asarlar kahramonlarini tanib olishni va illyustratsiya mazmuni bo’yicha oddiy savollarga javob berishni o’rgatish (Kim bu? Kuyonning kuloklari kani? U nima kilayapti? Sichkon kani? va h.k.).
- Bolalarga dastlab ko’rgazmali asosda (suratlar, o’yinchoqlar, harakatlar), so’ngra esa ko’rgazmasiz takdim kilinayotgan kiska she’rlar, sanok she’rlar, ertaklardagi harakatlar rivojini kuzatib borishni o’rgatish;
- Bolani ilk yoshdagi bolalar uchun maxsus chop etilgan (rang-barang, yirik suratli, mukovasi kattik va yuviladigan) kitoblardan mustaqil ravishda foydalanishga undash.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish bolalarda adabiy asarlarni estetik kabul qilish kobiliyati va mahoratini tarbiyalash, ularda badiiy-nutqiy faoliyatni rivojlantirish bilan uzviy bog’liqdir.

Ilk yoshdagi bolalar bilan pedagogik ishlar mazmuni va shartlari kanday bo’lmoђi lozim?

Tarbiyachining badiiy asarni o’kish yoki hikoya qilish jarayoniga u xuddi ana shu vokealar tomoshabini yoki ishtirokchisi sifatida emotsional tarzda ko’shilib ketishi bolalar bilan pedagogik ishlarni olib borishning eng muhim sharti hisoblanadi.

Aynan bir asarning o’zi ko’p marta takrorlanishi lozim: tarbiyachi suratli kitobdan «SHolђom» ertagini o’kiydi, so’ngra uni kitobsiz hikoya qilib beradi, o’yinchoqlar bilan ko’rsatadi, guruhga boshka rassom tomonidan ishlangan illyustratsiyalarni olib keladi, bolalar bilan birgalikda o’kiydi va hikoya kiladi.

Kattalar badiiy so’zni bolaning kundalik hayotiga doimiy ravishda kiritib borishlari (Uxla, karoђim mening), bolaning o’z ismini u yoki bu o’yin yoxud maishiy vaziyatga mos keluvchi xalq ko’shiђiga ko’shib aytishlari lozim (Allayu-alla, Gulnor kizim uxlasin, alla va h.k.).

Tarbiyachi (kattalar) bolalar bilan birgalikda tanish va notanish kitoblardagi illyustratsiyalarni ko’zdan kechirishi, bolalarni tanish asarlar, illyustratsiyalar va o’yinchoqlar kahramonlarini tanib olishga, kahramon ismi va uning harakatlari nomini aytishga, shuningdek badiiy matnning ayrim ifodali kismlarini aytib berishga («Kochib ketdim bobomdan, kochib ketdim momomdan…») undashi darkor.

Ayniksa, 4-5 nafar boladan iborat bo’lgan kichik guruhlar bilan kitoblarni ko’rib chikish va o’kish, shuningdek, har bir bolaning tanlab olingan va guruhda saklanayotgan kitoblardan erkin foydalanishi uchun tegishli sharoit yaratishi alohida ahamiyatga egadir.

Bolalarga barcha notanish so’zlar ma’nosini darhol tushuntirib berishga, xususan obrazli tavsiflash yoxud u yoki bu ertakdan kelib chikadigan ma’noni o’z so’zlari bilan aytib berishga intilmaslik zarur.

Ilk yoshdagi bolalarga badiiy adabiyotni tanishtirish jarayonida ularda bilish va nutqiy kobiliyatlarini hamda nisbatan tegishli munosabatni rivojlantirish zarur.

***Bilish kobiliyati:*** kattalarning hikoya yoki kitob o'kishlarini dikkat bilan tinglash, tanish asarlarni esda saklab kolish va uni takror tinglaganda ertak, hikoya, illyustratsiya, o'yinchoqlar kahramonlarini tanib olish, she'rlar katorlari, kichik shakldagi asarlar matnini esda saklab kolish.

***Nutqiy mahorat:*** asar, sanok she'r, o'yinlar, she'rlar mazmunini so'z, imo-ishora, harakat orkali tasvirlash; so'zni va tanishg she'rlar katorlarini ilib olish, ularning ayrimlarini yoddan aytib berish;

***Munosabat:*** badiiy asar bilan uchrashuvdan xursandchilikni, emotsional hamkorlikdan quvonchhni va birgalikdagi qayg'urishlarni ifodalash. Tarbiyachi bolani kattalar va bolalar bilan birgalikda she'rlar, ko'shiklar aytishda ishtirok etishga, tovushlar, jarangdor kofiya, so'zlar bilan o'ynashdan zavk olishga undaydi.

***Bolaning o'zlashtirish darajasi*** quyidagilarda ifodalanadi: Bola kitob tinglash, o'yinda ishtirok etish haqidagi taklifga faol javob beradi. Uning o'zi kattalardan she'rlar, ertaklar o'qib berishni iltimos kiladi. Kabul qilishga oson ko'shiladi. Asar mazmuniga oid savollarni dikkat bilan tinglaydi va ularga javob beradi. Matnga mos o'yin harakatlarini bajaradi. Tinglagan asarlarining mazmunini biladi, illyustratsiyalarda tanish asar epizodlari va ularning kahramonlarini taniydi. O'kilgan kitobga nisbatan yorkin munosabat bildiradi; kuladi, kuvonadi, yiђlaydi, ko'shiklar, sanok she'rlarni jo'r bo'lib aytishda faol ishtirok etadi.

Ilk yoshdagi bolalarda Yuqorida aytib o'tilgan bilish, nutqiy kobiliyatlarni, badiiy asarga nisbatan munosabatni shakllantirish uchun ularga badiiy asarlarni tanishtirish metodikasini bilish va uni to'g'ri ko'llay olish zarur.

Kichik guruhdan boshlab bolalarga janrlarni farklashni o'rgatish lozim. Tarbiyachi badiiy asar janri nomini albatta aytishi darkor: «Men sizlarga ertak aytib beraman», «Hikoya, she'r o'qib beraman».

Janrlar yo'nalishini, ularning xususiyatini chukur tushunish nisbatan katta yoshlarda ro'y beradi. Ilk yoshda esa bolalar janr nomini eshitganlari holda uni shunchaki esda saklab koladilar. «Masha va ayik» - bu ertak, A.Barto yozgan «O'yinchok» - bu she'r.

«Men sizlarga she'r hikoya qilib beraman», «ertak o'qib beraman» kabi noto'g'ri ifodalardan saklanish lozim. Janr nomi anik va to'g'ri berilishi zarur: ertak, hikoya, she'r. ertak aytiladi, hikoya o'kiladi, she'r o'kiladi va yod olinadi.

Turli adabiy janrlar turlicha usulda yetkazishni talab kiladi. Ilk yoshdagi bolalarga ertakni kitobdan o'qib emas, balki uni aytib bergan ma'kul: bu emotsional ta'sirni kuchaytiradi, bu esa o'z navbatida ertakning asosiy mazmunini tushunishga yordam beradi. Katta yoshli odam kitobga emas, bolalarga karaganida u xuddi har bir bola bilan suhbatlashgandek bo'ladi va shu bilan monologik nutqni eshitish hamda tushunishdek muhim kobiliyatni tarbiyalaydi.

Agarda ertak mazmuni unchalik katta bo'lmasa, uni ikki-uch marta hikoya qilish yoki eng yorkin joylarini takrorlash mumkin. Uni aytib bo'lgandan so'ng bolalarga shunday sharoitni vujudga keltirish tavsiya kilinadiki, toki ular eng kizikarli jihatlarni esga olish va ularning ertakdagi so'zlar bilan takrorlashga majbur bo'lsin.

Pedagog vaziyat yordamida bolalar bilan xalq ertaklari kahramonlarining ko'shiklarini, kahramonlar ismlarini takrorlash, obrazli so'zlarni bolalar ongida mustahkamlashni amalga oshiradi, va ular buni o'z nutqlarida ko'llay boshlaydilar.

Maktabgacha bosqichdagi kichik yoshli bolalarga o'qib berish uchun unchalik katta bo'lmagan hikoya va she'rlar (A.Bartoning «O'yinchok», Z.Aleksandrovaning «Mening ayikcham» she'rlari) tavsiya kilinadi, bular kichik tinglovchilarda ijobiy emotsiyalarni tarbiyalashga yordam beradi. Ularning bolaning shaxsiy tajribasiga yakin bo'lgan oson mazmuni oddiy va sodda shaklda ifodalangan: kofiyalar o'xshash, she'r katorlari kiska. Bolalar ularni takrorlar ekan, katorlarning jarangdorligini, she'rning musikiyligini ilђab oladilar, ularni oson kabul kiladilar. So'ngra esa butun she'rni esda saklab koladilar.

Bolalarni ilk yoshda ko'proq she'rlar o'ziga jalb kiladi, chunki ular anik kofiyalari, ohangdorligi va musikiyligi bilan alohida ajralib turadi.

Takror o’kishda bolalar she’r mazmunini o’zlashtirib oladilar, kofiya va ritmni his kiladilar, ayrim so’zlar va ifodalarni esda saklab koladilar hamda shu bilan o’z nutqlarini boyitadilar.

Ushbu yoshda nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash katta ahamiyatga egadir: she’r o’kishda kichkintoylarga har bir so’zni anik aytgan holda ularni shoshmasdan talaffuz qilishni o’rgatish zarur. Bolalarda kofiyalanayotgan so’zlarga urђu berish odati mavjud, shuning uchun tarbiyachi mantikiy urђularni to’g’ri ko’yishi va bolalarning ham she’rni to’g’ri aytishlariga erishishi lozim.

Mazmuni har bir bolaga tushunarli va yakin bo’lgan ertak hamda she’rlar o’qib bo’linganidan so’ng bolalarga ularning shaxsiy hayotidagi ana shunday holatlarni eslatib o’tish mumkin. Bu savollarga javob berar ekan, bolalar o’z fikrlarini fakat bir-ikkita oddiy gaplardan tuzadilar, lekin buning o’zi endi kelgusida ravon nutqni rivojlantirish uchun tayyorgarlikdir.

Kichkintoylarga ko’p savol bermaslik lozim, odatda ularning asarni kanday tushunganliklarini, qaysii so’zlarni esda saklab kolganliklarini va ushbu mazmun bolaning shaxsiy tajribasi bilan kay darajada boђlanishini aniklovchi ikki-uchta savol berish kifoya.

SHe’riy obrazlar yaxshi o’zlashtirilishi va unutilib ketmasligi uchun yil mobaynida bolalarga tanish hikoyalar, she’rlar, ayrim ertaklar yoki ertaklardan ritmik katorlarni takror o’kish lozim.

SHe’rlar va ertaklarni esda saklab kolish lug’at rivojlantirishga katta ta’sir ko’rsatadi. SHuning uchun bolalarning mashђulot davomida eshitgan so’zlari ularning faol lug’ati tarkibiga kirishiga intilish zarur. Buning uchun esa ushbu so’zlarni turli ko’rinishlarda tez-tez takrorlash lozim, bo’lmasa kichkintoy yangi so’zlarni shunchaki tovushlar uyђunligi sifatida kabul kiladi va ularning ma’nosini tushunib yetmaydi.

Tarbiyachining vazifasi – bolalarga o’zlari aytayotgan so’zlar ma’nosini tushunishni o’rgatish, ularni boshka so’zlar bilan birgalikda kanday qilib ko’llash mumkinligini ko’rsatishdan iboratdir. Masalan, «Novvoscha» she’rini (Novvos borar chaykalib, hansiraydi yo’lida. Voy, taxta chaykalmokda, men ham yikilaman-da.) o’qib bo’lgandan so’ng bolalarga yana nimalar chaykalishini ko’rsatish mumkin: novdada barg chaykalmokda, ipga boђlangan sokka chaykalmokda va h.k.

Ish jarayonida badiiy adabiyot bilan tanishtirishga nisbatan shunday yondashuv tez-tez uchraydiki, bunda pedagog ertak yoki she’rni ifodali, emotsional o’qib beradi va shu bilan «tanishtirish» nihoyasiga yetadi. Bolalar balkim, uning ma’nosini tushunib yetar, lekin o’kish ularning fikrlarini rivojlantirmaydi, ular tinglagan asar mazmuni va so’zlari tezda esdan chikib ketadi. Bunda me’yor hissiga amal qilish juda muhim, ammo asar ustida ishlash, bolalar eslab kolgan so’zlar va ifodalarni takrorlashni davom ettirish juda zarurdir.

Har bir mashђulotdan so’ng so’zlarni takrorlash, mustahkamlash lozim. Ularni eng turli-tuman ko’rinishlarda talaffuz qilish darkor, fakat shundagina bolalar ona tili lug’ati va tuzilishini o’zlashtiradilar, ularning faol lug’ati kengayadi, ular bu so’zlarni o’z nutqlarida ko’llay boshlaydilar.

Ayniksa, grammatik to’g’ri nutqni shakllantirishga alohida e’tibor karatish zarur. Bunda bolalarning adabiy asar mazmunidan kelib chikib savollarga javob berishida to’g’ri grammatik shakldagi so’zlardan foydalanishini kuzatib borish lozim.

SHunday qilib, badiiy asar bilan tanishtirish nutqni har tomonlama rivojlantirishga, ya’ni: tovush madaniyatiga, grammatik katorga, lug’atga ta’sir ko’rsatadi. Ilk yoshlardan boshlabok ravon nutqni rivojlantirish poydevori shakllantiriladi. Bu nisbatan murakkab asarlarni kabul qilish, nutqni yanada rivojlantirish uchun zarurdir.

Bolalarga badiiy adabiyotlarni tanishtirish borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida bola uch yoshga kelib adabiy rivojlanishning quyidagi ko’rsatkichlariga erishadi:

- Adabiy asar borasida kattalar bilan muloqot qilishdan zavk oladi, ularni kizikib tinglaydi;
- Unga aytib berilayotgan yoki o’kilayotgan asarlarni chalђimasdan, dikkat bilan tinglaydi;

- Takror tinglaganda tanish asarlarni, illyustratsiyalar va o’yinchoqlardagi ertaklar, hikoyalar va she’rlar kahramonlarini taniydi;
- Asar (sanok she’rlar, ko’shiklar, ertaklar) mazmunini so’z, harakat, imo-ishora bilan ko’rsatib beradi;
- Tanish she’rlardagi so’zlar va katorlarni ilib olishga intiladi;
- Kichkintoylarga mo’ljallangan kitoblardagi illyustratsiyalarni ko’zdan kechirishga kizikish bildiradi.

## Maktabgacha yoshdagi kichik bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish

Maktabgacha bosqichdagi kichik yoshda olamga nisbatan estetik munosabat ko’p kirrali bo’ladi. Bu endi nafakat tabiatga va atrofni o’rab turgan tabiat muhitiga munosabat, balki insonlar olamiga – o’ziga, yakinlariga, tengdoshlariga, boshka kattalarga bo’lgan munosabat hamdir.

Bola o’z tashki ko’rinishini, kostyumini ko’rish va ularga baho berishni boshlaydi; ko’llari, yuzi, kiyimlarining tozaligiga e’tibor beradi; to’g’ri va ozoda ovkatlanishni o’rganadi. U muloqot va odamlar borasida nima chiroyliyu, nima xunukligini tushuna boshlaydi. Mohiyatan yagona bo’lgan estetik va axlokiy munosabatlar muayyan bola ongida va xulk-atvorida birlashadi.

Maktabgacha bosqichdagi kichik yoshli bola san’atga, uning badiiy obrazlariga oshno bo’lish, badiiy faoliyatni egallab olish borasida keng imkoniyatlarga egadir. U san’at obrazlarini yaxlit va emotsional kabul qilishi, ularning mazmunini oddiy anglab yetishi bilan ajralib turadi. CHunonchi, yorkin va ritmik marsh musikasini tinglar ekan, bola eng avvalo, uning ko’tarinki kayfiyatini kabul kiladi va uning muayyan harakat xususiyati bilan alokasini ilђab oladi. Badiiy kobiliyatlar tizimida emotsional munosabat bildirish va sensorlik kobiliyatlari bilan bir katorda badiiy fikrlash ham karor topadi. U badiiy obrazlarni bir-bir bilan takkoslaydi, ularni tegishli hayot hodisalari bilan kiyoslaydi va o’zining birinchi umumlashtirmalariga keladi.

To’rt yoshga kelib bolalar badiiy matnni emotsional va yaxlit kabul kilganlari holda uni tushunganliklarini nafakat nutqda (qayta hikoya qilish, yoddan aytib berish, savollarga javob berish), balki predmetli va o’yinli vaziyatlarda ham ifodalaydilar. Ular ikki-uch personaj yoki hodisani ajratadilar, ular o’rtasida alohida aloka o’rnatadilar va shu tarika asar syujetini gavdalantiradilar. Tavsiflashni takrorlash ko’pincha ularda ko’proq kiyinchilik tuђdiradi.

Bu yoshda adabiy matnni kabul qilish bolalarning amaliy va o’yin faoliyatiga yakin bo’lgan «harakat»dan iborat bo’ladi. Boshkacha qilib aytganda, badiiy asar bilan to’lakonli hamkorlik qilish uchun bola uni tinglashi, suratlarni tomosha qilishi, kitobni ko’llari bilan ushlab ko’rishi, o’yinchoqlar bilan o’ynashi, matnning ayrim kismlarini deklamatsiya qilishi yoki «bakirib aytishi», ularni muayyan hayotiy vaziyatlarda ko’llanilishini aniklashi lozim. Ushbu yoshda badiiy asarni kabul qilish, ijrochilik va ijodkorlikni amalda chegaralab bo’lmaydi.

Bola hayotining beshinchi yilida badiiy matnni mazmun-mohiyatli yagonalik sifatida kabul qilish mexanizmini shakllantirish boshlanadi. Bolalar bilan muloqot jarayonida pedagog endi bola harakatlari va fikrlarining kabul kilingan badiiy asarga qanchalik mos kelishi haqida bevosita xulosalar chikarishi mumkin. Ko’pchilik bolalar matn mazmunini yoyik nutqiy shakllarda bayon kila olmaydilar, ammo uni suratlar, o’yinchoqlar bilan o’yinli vaziyatlarda, kattalar va tengdoshlari bilan dialoglarda mos ravishda tushunishlarini namoyish kiladilar.

Ushbu yoshda boshkacha vaziyat ham yuzaga kelishi mumkin – ya’ni, bolalar tushunishda kiynalgan ancha murakkab matnni yoki uning ayrim kismlarini so’zlar bilan aytib beradilar.

Besh yoshlarga kelib badiiy asarni emotsional-yaxlit kabul qilish shunga olib keladiki, bolalar syujetning ayrim obrazlari va elementlarini ajratganlari holda ular bilan «o’ynashni» boshlaydilar. Ayni paytda ular uni to’qib to’ldiradilar, ayrim lavhalarni takomillashtiradilar, o’z ertaklarini, shu jumladan ular tomonidan ajratilgan adabiy obrazlarni to’kiydilar, badiiy asarlar

asosida o’yin syujetlarini shakllantiradilar. Bolalar nafakat u yoki bu adabiy obrazlarni ajratadilar, balki badiiy tipajlarni –yagona emotsional-mazmun dominanti asosida umumlashtirma obrazlarni yaratganlari holda ularni birlashtiradilar.

Bolalar adabiy janrlarni farklay boshlaydilar: ertaklar, hikoyalar, she’rlar; ular tilning tashbehlar, takkoslashlar, giperbola kabi ayrim ifoda vositalarini ko’rishga kodirdirlar; she’riy asar kayfiyatini intonatsiyalar yordamida ifodalab berishlari mumkin: yumor, lirika, tantana. Bayoniy matnlarning an’anaviy uch kismli tuzilmasi (kirish, harakatning rivojlanishi, yakun) va ularning stilistik vositalari (an’anaviy kirish formulasi, ertak yakuni, takrorlash va boshk.) haqidagi tasavvurlar shakllana boshlaydi.

Uch-to’rt yoshlarda bolalar adabiy asarlarni tanlashga kodirdirlar: ular ayrim adabiy kahramonlarni biladilar va sevadilar, o’zlari uchun muayyan asarni ajratib oladilar va doimo ularni o’qib berish yoki aytib berishni iltimos kiladilar; o’zlari ham yokib kolgan she’riy matnlarni ko’p martalab takrorlaydilar. Besh yoshlarga kelib ayrim syujetli harakatlar va personajlarni afzal ko’rish yaqqol sezila boshlaydi. Bularning barchasi besh yoshli bolaning ancha boy adabiy tajribasi umumlashtirmalari hisoblanadi.

Maktabgacha bosqichdagi kichik yoshli bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagog ularni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirishda quyidagi ***rivojlantirish vazifalarini*** amalga oshirishi lozim:

- Turli janr va mavzulardagi adabiy asarlarni – ertaklar, hikoyalar, she’rlarni, she’riy folklorning kichik shakllarini tinglash, ularning mazmuniga emotsional munosabat bildirish va syujetning rivojlanishini kuzatib borish kobiliyatlarini rivojlantirish;
- Bolalarni ayrim asarlar va ularning aynan bir xil kahramonlar bilan birlashtirilgan tsikllari bilan tanishtirish;
- Tarbiyachi bilan birgalikda tanish asarlarni hikoya qilish, ularni to’lik yoki kisman sahnalashtirishga jalb qilish;
- Bolalar so’z ijodkorligi, she’riy matnlarning o’yinli va yumoristik variatsiyalari uchun kulay sharoit yaratish;
- Bolalarning o’yin, tasvirlash faoliyatlarini badiiy obrazlar bilan boyitish;
- Kitobga nisbatan estetik madaniyat asari sifatida asrab-avaylash munosabatini shakllantirish. Illyustratsiyalarni mustaqil ravishda va takror ko’rib chikish, aynan shu kitobni takror tinglash istagi.

**Maktabgacha yoshdagi kichik bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirishga doir ishlarning mazmuni va shart-sharoitlari.**

Ushbu yoshdagi bolalar uchun badiiy adabiyotning quyidagi janrlari maksadga muvofikdir: folklorning kichik shakllari, prozaik va she’riy ertaklar, hikoyalar, she’rlar. Ayni paytda bola uchun adabiy obrazlarning emotsional jozibadorligi quyidagi hollardagina ortadi: ya’ni, agarda badiiy mazmun uning kabul qilishi uchun imkon doirasida bo’lsa; badiiy asar yorkin va ifodali takdim etilsa; bola badiiy matn mazmunini tashki harakatlarda ifodalasa; badiiy asar asosida o’zi ham improvizatsiya kilsa.

Pedagogik ishlarni bir-biri bilan uzviy bog’liq bo’lgan ikki yo’nalishda olib borish lozim.

***Birinchisi*** badiiy asarni yaxlit va tugallangan estetik ob’ekt sifatida kabul qilishni tashkil etish bilan bog’liq. Bolalar aynan bir asarga ko’p marta duch keladilar, tarbiyachi uni takror o’kiydi, mazkur asarni sahnalashtirishni, dia va videofilmlar namoyishini tashkil etadi. Bolalar she’rni yoddan o’kiydilar (yaxlit yoki kisman), bunda ular o’kishning ifodaliligini sahnalashtirish elementlari bilan kuchaytiradilar. Guruhda bolalarga yokib kolgan kitobdan bemalol foydalanish mumkin bo’lgan sharoitni yaratish zarur. Bunda tarbiyachining o’ziga kanday kitoblar yokishini bolalarga hakkoniy bildirishi juda muhimdir.

***Ikkinchi*** yo’nalish ayrim badiiy obrazlarni o’zgartirish va bir nechta obrazlarni sintez qilish jarayonida bolalarda tasavvurni rivojlantirish uchun zarur sharoitlar yaratishni ko’zda tutadi. Bu asarlarni o’xshashlik yoki karama-karshilik asosida guruhlash, obrazlarning ular faoliyatining turli ko’rinishlarida rivojlantirish tufayli amalga oshirilishi mumkin.

Illyustratsiya bolaga harakat rivojini kuzatib borish va matnni tushunish imkonini beruvchi asosiy tayanch vositalardan biri hisoblanadi. SHu munosabat bilan turli badiiy usullarda va texnikalarda bajarilgan yukori badiiy ahamiyatli kizikarli illyustratsiyalardan foydalanish zarur. Birok, uch-to'rt yoshli bolalarning o'ziga xos xususiyatlari tufayli ko'pincha shunday vaziyat yuzaga keladiki, bunda surat matnni bezamaydi, aksincha matn suratga jon baxsh etadi. SHuning uchun ayrim asarlar bolaning tasavvurini, badiiy nutqni tinglash va kabul qilish qobiliyatini rivojlantirish uchun albatta, ko'rish tayanchlarisiz takdim etilishi lozim. Ayniksa, bu obrazlari yukori darajada noanik bo'lgan va obrazlari yukori darajada ifodali bo'lgan (folklor she'rlarining kichik shakllari) asarlarga taalluklidir.

Yuqorida sanab o'tilgan rivojlantirish vazifalarini amalga oshirishda bolalarda quyidagi kobiliyatlar shakllantirilishi lozim:

***Bilish kobiliyati:*** kattalarning kitob o'kishi va hikoya qilishini dikkatni jamlagan holda tinglash, chalђimaslik, asarni oxirigacha eshitish. Kattalar yordamida matn mazmunini tushunish, undagi vokealar tartibini belgilash, kahramonlarning muallif so'zi bilan yaratilgan eng yorkin hatti-harakatlarini ko'rish, ularni illyustratsiyalardan tanib olish.

***Nutqiy kobiliyat:*** o'kigan asardan olgan taassurotlarini kattalar va tengdoshlari bilan o'rtoklashish. Taassurotlar, fikrlar, obrazlarni so'zlar bilan ifodalash. Tanish ertaklarni aytib berish, she'rlarni yoddan aytish, adabiy syujetlarni sahnalashtirishda, sahnalashtirilgan o'yinlarda ishtirok etish.

***Munosabat:*** bolalarga yorkin emotsional munosabatlar, tasvirlangan vokealar va kahramonlarga faol ko'maklashish hamda ular haqida qayg'urish xosdir. Bolalar kitob, she'r va xalq ko'shiklari bilan takroran uchrashishga intiladilar. Ular dono fikr, hazil, kofiyadosh so'zlardan zavklanadilar va ularni esda saklab kolishni hamda o'z nutqida ko'llashni xohlaydilar.

Besh yoshga kelib bola:

- O'ziga yokkan bir nechta asarlar nomlarini aytishi; senga qaysii kitob yokadi? U nima haqida? Bu ertakda kimlar haqida hikoya kilinadi? Bu ertakda yana kimlar bor? Ular nima kildilar? Bularning barchasi kanday tugadi? kabi savollarga javob bera olishi mumkin;
- Suratlarni o'ziga tanish bo'lgan ertakdagi vokealar rivojiga karab terib chikishi mumkin. Agarda suratlar ichidan ortikcha personajning surati chiksa, bola uni chetga olib ko'yadi, birok pedagog iltimosiga ko'ra, agarda ushbu kahramon ham ertakda ishtirok etsa nima ro'y bergan bo'lishi mumkinligini o'ylab topadi;
- O'zi xohlagan kichik she'r (sanok she'r) yoki ritmik tashkil etilgan matnni (bo'ђirsok ko'shiђi, ertakning ayrim leytmotivlari) emotsional tarzda aytib berishi mumkin.
- Mustaqil faoliyatda – o'yinda, rasm chizishda va boshka kundalik vaziyatlarda adabiy obrazlardan foydalanadi.

## Maktabgacha yoshdagi katta bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish

Maktabgacha yoshdagi katta bolalarning adabiy asarlarni kabul qilishlarida va tushunishlarida ularga quyidagi holatlar xos bo'ladi:

- Kahramonlarga qayg'urish va ularga hamdard bo'lish, shu tufayli bevosita tashki ifodalangan emotsionallikning pasayishi;
- Vokealar zanjirini tiklash va asar ichida hamda asarlar o'rtasida turi xil mazmunli alokalar o'rnatish kobiliyati;
- Kahramonlarning tashki harakatlarini ko'rish va kahramonlar xulk-atvoridagi ochik motivlarni tushunish, ularning yashirish niyatlari ma'nosiga va harakatlarining nooshkora motivlariga kirishga urinish;
- Hosil bo'lgan vokea bolaning shaxsiy kundalik hayotidan hikoya emas, balki ko'proq ertakka o'xshash bo'lishi uchun adabiy vaziyatni talkin qilish va o'zgartirishga urinish;

- Janr asosi (ertak, hikoya, she’r) va makbul mavzularning (hayvonlar, sehrgarlik ko’rinishlari, bolalar va boshk.) paydo bo’lishi;
- Tilning ayrim ifodali vositalirini paykash qobiliyatining paydo bo’lishi;
- Adabiy asarlarning xarakterli tuzilmasi va shakli haqidagi tasavvurlarni o’z ijodida ifodalash (kompozitsiyalarning uch kismliligi, adabiy kahramonlarning asosiy harakatlari va boshk.).

Besh-etti yoshli bolalarning o’ziga xos xususiyatlari – bolalarning ruhiy rivojlanishidagi ikkita bir-biriga karama-karshi tamoyillarning bir-biriga zid bo’lgan uyђunligidan iborat. Bir tomondan – bolalar yukori ijodiy salohiyati bilan ajralib turadilar. Ikkinchi tomondan – besh-etti yoshli bolalarning taklidchilikka, me’yoriylikka intilishi hammaga yaxshi ma’lum. Bola koidalarni, harakat usullarini o’zlashtirishga intiladi va u bunga kodirdir. YUkori baholanadigan natijalarga erishish uchun unda obrazli stereotiplar oson shakllanadi va ular bolaga adabiy matnni talkin qilish hamda uni to’g’ri tushunish jarayonini osonlashtiradi.

Birok, adabiy kahramonlarni fakat «so’zda» tushunish va ularning harakatini axlok me’yorlari nuktai-nazaridan baholash tasvirlanayotgan vaziyat ma’nosiga kirib borilganlikdan dalolat bermaydi. Bola «yashab ko’radigan» ziddiyatli vaziyatlarni gavdalantirish natijasidagina ularning badiiy obraz va muallif ђoyasini tushunishlari mumkin bo’ladi. Bu nafakat axlokiy nomuvofikliklarga, balki universal bilish muammolariga ham taalluklidir, zero badiiy asarlar ularning ko’p kirralari talkinlaridir. Maktabgacha yoshdagi bolalardagi bunday tushunish ko’pincha verbal emas, balki obrazli ifodalangandir (tanlov harakatida, obrazli harakatda, suratda, o’yin syujetida, vokealarni o’ylab topishda va boshk.). Bolaning individual xususiyatlari uning faoliyatning reproduktiv yoki ijodiy turlarini afzal ko’rishiga yordam beradi. Adabiy asarlar motivlari bo’yicha sahnalashtirish o’yinlari reproduktsiya va ijodkorlikning estetik imkoniyatlarini o’zida birlashtirgan shakl hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi katta bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish sohasida pedagoglar va ota-onalar oldida quyidagi vazifalar turibdi:

- Bolalarni yukori badiiy saviyadagi adabiyotlarga oshno qilish, ularda adabiy-badiiy taassurotlar zahirasini shakllantirish;
- Ifodali badiiy nutqni shakllantirish;
- Bolalarga kichik prozaik matnlar mazmunini emotsional va ifodali tarzda yetkazish hamda kichik she’rlarni yoddan aytib berishni o’rgatish. Ma’lum adabiy asarlarni sahnalashtirishda ishtirok etish.
- Bolalarda adabiy asarlarning (xususan, ertaklarning) o’ziga xos tuzilmasi, tipik personajlar va syujetli-mavzuli birliklari hamda ularni ijodiy ko’llash usullari haqidagi tasavvurlarni shakllantirish;
- Asosini bolalarning adabiy obrazlarni talkin qilishi tashkil kiladigan tasavvur shakllarini rivojlantirish;
- Bolalarda badiiy obrazning rivojlanishi, o’zgarishi, uning ko’p kirraligi va ko’p tomonlama bog’liqligi haqidagi tezkor tasavvurlarni shakllantirish;
- Bolalarda adabiyotlarni individual tarzda afzal ko’rishni rivojlantirish;
- Bolalarning kitobga nisbatan estetik madaniyat asari sifatidagi munosabatini rivojlantirish, ularni ko’lyozma kitoblar yozishga jalb qilish.

Yuqorida kayd etilgan vazifalarni hal etish uchun pedagogik ishlar mazmuni va shart-sharoitlarini to’g’ri belgilash zarur. Ular kanday bo’lishi lozim?

Bolaning badiiy adabiyot bilan o’zaro hamkorligi uning estetik, bilish, ijtimoiy va nutqiy rivojlanish imkoniyatlarini amalga oshirish imkonini beradi. Birok shu bilan birga faoliyatning estetik xususiyatlari buzilmasligi lozim, bolalarning imkoniyatlari esa sxematizm va taklidchilikdan iborat bo’lib kolmasligi kerak. Ushbu maksadda pedagog quyidagi kator usullardan foydalanishi lozim:

Bolalarning dikkat-e’tiborini alohida adabiy asarning badiiy kimmatiga – she’rlarning obrazli ifodaliligiga, hikoyada syujetning kutilmagan rivojiga karatish.

Bolaning adabiy asarni yoki o’z to’kigan asarni ijro etishi (guruhda qayta hikoya qilish, yakka tartibda ifodali o’kish va kattalar bilan dialogda o’kish) uchun emotsional boyitilgan ijro muhitini yaratish. Birok, badiiy asar fakat so’z bilan aytilishi, balki uning ayrim yorkin jihatlari bolalar va pedagoglarning birgalikdagi harakatlari natijasida sahnalashtirilishi, unga musikiy ishlov berilishi, harakatlar, suratlar, konstruktiv modellar bilan ko’rsatilishi mumkin.

Pedagog bolalarning ularga yaxshi ma’lum bo’lgan an’anaviy (hayvonlar va sehrgarlar haqida) xalq ertaklari va noan’naviy (bolalar, tabiat hodisalari, predmetlar haqida) zamonaviy mualliflik ertaklari ruhida o’z ertaklarini to’kishlari uchun sharoit yaratib berishi lozim; bolalarni ularning o’z hayotlarida yuz bergan kizikarli vokealar haqida hikoyalar tuzishga undash zarur.

Bolalarning adabiy asarlarning o’ziga xos tuzilmasi va tipik personajlari haqidagi tasavvurlaridan foydalangan holda pedagog ushbu elementlar asosida «Agarda …… bo’lsa, nima bo’lar edi» toifasidagi ijodiy o’yinlarni uyushtirishi lozim. Bunday o’yinlarda tipik kahramonlar, syujet elementlari erkin ko’shiladi, natijada ђayrioddiy va kutilmagan birikmalar vujudga keladi.

SHuningdek, obrazga kutilmagan va karama-karshi yo’nalish beruvchi alohida so’zlar va jaranglashlar bilan o’tkaziladigan o’yinlar ham muhimdir. Pedagog bolalarning kofiya bilan o’yinlari, so’z ijodkorligi, she’rni davom ettirish va she’r to’kish, tashbehlar va takkoslashlar o’ylab topishlariga asoslangan o’yinli hamda kulgili vaziyatlarini raђbatlantiradi. Masalan, adabiy asarlar personajlarining xarakterini aks ettiruvchi yangi ifodali ismlarni, yoki asarda obrazli tasvirlangan narsalar va hodisalar uchun yangi nomlarni o’ylab topish.

Pedagog bolalarning nisbatan yirik hajmdagi adabiy asarlar syujetlari asosida o’yinli «xayolotdagi olamni» yaratishlariga ko’maklashishi lozim. Masalan, yirik hajmdagi adabiy asar (mualliflik ertagi) bilan tanishtirishda u guruhga ushbu ertakning «xayolotdagi olamini» olib kirishi va bir necha kun mobaynida (sayrda, o’yinlarda) bolalar bilan birgalikda uning ichida «yashashi» mumkin.

Estetik kabul qilish va ijodkorlikni rivojlantirish uchun asarlarni mavzusiga karab guruhlashdan foydalanish samaralidir. Bu bolalarga turli asarlarda tasvirlangan obrazning variativligini va uning bir asar doirasida rivojlanishini; aynan bir xil mavzu yo’nalishlarini ko’rib chikishda kontekstlarni o’zgartirish, obrazli ifodalar turli shakllarining o’zaro bog’liqligini (so’z, harakat, tovush, tasvir) namoyish qilish imkonini beradi.

SHuningdek, quyidagi shakllar ham mumkin: pedagog bolalarga asarlar guruhini tanishtiradi va ular asosida ishni bolalarning ochik turdagi universal bilish muammolarining (tirik va o’lik, yaxshilik va yomonlik, go’zallik va xunuklik muammolari) turlicha obrazli yechimlarini kidirishlariga yo’naltiradi. Ravshanki, kidiruv jarayonida muammolarning o’zlari umumlashtirilgan ko’rinishda shakllanmaydi, balki fakat turli adabiy obrazlar va syujetlar, shuningdek bolalarning o’zlari tomonidan vujudga keltiriladigan vaziyatlarning birgalikdagi muhokamasi ro’y beradi, xolos.

Dialog – pedagogik ishlarning yetakchi vositasi bo’lishi lozim. Pedagog bolalarning adabiy asar bo’yicha ijodiy dialogda, muammoli vaziyatlarni hal etishda ishtirok etishlari uchun sharoit yaratishi lozim. Bolalar bir-birlarini to’ldirganlari holda adabiy asar mazmunini birgalikda tasvirlaydilar, muhokama jarayoniga talkin elementlari va ta’riflangan vokealarni, adabiy kahramonlarni va ularning hatti-harakatlarini baholashni olib kiradilar. Dialogik muhokama jarayoniga pedagog adabiy mazmunni muammolashtirish elementlarini, ya’ni: talkinlarning bir xil emasligi, ochik turdagi savollarni ko’yish va ular bo’yicha mulohaza yuritishni (masalan, ertakni aytib bo’lgandan so’ng undan nima koladi?) olib kirishi zarur.

Pedagog o’z ishining samaradorligini nafakat bolalarning Mashg’ulotlarda o’zlarini kanday tutishlari bilan baholaydi, balki u ularning erkin faoliyatdagi xulk-atvorini kuzatadi: adabiy mavzudagi o’yin va suratlar syujetlarini kayd etadi, bolalarning fikrlarining mazmuniga, ularning mustaqil so’z ijodkorligiga e’tibor beradi; bolalarning kitoblar bilan harakatlarini - yakka tartibda yoki birgalikda uni ko’rib chikishlari, o’kishlarini raђbatlantiradi. Pedagog

bolalar savollariga javob beradi va ularga yokib kolgan asarlar (dasturdagi va dasturga kiritilmagan) mazmuni bo'yicha ular bilan yakka tartibda suhbatlashadi.

Pedagog bolalarning eng kizik fikrlarini, ularning shaxsiy tajribasiga oid hikoyalarini, bolalar tomonidan o'ylab topilgan she'rlar va ertaklarni to'plashi lozim. Ushbu materiallar asosida bolalarning o'zlari tomonidan «kitob» yaratish ishlarini uyushtirish zarur. Bu bolalar tomonidan to'kilgan ertaklar, shaxsiy tajribaga oid hikoyalar, ko'shiklar, sanok she'rlarning bolalar rasmlari bilan bezatilgan to'plami, ko'lyozma jurnali va komikslari bo'lishi mumkin. Guruhda o'qib chikilgan, bolalar suratlari, variativ syujetlar, improvizatsiyalar va to'qib, oxiriga yetkazishdan iborat bo'lgan u yoki bu adabiy asarlar motivlariga oid «kitoblar» ham aynan shunday tarzda yaratilishi mumkin.

Pedagogning bolalarga o'zining qaysii adabiy asarlarni yoktirishini ma'lum qilishi, o'zining badiiy ta'bi va akliy faolligini namoyish qilishi ularni ijodiy rivojlantirishning eng muhim vositasi hisoblanadi.

Maktabgacha bosqichdagi katta yoshli bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish borasida to'g'ri amalga oshirilgan ishlar natijasida yetti yoshga kelib bolada quyidagi rivojlanish ko'rsatkichlari shakllanishi lozim:

- Bola o'ziga yokkan bir nechta adabiy asarlar nomlarini aytishi mumkin.
- Kichik she'r yoki she'riy asardan kichik parchani ifodali o'qib berishi mumkin.
- O'zi tanlagan asarni mustaqil ravishda yoki pedagog yordamida hikoya qilib berishi va quyidagi savollarga javob berishi mumkin: u shunga o'xshash boshka asarlarni ham biladimi? Ularning o'xshashligi nimalardan iborat? (o'xshash personajlar, syujet harakatlari);
- Kitobga kizikish paydo bo'ladi: o'kilgan kitoblarni mustaqil ravishda varaklab chikadi, mazmunini aytib yoki o'qib beradi, uydan sevimli kitoblarini keltiradi.
- Ertak syujetiga mos tarzda ko'shimcha personaj kiritadi, ushbu personaj ko'shiladigan vaziyatlarni to'qib, ko'shib ko'yadi.
- YAxlit ertak to'kishi mumkin, bunda u uning ehtimoliy kahramonlarini tasvirlash vositalariga tayanadi, ayni paytda ertaklarga xos mazmun-mavzu birligidan, tipik kompozitsiyalar va stilistik vositalar to'plamidan ham foydalanadi.

## XULOSALAR

- Badiiy adabiyot bolalarni har tomonlama tarbiyalashning ta'sirchan vositasi bo'lib, u ular nutqini rivojlantirish va boyitishga ulkan hissa ko'shadi.
- Badiiy adabiyot she'riy obrazlar orkali bolaga jamiyat, tabiat hayoti, insoniy his-tuyђular va munosabatlarni tushunishga yordam beradi, emotsiyani boyitadi.
- Badiiy adabiyot maktabgacha yoshdagi bolalarda insonparvarlik his-tuyђularini – hamdarlik, yaxshilik, kichiklar, ota-onalar va oilaning katta a'zolari nisbatan ђamxo'rlik ko'rsatish kabi hissiyotlarni shakllantirishga yordam beradi.
- Bolalar badiiy asarlardan estetik va axlokiy tasavvur oladilar.
- Nozik yumor, sanok she'rlar, hazil-huzullarni o'zida jamlagan xalq asarlari dangasalik, ko'rkoklik, o'jarlik, injiklik, fakat o'zini o'ylash (egoizm) kabi sifatlarga nisbatan pedagogik ta'sir ko'rsatishning ob'ektiv vositasi hisoblanadi.
- Bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirishni ularning yosh imkoniyatlari, nutqiy rivojlanish va adabiy asarlarni kabul kila olish darajasini hisobga olgan holda o'tkazish zarur.
- Ilk yoshdagi bolalarning (1-3 yosh) badiiy asarlarni kabul qilishlarining asosini ularning badiiy asarlarga nisbatan emotsional munosabati, turli xil ohanglarni ilђab olish, ularga munosabat bildirish, kahramonlarni tanish va ular haqida qayg'urish kobiliyatlari tashkil etadi.

- Ushbu yosh bosqichida bolalar bog’chasi va oilaning vazifasi – bolalarni adabiy rivojlantirish poydevorini hozirlash, ularni bo’lajak o’quvchilar sifatida shakllantirishdan iboratdir.
- Kattalarning (pedagoglar, ota-onalar va boshk.) badiiy asarni o’kish yoki hikoya qilib berish jarayoniga emotsional ko’shilishlari ilk yoshdagi bolalar bilan pedagogik ishlarni olib borishning eng muhim sharti hisoblanadi.
- Ilk yoshdagi bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish jarayonida ularda bilish va nutqiy kobiliyatlarni hamda unga nisbatan munosabatni rivojlantirish zarur.
- Maktabgacha bosqichdagi kichik yoshli bola (3-5 yosh) san’atga, uning badiiy obrazlariga oshno bo’lish, badiiy faoliyatni egallash borasida keng imkoniyatlarga ega bo’ladi. Bu yoshda emotsional munosabat bildirish va sensorlik kobiliyatlari bilan bir katorda badiiy fikrlash ham karor topadi.
- Besh yoshlarga kelib badiiy asarni emotsional-yaxlit kabul qilish shunga olib keladiki, bola syujetning ayrim obrazlari va elementlarini ajratgani holda ular bilan «o’ynashni» boshlaydi. Ayni paytda u uni to’qib to’ldiradi, ayrim lavhalarni takomillashtiradi, o’z ertaklarini to’kiydi, adabiy janrlarni (ertak, hikoya, she’r) farklay boshlaydi, tilning ayrim ifodali vositalarini ko’rishga kodir.
- Maktabgacha bosqichdagi kichik yoshli bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirishga oid pedagogik ishlarni ikki yo’nalishda olib borish lozim. 1- badiiy asarni yaxlit va tugallangan estetik ob’ekt sifatida kabul qilishni tashkil etish bilan. 2 - ayrim badiiy obrazlarni o’zgartirish va bir nechta obrazlarni sintez qilish jarayonida bolalarda tasavvurni rivojlantirish uchun zarur sharoitlar yaratish.
- Maktabgacha yoshdagi katta bolalarning (5-7 yosh) adabiy asarlarni kabul qilishlarida va tushunishlarida ularda kahramonlarga qayg’urish va hamdard bo’lish; vokealar zanjirini tiklash va asar ichida hamda asarlar o’rtasida turi xil mazmunli alokalar o’rnatish; kahramonlar xulk-atvoridagi ochik motivlarni ko’rish va tushunish kobiliyatlari paydo bo’ladi.
- Maktabgacha bosqichdagi katta yoshli bolalarning ruhiy rivojlanishidagi ikki karama-karshi tamoyilning ziddiyatli birikuvi ularning o’ziga xos xususiyatlari hisoblanadi: 1-yukori ijodiy salohiyat, 2-taklidchilik va me’riylikka intilish.
- Maktabgacha bosqichdagi katta yoshli bolaning badiiy asar bilan o’zaro hamkorligi uning estetik, bilish, ijtimoiy va nutqiy rivojlanish potentsialini amalga oshirish imkonini beradi.
- Dialog – maktabgacha bosqichdagi katta yoshli bolalar bilan pedagogik ishlarning yetakchi vositasi bo’lishi lozim.
- Badiiy adabiyot bilan tanishuv nutqni har tomonlama rivojlantirishga, ya’ni: tovush madaniyatiga, grammatik tuzilishiga, lug’atga, ravon nutqka ta’sir ko’rsatadi.

## NAZORAT SAVOLLARI:

- Bolalarni har tomonlama tarbiyalash deganda nimani tushunasiz?
- Bolalarni har tomonlama tarbiyalashda bolalar badiiy adabiyotining tutgan o’rnini anik adabiy misollar orkali tavsiflab bering.
- Bir yoshgacha bo’lgan bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish kerakmi? Nima uchun shunday deb o’ylaysiz?
- Bolalarga jamiyat va tabiat hayoti, insoniy his-tuyђular va o’zaro munosabatlar olamini badiiy adabiyotlar yordamida kanday qilib tushuntirish mumkin?
- Badiiy adabiyot asosida bolalarda kanday axlokiy sifatlarni shakllantirish mumkin? O’z javobingizni bolalar badiiy adabiyotining anik manbalari bilan asoslang.
- Ilk yoshdagi bolalarning bolalar badiiy adabiyotini kabul qilishining o’ziga xosliklarini tavsiflang.

- Bolalar bog’chasi va oila oldida ilk yoshdagi bolalarni adabiy rivojlantirish sohasida kanday asosiy vazifalar turibdi?
- Ilk yoshdagi bolalarni bolalar badiiy adabiyotlari bilan tanishtirishga doir pedagogik ishlar mazmuni va shart-sharoitlarini tavsiflab bering.
- Ilk yoshdagi bolalarda bolalar badiiy adabiyotiga nisbatan qaysii bilish va nutqiy kobiliyatlarini shakllantirish lozim?
- Ilk yoshdagi bolaning bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish dasturini o’zlashtirish darajasini tavsiflang.
- Bola o’z hayotining uchinchi yili oxiriga kelib adabiy rivojlanish borasida kanday ko’rsatkichlarni ko’lga kiritadi?
- Maktabgacha bosqichdagi kichik yoshli bolalarning yosh imkoniyatlarini tavsiflang.
- Maktabgacha bosqichdagi kichik yoshli bolalarni adabiy rivojlantirish vazifalarini hal etish uchun bolalar bog’chasida va oilada kanday pedagogik ishlar sharoitini yaratish zarur?
- Maktabgacha bosqichdagi kichik yoshli bolalarni qaysii asarlar bilan tanishtirish tavsiya etiladi? Janrlar: bolalar folklorining kichik shakllari, ertak (xalq va mualliflik ertaklari), she’rlar, hikoyalar orkali tarbiyalash Dasturi asosida 3-5 yoshli bolalarni rivojlantirish mohiyatini belgilang.
- Bola 5 yoshga kelib adabiy rivojlanishning kanday ko’rsatkichlariga ega bo’ladi?
- Maktabgacha bosqichdagi katta yoshli bolalarning adabiy asarlarni kabul qilishlari va ular bo’yicha mulohaza yuritishlarining o’ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
- Maktabgacha bosqichdagi katta yoshli bolalarni adabiy rivojlantirish vazifalarini siz kanday tushunasiz, anik misollar orkali izohlab bering.
- Bolaning badiiy asar bilan kachon, kaerda va kanday hamkorligi unga estetik, bilish, ijtimoiy va nutqiy rivojlanish borasidagi potentsialini amalga oshirish imkonini beradi?
- Maktabgacha bosqichdagi katta yoshli bolalarni adabiy rivojlantirish uchun bolalar bog’chasida va oilada kanday sharoitlar yaratish zarur?
- Nima uchun dialog maktabgacha bosqichdagi katta yoshli bolalar bilan pedagogik ish olib borishning yetakchi vositasi bo’lishi lozim?
- Pedagogning bolalarning ijodiy rivojlanishiga ta’sirini tavsiflab bering.
- Maktabgacha bosqichdagi katta yoshli bolalarning adabiy rivojlanish ko’rsatkichlarini tavsiflang.

**Adabiyotlar:**


Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. T., «SHarq», 1997y.

Qodirova F.R., Qodirova R.M. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. T., 2006.

Vыgotskiy L.S. Mыshlenie i rech. (Asarlar to’plami. 3-jild. M., 1982).

Gvozdev A.N. Voprosы izucheniya detskoy rechi. M., 1961

Zvegintsev V.A. YAzыk i lingvisticheskaya teoriya. M., 1973.

Jumasheva G.X. Formirovanie osnov kulturы obщeniya doshkolnikov na karalpakskom yazыke v usloviyax dvuyazыchiya sredstvami teatralizovannыx igr. Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati, T., 1996.

Kadыrova R.M. Obuchenie detey doshkolnogo vozrasta russkoy razgovornoy rechi v natsionalnыx detskix sadax Uzbekistana. T., «O’kituvchi», 1992.

Kadыrova R.M. Obuchenie detey 5-6 let dialogicheskoy rechi na russkom yazыke v detskix sadax i shkolax Uzbekistana. T., «O'kituvchi», 1992.

Kadыrova R.M. Formirovaniya internatsionalnыx i patrioticheskix chuvstv u doshkolnikov i shestiletok-uchaщixsya v protsesse obucheniya ix russkoy razgovornoy. Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. T., 1990.

Kadыrova F.R. Didakticheskie igrы v obuchenii detey russkoy razgovornoy rechi na materiale Uzbekistana. Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati, 1989.

Kadыrova F.R. Didakticheskie igrы dlya obucheniya detey russkomu yazыku. T., «O'kituvchi», 1992.

Koltsova M.M. Dvigatelnaya aktivnost i razvitie funktsiy mozga rebenka. L., 1975.

Karpova S.N. Osoznanie slovesnogo sostava rechi detmi-doshkolnikami. M., 1968

Negnevitskaya ye.I., SHaxnorovich A.M. YAzыk i deti. M., «Nauka», 1985.

Nutqni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi kursiga oid namunaviy dastur. R.M.Kodirova, T., 2000.

Nikolskaya A.V. Obuchenie detey russkoy razgovornoy rechi. T., 1961.

Obщenie i rech: razvitie rechi u detey v obщenie so vzroslыmi (pod redaktsiey M. I.Lisinoy). M., «Pedagogika», 1985.

Razvitie rechi detey doshkolnogo vozrasta (F.A.Soxina tahriri ostida). M., «Prosveщenie», 1976.

Tixeeva ye.I. Razvitie rechi detey. M., «Prosveщenie», 1972.

Qodirova F.R. Maktabgacha yoshdagi bolalarni chet tiliga o'rgatishning lingvodidaktik muammolari. J., «Pedagogik ta'lim», 2002, №2.

Kodirova R.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning psixologik omillari. Sarioђoch, 1998.

Kodirova F.R. Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni o'zbekcha so'zlashishga o'rgatish. T., «O'kituvchi», 1997.

Kodirova F.R. Maktabgacha yoshdagi bolalarni chet tiliga o'rgatishning lingvodidaktik muammolari. J., «Pedagogik ta'lim», 2002, №2.

Kodirova F.R. Ligvodidakticheskie osnovq obucheniya detey doshkolnogo vozrasta vtoromu yazыku. T., «Fan» 2005.